DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT

XABARSHÍSÍ

ISSN 2181-2268
2024/5

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ SPORT MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT UNIVERSITETI NÓKIS FILIALÍ

DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT XABARSHÍSÍ

Ilimiy-metodikaliq jurnal

JISMONIY TARBIYA VA SPORT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS

Scientific-methodical journal

№ 5

NÓKIS – 2024

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı

Bas redaktor: B.K.Erimbetov, pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, professor
Bas redaktor orınbasarı: I.M.Mambetnazarov, pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı

REDKOLLEGİYA AǴZALARI:

MATKARIMOV R.M. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor
ORAZOV Sh.B. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor (Qazaqstan Respublikası)
DUNAY V.I. – biologiya ilimleriniń kandidatı, docent (Belorus Respublikası)
ABILOVA G.J. – pedagogika ilimleriniń doktorı, docent
ALIMOV A.K. – ekonomika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent
AYTÍMBETOV M.Z. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent
BOLTABAEV M.R. – ekonomika ilimleriniń doktorı, professor
ELMURATOVA A.U. – psixologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent
ESIMBETOV A.T. – biologiya ilimleriniń doktorı, professor
JUMABAEV T.J. – psixologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı
KERIMOV F.A. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor
KELDIYOROV SH.E. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent
MAMUROV B.B. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor
MIRZANOV SH.S. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, professor
MIRJAMALOV M.X. – pedagogika ilimleriniń doktorı, docent
MATNAZAROV X.Y. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent
MAMBETOV B.J. – tariyx ilimleriniń kandidatı, docent
NURISHOV D.E. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent
PRIMBETOV A.A. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı
KOCHANOV D.E. – biologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent
REYMBAEVA R.S. – biologiya ilimleriniń kandidatı
SEYTMURATOV T.Sh. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı
TOXTABAEV N.T. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor
TOYLIBAEV S.M. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı
UTEMURATOV B.B. – tariyx ilimleriniń kandidatı
UTEBAEV T.T. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor
UTEPBERGENOV A.K. – biologiya ilimleriniń kandidatı, docent
XODJAYEV A. Z. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, professor
YUSUPOV G.A. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent

Juwaplı redaktor: A.Mambetnazarov

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde jılına 6 márte baspadan shıǵadı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciyalar agentligi tárepinen 2020-jıl 2-sentyabrde mámleketlik dizimnen ótkerilip, 1107-sanlı gúwalıq berilgen.

Redakciya mánzili: 230101, Nókis qalası, Qaraqalpaqstan kóshesi, 24-jay
Telefon: (+998-61) 224-27-73
e-mail: nashriyot@uzdjtsunf.uz

Jurnal Ózbekstan Respublikası Joqarı attestaciya komissiyasınıń 2023-jıl 30-sentyabrdegi 343-sanlı qararı menen 13.00.00 - Pedagogika (social pedagogika) ilimleri boyınsha dissertaciya jumısınıń tiykarǵı ilimiy nátiyjelerin baspadan shıǵarıw usınıs etilgen ilimiy jurnallar dizimine kiritilgen.

Jurnalda baspadan shıqqan maqalalardıń mazmunı, olarda keltirilgen maǵlıwmatlardıń durıslıǵına avtorlar juwapker. Avtorlardıń pikiri redakciya pikiri bolıp esaplanbaydı.

® Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı

R.Yernazarova[1] A.Alimbetova[2], L.Allambergenova[3]
Assistent[1], stajyor[2] Talaba[3]
UDK: 327. (3)

YANGI O‘ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yangi o‘zbekistonda professional ta’lim tizimidagi muammo va yechimlar hamda professional ta’lim tizimi holati, kasb ta’limni tashkil etishda mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalari aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, xalqaro standartlar, ta’lim, klassifikator, masofaviy ta’lim, elektron platformalar, ilmiy salohiyat.*

Аннотация: *В данной статье отражены проблемы и пути их решения системы профессионального образования в новом Узбекистане и состояние системы профессионального образования, существующие проблемы и недостатки в организации дистанционного обучения, их устранение и подготовка конкурентоспособных кадров.*

Ключевые слова: *компетентность, коммуникативная компетентность, международные стандарты, образование, классификатор, дистанционное образование, электронные платформы, научный потенциал.*

Abstract: *This article reflects the problems and solutions of the professional education system in the new Uzbekistan and the state of the professional education system, the existing problems and shortcomings in the organization of distance education, their elimination and training of competitive personnel.*

Keywords: *competence, communicative competence, international standards, education, classifier, distance education, electronic platforms, scientific potential.*

Kirish. So‘z boshi sifatida ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy bundan yuz yillar avval aytgan “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan iborasi ayni kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Darhaqiqat, dunyo bilan bo‘ylashishimiz uchun yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yurtimizda ta’lim tizimini isloh etishga katta e’tibor qaratildi va bugungi kunga kelib sohada ma’lum yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta’lim tizimida, xususan, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim turlarida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Qo‘lga kiritilgan yutuqlar o‘zimizniki. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda inson aqlu zakovatisiz o‘z o‘rniga ega bo‘lishi amri mahol. Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot yo‘liga nazar tashlasak, ularning aksari ilm-fan rivoji va iqtidorli yoshlari bilan shu darajaga yetganiga guvoh bo‘lamiz. Bugun katta moddiy boyliklarga ega o‘lkalar emas, iqtidorli va salohiyatli yoshlari bor davlatlargina chinakam farovonlikka erishmoqda. Shunday ekan, O‘zbekiston Respublikasida ham davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonining ijtimoiy yo‘nalishida amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida oliy ta’lim muassasalarida mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifasi belgilab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarorida “Ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish” vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF- 5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da “gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish” ko‘rsatib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan pedagogik tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, pedagogika fanida, ruhiy tahlilga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Bunday vazifalarning bajarilishida respublikamizning bir qator oliy ta’lim muassasalaridagi “Kasb ta’limi” yo‘nalishlarining mas’uliyati va o‘rni juda muhim. Bugungi ilm-fan, ishlab chiqarishning yuksak taraqqiyoti, kasb-hunar ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar ham oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan kasb ta’limi o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy ta’lim muassasalarida kasb ta’limi yo‘nalishlarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda ularning kasbiy tayyorgarligiga davlat hamda xalqaro mehnat bozori tomonidan qo‘yilayotgan talablar bilan faoliyat ko‘rsatib turgan kasb ta’limi o‘qituvchilari va ustalarining kasbiy-pedagogik mahorati orasidagi mavjud nomuvofiqliklarni bartaraf etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining metodik faoliyati va uni shakllanish jarayoni, metodologik asoslari xorijiy pedagog olimlardan Ye.V.Tkachenko, E.F.Zeer, N.S.Gluxanyuk, G.N.Jukov, N.I.Kravsov, A.K.Radchenko, N.E.Erganova, P.F.Kubrushko, V.P.Kosыrev va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Respublikamizda kasb ta’limining rivojlanish jarayoni va tendensiyalari, mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash mezonlari, bosqichlari va turlari pedagog olimlar A.R.Xodjabaev, R.X.Jo‘raev, U.Nishanaliev, U.I.Inoyatov, O‘.Q.Tolipov, Z.K.Ismailova, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, D.O.Ximmataliev, D.A.Mustafoeva va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan hamda rivojlantirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq xo‘jaligidagi hozirgi tarkibiy o‘zgarishlar kasb-hunar kollejlarida bozor talablariga mos yuqori malakali kichik mutaxassislarni tayyorlash vazifasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Bugungi davr ishchilari o‘z kasbi bo‘yicha chuqur bilimli, yuqori malakali, yuksak mahoratli, zamon talablarining o‘zgarishiga moslashuvchan, o‘z malakasini oshirishga intiluvchan bo‘lishi talab etiladi. Respublikamizda professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tashkil etiladi.

Kasb-hunar ta’limining amaldagi holatida egallanadigan kasblarning murakkablik darajasi inobatga olinmagan bo‘lib, barcha mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qish muddati 3 yil qilib belgilangan.Endilikda esa tanlangan kasbning murakkabligiga qarab o‘qish muddati 6 oydan 2 yilgacha qilib belgilanishi nazarda tutilgan. Ayni paytdagi kasb-hunar kollejlariga faqat o‘rta

umumta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari qabul qilingan edi. Endi tashkil etilayotgan kollej va texnikumlarda esa bugunga qadar o‘rta maxsus yoki oliy ma’lumot olgan, harbiy xizmatga borib kelgan, ikkinchi mutaxassislikni egallamoqchi bo‘lgan, ishsiz qolish xavfi paydo bo‘lgan, qisqasi har qanday boshqa hunar o‘rganuvchi kishilar uchun ham ta’lim olish imkoniyati mavjud. Uzoq yillar davomida kasb-hunar kollejlari faqat kunduzgi ta’lim shakliga ega edi. Kelgusidagi kollej va texnikumlarda ta’lim oluvchilarga qulaylik yaratish maqsadida ta’limning kunduzgidan tashqari kechki va sirtqi shakllari ham yo‘lga qo‘yildi.Amaldagi kasb-hunar kollejlarida o‘quv jarayoni asosan o‘quv xonalarida nazariy ta’lim berish shaklida olib borildi hamda natijada yoshlar amaliyot jarayonlarida ko‘plab qiyinchiliklarga uchradi.

Rejalashtirilayotgan yangi tizimda kollej va texnikumlarning yo‘nalishi hamda ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqib, ta’lim mazmuni amaldagi ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi ko‘zda tutilgan. Tayyorlanadigan kasblar yo‘nalishlarining o‘quv rejalarida faqat umumkasbiy va kasbiy fanlar bloki qoldirilib, ushbu fanlardan amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq soat ajratilishi hisobiga nazariy ta’lim soatlari bir muncha qisqartilishi rejalashtirilgan.

Yangidan tashkil etiladigan professional ta’lim tizimi ta’lim muassasalarida milliy kvalifikatsion ramkalar belgilanadi va kasbga oid professional standartlar joriy etiladi. Professional standart deganda bitta ish o‘rni ishchidan qanday ko‘nikma va malaka talab qilsa, ushbu holat o‘rganilib, shu asosida modulli o‘quv rejalari ishlab chiqiladi.

Respublikamiz kasb-hunar ta’limi tizimidagi bunday o‘zgarishlar yurtimiz iqtisodiyoti barcha sohalarini rivojlantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Yangi turdagi professional ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarning o‘zlari tanlagan kasblari bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Kasb ta’limining hozirgi eng muhim muammolaridan biri – bu bitiruvchilarni ko‘p funksiyali adekvat kasbiy faoliyatga tayyorlash hisoblanadi.

Faqat kasb ta’limi yo‘nalishini bitirgan o‘qituvchilargina shunday insonlarning yetishib chiqishini ta’minlaydilarki, bunday insonlar kasbiy faoliyatda shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi o‘z o‘rinlarini topishda ijodiy izlanadilar.

Kasbiy pedagogik faoliyat murakkab ta’lim tizimi bo‘lib, o‘z navbatida yuqori darajadagi – “Kasb ta’limi” pedagogik tizimining bir qismidir. Kasb ta’limi o‘qituvchisi faoliyati kasb ta’limi tizimi tashkil etilgan davrdan to hozirgacha o‘z mohiyatiga ko‘ra ham, tashkil etuvchilarining hajmiga ko‘ra ham ajralib turuvchi murakkab ta’lim tizimi sifatida tadqiq etib kelinayotgan muhim muammo hisoblanadi.

Bizningcha, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarining kasb ta’limi (sohalar bo‘yicha) bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha amaldagi o‘quv rejalari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablarning bajarilishini yetarlicha ta’minlay olmaydi. Ularda asosan professional ta’lim muassasalarida yo‘nalishlar bo‘yicha kasbiy fanlardan nazariy mashg‘ulotlar olib boruvchi kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik faoliyatigagina mos keladigan kasbiy-pedagogik faoliyat e’tiborga olingan.

Bugungi kunda “Kasb ta’limi” (sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishini tugatgan pedagoglar professional ta’lim muassasalarida kasb ta’limi ustasi lavozimida ham faoliyat olib boradilar. Masalan, “Kasb ta’limi” (qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash) yo‘nalishini tugatgan pedagoglar umumkasbiy va kasbiy fanlardan kasb ta’limi ustasi chilangarlik ishi, elektrgazpayvandlash ishi, mashina-traktor agregatlarini tuzish va boshqalardan o‘quv amaliyotlaridan mashg‘ulotlarni olib boradilar. Ushbu o‘quv amaliyotlari asosan biror ish turini bajarishga oid amaliy xarakterga bog‘liq bo‘ladi. Bunda kasb ta’limi ustasi faoliyatida o‘quvchilarga ular egallashi lozim bo‘lgan kasbga xos xatti-harakatlar, usullarni eng qulay yo‘llar bilan o‘rgatish bo‘yicha metodik qobiliyatlar talab

etiladi.

O‘quvchilarning o‘z kasblarini har tomonlama chuqur egallashga erishishlari professional ta’lim muassasalaridagi kasb ta’limi o‘qituvchilari ayniqsa, kasb ta’limi ustalarining pedagogik tayyorligi va kasbiy mahoratlariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Aynan kasb ta’limi ustasi o‘quvchilarga ularning bo‘lajak kasblari sir-asrori bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashlarida bevosita yordam beradi. Shu sababli kasb ta’limi ustasiga kasbga o‘rgatuvchi o‘qituvchi sifatida u o‘rgatayotgan sohaning mohir ustasi bo‘lishligi katta ahamiyatga ega. Kasb ta’limi ustasi faoliyati o‘quvchilarning undan o‘zlari egallayotgan hunarlariga oid haqiqiy bilimlarni olayotganlariklarini qalbdan his qilganlaridagina samarali bo‘ladi.

Bugungi kundagi kasb-hunar kollejlarida kasb ta’limi ustasi lavozimida asosan oliy ta’lim muassasalarining kasb ta’limi yo‘nalishlari bitiruvchilari ishlamoqdalar. Tasavvur qiling: o‘rgatayotgan hunari bo‘yicha hali o‘zi yetarlicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lmasdan, unda bajariladigan xatti-harakatlar, usullarning mohir ustasi bo‘lmasdan turib, o‘quvchilarga u nimani va qanday qilib o‘rgata olishi mumkin? Balki ayni shu hol hozirgi kunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kasbiy tayyorgarligining yetarlicha emasligi, ularning o‘z kasblariga qiziqmayotganliklariga ta’sir etayotgandir? “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingunga qadar bo‘lgan davrda respublikamizda hunar texnika bilim yurtlarida asosan o‘sha vaqtlardagi industrial pedagogika texnikumlarini tamomlagan, o‘zi o‘rgatayotgan hunar bo‘yicha yetarlicha tajribaga ega bo‘lgan usta- hunarmandlar ishlab chiqarish ustasi lavozimlarida faoliyat olib borganlar.

Ularni tayyorlash o‘quv rejalarida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-amaliyot va malakaviy amaliyot soatlariga yetarlicha o‘quv soatlari ajratilgan bo‘lib, o‘zlari o‘rgatadigan payvandchilik, chilangarlik, haydovchilik, sozlovchi-usta va shu kabi kasblar bo‘yicha tegishli hujjatga ham ega bo‘lishgan. Demak, kasb ta’limi ustalari kasbiy fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishlari, pedagogik-psixologik bilimlarni egallagan bo‘lishlari bilan birga o‘zlari o‘rgatayotgan kasbning mohir ustalari bo‘lishligi talab etiladi. Ustaning kasbiy mahorati faqatgina o‘quv dasturlari doirasida chegaralanib qolishligi mumkin emas, uning kasbiy bilim, ko‘nikmalari juda ham keng va chuqur bo‘lishligi lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rolni ushbu jamiyatning kelajagi bog‘liq bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi o‘ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o‘zimizga tayanch deb bilamiz", dedilar davlatimiz rahbari. Ular mamlakatda yangi Uyg‘onish davrining poydevorini shakllantirish uchun yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalash uchun muhit va sharoit yaratish zarurligini ta’kidladilar. Professional ta’lim tizimini rivojlanish uchun, skills-training, mentorlik dasturlari kasbiy maqsadlaridan kasb ta'limida foydalanish loyihalari, stajyorlik imkoniyatlaridan keng foydalanish. Interaktiv va onlayn o‘qitish shakllari, amaliyot va dasturlar o‘quvchilarni texnik vositalarni o‘z ichiga olgan programmalar asosida ta’lim olishi yoshlarni mahalliy va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo‘lib rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son - https://lex.uz/docs/-5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son - https://lex.uz/docs/3171590

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi

oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son son Farmoni. – https://lex.uz/ru/doccs/4545884

4.Yensh E.R. Zur Eidetik und Integration Typologie, 1941. Filosofskiy ensklopedicheskiy slovar red.-sost. YE.F. Gubskiy i dr, 2003. – S.128.

5. Ochilov M. “O‘qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti” // “Xalq ta’limi” 1999-y, 6-son 32-35 betlar

6.Imomnazarov M, Eshmuhammedova M, “Milliy manaviyatimiz asoslari: (Oliy o‘quv yurtlari uchun ma’ruza matnlari)”// Tahrir hay’ati: H.S.Karomatov, N.Ibrohimov va b.; - T.: «Toshkent islom universiteti», 2001. -432 bet.

7.Saparbaevna, R. R., Allanazarovna, E. R., & Nawbahar, O. (2020). Physiological Ergogenic Medicines: Modern Trends Of Application In The Training Of Athletes. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.

8. Reymbaeva Roza, Ernazarova Raya, Joldasbaeva Gulchexra, & Allambergenova Laura. (2023). Handball efficiency in the system of physical education. Innovations in Technology and Science Education, 2(14), 721–725. Retrieved from https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1774

9. Roza, R., Talgat, K., Raya, E., & Aynura, P. (2023). The content and forms of support for professional self-determination of student teachers. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 273-279.

10. Saparbaevna, R. R., Erejepovich, K. D., Allanazarovna, E. R., & Sabitovna, P. A. (2022). Organization Of Rational Nutrition of Athletes in Training and Competitive Activities. Specialusis Ugdymas, 2(43), 3566-3568.

11. Saparbaevna, R. R., & Allanazarovna, E. R. (2020). Aspects Of Studying Snakes In The Fauna Of Uzbekistan. Solid State Technology, 63(6), 3765-3771.

12. Rahmonova, S. (2023). Yangi o‘zbekistonda ma’naviy-madaniy islohotlar. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.

13. Rahmonova, S. (2023). Yuksak ma’naviyatli avlod-uchinchi renessans bunyodkorlari. Наука и технология в современном мире, 2(3), 76-79.

Özbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
“Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı”
ISSN 2181-2268

O‘zbekistan davlat jismoniy tarbiyasi va sport universiteti Nukus filiali
“Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi”
ISSN 2181-2268

B.Bekniyazov[1], J.Abdiev[2]
O‘qituvchi, p.f.d. (PhD)[1], O‘qituvchi[2]
Muhammed al-Xorezmiy nomidagi Toshkent informaciya texnologiyaları universiteti Nukus filial
UDK 009

TARIXIY-MADANIY MEROSLARIMIZNING TA’LIM-TARBIYAVIY VA AXLOQIY MANBALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy-madaniy meroslarimizning ta’lim-tarbiyaviy va axloqiy manbalari, tarixiy yodgorliklardan topilgan moddiy madaniyat tahlili, buyuk allamolarning asarlarida yoshlarga kasb va hunar o`rgatishga bog‘liq muhim tavsiya va fikrlaridan bugungi ta`lim va tarbiya jarayonida foydalanish masalalari tahlil qilinadi.

Kalt so‘zlar: *Ta’lim-tarbiya, axloqiy an’analar, hunarmandchilik markazlari va ustaxonalari, «korxona», «tsex», maxsus ixtisoslashgan hunarmandlar guruhi yoki shirkatlar, hunarmandlar risolasi (ustavi), «ulfagar».*

Аннотация: *В данной статье будут проанализированы образовательно-воспитательные и нравственные источники нашего историко-культурного наследия, анализ материальной культуры, найденной в исторических памятниках, использование в современном образовательно-воспитательном процессе важных рекомендаций и мнений великих учёных по профессиональному обучению молодежи.*

Ключевые слова: *учебно-воспитательные, нравственные традиции, ремесленные центры и мастерские, «предприятие», «цех», группа или товарищество узкоспециализированных мастеров, брошюра (устав) ремесленников, «ульфагар».*

Abstract: *The article deals with the educational and moral sources of our historical and cultural heritage, the analysis of material culture found in historical monuments, the issues of using the important recommendations and options related to the teaching of professions and trades to young people in the works of great scholars in today’s education and training process.*

Keywords: *educational, moral traditions, craft centers and workshops, «enterprise», «workshop», a group or partnership of artisans with highly specialized craftsmen, brochure (charter) of artisans, “ulfagar”.*

Dolzarbligi. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya, axloqiy an‘analar har bir xalqning yashash tarzi, kasb-kori va asosiy mashg‘ulot turidan kelib chiqqan holda shakllangan. Ulkamizning tarixiy qal`alarida hunarmandlar va savdogarlar uyushgan guruh yoki qatlam tarzida alohida dahalarda joylashib, shaharlardagi har qaysi mahalla hunarmandchilikning alohida bir turi bilan mashg‘ul bo‘lgan. Daxalar ko‘pincha ularda istiqomat qiluvchi aholining kasbi bilan atalgan.

Xususan, Xorazmshohlar davrida arab muallifi al-Kurashi (XIII asr) ma’lumoti bo‘yicha «Xorazmda 50 ga yaqin ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari mavjud bo‘lgan» [5; 102]. Boshqa muallif Zakaria al-Kazvinining «Gurganj aholisi mohir hunarmandlar, ayniqsa, temirchilik, duradgorlik va boshqa hunarmandchilik sohalari zamonasida yuksak rivojlangan» - degan ma’lumoti ham arxeologik tadqiqotlar bilan mos keladi [5; 228].

Tadqiqot maqsadi. XI-XIII asrlar Xorazm yodgorliklarida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida ko‘plab shishasozlik ustaxonalari va mahsulotlar to‘plandi. Jumladan, Shohsanam (Quyisoy), Jigarband, Sadvar va Mizdaxqonda shishasozlik markazlari aniqlandi va ularning mahsulotlari ilmiy adabiyotlarda chop etilgan va qisqacha tavsiflangan [6; 92-95].

Mizdaqxondagi ilmiy tadqiqotlar (2005-2008 yy.) natijalari asosida o‘rta asrlar shishasozligi haqidagi ma’lumotlar yanada to‘ldiriladi. Bu yodgorlikda shishasozlar ustaxonasi aniqlangan.

Shishasozlik mahsulotlariga yupqa ishlangan deraza oynalari, dazmol, grafin, tabobat - atir-upa idishlari (flakon, kolba), siyohdon, tuvak shaklidagi buyumlar, vazalar, taqinchoqlar (mo‘nchoq, bilaguzuk) va sumaklardan iborat. Shisha mahsulotlarini qo‘llanish sohasiga ko‘ra oshxona buyumlari, dorixona – atir-upa, tibbiy-kimyo asboblari, deraza oynalari, bezaklar (uzuk va sirg‘a qoshi), taqinchoqlar (mo‘nchoq, tumor, bilaguzuk va haykal) deb bo‘lish mumkin.

Tadqiqot vazifalari. Xorazmshohlar davrida me’moriy inshootlar va turar joylar uchun mo‘ljallangan maxsus oynalar ham ishlab chiqarilgan. Rangdor oynalar (kulrang, qizil va jigarrang) tuynuklarga mo‘ljallab doira va ko‘p burchakli shakllarda tayyorlangan. Ularning ganch panjaralariga bekitilgan namunalari Zamaxshar, Mizdaxqon yodgorligida topilgan [7; 252]. Jampiqqal`a yodgorligining XI-XIII asrlarga tegishli madaniy qatlamlaridan topilgan va Xiva shahri Ichanqal`a muzeyi fondida saqlanayotgan O‘rta Osiyodagi noyob topilmalardan biri shisha dazmol (“moretosh”) bo‘lib, bu xorazmlik shishasozlar tovar mahsulotlarining xilma - xilligidan dalolat beradi [8; 91].

Umuman, o‘rta asrlarda shisha idishlar, tibbiyot anjomlari, taqinchoq - bezaklar, deraza oynalari tashqaridan keltirilmasdan, vohaning o‘zida, so‘zsiz, mahalliy sharoitda tayyorlangan. Idishlarning shakl-tamoyillari bir biriga o‘xshash bo‘lib, bu shisha ishlab chiqarish jarayoni Xorazmda markazlashgan ustaxonalarda amalga oshirilganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Yozma va arxeologik manbalarda XI-XIII asrlarga kelib Xorazmda temirdan mehnat qurollari (bel, kurak, bolta, arra, o‘roq), uy-ro‘zg‘or (pichoq, ko‘za, chiroq, qulf, mix), ot-ulov (egar-jabduq, suvliq, ot taqalari) va bezaklar ishlanib, ularning ma’lum qismi tashqi savdoga chiqarilganligi aytilgan [9; 188-190].

Mehnat qurollaridan bellar Yakka-Parson, To‘k qal`a (VIII-XI asr), Jigarband (XI asr), shimoliy-g‘arbiy Xorazm qishloq maskanlari, Akcha-Gelin atroflari (XI-XIII asr) va Talayxon Ota (XII-XIV asr) karvon saroyida qayd etildi.

Bellar to‘rt burchakli (I shakl), trapetsiya yoki konussimon (II shakl), tig‘i aylanasimon (III shakl) va kvadrat (IV shakl) turda bo‘lib, ular asrlar davomida mehnat faoliyati talablariga mos ravishda transformatsion o‘zgarishlarga uchrab kelgan. Jumladan, yuz qismi to‘g‘ri burchakli bellar Xorazm yodgorliklarida VII-VIII asrlardan ma’lum bo‘lib, Yakka-Parson topilmalarida uchraydi [10; 77]. Trapetsiya shakllidagi bellar IX-XI asrdan ma’lum bo‘lib, To‘k qal`a yodgorligidan topilgan [11; 54]. Tig‘ qismi aylana (oval) va kvadrat shakllidagi bellar (III-IV shakllar) asosan mahalliy sharoitda XI va XI-XIV asrlarda mavjud bo‘lgan, bu kabi bellar qishloq maskanlari (Akcha Gelin) [12; 135], dehqonchilik voha markazlarida (Jigarband, Mizdaxqon) [13; 166] qayd qilingan.

Topilmalarning bir-biriga o‘xshashligi, ko‘pligi Xorazmda XI-XIII asrlardan buyon temirchi ustalar guruhi mavjud bo‘lgan, degan fikrga olib keladi.

Yuqorida tarixiy yodgorliklardan topilgan moddiy madaniyatiga oid manbalarda yoshlarga kasb va hunar o‘rgatish ta’lim va tarbiyaning muhim va ahamiyatli bo‘g‘ini hisoblangan. Oilada bolaning yoshiga, jinsiga va tabiatiga qarab hunar o‘rgatish va kasbga yo‘naltirish qadimiy axloqiy an‘analardan biri sifatida qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Oilada o‘g‘il bolalarga avlod davomchisi, qizlarga esa bo‘lajak ona va sadoqatli uy bekasi, iffat ramzi sifatida tarbiya berilgan. Voyaga etish jarayonida o‘g‘il bola ota ta’sirida, qiz bola esa ona ta’sirida ulg‘ayganlar. Shariat va islomiy qoidalar bo‘yicha otaning farzand oldidagi burchi yaxshi nom qo‘yish, xushxulqli, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli qilib o‘stirish, kasb-hunarli qilish, o‘qitish, uylantirish, qizni esa turmushga chiqarrish kabi vazifalarni ado etishdan iborat bo‘lgan.

Bu esa qoraqalpoq xalqida yoshlarga tarbiya berish jarayonida hunar o‘rgatish muhim axloqiy mashg‘ulotlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu sababli xalqimiz hunar egasini e’zozlab, usta deya chaqirishadi. Tarixiy manbalardan ma’lumki, kasb-hunarli kishilarning hunar kuchi, yuksak axloqi, aql – idroki bilan hayotdagi turli mashaqqatlarni bartaraf qilishlari halq og‘zaki ijodiga

ko‘chib, afsonalashgan, ertaklarga aylangan.

Xalq hunarmandchiligida ustolarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarining mezoni bo‘lgan. Shu mezon asosida ustaga ijobiy va salbiy baho berganlar. Shuning uchun ota farzandini shogirdlikga berishdan oldin ustaning yuqoridagi mezonga javob bera olish-olmasligini o‘rgangan. Qo‘yidagi xalq maqoli bejiz aytilmagan:

Yomon ustaga berma shogird etib,
Buzar u, buzuq fe’lni o‘rgatib.

Hunarmandchilikdagi kasbiy axloq to‘g‘risida o‘rta asr axloqshunoslik va badiiy adabiyotida ma’lumotlar mavjud. Ulardan A.Navoiy zamondoshi Husayn Voiz Koshifiyning (1440-1505 yy) «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asaridagi ma’lumotlar alohida diqqatga sazovordir [3; 3-10]. Asarda muomala odobi, kiyinish odobi, mehmondo‘stlik, tanovul etiket iva kasbiy odob muammolariga ham batafsil to‘xtalib o‘tadi. Kitobning o‘n to‘rtinchi, o‘n beshinchi va o‘n oltinchi fasllari turli xil kasb egalari odobiga bag‘ishlangan. Masalan, o‘n to‘rtinchi fasl «kasb-kor va savdo tijorat odobi haqida» deb nomlanadi va umuman kasb egasi, ayni paytda, savdo-tijorat ahli odobi qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Koshifiy yozadi: «Bilgilkim, hamma kasblarga taaluqli qisqacha qoida adablar mavjud, shuningdek, har bir kasb uchun alohida odob ham bor». Shundan keyin mutaffakkir quyidagicha davom etadi:

«Agar barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosani nechta, deb so‘rasalar, sakkizta deb ayting: Birinchidan, o‘z kasbini haromdan, shubhali mol mag‘labdan pok saqlasin. Ikkinchidan, risqi ro‘zi zarurati uchun gina kerakli kasb bilan shug‘ullansin, kasbni mol dunyo to‘plashga sarflamasin. Uchinchidan, kasbni obro‘y olish, yaxshi nom chiqarishning sababi, deb bilsin. To‘rtinchidan, moli harom odamlar (poraxo‘rlar, qaroqchilar, o‘g‘rilar, qimorbozlar, kazzob do‘kondorlar) bilan muomala qilmasin. Beshinchidan, ishda kamchilikga yo‘l qo‘ymaydilar va tanlagan kasblariga befarq bo‘lmaydilar. Oltinchidan, mahsulotning asl bahosini bilmaydiganlarga to‘g‘ri muomala qiladilar. ettinchidan, agar oldi-berdi bilan bog‘liq bo‘lsa, kam bermaslik va ko‘p haqi olmaslikka intiladilar. Sakkizinchidan, agar ish hisob bilan bitadigan bo‘lsa, o‘z hissasini jamiyat hissasidan yuqori qo‘ymaslik kerak, chunki yurt farovonligi xuddi ana shu jamiyat jamg‘armasi tufayli yuzaga keladi».

Bundan tashqari, axloqshunoslikga doir manbalarda shogirdlikning axloqiy asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Ularda shogirdlikning asosiy xislatlariga rostgo‘ylik, vafodorlik, nasihatga quloq osish, ozor bermaslik va sir saqlash. Shogirdning eng asosiy xislati – poklik.

Xusayn Voiz Koshifiy shogird odobi haqida shunday deydi:

- Ustoz qabuliga kirganda yoki ko‘rganda, birinchi bo‘lib salom berish.
- Ustoz xuzurida kam gapirish va boshini oldinga egib turish, ko‘zni har tomonga yugurtmaslik. Agar masala so‘ramoqchi bo‘lsa, oldin ijozat olish.
- Ustoz javob aytganda, e’tiroz bildirmaslik.
- Ustoz oldida boshqalarni g‘iybat qilmaslik.
- O‘tirib- turishda hurmatni to‘liq saqlash.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoning tarixiy vohalaridagi hunarmandlari hamkasbiy uyushmalarga birlashishgan. Bu to‘g‘risida XIII-XIV asrlardagi mualliflardan Zakariyo al Qazviniy, ibn Battuta va Rashididdin asarlarida «korxona», «tsex» turidagi ustaxonalarning, maxsus ixtisoslashgan hunarmandlar guruhi yoki shirkatlar G‘arb davlatlaridagi kabi o‘z gerbiga, shirkatlik jamg‘armasiga, harbiy uyushmasiga ega bo‘lmasa ham, hunarmandlar an‘ana, urf-odatlar va axloqiy tamoyillariga asoslangan holda o‘z risolasi (ustavi)ga muvofiq bir-biriga o‘rtoqliq yordam ko‘rsatishgan. Jumladan, Xorazmda bitta kasbdagi hunarmandlar o‘zlarini «ulfagar» deb atashgan. Ulfagar arab-forscha «ulfat» (o‘rtoq, o‘rtoqliq), «kar» (kasb, ixtisoslik) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, «kasblik, o‘rtoqlik» degan ma’noni anglatadi. Bu O‘zbekistonning boshqa viloyatlaridagi hunarmandlar va mayda savdogarlar

birlashmasiga nisbatan ishlatiladigan «kasaba» atamasi bilan bir xil ma’noni anglatadi.

Har bir uyushma va shirkatning o‘ziga xos risolasi bo‘lib, unda kasbiy odob-axloq va ijtimoiy munosabatlarga oid tartib qoidalar mavjud bo‘lgan. Uyushma a’zolari vaqti-vaqti to‘planib turganlar.

XIX asr oxiri va XX asr boshiga oid manbalarda ko‘rsatilishicha, temirchilar, miskarlar, zargarlar, egarsoz ustalar, etikdo‘zlar va boshqa hunarmand ustalar o‘z risolalarini nashr ettirganlar [1; 1-7]. Risola faqat axloqiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmasdan, balki hunarmandchilik ustaxonalari va kasbiy bilimlarini rivojlantirish, asbob-uskanalar, mahsulotlarni ishlab chiqarish manbasi ham hisoblangan.

Hunarmandchilik risolalaridagi axloqiy kasb madaniyatining asosiy tamoiylari qo‘yidagilardan iborat:

- Hunarni jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish maqsadida o‘rganish;
- Mehnatsevarlik, halol mehnat qilish, mehnatsiz daromatdan qochish;
- Ustozlar an‘anasiga sodiq, intizomli bo‘lish;
- Bir ishni qiyomiga etkazmay, ikkinchi ishga o‘tmaslik;
- Rastgoy, aqlli, tadbirkor bo‘lish;
- Muvaffaqqiyotsizlikdan tushkunlikga tushmaslik.

Risola hunarmandlarning doimiy amaliy qo‘llanmasi bo‘lib, ustalar o‘z ishlarida risolada keltirilgan axloqiy amallarni to‘la bajarish shart hisoblangan. Risolasi yo‘q usta – hunarmandlar o‘z pirlari, payg‘ambarlari, avliyo va farishtalarining g‘azabiga duchor bo‘lishi ta’kidlangan.

XX asr boshida Xorazmda 32 ta shirkat ro‘yxatga olingan. Har bir shirkat (ulfagar) o‘zlari saylagan oqsoqoli-qalandariga ega bo‘lishgan. Qalandar nafaqat tashkiliy masalalar bilan shug‘ullangan, balki shirkatdagi axloqiy munosabatlar va qozilik ishlariga ham rahbarlik qilgan [2; 12]. Har xil marosimlarni tashkil qilish ishlari bilan qalandar yordamchisi shug‘ullangan. Paykal va qalandar kabi shirkatning umumiy yig‘ilishida shirkat a’zolari tomonidan tayinlangan. Qalandar xulq-atvorining to‘g‘ri kelmasligi yoki shirkat a’zolari talablariga javob beraolmagan holatlarda qayta saylangan. Ba’zan qalandarlik lavozimi otadan o‘g‘ilga meros o‘tgan (masalan, temirchilik shirkatlarida).

Xulosa. Demak, o‘rta asr hunarmandlari orasida keng tarqalgan risolalardan kasbiy odob mezonlari, hunarmandchilik sohalarining har tomonlama rivojlanishi va mahsulotlarni yuqori sa’nat darajasiga etishi uchun o‘z hunariga sodiqligini, qadimiy an‘analarni davom ettirish, ya’ni usta-shogird, hunar pirlari, payg‘ambarlari, avliyolari haqiga duolar qilish uchun axloqiy va amaliy qo‘llanma sifatida foydalanganlar. Shuningdek, hunarmandlar tomonidan tuzilgan uyushmalar va shirkatlar nafaqat iqtisodiy vazifalarni bajargan, balki hunarmandlar o‘rtasida axloqiy me’yorlar muvozanatini saqlab turuvchi ijtimoiy institut vazifasini ham bajargan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. – Ташкент, 1912.
2. Джаббаров И. Городской ремесло узбеков Хорезме в конце XIX и начале XX в. //Автореферат диссертации на соискание ученой степене кандидата исторический наук. – М.: 1954.
3. Ғуломов С., Булатов С. Шарқона «уста - шогирд» одоби. –Тошкент. «Ўзбекистон», 2000.
4. Турганов Б. Ўрта Осиёда ҳунармандчилик уюшмаларининг шаклланиши // Фан ва жамият. – Нукус. 2015. №1. –Б. 38-40.
5. Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов-Ануштегинидов. 1097-1231. -М.: «Наука». 1986.

6. Армарчук Е.А. Опыт классификации стекла средневекового Хорезма // Материальная культура Востока. – М., 1988.
7. Кдырниязов М.-Ш.Раскопки дома с производственным двором в Миздахкане// ИМКУ.-Вып.33. Ташкент: Фан, 2002.
8. Алиакберова А. Ремесленный комплекс Джанпык калы // Вестник КК ФАН РУз. - № 4. 1989.
9. Ал Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим // МИТТ.-Т.I. -М.:Л, 1939.
10. Неразик Е.Е. Раскопки Якка-Парсана// МХЭ.-Вып.7.-М.: Наука,1963.
11. Гудкова А.В. Ток кала.-Ташкент: Фан,1964.
12. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.).-М.:Наука,1976.-
13.Вишневская Н.Ю. Ремесленные изделия Джигербента (IV в. до н.э.- начало XIII в.н.э.).-М.: «Восточная литература», 2001.

R.Yernazarova[1], I.Utemuratov[2], K.Mambetkasimova[3], R.Atajanov[4]
Assistent[1,3,4],Stajiyor[2]
O‘zbekstan davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filial
UDK: 371. 035.9

HOZIRGI DAVRDA YOSHLARNI BARKAMOL SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM VA TARBIYANING UZVIYLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi davrda yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi hamda bugungi kundagi mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili shuningdek ushbu islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati hamda uning yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda o‘rni va roli tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *Barkamol shaxs, yoshlar, ta'lim va tarbiya, milliy iftixor, milliy g’urur, aksiglobalistlar, internet, ma’rifat.*
Abstract: *This article analyzes the continuity of education and education in the formation of young people as a harmonious person in the current period, as well as the analysis of reforms carried out in the educational system of our country today, as well as the importance of these reforms today and its role and role in the formation of young people as a harmonious person.*
Keywords: *Harmonious personality, youth, education and upbringing, national pride, national pride, aksiglobalists, internet, enlightenment.*
Аннотация: *В данной статье анализируется преемственность образования и воспитательной работы в формировании молодежи как гармоничной личности в текущий период, а также проводится анализ реформ, проводимых в системе образования нашей страны сегодня, а также важность этих реформ сегодня и их роль в формировании молодежи как гармоничной личности. молодые люди как гармоничные личности.*
Ключевые слова: *Гармоничная личность, молодежь, образование и воспитание, национальная гордость, самомнение, аксиглобалисты, интернет, просвещение.*

Kirish. Glaballashuv davrida yoshlarimizni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashimizda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana va marosimlar, ezgulik, tinchlik istagi, oila tuyg'usi, ota-onani ezozlash milliy iftixor, avlod-ajdodlari bilan faxrlanish, ochiq ko'ngillilik, diyonat kabi qadriyatlarning yoshlar ongi va qalbiga singdirilishida tayanch vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ana shunda etuk ma'naviyat sohibi bo'lgan yoshlar kelajakni oldindan ko'rishga, og'ir va murakkab sharoitlarda ham yuksak maqsadlar sari intilib yashashga qodir bo'ladilar. Ta'lim va tarbiyaning

o‘rtasida albatta farq bor. Ta'lim, tarbiyaning bir juz'idir. Tarbiya esa ta'limni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o‘z-o‘zidan ta'limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Islomiy tarbiyaning ma'nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o‘z ichiga oladi. Zotan, Alloh taolo insoniyatni yer yuzini obod qilish uchun yaratgan. Demak, u o‘zining vazifalarini ado etishi uchun har taraflama komil va yetuk bo‘lishi kerak. Buning uchun esa bizning dinimiz Islomda barcha ko‘rsatma va imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi, inson o‘zining oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish asnosida doimiy holda Allohga yuzlanib turishi tarbiyadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan pedagogik tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, pedagogika fanida, ruhiy tahlilga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ta'lim komil tarbiyaning bir juz'idir. U esa aqlni rivojlantiradi va sayqallashtiradi. Natijada u o‘z hayotida kerak bo‘ladigan ilmu ma'rifatni ashyolar to‘g‘risidagi turli ma'lumotlarni, kasbiy mahoratini yoki kasb va hunarlarga tegishli bo‘lgan fanlarni o‘rganadi. Lekin tarbiyaga o‘xshab keng qamrovli bo‘la olmaydi. Chunki ta'lim insonni ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarini birdek qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya doimo birga bo‘lishi talab etiladi. Bu haqiqatni esa Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflari orqali ham bilib olishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Abu Muso roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: «Alloh taolo Men orqali yuborgan hidoyat va ilmning misoli yerga yoqqan yomg‘ir kabidir. Yerning ba'zi joyi yaxshi ekan, suvni qabul qilib, ko‘plab nabotot va o‘simliklarni o‘stiribdi. Uning ba'zi joylari qattiq ekan, suvni tutib qolibdi. Bas, u bilan Alloh odamlarga manfaat beribdi. Ular undan ichibdilar, sug‘oribdilar va ekin ekibdilar. Yerning ba'zi joylari silliq ekan. Suv tutmas va ekin ham o‘stirmas ekan. Ana o‘sha xuddi Allohning dinida faqih bo‘lgan kishiga o‘xshaydi. Alloh men ila yuborgan narsa unga manfaat beribdi. O‘zgalarga o‘rgatibdi. Boshqasi o‘sha narsaga e'tibor bermagan kishiga o‘xshaydi. Yana biri esa, men ila yuborilgan Allohning hidoyatini qabul qilmagan odamga o‘xshaydi», dedilar». Ikki Shayx rivoyat qilishgan. Imom Qurtubiy (r.a) «Nabiy sollallohu alayhi vasallam o‘zlari orqali yuborilgan hidoyat va ilmni insonlar bir qo‘ltim suvga muhtoj bo‘lib turgan holatlarida yuborilgan yomg‘irga o‘xshatdilar.» Ha, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam yuborilishlaridan avval insonlar ana shunday muhtoj va nochor holda edilar. Osmondan yoqqan yomg‘ir o‘lik yerlarni tiriltirganidek diniy ilm va ko‘rsatmalar o‘lik qalblarni tiriltirdi. So‘ngra Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam eshituvchilarni yomg‘ir yoqqan har xil yerlarga o‘xshatdilar. Ularning ba'zilarini ilmga amal qiladigan olim hamda muallim, xuddi unumdor yer o‘rnida ko‘rdilar. Suvni ichadi, o‘zi foydalanadi va o‘simliklar o‘stirib boshqalarga ham foyda keltiradi. Ba'zilari esa zamonasidagi barcha ilmlarni egallaydi, lekin unga amal qilmaydi yoki unga muvofiq hayot kechirmaydi. Boshqalarga esa yetkazadi. Bu kishilar suvni o‘zida saqlab qolib odamlar undagi suvdan foydalanayotgan yerga o‘xshaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam bunday kishilar to‘g‘risida: «Mening so‘zimni eshitib boshqalarga xuddi shunday holatda yetkazgan kishini Alloh yorlaqasin», deganlar.Yana ba'zilari esa ilmni eshitadi lekin uni yodda saqlab qolmaydi, tafakkur va tadabbur ham qilmaydi. Boshqalarga ham yetkazmaydi. Bularning misoli qattiq silliq, o‘ziga hech narsani yuqtirmaydigan, suvni ham qabul qilmaydigan yer kabidir. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam ushbu hadisi shariflarida ta'lim va tarbiyani jamlab keltirdilar va bunda ilmga amal qiluvchi olim va muallimni eng oliy darajaga ko‘tardilar. So‘ngra, eshitgan narsasini ilm va yaxshilikni qanday eshitgan bo‘lsa xuddi shunday holatda boshqalarga yetkazgan olim va muallimni keltirdilar. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam bu ikki toifani ta'lim va tarbiyada ishtirok etganlari uchun madh etdilar. Uchinchi

toifani esa mazkur ishlarda ishtirok etmagani uchun qoraladilar. Agar ta'limni tarbiyadan ajratib qo‘ysa, ta'lim cho‘loq bo‘ladi. U holda ta'lim guyoki ma'lumotlar saqlanadigan quticha, idish va yana qandaydir narsaga aylanib qoladi. Natijada esa bu ma'lumotlar jamiyat uchun kerak bo‘ladigan komil insonni shaxsiyatini yetishtira olmaydi. Mana shuning uchun barcha ta'lim muassasalarida ma'lum bir yo‘nalish bo‘yicha ta'lim berish bilan birga tarbiyani ham berib ketish kerak, aks holda qanotsiz qush kabi parvoz qila olmaydi. Qush esa pavoziga qarab turib baholanadi. Bu borada diniy ta'lim berilayotgan muassasalarni alohida zikr qilib o‘tish kerak. Zotan, bu ilm ikki dunyoning obodliligiga tegishliir. Qolaversa, bu ilm bandani o‘z Robbiga ibodat qilib, bandachiligini izhor qilishni yo‘l-yo‘riqlarini qonunlarini o‘rgatadi. Albatta bu borada ta'lim bilan birgalikda xossatan ruhiy va aqliy tarbiya ishtirok etishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’rifat kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim tarbiyadir u tabiyat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Bugun rivojlanayotgan davlatimizga jahon mamlakatlari mutaxasislari bilan bemalol raqobatlasha oladigan intellaktual salohiyat egasi bo’ladigan ijodiy fikirlovchi ma’naviyati yuksak shaxslar zarurdir. Zero, Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning yurtimizda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish bilan bog’liq holda aytgan quydagi gaplari fikrimiz dalilidir:- «Ta’lim tizimining bosh maqsadi mustaqil fikirlaydigan avlodni shiddat bilan o’zgarayotgan global dunyo bilan ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatdagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqini ta’minlashdir. Yoshlar kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikirlamaydigan, o’rganishni o’rganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem bo’lishini tarix ming bir marta isbotlab bergan. Shunday ekan hozir bizga ta’limning yangi islohat kerak». Ma’naviyati yuksak shaxs har xil oqimlarga qo’shilmaydi, aniqrog’i jaholat ta’siriga berilmaydi. Ma’rifat inson ma’naviyatining cho’qisi bo’lsa jaholat uning aksi inson zotining zavoli kushandasidir. Ma’rifat orqaligina olamda rivojlanish bo’lgan. Odamlarning hayvondan farqi ham mana shunda ota-bobolarimiz bu borada qanchadan-qancha ishlar qilgan. Insoniylik nima ekanligini uqtirib ma’rifat sari yetaklagan. Oddiygina bir misol:-«Nuh payg’ambar zamonidagi o’g’il ota ustidan kulib yuzi qora bo’lgani va uning avlodi qarg’ishga uchrab qora tanli bo’lib yaralganligi aytilgan» ota-ona oldidagi farzandning burchi, farzand oldidagi ota-ona burchi buning dastlbki ko’rinishidir. Chunki to’g’ri tarbiyagina insonni inson qilib kamolatga yetaklaydi. Ming yillar avval shakillangan rivojlanishning poydevori bo’lib xizmat qilgan.

Ma’rifatparvarlik g’oyasi asosidagina shunday rivojlanish cho’qisiga yetishdik. Al-Beruniy, AT- Termiziy, AlXorazimiylar boshlagan va qon qonimizga singib ketgan ilm-u ma’rifat, madaniyat 77 sifatlarini hali ham o’rganib bo’lganimiz yo’q. Ma’rifat shakillangani sari odamlar johilligi ochiqchasiga ko’rina boshlagan hattoki dinlar aro ham bunday qusurlarga qarshi kurash boshlangan. Zardushtiylar «Avesto»sida musulmonlar «Quroni karimda» xirstiyanlar va buddaviylardagi hikmatlarda ham insoniylik qiyofasi ilm-u ma’rifatda yaqqol namoyon bo’lishi ko’rsatilgan. Bu fikr hech xayolimdan ketmaydi kitob o’qimagan kishining qalbi ojiz odamdan nima farqi bor. Ko’zi ojiz odam ma’rifatli bo’lsa u o’zini ojiz deb hisoblamasa ham bo’ladi. Ko’zi ochiq turib kitob o’qimasa hech qanday ma’rifatga ega bo’lmasa buning ko’zini qanday ochiq deb hisoblayman. Kitob insoniyat ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e’tiborga loyiq belgisi. Insoniyat yaratmishlari ichra takrorlanmas mo’jizadir. Manbalarda keltirilishicha Mir Alisher Navoiyning quydagi ruboiylari ham kitobga bag’ishlangan ekan: Jondan seni ko’p sevarmen, yey umri aziz Sondan senu ko’p sevarmen, yey umri aziz Har neniki, sevmak ondin ortiq bo’lmas. Ondan seni ko’p sevarmen,ey umri aziz. Kitobga muhabbat haqiqatdan maqtovga loyiq kitoblar faqatgina o’quvchilarning ma’naviyati, didi, dunyoqarashiga ko’ra tanlanadi xalos. Demak kitob eng olis va zimiston umir yo’llarida insonga nur bag’ishlab turuvchi sehrli mayoqdir. Lekin yurtimizdagi ko’pchilik yoshlar vaqtlarini qanday o’tkazishni bilmay eng bema’ni ish internet

tarmog’idagi eng ommalashgan Telegram tarmoqlari orqali har xil oqimlarga qo’shilib o’zlarining umirlarini zavol qilishayotgani hech kimga sir emas. Shunday insonlarni ko’rar ekanman qo’limga kitob olamanda o’z-o’zimga shunday deyman - Kim kitobni sevsa, unga mehr qo’ysa u hech qachon sodiq do’sti, xaloskor maslahatgo’yi quvnoq birodari, haqiqiy yupatuvchiga ehtiyoj sezmaydi. O’qish, o’rganish fikr yuritish bilan odam o’zini baxtiyor ovutadi va bo’sh vaqtini hamisha hatto taqdirning barcha kutilmagan sinovlarini oqilona yengib o’tadi. Vektor Gyugo aytganidek kitoblar, jonsiz ammo sodiq do’stlardir.

Mening nazarimda internet, kompyuter, televizor, radio XXI asrning barcha yuksak texnalogiyalari insoni kitob darajasida lazzatlantira olmaydi vaholanki, kitob mutolasi o’quvchi istaydimi yoqmi, yuksak badiy asar uni ma’lum voqealarga baho berish gina emas, balki o’sha baho berish yo’li haqida, hayotning asosi masalalari, uning maqsadi ma’nosi undagi adolat, nohaqlik va boshqalar haqida mulohaza yurutishga majbur yetadi. Demak taffakur yuksaladi, ma’naviyat oshadi inson borloqni anglab boradi. Kitobga mehr qo’ymagan, kitob o’qishni o’zining sevimli mashg’ulotiga aylantira olmagan kishilar hech qachon o’zini o’zligini anglay olmaydi. Zero sharq donishmadlar aytganidek-«Eng katta boylik bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros bu yaxshi tarbiya, yeng katta qashoqlik bu bilimsizlikdir». Bu bilan kitob orqali ruhimizni o’zligimizni anglamog’imiz kerak ekanligiga yana bir marta ishonch hosil qildik, asosiysi har qanday sharoitda jaholatga qarshi kurashning asosiy vositasi kitobxonlikdir. Ma’rifatli insonlar yoshlarni har xil balolardan asrashni biz insonlar shunday xislatga egamizki xar qanday davrada o’tirsak ham ma’rifatli inson bilan o’qimagan omi inson o’rtasidagi farqni uning gap so’zidan darxol bilib olamiz. Ma’rifatli insoning insonga ta’sir kuchi o’ta kuchli bo’ladi. O’ziga yergashtira oladi, ma’rifatimiz omi odam esa o’tgan ketgan narsalardan gap ochib zerikarli suhbatdoshga aylanib qoladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rolni ushbu jamiyatning kelajagi bog‘liq bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi o‘ynaydi. Davlatimiz siyosatining bosh maqsadi - yurtimizda yashayotgan har bir inson uchun munosib hayot sharoitini yaratish, tinch, osuda hayotimizni mustahkamlashdan iborat. Ta'lim muassasalarida barkamol shaxsni tarbiyalashda quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz: - o'quv maskanlari va talabalar turar joylarida yoshlarni etuk ma'naviy inson sifatida tarbiyalash maqsadida milliy-madaniy, tarixiy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruknidagi ijodiy kechalar, ma‟ruzalar va tanlovlar o‘tkazish; - milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy merosimizni aks ettiruvchi multimediya vositalaridan foydalanib, ularni sharhlab borish; - diniy bag'rikenglik, milliy totuvlik g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish maqsadida keng ko'lamli tadbirlar uyushtirish. Umumiy va maxsus bilimlarga ega, tafakkuri, madaniyati va ma'naviyati yuksak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lgan insonlargina jamiyatimizni yanada mustahkamlash va takomillashtirishga qodir bo„ladi. Yoshlar – har qanday jamiyatning ertasi. Zero, barkamol avlod va yuksak axloqli vatanparvar yoshlar bugunimiz va ertamizning haqiqiy davomchilaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son - https://lex.uz/docs/-5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son - https://lex.uz/docs/3171590

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son son Farmoni. – https://lex.uz/ru/doccs/4545884

4.Yensh E.R. Zur Eidetik und Integration Typologie, 1941. Filosofskiy ensklopedicheskiy

slovar red.-sost. YE.F. Gubskiy i dr, 2003. – S.128.

5. Ochilov M. “O‘qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti” // “Xalq ta’limi” 1999-y, 6-son 32-35 betlar

6.Imomnazarov M, Eshmuhammedova M, “Milliy manaviyatimiz asoslari: (Oliy o‘quv yurtlari uchun ma’ruza matnlari)”// Tahrir hay’ati: H.S.Karomatov, N.Ibrohimov va b.; - T.: «Toshkent islom universiteti», 2001. -432 bet.

7.Saparbaevna, R. R., Allanazarovna, E. R., & Nawbahar, O. (2020). Physiological Ergogenic Medicines: Modern Trends Of Application In The Training Of Athletes. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.

8. Reymbaeva Roza, Ernazarova Raya, Joldasbaeva Gulchexra, & Allambergenova Laura. (2023). Handball efficiency in the system of physical education. Innovations in Technology and Science Education, 2(14), 721–725. Retrieved from https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1774

9. Roza, R., Talgat, K., Raya, E., & Aynura, P. (2023). The content and forms of support for professional self-determination of student teachers. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 273-279.

10. Saparbaevna, R. R., Erejepovich, K. D., Allanazarovna, E. R., & Sabitovna, P. A. (2022). Organization Of Rational Nutrition of Athletes in Training and Competitive Activities. Specialusis Ugdymas, 2(43), 3566-3568.

11. Saparbaevna, R. R., & Allanazarovna, E. R. (2020). Aspects Of Studying Snakes In The Fauna Of Uzbekistan. Solid State Technology, 63(6), 3765-3771.

12. Rahmonova, S. (2023). Yangi o‘zbekistonda ma’naviy-madaniy islohotlar. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.

13. Rahmonova, S. (2023). Yuksak ma’naviyatli avlod-uchinchi renessans bunyodkorlari. Наука и технология в современном мире, 2(3), 76-79.

N.Suyarov
Dotsenti (PhD)
Namangan davlat pedagogika institut

Etnomadaniy kompetentsiyaning konteksti va ahamiyati: etnomadaniy kompetentsiya ta’rifi

Annotatsiya: *Etnomadaniy kompetentsiya - bu shaxslarning turli madaniy kelib chiqishi bo‘lgan odamlarni tushunish, hurmat qilish va samarali muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. O‘zaro bog‘liqlik kuchayib borayotgan dunyoda bunday kompetentsiyaga bo‘lgan ehtiyoj hech qachon bu qadar muhim bo‘lmagan. Ushbu maqola etnik-madaniy kompetensiyani belgilaydi, uning asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqadi va uning inklyuzivlikni rag‘batlantirish, madaniyatlararo muloqotni yaxshilash va madaniy tafovutlar orasida uyg‘un munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali shaxslar va tashkilotlar noto‘g‘ri qarashlarni kamaytirishga, hamkorlikni kuchaytirishga va global hamjamiyatlarni tavsiflovchi fikrlar xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘shishlari mumkin. Shunday qilib, etnomadaniy kompetentsiya ijtimoiy jipslashgan jamiyatlarni shakllantirish va hurmat va tenglik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Etnomadaniy kompetentsiya, madaniy kompetentsiya, xilma-xillik, madaniyatlararo muloqot, madaniy sezgirlik, madaniy xabardorlik.*

Аннотация: *Этнокультурная компетентность означает способность людей понимать, уважать и эффективно общаться с людьми разного культурного*

происхождения. Во все более взаимосвязанном мире потребность в такой компетентности никогда не была более важной. В этой статье определяется этнокультурная компетентность, исследуются ее ключевые компоненты и подчеркивается ее важность в продвижении инклюзивности, улучшении межкультурной коммуникации и развитии гармоничных отношений между культурными различиями. Развивая эти навыки, отдельные лица и организации могут внести свой вклад в уменьшение предрассудков, расширение сотрудничества и поддержку разнообразия мнений, которое характеризует глобальные сообщества. Таким образом, этнокультурная компетентность важна для формирования социально сплоченного общества и развития культуры уважения и равенства.

Ключевые слова: *Этнокультурная компетентность, культурная компетентность, многообразие, межкультурная коммуникация, культурная чувствительность, культурная осведомленность.*

Abstract: *Ethnocultural competence refers to the ability of individuals to understand, respect, and communicate effectively with people from different cultural backgrounds. In an increasingly interconnected world, the need for such competence has never been more important. This article defines ethnocultural competence, examines its key components, and highlights its importance in promoting inclusiveness, improving intercultural communication, and developing harmonious relationships across cultural differences. By developing these skills, individuals and organizations can contribute to reducing prejudice, enhancing collaboration, and supporting the diversity of opinion that characterizes global communities. Thus, ethnocultural competence is important in the formation of socially cohesive societies and the development of a culture of respect and equality.*

Key words: *Ethnocultural competence, cultural competence, diversity, intercultural communication, cultural sensitivity, cultural awareness.*

Kirish. Global tarmoqlarning tez kengayishi, migratsiya va aloqa turli madaniy guruhlarni har qachongidan ham yaqinroq aloqaga olib keldi. Madaniyatlar o‘rtasidagi bu o‘zaro ta'sir bir sektor yoki mintaqa bilan chegaralanib qolmaydi; balki ta'lim, biznes, sog‘liqni saqlash, siyosat va kundalik ijtimoiy munosabatlarga singib ketgan. Natijada, madaniy farqlarni tushunish va qadrlash muhimligi turli sohalarda ustuvor vazifaga aylandi. Madaniy sezgirlik, xabardorlik va madaniyatlar o‘rtasida samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan etnomadaniy kompetentsiya ko‘p madaniyatli muhitda rivojlanish uchun muhim vositadir.[1] Ushbu maqolada biz etnik-madaniy kompetentsiya nimani o‘z ichiga olishi, uning asosiy tarkibiy qismlari va hayotning turli jabhalarida, xususan, inklyuzivlikni targ‘ib qilish, madaniy tushunmovchiliklarni kamaytirish va turli guruhlar o‘rtasida mustahkam munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini o‘rganamiz.

Etnomadaniy kompetentsiya ta'rifi. Etnomadaniy kompetensiyani shaxslarning turli madaniyatlarga mansub odamlarni tushunish, hurmat qilish va ular bilan samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida aniqlash mumkin. Bu boshqa madaniyatlarning e’tiqodlari, urf-odatlari, amaliyotlari va ijtimoiy normalarini tan olish va o‘zaro tushunish va hurmatni engillashtirish uchun o‘z xatti-harakatlari va munosabatlarini moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Etnomadaniy kompetentsiya - bu odamlarga madaniy tafovutlar orasida harakat qilish va turli sharoitlarda tushunish ko‘priklarini qurish imkonini beradigan mahorat.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, etnik-madaniy kompetentsiya bir nechta asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Madaniy xabardorlik: Bu madaniy farqlar mavjudligi va bu farqlar odamlarning qadriyatlari, xatti-harakatlari va dunyoqarashiga ta'sir qilishi mumkinligini tushunishni anglatadi.[2] Madaniy xabardorlik - bu odamlar o‘zlarining madaniy kelib chiqishidan olib keladigan noyob istiqbollarni tan olish yo‘lidagi birinchi qadamdir.

Madaniy sezgirlik: sezuvchanlik o‘z madaniy o‘ziga xosligi va tarafkashliklari boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarga qanday ta'sir qilishi mumkinligini bilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u turli madaniyatlar ijtimoiy normalarni, tana tilini, muloqot uslublarini va boshqa xatti-harakatlarni qanday qabul qilishini bilishni talab qiladi.

Madaniy bilimlar: Bu komponent boshqa madaniyatlar, jumladan, ularning tarixi, an'analari va qadriyatlarini chuqur tushunishni o‘z ichiga oladi. Madaniy bilimlar odamlarga madaniyatlararo vaziyatlarga hurmat va empatiya bilan yondashishga yordam beradi, bu ularga mazmunli va hurmatli muloqot qilish imkonini beradi.[3]

Madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari: Ushbu ko‘nikmalar madaniy tafovutlar bo‘yicha samarali o‘zaro ta'sir qilish uchun zarurdir. Ular turli xil muloqot uslublarini tushunish, til to‘siqlarini hal qilish va og‘zaki bo‘lmagan signallardan to‘g‘ri foydalanishni o‘z ichiga oladi. Samarali muloqot tushunmovchiliklarni minimallashtirishni va dialogning samarali bo‘lishini ta'minlaydi.

Madaniy moslashuv: Moslashuvchanlik - bu madaniy kontekstlarga javoban o‘z xatti-harakatlari va kutishlarini o‘zgartirish qobiliyatini anglatadi.[4] Bu madaniy farqlardan o‘rganish uchun ochiqlikni va o‘zaro munosabatlarda moslashuvchanlikni talab qiladi. Moslashuvchan shaxslar boshqa madaniyatdagi odamlar bilan samarali va hurmatli aloqani ta'minlash uchun o‘z yondashuvlarini o‘zgartirishi mumkin.

Etnomadaniy kompetentsiyaning ahamiyati. Etnomadaniy kompetentsiyaning ahamiyatini, ayniqsa, yildan-yilga rang-barang bo‘lib borayotgan dunyoda ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Quyida etnik-madaniy kompetentsiya muhim bo‘lgan asosiy sabablardan ba'zilari keltirilgan:

Inklyuzivlikni rag‘batlantiradi: Etnomadaniy kompetentsiya turli millatdagi odamlar o‘zlarini qadrli va hurmatli his qiladigan inklyuziv muhitni targ‘ib qiladi. Shaxslar turli madaniyatlar bilan muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lsa, bu turli etnik, madaniy va tillarga mansub odamlar uchun tegishli muhitni yaratishga yordam beradi.

Madaniyatlararo muloqotni yaxshilaydi: Etnomadaniy kompetentsiya turli xil muloqot uslublari, tildan foydalanish va og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish orqali madaniyatlararo muloqotni sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu nafaqat tushunmovchiliklarni kamaytiradi, balki shaxsiy va professional kontekstdagi munosabatlarni yaxshilashga hissa qo‘shadigan mazmunli suhbatlarni ham rag‘batlantiradi.

Hurmat va tushunishni tarbiyalaydi: Etnik-madaniy kompetensiyaning mohiyatida boshqa madaniyatlarga hurmatni rivojlantirishdir. Odamlar boshqalarning madaniy farqlarini tushunib, hurmat qilsalar, ular ijobiy munosabatlarni shakllantirishlari va umumiy maqsadlar sari harakat qilishlari mumkin.[5] Bu ko‘p madaniyatli muhitda muvaffaqiyat uchun muhim bo‘lgan o‘zaro tushunish, ishonch va hamkorlikni rivojlantiradi.

Xurofot va kamsitishni kamaytiradi: noto‘g‘ri qarashlar ko‘pincha boshqa madaniyatlarni tushunmaslik yoki noto‘g‘ri ma'lumotlardan kelib chiqadi. Etnomadaniy kompetentsiya odamlarni boshqa madaniyatlarga ochiq fikr bilan yondashishga undash orqali stereotiplar va qarama-qarshilikni kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xurofotlarni tan olish va ularga qarshi kurashish orqali odamlar yanada adolatli va adolatli jamiyatlarga hissa qo‘shishlari mumkin.[6]

Global kompetentsiyani qo‘llab-quvvatlaydi: tobora globallashib borayotgan dunyoda biznes, ta'lim muassasalari va hukumatlar global miqyosda ishlaydi. Etnomadaniy kompetentsiya xalqaro miqyosda qatnashmoqchi bo‘lgan har bir kishi uchun juda muhim, chunki u ularni murakkab madaniyatlararo o‘zaro ta'sirlarni boshqarish vositalari bilan ta'minlaydi. Etnik-madaniy ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan global kompetensiya odamlarga turli bozorlarda samarali faoliyat yuritish, xalqaro jamoalar bilan hamkorlik qilish va innovatsiyalar va muammolarni hal qilishda madaniy xilma-xillik qiymatini qadrlash imkonini beradi.

Ijtimoiy hamjihatlikni o‘rnatadi: Turli jamiyatlarda etnik-madaniy kompetentsiyani

rag‘batlantirish katta ijtimoiy birlashishga olib kelishi mumkin. Shaxslarga madaniy tafovutlarni qadrlashda yordam berish orqali etnik-madaniy kompetentsiya jamiyat va birdamlik tuyg‘usini rivojlantiradi. Bu, ayniqsa, madaniy ziddiyatlar nizo va bo‘linishga olib kelishi mumkin bo‘lgan ko‘p madaniyatli jamiyatlarda muhimdir.

Etnomadaniy kompetentsiyani qo‘llash. Etnomadaniy kompetensiya faqat bir soha yoki kasb bilan chegaralanmaydi. Bu turli sohalarda muhim mahorat:

Sog‘liqni saqlash: Etnik-madaniy malakaga ega bo‘lgan sog‘liqni saqlash mutaxassislari turli madaniyatlarga ega bo‘lgan bemorlarga yaxshiroq yordam ko‘rsatishi mumkin. Bemorlarning salomatlik, kasallik va davolanish haqidagi madaniy e’tiqodlarini tushunish sog‘liqni saqlash bo‘yicha yanada shaxsiylashtirilgan va samarali echimlarga olib kelishi mumkin.[7]

Ta'lim: Sinflarda etnik madaniyatga ega o‘qituvchilar o‘quvchilarning xilma-xilligini hurmat qiladigan va nishonlaydigan inklyuziv ta'lim muhitini yaratishi mumkin. Madaniy jihatdan sezgir yondashuvni rag‘batlantirish orqali o‘qituvchilar ta'lim natijalarini yaxshilashlari va barcha o‘quvchilar o‘zlarini qadrli ekanligini his qilishlarini ta'minlashlari mumkin.

Biznes: Jahon bozorlarida faoliyat yurituvchi kompaniyalar etnik-madaniy malakaga ega xodimlardan foyda ko‘radi. Bu xodimlar turli jamoalarda ishlash, xalqaro muzokaralarni olib borish va turli madaniyatli mijozlar bilan muloqot qilish uchun yaxshi jihozlangan.

Hukumat va diplomatiya: Ko‘p madaniyatli yoki xalqaro muhitda ishlaydigan diplomatlar va siyosatchilar munosabatlarni o‘rnatish, samarali muzokaralar olib borish va turli madaniy istiqbollarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilish uchun etnikmadaniy malakaga ega bo‘lishni talab qiladi.[8]

Xulosa. Etnomadaniy kompetentsiya zamonaviy, o‘zaro bog‘liq dunyoda muhim mahoratdir. Madaniy xabardorlik, sezgirlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali odamlar inklyuzivlikni rivojlantirishi, tushunmovchiliklarni kamaytirishi va yanada uyg‘un va hurmatli jamiyatlarga hissa qo‘shishi mumkin. Madaniyatlar o‘rtasida samarali hamkorlik qilish qobiliyati nafaqat shaxsiy va professional o‘sish uchun foydali, balki global muammolarni hal qilish, tinchlikni mustahkamlash va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shunday qilib, etnik-madaniy kompetensiya globallashgan dunyoning tamal toshidir, bu erda madaniy xilma-xillikni tushunish va hurmat qilish muvaffaqiyat va uyg‘unlikning kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ariqovna M. G. Boshlang‘ich sinfdagi qizlaring etnik-madaniy kompetensiyasini shakllantirish usullari //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 15. – C. 383-386.
2. Paziljanova Z. Madaniyatlararo muloqotda madaniy shok masalalari //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 139-142.
3. Taxirovich S.N. et al. Badiiy tasvir vositalarida metonimiyaning lingvistik tavsifi //pedagogs jurnali. – 2023. – T. 34. – №. 3. – C. 42-45.
4. Saparbayevna J. N., Jo‘rayevna N. N. Yoshlar ta’lim-tarbiyasida madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish //pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 147-151.
5. Арзамасцева Н. Г. Формирование этнокультурной компетентности будущих учителей в контексте их профессиональной подготовки //Московский педагогический журнал. – 2012. – №. 3. – С. 15-18.
6. Toxirovich S. N. Visual arts teaching methodology and problems and solutions //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 569-571.

7. Вязникова Л. Ф., Кулеш Е. В. Принцип диалогичности в контексте становления этнокультурной компетентности учащихся в полиэтнической образовательной среде //Социальные и гуманитарные науки на Дальнем Востоке. – 2017. – Т. 14. – №. 4. – С. 52-56.

8. Султанбаева К. И. Формирование этнокультурной компетентности будущих педагогов в процессе изучения этнопедагогики //Проблемы современного образования. – 2021. – №. 1. – С. 87-95.

9. Скворцова Е. В. Этнокультурная компетентность сотрудников полиции //Психопедагогика в правоохранительных органах. – 2016. – №. 3 (66). – С. 15-19.

;

ANÍQ HÁM TÁBIYIY PÁNLERDI OQÍTÍW

A.Allambergenov
Nukus davlat pedagogika instituti akademik litseyi matematika fani o’qituvchisi

O‘QITUVCHILARNI ZAMONAVIY DASTURLAR ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya. *Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o‘ta qat’iy hamda murakkab talablar qo‘yilmoqda. Chunonchi murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to‘laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulotda ro‘y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal etuvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj ta’lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqazo etmoqda. Maqolada talabalarni zamonaviy pedagogik innovatsion dasturlar yordamida o`qitish masalalari muhokama etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiya, metod, o`qitish, texnologiya, zamonaviy dastur, dars, ta’lim.*

Аннотация. *На низших ступенях человеческой цивилизации деятельность, направленная на воспитание и воспитание человека, организовывалась на основе простых, очень простых требований, но сегодня к организации образовательного процесса предъявляются очень строгие и сложные требования. Например, социальная потребность в подготовке квалифицированного специалиста, умеющего работать со сложным оборудованием, обладающего способностью полностью понимать суть производственного процесса, позитивно решать возникающие проблемы даже в чрезвычайных ситуациях, требует организации образовательного процесса. на основе технологического подхода. В статье рассматриваются вопросы обучения студентов с помощью современных педагогических инновационных программ.*

Ключевые слова: *Инновация, метод, обучение, технология, современная программа, урок, образование.*

Abstract. *At the lower stages of human civilization, the activities aimed at educating and educating a person were organized on the basis of simple, very simple requirements, but today very strict and complex requirements are imposed on the organization of the educational process. . For example, the social need to prepare a qualified specialist who can work with complex equipment, has the ability to fully understand the essence of the production process, and positively solves the problems that arise even in emergency situations, requires the organization of the educational process on the basis of a technological approach. The article discusses the issues of teaching students with the help of modern pedagogical innovative programs.*

Key words: *Innovation, method, teaching, technology, modern program, lesson, education.*

Kirish. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan-texnika, texnologiyalar rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimning amal qilishga erishishdan iboratdir. Pedagogika fanida kun tartibiga «qanday qilib samarali va natijali o‘qitish kerak?», -shaklida muammosining qo‘yilishi ta’lim jarayonining texnologiyalashtirilishiga, ya’ni o‘qitishning kafolatlangan natijaga olib keluvchi texnologik jarayonga aylantirilishiga olib keldi.

Pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’limni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchi shaxsining ta’lim markazida bo‘lishi va mustaqil bilim olishini ta’minlash, o‘qitishning faoliyatli, rivojlantiruvchan, tashxislanuvchan va natijali bo‘lishigaxizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy o`qitish metodologiyasiga oid bir qator olimlar ishlar olib borishgan. Xususan, xorijiy olimlardan James Stewart, Calculus, Brooks, Erwin Kreyszig, N.P.Bali, P.N.Gupta, C.P.Gandhilarning ishlari, rus olimlaridan N.L. Loboskaya, V.P. Minorskiy kabilarning o‘quv adabiyotlari, respublikamiz olimlari B.Soatov, N.X. Ulug‘murodov, T.Azlarov, H.Mansurov, B.Abdalimov, N.X.Samigova, D.A.Sunatova, B.E.Temirova., Sh.R.Xurramov kabilarning tadqiqotlari, maqola, qo‘llanma va darsliklari, laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalari, metodik qo‘llanma, ko‘rsatmalari va usullari o‘rganildi [1-7].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ta’limning ilg‘or texnologiyalarini o‘rganish va o‘quv - tarbiya jarayoniga joriy etishni taqozo qiladi. Bu o‘z navbatida pedagog xodimlardan ta’lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egallashni pedagogik amaliyotda qo‘llash va rivojlantirishni talab etadi.

Texnologik yondashuv mavjud an’anaviy o‘quv jarayoniga faqat-kompleks tarzdagina emas, pedagoglar tomonidan o‘zlashtirilishi, metodik qo‘llanmalar, o‘quv-moddiy baza yaratilishiga qarab borqichma-bosqich, ayrim elementlari amalga oshirilaverishi ham mumkin. Bu birinchi navbatda pedagogik texnologiyaning muhim qismi - predmetlar va mavzular bo‘yicha ta’lim maqsadlarini aniqlash usullariga taalluqlidir [3].

Zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalanish talabalarning o‘quv bilish faoliyatini, o‘z-o‘zini o‘qitish jarayonini uzviy bog‘liq ravishda rivojlantiradi. Mavzu bo‘yicha mukammal bilimlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi va darslarda talaba mustaqil fikrlashni, o‘z fikrini erkin bayon qilishni, boshqalarning fikrini eshitishni va xulosa chiqarishni o‘rgatadi.

Ta’limning amalga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi [4]:

- ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi talaba shaxsi ustivorliginita’minlash;
- ta’lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;
- ta’lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- ta’lim mazmunini ta’minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalarning mustaqil fikrlashi, mavzuni o‘rganishda mavjud manbalardan to‘g‘ri foydalanishga va erkin mulohaza yuritishga imkoniyat yaratiladi. Shuningdek, talabalarning darsga qiziqishlarini oshirishga imkoniyat yaratiladi. O‘qituvchi darsda kuzatuvchi, boshqaruvchi vazifasini bajaradi. U darsga tayyorgarlik jarayonida izlanish, o‘rganish, yaratish orqali o‘z ustida tinimsiz ishlaydi. Bunday darslarda vaqtdan unumli foydalanish, maqsadga samarali erishish imkoniyati katta. Shu sababli bunday texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tadbiq etish o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi.

“Ishbop o‘yin ”metodi.

“Ishbop o‘yin ”-berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har-xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish metodi hisoblanadi. O‘yin faoliyati biror bir tashkilot sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitaqiya etish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Shuning uchun ham vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli xarakterga ega. Har bir

ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy vazifa bo‘yicha maqsadga erishish butun guruh a’zolari erishgan natijalarga bog‘liqdir. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

“Ishbop o‘yin ”metodining afzalliklari:

-talabalarning bilimlari va tajribalarini o‘z qarashlari va xulqlariorqali ifoda etishga yordam beradi;

- talabalarning boshlang‘ich bilimlari va tajribalarini safarbar etishuchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

-talabalar o‘z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarininamoyish etish uchun sharoit yaratiladi.

“Ajurli arra” texnologiyasi

“Ajurli arra” (fransuzcha “ajour” – “bir yoqdan ikkinchi yoqqa o‘tgan, ikki tomoni ochiq”) metodi talabalarga yaxlit muayyan mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritish imkonini beradi. Talabalar tayyor matnlar bilan ishlaydilar. Metodni qo‘llash tartibi:

1) o‘qituvchi talabalarni metod mohiyati bilan tanishtiradi;
2) ularni guruhlarga ajratadi;
3) o‘zlashtiriladigan material matni bir nechta qismlarga ajratiladi;
4) matnli materiallar joylashtirilgan paket guruhlarga tarqatiladi;
5) guruhlar matnlardan foydalanib, topshiriqni bajaradilar;
6) topshiriq bajarilgach, turli guruhlardan matnni yaxshi o‘zlashtirgan talabalardan iborat ekspertlar guruhi shakllantiriladi;
7) ekspert guruhi a’zolari o‘zlari o‘zlashtirgan material mazmunini boshqalarga yetkazish rejasini tuzadilar;
8) ekspertlar guruhi a’zolari o‘zlari o‘zlashtirgan material mazmunini boshqa guruhlarga ham o‘rgatadilar.

Natijada umumiy mavzuni yaxlitligi bo‘yicha o‘zlashtirish ta’minlanadi. Ekspertlar guruhining har bir a’zosi olingan axborotni ma’lum bir vaziyatda qo‘llay olishini ta’minlash uchun mavzu bo‘yicha biror muammoli vaziyat guruhlarga beriladi va har bir guruh ushbu muammoni to‘g‘ri yechimini topishi lozim. Muammo har bir ekspert guruhida muhokamadan o‘tkazilgach guruhlarning sardorlari muammo bilan guruhni tanishtiradi va uning yechimini ko‘rsatib beradi. Mashg‘ulot so‘ngida talabalar bilimini tekshirib ko‘rish va baholash uchun o‘rganilgan material bo‘yicha ekspress test o‘tkaziladi. Ajurli arra usuli yordamida talabalar o‘rganiladigan material bo‘yicha ma’lum bilimga mustaqil ega bo‘lishi, jamoa bilan ishlash malakasini olishi, axborot bilan almashish hamda jamoa bo‘lib qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Idrok xaritasi metodi.

Idrok xaritasi metodi mavzu yoki o‘quv materialini grafikli bayon etish usuli bo‘lib, axborotlarni tizimli, tartibli va vizual o‘zlashtirish imkonini beradi. Idrok xaritasi texnologik jarayonlarni amalga oshiruvchi murakkab tuzilmaga ega texnik qurilmalar qismlarining bir-biriga sabab oqibatli bog‘liqligini namoyish etish, ularni xotirada mukammal saqlab qolish, tizimlashtirishda samarali omil hisoblaadi. Unda tarmoq qanchako‘p bo‘lsa, bu o‘quv materialini batafsil tahlil etish, birinchi darajali o‘quv materialigi imkon qadar diqqat-e’tibor qaratilishini oldindan belgilab olish imkonini beradi. Boshqacha aytganda idrok xaritasi metodi kafolatlangan yakuniy natijani berish imkoniga ega.

• Qo‘llanilish maqsadi va shakli: ma’ruza mashg‘ulotlarida - yangi bilimlarni bayon qilish, jamoaviy;

• seminar mashg‘ulotlarida bilimlarni tekshirish, mustahkamlash,kichik guruhlarda;

• Mustaqil ta’limda – ijodiy ishlash, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish, individual;

“T-jadval” .

“T-jadval” graforganayzeri o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko‘p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi. Usulni qo‘llash tartibi:

1) talabalar e’tiboriga o‘rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi;
2) talabalar “T-jadval” metodini qo‘llash shartlari bilantanishtiriladilar;
3) talabalar guruhlarga biriktiriladilar;
4) ajratilgan vaqt oralig‘ida guruh (juft)liklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko‘ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradi, ya’ni jadvalning chap va o‘ng tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarni bayon etadilar;
5) guruhlar tomonidan to‘ldirilgan jadvallar o‘zaro solishtiriladi;
6) masalaning yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinib, yagona “T-jadval” shakllantiriladi.

Ushbu texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalarning mustaqil fikrlashi, mavzuni o‘rganishda mavjud manbalardanto‘g‘ri foydalanishi va erkin mulohaza yuritish, maqsadga samarali erishish imkoniyati katta.

Natijalar.

Yangi noan’anaviy usullar bilan dars o‘tish guruh talabalariga quyidagicha, ya’ni [10]:

-Erkin va mustaqil fikrlashga;
-Jamoa ichida o‘zini bemalol tutishga;
-Bilim doirasini kengaytirishga;
-Jamoat ishlarida aktiv qatnashishga;
-Nutqini va muomila madaniyatini o‘stirishga;
-O‘z fikrini erkin, mazmunli bayon etishga ta’sir etadi.

Bu usullar yana shunisi bilan afzalki, talaba o‘z fikrini yorita olmasa yonidagilar yordamlashadi, o‘qituvchi to‘ldiradi, talaba ko‘p tanbeh eshitmaydi. Biz o‘z darsimizga bu usullarni qo‘llashdan oldin guruh talabalariga har bir usulni qanday olib borish, boshlash va mohiyatinitushuntirishimiz kerak. Har bir usulni to‘liq va aniq chiqishi uchun beradigan savolimiz aniq va bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Interfaol o‘qitish usullarining turlari [8]:

Aqliy hujumi usuli. Bu usul muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta’lim oluvchilarni motivatsiyasini uyg‘otishdir.

Kichik guruhlarda ishlash usuli. Bunda guruhlar bilim darajasiga qarab, aralash va o‘zaro do‘stlar (dugonalar) bilan tuzilishi mumkin. Bunda o‘qituvchi qaysi usul optimal natijani bersa o‘sha guruhlarni tuzib ishlashilozim.

Rolli o‘yinlar usuli. Ishbilarmonlik, yoki roli (vaziyatli) o‘yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o‘rinda, matnli material o‘rniga talabalar tomonidan rollar o‘ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Namoyish usuli. Bunda ko‘rgazmali plakatlardan, kartoyakalardan, magnitafondan, lingafon kabinetlardan hamda televizor- videomagnitofondan keng foydalanishi mumkin. Bunda bilim, malakalar osongina ko‘nikmaga aylanadi. Unda talaba ko‘radi, eshitadi va kerakli ma’lumotlarni yozib olishi mumkin. Bu uch a’zoning aktiv faolligi dars samaradorligini oshiradi.

Loyihalash usuli. Bu usul bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi ta’limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Loyiha usulida talabalar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko‘proq ishtirok etadilar.

Tadqiqot usuli. Ta’lim oluvchilarning ayrim tadqiqot ishlarni, ya’ni diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishlari, ularni yozish va qo‘yilgan maqsad va natijalarni tahlil qilishlari tadqiqot usulidir.

Kitob bilan ishlash usuli. Ushbu usul ta’lim oluvchilarning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishini, o‘z-o‘zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini to‘liq va ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usuldir. Disskusiya, bahs-munozara usuli. O‘quv guruhini ikki komandaga bo‘lgan holda, biror mavzu bo‘yicha o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladi.

Leksiya usuli. Leksiyani malakali lektor o‘qiydi, leksiya eshitgan talabalarga shu mavzu haqida tushuncha hosil bo‘ladi va talabalar disskusiyaga oson kirishadilar.

Individual (amaliy) usul. Ta’lim oluvchilar faoliyatida olingan bilimlarini amaliy vazifani yechishga qaratadilar. Nazariy olingan bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishdir.

Konferensiya, matbuot konferensiyasi usuli. Bunda talabalar olib borgan ilmiy-amaliy ishlarini bayon qilib, doklad so‘ngida mazkur tadqiqotning natijasi analiz-sintez qilinadi.

Anketa usuli. Bunda talabalarga savollar majmuasi berilib, unga javob olinadi. Bunda talabaning bilimini, layoqatini sinash, temperamenti aniqlash va boshqa kerakli ma’lumotlarni olish mumkin.

Suhbat usuli, davra suhbati usuli. Ta’lim oluvchilar davra stolida o‘tirib, bir-birlarining savollariga konvert orqali javob yozishadi. Buo‘qitish va o‘qishning dialogik, savol-javob usulidir. Suhbat individual va guruh shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Boshqalarni o‘qitish usuli. Bu usulda ta’lim oluvchilar qo‘yilgan muammo bo‘yicha bir-birlariga axborotlar va ma’lumotlarni o‘rgatadilar.

Pinbord (inglizcha, pin–mustahkamlash, bord– doska) usuli. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda munozara, yoki o‘quv suhbati amaliy usul bilan bog‘lanib ketadi. Ta’lim oluvchilar axborotlari, ma’lumotlari doskada tartib bilan joylashtiriladi.

Video proektor bilan ishlash, multimediya usuli. Bunda o‘tiladigan mavzu video proektor, kompyuter va uning kerakli texnik vositalaridan unumli foydalaniladi.

Trening (mashq) usuli. Bu usul natijasida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakasi shakllantiriladi.

Monitoring (tahlil qilish) usuli. O‘tilayotgan mavzuni boshidan uni yorituvchi va unga yo‘naltiruvchi bir qancha savollar o‘rtaga tashlanadi. Hamma savollarga berilgan barcha javoblar tahlil qilinib, mavzuning mazmuni va maqsadi ochiladi.

Lektor tizimida o‘tish usuli. Bu esa masofadan turib o‘qitishda juda qo‘l keladi hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida uni qo‘llasak zamonaviy yetuk kadrlarga ta’lim berishda juda ko‘p har tomonlama qulayliklar keltirib chiqaradi. Buning natijasida ma’lum bir uzrli sabablarga ko‘ra malaka oshirish o‘quv yurtlariga kela olmagan tinglovchilar ham malaka oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Muammoli dars o‘tish usuli. Dars mavzusi o‘qituvchi yordamida yoritilayotganida o‘rtaga savollar tashlanadi va javoblardan foydalanib dars kerakli ma’lumotlar yordamida bayon qilinadi.

Tur usuli. Bu usul asosan talabalarni biroz jonlantirish maqsadida darsni boshi va oxirida qo‘llaniladi. Bu usullar noan’anaviy usullar bo‘lib, keyingi o‘n yilliklarda ta’lim jarayoniga kirib keldi.

Dasturlashtirilgan o‘qitish – bu dasturlashtirilgan o‘quv materialining o‘qituvchi vosita yordamida boshqaradigan o‘zlashtirishdir. Bu vosita EHM, dasturlashtirilgan darslik, kinotrenajer

va boshqalar,bo‘lishi mumkin. Dasturlashtirilgan o‘kuv materiali o‘quv axborotini bir necha uncha katta bo‘lmagan bo‘laklaridan («kadrlar», «fayllar», «qadamlar») iborat bo‘lib, ma’lum ketma-ketlikda taqdim etiladi. Uqitishning bu turi 50-yillarning boshlarida paydo bo‘ldi va amerikalik psixolog B.Skannerning nomi bilan bog‘liq. Dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi qo‘yidagi tamoyillarga ajraladi [6]:

-Boshqaruvchi tuzilmalarning ma’lum darajasidagi ierarxiyasi qo‘yidagi mas’uliyatli vaziyatlarda pedagog tizimni boshqaradi: fandan umumiy yo‘nalishni belgilash, fanga munosabat, individual yerdam va tuzatishlar kiritish;

-Pedagog va talabaga zarur bo‘lgan tezkor teskari aloqa, biriga o‘quv materialini tushunish uchun ikkinchisiga tuzatishlar kiritish uchun;

Teskari aloqa ikki xil shaklda amalga oshiriladi. Ichki va tashqi ko‘rinishda. Ichki teskari aloqa – talabaning o‘zi tomonidan bajariladigan,o‘quv materialining o‘zlashtirilishini muttasil tahlil qilib borish. Tashqi teskari aloqa – pedagog yoki boshqaruvchi – o‘qituvchi qurilma tomonidan o‘quv materialining talaba tomonidan o‘zlashtirilishini muttasil baholab borish;

-O‘quv materialini qadamlab beruvchi texnologik jarayon asosida ishlab chiqilgan o‘qituvchi dasturlar. Bu esa, o‘quv materiali dasturda alohida mustaqil, ammo o‘zaro bog‘liq qismlar ko‘rinishida shakllanishinianglatadi. Qadam o‘zaro bog‘lik uchta zvenodan iborat: Axborot, teskari aloqa elementi va nazorat izchil qadamli o‘quv amallari yig‘indisi o‘qituvchi dasturni - dasturlashtirilgan o‘qitish asosini tashkil etadi;

-O‘qitishning individualligini turli xil vaqtda bo‘lsa ham, o‘quv materialining to‘la o‘zlashtirilishi ta’minlanadi. Chunki o‘qitish, sur’ati, o‘quv materialining har bir talaba tomonidan o‘zlashtirilishiindividualdir;

-O‘qituvchi (o‘rgatuvchi) vositalardan foydalanish. Dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasining xususiyati shundaki, o‘quv materiali talabalar tomonidan nazorat topshiriqlarini o‘z ichiga olgan uncha katta bo‘lmagan bloklar bo‘yicha o‘zlashtiriladi;

O‘quv axborotining keyingi bloki oldingi blok o‘zlashtirilganidan so‘ng beriladi. Agar nazorat, o‘quv axboroti blokini o‘zlashtirilmaganligini ko‘rsatsa, uni o‘rganish takrorlanadi Qadamli dasturlar o‘qitishni algoritmlash –o‘quv algoritmlarini tuzishga olib keldi. Algoritm mustaqil o‘qitish vositasi yoki dasturlashtirilgan o‘qitishning bir qismi ham bo‘lishi mumkin. O‘qitishdagi dasturlash g‘oyasining turli xil ko‘rinishi, o‘qitishning bloki va modulli tizimlari hisoblanadi.

Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi -bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitishdir. O‘qitishning kompyuter texnologiyasiyangi informatsion texnologiyalarning bir turidir. Informatsion texnologiyalarda bundan tashqari boshqa informatsion vositalar (televidenie, video va boshqalar) ishlatilishi mumkin. Kompyuter texnologiyalar dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitishning mutlaqo yangi hali tasdiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikatsion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyotning ilmiy-texnik axborotning ko‘chkisimon o‘sishi bilan belgilanadi. Talabalarning individual qobiliyatlarini hisobga olib, imkoni boricha maksimal darajadagi axborotni o‘zlashtirish faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Mazkur o‘qitish texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi axborotlar kompyuterga kiritiladi: berilganlar axborot banki- bu darsliklar, o‘quv qo‘llanmalariga kiritilmagan axborotlarni kiritish, tizimlash, saqlash va uzatish texnologiyalari; bilimlar axborot banki – bu berilgan mavzu bo‘yicha yetarli axborotlarini o‘z ichiga olgan axborot tizimlari. Ya’ni o‘qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o‘quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajadaoshirishga erishishi mumkin.

O‘qitishning kompyuter texnologiyasi, kompyuterning inson individual qobiliyatlariga

mosligiga tayanadi. O‘qitish jarayonini optimal darajada tezkor boshqarish imkoniyati mavjudligi, bu o‘qitishning turining universal muloqoti ko‘rinishida ekanligi, psixologik qulayliklari, o‘qitishning cheklanmaganligi bilan ajralib turadi. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi mazmun jihatdan, kompyuterxotirasiga kiritilgan pedagogik dasturiy vositalar bilan farqlanadi.

Dasturiy vositalar mavzu, bo‘lim yoki butun o‘quv fani bo‘yicha tuzilishimumkin va u o‘quv materiali o‘zlashtirilishi diagnostikasi baholashni va monitoringini o‘z ichiga oladi. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi samaradorligi dasturiy vositalarning ishlab chiqilish darajasi bilan bir qatorda o‘quv jarayonini va ishchi o‘rinlarini to‘g‘ri tashkil etilganiga bog‘liq bo‘ladi. Kompyuterda o‘qitish texnologiyasida quyidagilar zarur bulib hisoblanadi: o‘qitish; muttasil ravishda kompyuter yordamida diagnostik testlar o‘tkazish; o‘quv maqsadlariga erishilganligini baholash.

O‘qitishning kompyuterli texnologiyasida o‘qitish siklining qayta takrorlanishi eng samarali ta’minlanadi. Bu o‘qitish texnologiyasida pedagogning funksiyasi qo‘yidagilardan iborat bo‘ladi: dasturiy vositalarni tayyorlash; o‘quv jarayonining (o‘quv jarayoni grafigi, diagnostika, nazorat) guruh, fan darajasida tashkil etish; ishchi o‘rinlarini tashkil etish, yo‘l-yo‘riqlar berish, tarmokni boshqarish; talabalar bilan muloqotda bo‘lish, individual o‘qitishni ta’minlash.

Xulosa va munozara. Ta’lim beruvchi texnikavositalari (kompyuterlar, elektron darsliklar, Internet tizimi va boshqalar) – o‘quv informatsiyasi (axboroti) bo‘yicha tinglovchilar tamonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni yetkazib beruvchi texnik vositalardir. Axborot beruvchi texnika vositalariga turli elektromexanik asboblar, mashg‘ulotda demonstratsiya qilinuvchi jarayonlarni ko‘rsata oluvchi demonstratsion ossillograflar va uning o‘lchov asboblari, shuningdek magnitafon, televizor, kinoproektor, dioproektor, kodoskopni hamda shunga o‘xshash kombinatsiyalangan televizion va videomagnitafon apparatlariga ega bo‘lgan tovushli kinoni kiritish mumkin. O‘quv jarayonlarida barcha fanlarni o‘qitish uchun videoproektor deb ataluvchi qurilma mavjud bo‘lib, bu qurilma yordamida foydalanuvchining kompyuter ekranidagi tasvir katta ekranga o‘tkaziladi va kursni eshituvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinib turadi, ularning bilim olish imkoniyatini kengaytiradi. Dasturiy ta`minotga asoslangan yangi innovatsion pedagogik texnologiya ta’lim jarayoni natijasida kutilishi lozim bo‘lgan(kafolatlangan) natijani olish imkoniyatini beradi. Bu element yangi pedagogik texnologiyaning markaziy g‘oyasi hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiya ta’lim jarayoni natijasida kafolatli bo‘lishini talab qilish bilan birga, jarayonning borishini ko‘zda tutilgan maqsadda amalga oshirilishi va natijali bo‘lishining maqsadli rejalashtirilishini o‘qituvchi oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Jarayon borishi davomida shu jarayon tahlil qilinib boriladi, tuzatishlar kiritiladi, qayta to‘ldirishlar amalga oshiriladi va oldindan kutilish rejalashtirilgan natijaolinishiga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xolmuxamedov M.M va bosh. Ta’limiy pedagogik texnologiyalar (uslubiy qo‘llanma) Samarqand – 2015 yil.
2. Avliyakulov N.X, Namozova T.N.Muammoli o‘qitish texnologiyalari. T.Fan va texnologiyalar. 2020
3. Saidaxmedov N.S. «Yangi pedagogik texnologiyalar», Toshkent, 2014 yil.
4. Ziyomuxamedov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o‘zbek modeli. /”Lider Press”, Toshkent-2019y.
5. Parpiev A., Maraximov A., Hamdamov R., Begimkulov U., Bekmuradov U., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta’lim texnologiyalari O‘zME davlat ilmiy nashriyoti. - T.: 2018, 196 b.

6. Tajiev M, Alimov A.Ya. va b. Pedagogik texnologiya- ta’lim jarayoniga tadbig‘i. /”Tafakkur”, Toshkent-2010y.

7. O‘rishov, A. N. (2021). Mobil ilovalar texnologiyasi va ulardan ta’lim tizimida foydalanish tamoyillari. Ekonomika i sotsium, 11.

8. Abduraimov, J. G‘., O‘rishov, A. N., & Gulboev, N. A. (2021). Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limni innovatsion boshqarishdagi o‘rni. Yangi o’zbekistonda islohotlarni amalga oshirishda zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, 165-168.

9. Paxrutdinov Sh.I. Globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda mediata’limning ahamiyati. – T.:—”Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali, 2017 yil 2-son, 116 b.

10. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda mediata’limga asoslangan “O‘qitishning besh pog‘onali metod”idan foydalanish orqali talabalar faolligini oshirish. Elektron ta’lim” – “Elektronnoe obuchenie” – “E-learning” September, 2022, No2, Vol. 4 ISSN2181-1199.

G.Genjemuratova
Organik va noorganik kimyo fakulteti
Kimyo fanari nomzodi, dotsent
Qoraqalpoq davlat universiteti

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ORGANIK KIMYO FANINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada organik kimyo fanidan darslarda integrativ, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish va samaradorlikni oshirish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Oliy ta’limda o‘qitiladigan ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlarini avtomatlashtirish maqsadida yaratilgan elektron darsliklarning roli va ahamiyati tajriba sinovlar asosida yoritilgan. Organik kimyo fanidan elektron darslik multimediya texnologiyalaridan foydalanish bilan bir qatorda o‘quvchi yoki talaba yakka tartibda foydalanishi uchun ham qulay bo‘lishi lozim.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion texnologiyalar, integrative yondashuv, elektron darslik, multimediya, vertual dars.*

Аннотация. *В статье представлена информация об эффективном использовании интегративных, инновационных технологий и повышении эффективности на уроках органической химии. На основе экспериментальных испытаний выделена роль и значение электронных учебников, созданных с целью автоматизации лекций и лабораторных занятий в высшей школе. Помимо использования мультимедийных технологий, электронный учебник органической химии должен быть также удобен для индивидуального использования студентом или студентом.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, интегративный подход, электронный учебник, мультимедиа, виртуальный урок.*

Abstract. *The article provides information on effective use of integrative, innovative technologies and increasing efficiency in organic chemistry lessons. The role and importance of electronic textbooks created for the purpose of automating lectures and laboratory exercises in higher education is highlighted on the basis of experimental tests. In addition to the use of multimedia technologies, the electronic textbook of organic chemistry should also be convenient for a student or student to use individually.*

Key words: *innovative technologies, integrative approach, electronic textbook, multimedia.*

Kirish. Fanning rivojlanishi bilan ta’lim tizimida o‘rganiladigan materialning murakkabligi oshadi, ma’lumotlar miqdori ortadi. Kimyo fanlari bo‘yicha amaldagi dasturlar talabalarga ko‘plab tushunchalarni o‘rganishni taklif qiladi, bu bizning ta’limimizning predmet-sentrizmi tufayli, ba’zida bilimlarning bir-biridan ajralibturadigan elementlari sifatida ishlaydi. Bu dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, madaniyatni organik idrok etishga to‘sqinlik qiladi va maktab bitiruvchisi dunyoqarashining parchalanishining sabablaridan biriga aylanadi.

Bu muammo bugungi kunda jamiyat talabiga mos sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etadi yangi ta’lim tizimini qurish ta’limning rivojlanish maqsadlariga e’tibor qaratiladi. Integrativ yondashuv rivojlantiruvchi ta’lim resurslaridan biridir va sifatni yaxshilash ta’lim jarayoni maktabda. Integrativ ta’lim g‘oyasi zamonaviy maktabning kontseptual g‘oyalaridan biridir [2].

Bugungi kunda jahonda ta’limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi yo‘nalishlarda ustuvor tadqiqotlar olib borilmoqda: o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash bo‘yicha konseptual loyihalashtirishga asoslangan yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositasi tuzilmasi bloklari mazmunini takomillashtirish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanib ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish; o‘qitishning kompyuter vositalarini yaratish nazariyasi va texnologiyasini yangi ilmiy- pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish; zamonaviy o‘qitish vositalarining ta’lim jarayoni sifatiga ta’sirini baholash metodikasini ishlab chiqish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanishning dasturiy-metodik ta’minotini yaratish. O‘qitishning an’anaviy texnologiyalari, shuningdek, ta’lim oluvchilarni o‘quv axborotlarini mustaqil izlash va tanlash jarayoniga faol jalb etish, amaliy kasbiy ta’limga tez moslasha olishini nazarda tutuvchi o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi ishlab chiqildi hamda undan oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak injener va qishloq xo‘jaligi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda kimyo va aniq fanlarni o‘qitishda foydalanishning didaktik imkoniyatlari asoslab berildi.

Болалар ва ўсмирлар спортининг ривожланиш динамикаси бир йилда икки марта ўтказиладиган тест натижалари бўйича кузатиб борилади. 12-16 ёшдаги шуғулланувчилар (U-12, U-16) Германияда спорт тиббиёти федерациясининг қатъий назорати остида бўлади. Ҳар бир ёш гуруҳи учун машғулот ўтказиш шакли ва юклама миқдори белгиланган ва қатъий тартиблаштирилган.

Германияда 20 та илмий тадқиқот марказлари фаолият кўрсатади ва булар давлат томонидан қўллаб-қувватланади. Бу марказлар халқаро даражадаги етук спортчилар учун зарур бўлган тўлақонли инфратузилмага эга: тегишли жиҳозлар билан таъминланган замонавий спорт иншоотлари, тўлиқ илмий ва тиббий хизматлар, спортчи ва тренерлар учун

таълим дастурларини амалга ошириш, қулай яшаш шароити ва турмуш тарзи воситалари. Бу барча таркибий қисмларнинг бирлашишига юқори спорт ютуқлари ва немис олимпия спорт кенгаши спортчилар заҳирасини тайёрлашнинг янги бошқариш модели йўналтирилган. Илмий тадқиқот марказларида юқори спорт ютуқлари бўйича нафақат педагогик тадқиқотлар, балки тиббий, ижтимоий, спорт тиббиёти, спорт биомеханикаси, ахборот технологиялари бўйича ҳам тадқиқотлар ўтказилади. Ўтказиладиган тадқиқотлар немис юқори спорт ютуқлари ва ёш спорт иқтидорлари эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда белгиланади. Шу йўл билан спорт тайёргарлиги ва спортчилар заҳирасини тайёрлаш бўйича илмий тадқиқотлар қўллаб қувватланади [2].

Ўзбекистонда спортчилар заҳирасини тайёрлаш. Ўзбекистонда спортчиларни тайёрлаш давлат бюджетидан молиялаштирилувчи спорт мактаблари, ихтисослаштирилган спорт мактаблари, олимпия ва паралимпия спорт турларига тайёрлаш марказлари ва олий спорт маҳорати мактабларида амалга оширилади. Давлат спорт ташкилотлари фаолияти Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 23 сентябрдаги 211-сонли “Спорт мактаблари фаолиятини ҳамда спорт мактаблари тренерлари ва мутахассислари меҳнатини моддий рағбатлантириш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарорига асосан тартибга солинади.

Спорт мактаблари, ихтисослаштирилган спорт мактаблари, олимпия ва паралимпия спорт турларига тайёрлаш марказлари ва олий спорт маҳорати мактабларида ўқувчи-спортчиларни кўп йиллик спортга тайёрлашни ташкил этиш барча босқичларда қуйидаги жадвалга мувофиқ амалга оширилади:

№	Спорт тайёргарлиги босқичлари	Босқичнинг асосий вазифаси	Тайёрлаш даври	Спорт мактаблари турлари		
				Спорт мактаби	Ихтисослаштирилган спорт мактаби ва олимпия захиралари ихтисослаштирилган спорт мактаби	Олий спорт маҳорати мактаби
1.	Спорт-соғломлаштириш	Ҳаракатланиш имкониятларини кенгайтириш ва ҳаракат фаоллиги танқислигини тўлдириш	бутун даврда	+	–	–
2.	Бошланғич тайёргарлик	Базавий тайёргарлик ва кейинчалик ихтисослашиш учун спортнинг муайян турини танлаш	3 йилгача	+	*	–
3.	Ўқув-машқ	Ихтисослашув ва спортнинг танланган тури бўйича чуқурлаштирилган машқ қилиш	5 йилгача	+	+	*
4.	Спортда камолотга эришиш	Спорт маҳоратини такомиллаштириш	3 йилгача	*	+	+
5.	Олий спорт маҳорати босқичи	Шахсий имкониятларни намоён қилиш	3 йил ва ундан ортиқ	–	*	+

* итисно тариқасида гуруҳ шакллантирилади.

Олий спорт маҳорати мактаби ўқув-машқ жараёнини ўтказиш билан биргаликда спортнинг тегишли турлари бўйича спортчилар тайёрлаш юзасидан спорт мактаби, ихтисослаштирилган спорт мактаби, олимпия захиралари ихтисослаштирилган спорт мактаби, олий спорт маҳорати мактаби ҳамда Республика олий спорт маҳорати мактабига илмий-методик раҳбарлик қилади ҳамда улар фаолиятини ахборотлар билан таъминлайди, белгиланган тартибда спортчилар, тренер-ўқитувчилар ва спорт соҳасидаги бошқа мутахассисларнинг малакасини ошириш тадбирларини амалга оширади.

Хулосалар

1. Ўтказилган таҳлил шуни кўрсатадики, ҳозирги кунда спорт ривожланган мамлакатларда спортчилар заҳирасини тайёрлашда асосий урғу жисмоний ва психологик сифатларни ривожлантиришга йўналтирилган машғулотларга берилади. Машғулотлар ўтказиш таркиби ва шакли қатъий тартиблаштирилган. Биринчи ўринда машғулот тузилишини услубий ишлаб чиқиш эвазига юқори даражада касбий маҳорат билан ўтказиш таъминланган. Алоҳида эътибор муҳим жисмоний сифатлар (чидамкорлик, эгилувчанлик, куч, координация ва шу каби) тайёргарлигининг индивидуал даражасига, психо-физиологик (психомоторика, диққат, ирода ва шу кабилар) қобилиятларга, ҳафталик микроциклда самарали жисмоний юкламаларни (кунига 6-8 соат ЮҚС 120 зар/дақ. дан кам бўлмаган) қўллаб-қувватлашга, соғлиқни сақлаш меъёрларига асосланган индивидуал ҳаёт тарзининг мавжудлигига қаратилади.

2. Спорт институтлари ва спорт тайёргарлиги марказлари фаолиятини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, юқори спорт ютуқлари соҳасида фаолият юритувчи мутахассислар спорт илмида спорт натижаларини яхшилашга олиб келувчи кенг кўламли илмий, илмий-амалий тадқиқотлар ўтказилиши зарурати мавжудлиги юзага келди. Бу тадқиқотлар тайёргарлик жараёнида спортчилар, тренерлар ва илмий ҳодимларнинг кундалик ҳамкорлиги билан асосланади.

Адабиётлар рўйҳати

1. Арансон М.В., Кофман Л.Б., Курашвили В.А. Информатика в современной спортивной науке // Вестник спортивной науки. 2013. № 2. С. 3-7

2. Bassett DR, Fitzhugh EC, Heath GW, Erwin PC, Frederick GM, Wolff DL, Welch WA, Stout AB. Estimated energy expenditures for school-based policies and active living. American Journal of Preventive Medicine. 2013;44(2):108–113

3. Claus Buhren. Aus dem Institut für Sportdidaktik und Schulsport der Deutschen Sporthochschule Köln. Sankt-Matthias-Schule in Bitburg. 2020

4. National Centre for Sport and Exercise Medicine (NCSEM). https://www.ncsem.org.uk/

5. Тарасова Л.В. Медико-биологическое обеспечение спортивного резерва за рубежом. Методические рекомендации. Москва-2021.

T.Djumaniyazova[1], Sh. Yuldashova[2], L. Kongratbaeva[3]
O‘qituvchi[1], Talaba[2,3]
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLLASHTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagogik tayyorgarligini takomilllashtirishning ijtimoiy pedagogik omillari bayyon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *fitnes aerobikasi, gimnastika, raqs elementlari, fitnes-fank, hip-hop, fitnes-stem, aerobik, fitnes-aerobika, akrobatik mashqlar, gigiyenik yo‘nalish, atletik yo‘nalish, turnkunst, izotonik mashg‘ulotlar*

Аннотация: *В данной статье описаны социально-педагогические факторы совершенствования педагогической подготовки будущих специалистов по физической культуре при организации занятий гимнастикой.*

Ключевые слова: *фитнес-аэробика, гимнастика, элементы танца, фитнес-фанк, хип-хоп, фитнес-стем, аэробика, фитнес-аэробика, акробатические упражнения, гигиеническое направление, спортивное направление, турнкунст, изотонические тренировки.*

Annotation: *This article describes the socio-pedagogical factors of improving the pedagogical training of future physical culture specialists in the organization of gymnastics classes.*

Keywords: *fitness aerobics, gymnastics, dance elements, fitness-funk, hip-hop, fitness-stem, aerobics, fitness-aerobics, acrobatic exercises, hygienic direction, athletic direction, turnkunst, isotonic training.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimiz sog‘lom hamda go‘zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish, mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish, insoniy qadrqimmatini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun intilmoqdalar. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olganligimiz, yoshlarimizning qo‘lga kiritayotgan yutuqlari, jahon yoshlari bilan o‘z bilimlari, iqtidorlari bilan yurtimiz bayrog‘ini yakdillik bilan ko‘tarayotganligi biz uchun quvonch eshiklarini, ma‘naviyat- ma‘rifat eshiklarini ochayotganligi ko‘zlarmizga quvonchga to‘ldiradi. Prezidentimizning bilim olishga da‘vatlari ortida katta bir yutuqlar, katta bir o‘zgarish, yangilanish asrini ko‘rdik. O‘zbekistonimizning 32 yilligini katta yutuqlar, zafarlar bilan nishonladik.

Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!‖ shiori biz o‘zbek xalqi uchun tinchlik, omonlik, yangicha qarashlar, yangicha g‘oyalar, yuksak cho‘qqi sari intilish uchun mayoqdir.Mustaqillik sharofati bilan faoliyat ko‘rsatayotgan ta‘lim muassalarida o‘zgarishlarni ko‘rib ko‘zingiz quvonmoqda. Mamlakatimiz jahonga yuz tutayotgan bir pallada mustaqillik bergan ne‘mat nashidasini surish naqadar go‘zal tuyg‘u. O‘zbek sportchilarining jaxon miqyosidagi ulkan g‘alabalari, xalqining mardligi, dehqonining mexnatkashligi, insonlar o‘rtasida ruhiy–ma‘naviy bog‘liqlikning naqadar teran ildiz otganligini ko‘rib, shukronalik hissi bilan yashash, qalbga vatan hissini jo etish, xotira, qadr, diniy, insoniy tuyg‘ularni yurakdan his etib yashash, xalqimizni shukur qilib yashashga undaydi.Mana shunday dolzarb vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirishda, yoshlarni ezgu xislat va fazilatlar egasi qilib, tarbiyalashga yaqindan yordam bergan buyuk allomalarimiz hayoti, ularning dunyo taraqqiyotiga munosib ulush bo‘lib qo‘shilgan ma‘naviy merosi, asarlaridan to‘laqonli foydalanish lozim.Mamlakatimizning turli hududlarida jahon

andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o‘quvchi va talaba-yoshlar o‘rtasida sport o‘yinlarining tizimli tashkil etib borilayotgani o‘z samarasini bera boshladi.

O‘zbekiston vakillarining Olimpiya o‘yinlari, Jahon chempionatlari, Osiyo o‘yinlari hamda halqaro musobaqalarda qo‘llari baland kela boshladi. Sport nafaqat jismoniy va ma‘naviy sog‘lomlik asosi, balki hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni turli zararli yot g‘oya va odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyati va iste‘dodlarini to‘la ro‘yobga chiqarish vositasi hamdir. Shu bois so‘nggi yillarda mamlakatimizda bu borada qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlar mashqlar shular jumlasiga kiradi. Yunonlar va rimliklar tarafdorlari o‘z harbiy kuchlarini oshirish va jangovarlikni oshirish maqsadida gimnastikaning jismoniy talablarini ishlab chiqqan. Misol uchun gimnastika bir askar mahoratini oshirishda gimnastika tayyorlarligidan tashqari baddiiy gimnastika harakatlarini (o‘yin kulgu) bilishi zarur bo‘lgan. Akrobatik mashqlar va arqon ustidagi mashqlarni darbadarlikda yurgan artistlar namoyish qilardilar. Uyg‘onish davridagi gumanistlar yoshlarni har tomonlama tarbiyalashga katta ahamiyat bera boshladilar. Gimnastika mashg‘ulotlarini ular insonning sog‘ligini mustahkamlash va jismoniy kuchini rivojlantirishning eng yaxshi usuli deb bilardilar. XVI asrda jismoniy tarbiyaga oid bir qancha asarlar paydo bo‘ladi. Shu sababli XV asrdayoq dvoryan yoshlar maktablarida ayrim gimnastika jihozlari va mashqlaridan foydalanilgan va ular keyinchalik sport gimnastikasiga asos bo‘lgan deb hisoblash o‘rinlidir. Qadimgi gimnastika o‘qitish va mashqlar maqsadiga ko‘ra u 3 asosiy qismdan iborat edi: ochiq o‘yinlar, bunda 1 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar ota-onalar yoki tarbiyachilar nazorati ostida ishtirok etishdi, shuningdek, kalestriya va orkestrni o‘rgatishdi. Jismoniy tarbiya doirasida o‘tkaziladigan bolalar o‘yinlari uchun mashqlar, to‘p, halqa, yugurish, nayza, disk uloqtirish va epchillikni rivojlantiruvchi boshqa mashqlar. So‘zning tor ma‘nosida qabul qilingan jismoniy tarbiya elementlariga davlat maktabi - palaestra (“palee” so‘zidan - kurash) o‘qitilgan. Bu nom 8-asrda turnir maydonchalari o‘rniga qurilgan dastlabki kurash zallari (palaestra) bilan bog‘liq. Mashqlar tizimi doirasida umumiy jismoniy tayyorgarlikning asosini kompleks test, pentatlon tashkil etdi. U an‘analarga ko‘ra yugurish (taxminan 192-196 m), uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish, disk uloqtirish va kurashni o‘z ichiga olgan. Palaestra bilan bog‘liq boshqa mashqlardan qo‘l jangi, mushtlashish, erkin kurash, kurash va tosh otish eng katta ahamiyatga ega edi. Bu maktab shuningdek, qurol bilan yugurishni, ot minishni, kamondan otishni, suzishni va hatto Spartadan tashqari, eshkak eshishni ham o‘rgatgan. Orkestr, qadimiy o‘tish marosimlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan marosim raqslaridan shakllangan, shu jumladan epchillikni rivojlantirish uchun zarur deb hisoblangan harakat san‘ati va mashqlar. Shu bilan birga, u palestraga kirish va qo‘shimcha mashg‘ulot bo‘lib xizmat qildi. U to‘p o‘yinlari va epchillikni rivojlantirish, akrobatik mashqlar, marosim, teatrlashtirilgan va jangovar raqslarni o‘z ichiga olgan. Mashqlarning rivojlanishini va ularning orkestr musiqasidagi farqini aniqlash juda qiyin, chunki mashqlarning saqlanib qolgan tasvirlari ularni amalga oshirish jarayonini emas, balki ularning mazmunini ifodalovchi momentni qamrab oladi. Shunga asoslanib, faqat orkestr tarkibida o‘qitiladigan to‘p bilan mashqlarda guruh o‘yinining elementlari yo‘qligini aniqlash mumkin. Raqs harakatlarining shakllari va ularning motivlari qabilalarning ovchilik an‘analarini, Egey madaniyati davridagi marosim raqslarini, shuningdek, atrofdagi xalqlarning urf-odatlarini aks ettiradi. Masalan, Ksenofont Krit naqshlarini, Gerodot esa o‘qlar bilan Efiopiya raqslarini nazarda tutadi. Oxirgi bayonotning tarixiy ahamiyati Gerodot tilga olgan o‘q raqslarini Efiopiya folklorida hali ham uchratish mumkinligi bilan ta‘kidlanadi. O‘yin, palaestra va orkestrika ham estetik ma‘noda go‘zallik ma‘nosidan iborat bo‘lgan yunon jismoniy idealini (kalogatia) yaratish vositasi bo‘lib xizmat qildi. Jismoniy tarbiyada kalogatiya - go‘zallik va yaxshilik tushunchasining jismoniy tomonini o‘z ichiga oladi. Bu davrda ―Kalos‖ (chiroyli) tushunchasi, birinchi navbatda, yengilmas erkak kuchini anglatardi.

Gimnastika‖ atamasi ilk bor qadimgi yunonlar orasida qadimgi yunon madaniyatining miloddan avvalgi 8-asrda paydo bo‘lgan. Gimnastika mashqlari qadimgi Yunonistonda jismoniy

tarbiya tizimining bir qismi bo‘lib, yoshlarni Olimpiya o‘yinlarida qatnashishga tayyorlash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Olimpiya o‘yinlari 1168-yil (miloddan avvalgi 776 - miloddan avvalgi 392 yillar) davomida o‘tkazilgan bo‘lib, ular kurash, nayza uloqtirish, disk uloqtirish, uzunlikka sakrash, yugurish, mushtlashish, aravada poygadan iborat edi. Bu o‘yinlardan ko‘zlangan asosiy maqsad yigitlarning harbiy tayyorgarligi edi. Ular qalqon bilan yugurishda, gantel bilan sakrashda, jang boksga aylandi, mushtlashish esa qattiq charm (yumshatmaydigan) bog‘ichlar yordamida bo‘lib o‘tdi. Gimnastika mashqlari qadimgi dunyoda shakllangan. Miloddan avvalgi 4000 yil davomida ko‘plab xalqlar, xususan, Xitoy, Hindistonda ular dorivor maqsadlarda ishlatilgan. Shunday qilib, o‘sha davrdagi Xitoy kitoblarida Xitoyda gimnastika bo‘lganligi ko‘rsatilgan, u ertalab va kechqurun uyda mashq qilingan. Hind tarixiy manbalarida (yodgorliklar, freskalar, rasmlar) tasvirlangan gimnastika mashqlari tizimi hozirgi kunda keng ma‘lum. Gimnastika mashqlarini barcha qadimgi xalqlar: misrliklar, forslar, yunonlar, kavkaz xalqlari, rimliklar va boshqalar qo‘llaganligi to‘g‘risida ko‘plab dalillar mavjud. Gimnastikaning ba‘zi anjomlari, masalan, ot antik davrda mavjud bo‘lgan. Gimnastika mashqlari chavandozlik mahoratiga yordam berish uchun otda bajarilgan.

Qadim zamonlarda gimnastika shifobaxsh maqsadlarda Hindiston, Xitoyda ham qo‘llanilgan, ammo u yerda ular ruhiy amaliyotlarga, o‘ziga xos butparast dinlarga (masalan, yoga kabi) aylandi va shuning uchun Gretsiya va Rimda bo‘lgani kabi ommaviy xususiyatga ega emas edi. Bu yerda gimnastika askarlarni tayyorlash yo‘nalishlaridan biri edi[4].

Y.A.Komenskiy, Jan Jak Russo, Pestalotstsi bularning jismoniy tarbiya sohasidagi xizmatlari shundan iboratki, ular gimnastikaning chinakam tiklanishiga turtki berdilar. Russo jismoniy mashqlar inson tanasini mustahkamlaydi va toblaydi, kuch va harakat imkoniyatlarini rivojlanishi uchun kerakli sharoit yaratib beradi, yashash uchun tayyorlaydi, aqliy kamol topishga hamda salomatligini mustahkamlashga yordam beradi, deb hisoblagan. Pestalotsi bolalarda mavjud bo‘lgan kuch va qobiliyatni mashq orqali rivojlantirishni jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi deb bilgan. Bo‘g‘in gimnastikasi harakatli o‘yinlar va qo‘l mehnati to‘ldirib borishi kerak bo‘ladi, deb ta‘kidlaydi. Albatta, bu bilan u bo‘g‘in mashqlarining ahamiyatiga haddan tashqari yuqori baho berib yuborgan edi, shunga qaramay u ishlab chiqqan uslub o‘sha zamon gimnastikasi uchun muhim ahamiyat kasb etgan va keng qo‘llanilgan.

Nemis olimi Guts-Muts ko‘pgina gimnastika mashqlarining, jumladan gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlarning texnikasini ishlab chiqdi. Bu mashqlarda harakat formasiga katta ahamiyat beriladi. Milliy gimnastika tizimining yaratilishi XIX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu ijtimoiy talablar oqibati edi. Urush qilish usullari bir vaqtda harakat qilishni, buyruqlarning aniq bajarilishini, jang maydonida saflanishlarni talab qilardi. O‘sha davr pedagoglari va shifokorlariga gimnastika yoshlarni jismonan tarbiyalashning birdan bir to‘g‘ri uslubi bo‘lib ko‘rinardi.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib, gimnastika taraqqiyotida uch yo‘nalish ko‘zga tashlana boshladi:

• gigiyenik yo‘nalish (gimnastika odamning salomatligini mustahkamlash va jismoniy kuchini rivojlantirish vositasi hisoblanardi);

• atletik yo‘nalish (gimnastika murakkab mashqlarni, shu jumladan, gimnastika jihozlarida bajariladigan mashqlarni qo‘llash yo‘li bilan insonning harakat sifatini rivojlantirish vositasi,- deb hisoblanardi);

• amaliy yo‘nalish (gimnastika urushda uchraydigan turli to‘siqlardan oshib o‘tishni askarlarga o‘rgatish vositasi hisoblanardi).

Nemis gimnastika tizimi. Napoleon qo‘shinlari Prussiyani egallab turgan davrda tarkib topa boshladi. Bu tizimning asoschisi F.Yan gimnastikadan mamlakatni bosqinchilardan ozod qilish maqsadida yoshlarga harbiy tayyorgarlik berish uchun foydalanishga intildi. Gimnastika

jihozlaridagi mashqlar va harbiy o‘yinlar bu tizimning asosini tashkil qilar, chunki ular, Yanning fikricha, odamning jismoniy kuchini rivojlantirib, irodasini mustahkamlar edi. U o‘zining gimnastikasini «turnkunst» (epchillik san‘ati), shogirdlarini esa Turnerlar‖ deb atadi. Keyinchalik nemis gimnastikasi Turnen‖ nomini oldi. Yan Frizen Eyzelen bilan birgalikda gimnastika mashqlari texnikasini ishlab chiqdi. Nemis gimnastikasi‖ darsligi nashr etilib, unda o‘sha vaqtda ma‘lum bo‘lgan jihozlarda bajariladigan hamma mashqlaming tavsifi berilgan edi. Mashqlarni bajarayotganda shug‘ullanuvchilardan boshni to‘g‘ri tutish, oyoq uchlari cho‘zilgan bo‘lishi, gavdani harbiycha to‘g‘ri tutish, to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakat qilish talab qilinardi. Mashg‘ulotlarda musobaqa usulidan foydalanilardi, bu esa shug‘ullanuvchilarning qiziqishini juda ham oshirar va ular bir xildagi mashqni behisob takrorlashga intilishardi. U davrda turli harakatlar kombinatsiyalari qollanilmas edi. Gimnastika shakllari shu jumladan, Turkiston xalqlari hayotida ham uzoq vaqtlardan beri mavjud bo‘lgan. Bayram shodiyonalariga, qiziqchilarga akrobatlarning chiqishlari ham qo‘shilib ketgan. Markaziy Osiyoda dorbozlar o‘z chiqishlarida gimnastik mashqlardan foydalanib kelishgan. Ko‘pgina polvonlar kurashga tushish oldidan mushaklarning chigilini yechish vositasi sifatida yengilroq toshlar bilan bajariladigan mashqlardan foydalangan. Deyarli barcha millat vakillari ot minish va chavandozlikni yaxshi ko‘rgan.Mashhur harbiy sarkardalar (Temur Malik, Amir Temur, Bobur) tayyorgarlik darajasini oshirishga intilishgan. Bu gimnastikaning taraqqiy etishiga turtki bo‘ldi. Ulug‘ jahongir Amir Temur o‘z qo‘shinlarini harbiy yurishlarga tayyorlashda to‘siqlarni zabt etish, qilichbozlik, nayzabozlik, narvonlar bilan qal‘alarni zabt etish, chopib ketayotgan ot ustida turli gimnastik mashqiarni bajarish majburiy bo‘lgan, shuningdek, suzish va boshqa gimnastik mashqiarni qo‘llagan. Bu mashqlar navkarlarni jismonan barkamol bo‘lishida katta samara bergan.Qadim zamonlardan aholi: turli xil jismoniy mashqlar, harakatli o‘yinlarni katta bayram va to‘ylarda tashqillashtirishgan. Navro‘z, Hosil bayrami va boshqa tantanalarda otda poyga, yugurish bo‘yicha musobaqalar, olomon-poygalar, chovgon o‘yinlari, dorbozlar chiqishlari kabi ko‘ngilochar tadbirlari muntazam ravishda o‘tkazilib turilgan. Abu Ali ibn Sino «Tib qonunIari»da jismoniy tarbiyaga katta e’tibor bergan. O‘z kitobida salomatlikni muhofaza qilish qoidalarini ko‘rib chiqar ekan, buyuk mutafakkir jismoniy mashqlarni soglomlashtirish va davolash amaliyotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida mukammal tarzda so‘z yuritadi. Ibn Sino olimlar orasida birinchi bo‘lib, jismoniy mashqlarni odam organizmiga ijobiy ta‘sirini «Uzluksiz chuqur nafas olish jarayonini keltirib chiqaruvchi erkin harakat – jismoniy mashq deyiladi», deb ta‘riflagan. Olimlarning raisi (Ibn Sinoni shunday deyishgan) ta‘kidlashicha, salomatlikni muhofaza qilish tartibida eng asosiysi badantarbiya mashqlari bilan shug‘ullanish, undan so‘ng ovqatlanish va uyqu tartiblariga rioya qilishdir.

Agar odam o‘z vaqtida me‘yorida badantarbiya mashqlari bilan doimo shug‘ullanib, kun tartibiga rioya qilsa, u hech qanday davolash chorasi va dori-darmonga ehtiyoj sezmaydi. Buyuk olimning yozishicha, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanmay qo‘ygan odamni sog‘lig‘i so‘nib, harakatlanishni to‘xtatish natijasida kuchi susayib boradi. Olimning fikricha, jismoniy mashqlar mushaklar, bo‘g‘inlar, asab tolalarini mustahkamlaydi, natijada insonlar o‘z ishlarini toliqmasdan uzoq muddatda bajarib, xastalikdan muhofaza etishadi. Ibn Sino jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanganda insonning yoshi va salomatiigini qay darajada ekanligini inobatga olishni ta‘kidlaydi. Tib qonunlari‖da bolalar, o‘smirlar, keksalar qachon va qay tarzda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi haqida ma‘lumot berib o‘tiladi. Ibn Sino mashqlarni boshlash va tugatish vaqti, uqalash, hammomda va sovuq suvda cho‘milish (chiniqish), tanani tozalikda saqlash va boshqa gigiyenik talablar haqidagi fikr-mulohazalari bugungi kungacha olimlar diqqat markazidadir. Pedagogik faoliyatning ilmiy tadqiqoti va bo‘lajak o‘qituvchilarni darslarni tashkil etish va o‘tkazishga tayyorlash bo‘yicha amaliy ishlar uchun Gimnastikaning sog‘lomlashtiruvchi turlari bo‘yicha maktab o‘quvchilari bilan ishlashda uning mohiyatini to‘g‘ri tushunish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning o‘ziga xos hodisasi va sharti sifatida

jismoniy madaniyat va sog‘lomlashtirish faoliyatiga xos bo‘lgan eng muhim, ob‘ektiv zarur narsalarni aks ettiradi, uning eng muhim xususiyatlarini, sabablarini va harakatlantiruvchi kuchlarini o‘zida mujassam etadi. Ob‘ektning mohiyatini aniqlash uning nima ekanligini topish va belgilashni anglatadi bu narsa boshqalar qatorida, uni boshqalardan nimasi bilan ajratib turadi va nima belgi bu ob‘ektni qanday bo‘lsa, shunday qiladi, bu belgi borliq deb ataladi. Har qanday ob‘ekt bir vaqtning o‘zida turli guruhlarga tegishli bo‘lganligi sababli, avvalo, ko‘rib chiqish istiqbollarini belgilab olish kerak, rejani amalga oshirish imkonini beradigan ilmiy-nazariy qarashning pozitsiyasi o‘rganilayotgan fanning muhim xususiyatlarini har tomonlama ochib beradi . Zamonaviy ilm-fan sog‘liq va farovonlik muammolarini isbotlaydi aholi sog‘liqni saqlash chegaralaridan tashqariga chiqadi. Zamonaviy tizimning xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan yosh avlod salomatligidagi salbiy tendentsiyalar haqida yangi ilmiy materiallar olindi; ta‘lim, birinchidan, o‘z sog‘lig‘ini loyihalash‖ni rag‘batlantirmaydi yoki o‘rgatmaydi, ikkinchidan, tabiiy ehtiyojlarga zid keladi va shaxs hayotida patogen omil hisoblanadi. Shuning uchun, javobgarlik ulushi bolalar va o‘smirlar salomatligi bilan bog‘liq vaziyat ta‘lim tizimi tomonidan o‘z zimmasiga oladi [5].

Jismoniy madaniyat muhim ijtimoiy hodisa sifatida zamonaviy jamiyatning barcha darajalarida namoyon bo‘lib, ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga va ayniqsa, insonning ta‘lim jarayoniga keng ta‘sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina olimlarning (V.A.Vishnevskiy, Yu.P.Lisitsin, L.I.Lubisheva va boshqalar) fikricha, jismoniy tarbiya salomatlik madaniyatini shakllantirishga, bevosita shaxs salomatligiga eng samarali ta’sir ko‘rsatadi . Inson salomatligi madaniyati deganda shaxsning ma‘lum darajadagi valeologik ta‘lim va shaxs rivojlanishi, sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash bo‘yicha insoniyat tajribasini o‘zlashtirish, sog‘lom turmush tarzini qabul qilish va har kuni saqlash bilan tavsiflangan murakkab tarkibiy shakllanishi tushuniladi. Shu bilan birga, zamonaviy maktab shakllanishining barcha bosqichlarida o‘quvchilarning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash masalalariga samimiy qiziqish mavjud edi. Agar dastlabki bosqichlarda bu qiziqish ko‘proq tor mutaxassislar tomonidan namoyon bo‘lgan bo‘lsa, endi ijobiy salomatlikni saqlash tashabbusi ta‘lim tizimiga tegishli [6].

Ta‘lim va sog‘liqni saqlash o‘rtasidagi bog‘liqlik L.I.Lubysheva, G.N.Serdyukovskaya va boshqalarning ko‘plab asarlarida qayta-qayta muhokama qilingan. Afsuski, ularda keltirilgan ma‘lumotlar zamonaviy maktab o‘quvchilar salomatligini pasaytirishning yetakchi omillaridan biri ekanligini ta‘kidlash imkonini beradi . Ko‘pgina tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta‘lim muassasalarida ta‘limning muvaffaqiyati hozirgi vaqtda o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish hisobiga, o‘quv vaqtining etishmasligi sharoitida o‘quv yuki hajmining oshishi hisobiga erishiladi. Aksariyat ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning uzoq vaqt o‘tirgan holatda o‘tirishi, jismoniy faolligi va toza havoda o‘tkazish vaqtining kamayishi bilan ajralib turadi. Bularning barchasi maktab o‘quvchilarining salomatlik holatining sezilarli darajada yomonlashishiga olib keldi. Bolalarning sog‘lig‘i holati va ta‘lim muassasalarining turlari bo‘yicha farqlar mavjud: umumiy ta‘lim muassasalarida, maktablarda, litseylarda. Salomatlik madaniyatini shakllantirish haqida gapirganda; yaqinlashish kerak; bu masalaga bir necha nuqtai nazardan: - birinchidan, o‘qituvchining o‘zida salomatlik madaniyatini shakllantirish; qaysi; eng katta darajada; bolada salomatlik madaniyatini shakllantirish uchun ta‘lim va motivatsiyani ta‘minlaydi; - ikkinchidan; - bolaning o‘zi uchun salomatlik madaniyatini shakllantirish. Shubhasiz; ruhiy va jismoniy salomatlikni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri ekanligi; bolalar: ratsional ijtimoiylashuv, oqilona; xapaкat; faoliyati, shuningdek: ko‘nikmalarni rivojlantirish) ijtimoiy muhitning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashish.

Xulosa. Salomatlik madaniyatini yuksaltirish tibbiyot xodimlaridan emas, balki o‘qituvchi va tarbiyachilar, jismoniy tarbiya sohasi mutaxassislaridan ko‘p bo‘lishi kerak. Hozirgi vaziyatda bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish katta ahamiyatga ega, buning natijasida ular tengdoshlari,

o‘qituvchilari, otaonalari va boshqalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ular turli ro‘l va funksiyalarni (shu jumladan, sog‘liqni saqlashni) o‘zlashtiradilar. Zamonaviy jamiyat. Jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining tabiati va uning umumiy foydalanish imkoniyati bolalarning sog‘lomlashtirish madaniyatini oshirish vositasiga aylanishi mumkin. O‘qituvchining yordami bilan ularni jismoniy faollik kayfiyatni yaxshilaydi, farovonlikni yaxshilaydi, tashvish, charchoq, tushkunlik va psixologik stressni engillashtiradi, bilim jarayonlarini rag‘batlantirishi mumkinligi haqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Afsuski, shuni ta‘kidlash kerakki, ko‘pchilik zamonaviy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayoni an‘anaviy ravishda jismoniy tayyorgarlikka, ishtirokchilarning jismoniy fazilatlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratiriladi, ya‘ni asosiy e‘tibor shaxsning biologik va funktsional rivojlanishiga qaratiladi. Bunday yondashuv bilan jismoniy madaniyatning keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan qiymat salohiyatidan to‘liq foydalanilmayapti. Shu bilan birga, turli ijtimoiy guruhlardagi bolalarning sog‘lig‘ining yomonlashishiga olib keladigan sabablar qatorida, ko‘plab mutaxassislar ish kunida ham, bo‘sh vaqtlarida ham jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun motivatsiya darajasining pasayishini ta‘kidlashadi. Ammo bu bolalar uchun motivatsiya, bu bolaning ta‘lim faoliyatidagi muvaffaqiyatining eng muhim shartlaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Iyengar G.S. Ayollar uchun, Yoga Pearl / G.S. Iyengar; qator ingliz tilidan S. A. Prilipskiy. - Rostov N/A: Feniks, Xarkov: FOLIO, 2006. - 448 b.

2. Alekseev A.V. Psixogogika. Amaliy ruhiy gigiena va psixologiya ittifoqi: "Ommaviy va olimpiya sportlarida ta‘lim texnologiyalari" seriyasi / A. V. Alekseev. - Rostov ¬N/D: "feniks", 2004. - 192 b. 3

3. Antonova M. E. Men nafas olaman - bu men yashayotganimni anglatadi. Strelnikova usuli: shifolash amaliyotlari / M. E. Antonova ¬-SPb.: Vektor, 2005.-96 b.

4. Aerobika: professional o‘qituvchilar uchun jurnal. - M.: ZAO —SportAcadem Press‖, 2000. - 29 b

5. Aerobik gimnastika. FIG musobaqalari qoidalari 2004-2008 yil

6. Aerobik gimnastika. FISAF musobaqa qoidalari 2006 yil.

J.Berdimuratova
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali

OLIY TA’LIM TIZIMIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARINING JISMONIY TARBIYA QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport fanini o‘qitishda bo‘lajak mutaxassislarining jismoniy tarbiya qadriyatlarini shakllantirish pedagogik xususiyatlari tadqiq etilgan. Oliy ta‘lim tizimida jismoniy tarbiyaning nazariy jihatlari va mohiyati o‘rganilgan, jismoniy tarbiyani rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning asosiy sanitariya-profilaktik yo‘nalishlari aniqlangan. Jismoniy tarbiya va sport fanini o‘qitishda talabalarda tarbiyaviy sifatlar va sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish, kognitiv, rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirish mexanizmlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, mashg‘ulotlar, bo‘lajak mutaxassislar, oliy ta‘lim, pedagogik faoliyat, sog‘lom turmush madaniyati, talaba.

Аннотация: *В статье исследуются педагогические особенности формирования ценностей физического воспитания у будущих специалистов при преподавании физической культуры и спортивной науки в высших учебных заведениях. В системе высшего образования изучены теоретические аспекты и сущность физического воспитания, определены психолого-педагогические основы развития физического воспитания, определены основные санитарно-профилактические направления организации занятий по физическому воспитанию. Выявлены механизмы развития учебных качеств и культуры здорового образа жизни у учащихся, реализации познавательных и развивающих задач в преподавании физического воспитания и спорта.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, спорт, подготовка, будущие специалисты, высшее образование, педагогическая деятельность, здоровый образ жизни, студент.*

Annotation: *In the article, the pedagogical features of the formation of the values of physical education of future specialists in teaching physical education and sports science in higher educational institutions are researched. In the system of higher education, the theoretical aspects and essence of physical education have been studied, the psychological and pedagogical foundations of physical education development, the main sanitary-prophylactic directions of organizing physical education classes have been determined. Mechanisms for the development of educational qualities and a culture of healthy living in students, and the implementation of cognitive and developmental tasks have been determined in the teaching of physical education and sports.*

Keywords: *physical education, sport, training, future specialists, higher education, pedagogical activity, healthy lifestyle, student.*

Kirish. Mamlakatimizda har tomonlama raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish, xususan, bo‘lajak mutaxassislarning jismoniy tarbiyasi va ularning salomatligini mustahkamlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Oliy ta‘lim muassasalarida ―Jismoniy tarbiya va sport‖ fanini o‘qitish sifatini yaxshilash hamda talabalarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish muammosini faqat professoro‘qituvchilarning umumiy say-harakatlari bilangina qadriyat sifatida shakllantirish mumkin. So‘nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik

o‘qituvchilar jismoniy tarbiyaning muhimligini salomatlikni mustahkamlash va jismoniy kuchni tiklash vositasi deb bilishadi, ammo shuni ta‘kidlash kerakki, barcha oliy ta‘lim muassasalari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari jismoniy va sport mashg‘ulotlarini sifatli va maqsadli tashkil etish va o‘tkazishga tayyor emaslar, ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport vositalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning yetarli emasligi kuzatilmoqda.

Metodika. Talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasini yuksaltirish va ularda sog‘lom turmush madaniyatini tarkib toptirish olimlar tomonidan alohida tadqiq etilgan bo‘lsada, zamonaviy oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarining jismoniy tarbiya qadriyatlarini shakllantirish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Bu jarayonda quyidagi qarama-qarshiliklar mavjud:

- jismoniy tarbiya va ushbu hodisa haqida to‘liq va yetuk nazariy g‘oyalarni ishlab chiqish va rivojlantirishning yetarli emasligi;

- jismoniy tarbiya qadriyatlari bo‘yicha o‘qituvchilik faoliyati uchun o‘quv tajribasining yo‘qligi va uning bu boradagi darajasi pastligi; - bo‘lajak mutaxassislarning jismoniy tarbiya qadriyatlari asosida tayyorlashning maqsadliligini rivojlantirish zarurati va ilmiy asoslangan pedagogik modellar va shartlar va ularni amalga oshirishning yetishmasligi.

Jismoniy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash uning kasbiy rivojlanishi bosqichida dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiyaning ushbu muammoni hal qilishda, ayniqsa, yetarli jismoniy rivojlanishini ta‘minlash, talaba-yoshlarning jismoniy tayyorgarligi va sog‘lig‘ini mustahkamlashdagi o‘rni juda katta.

Mutaxassislarning fikricha, talabalar salomatligining yomonlashuviga ko‘p ta‘sir etuvchi omillar ularning turmush tarzi va harakatsizligidir. Oliy ta‘lim muassasalarida yoshlar imtihonlarni topshirib, talaba degan sharafli nomga ega bo‘lgach, muassasaning ichki tartib-qoidalarini amalga oshirishga qaror qiladilar. Shuningdek, ular talabalar turar joyidagi yangi ta‘lim, yashash va turmush tarzi sharoitlariga moslashishlari kerak. O‘qish talabadan yuqori intellektual faollik va harakatchanlikni talab qiladi va bu yerda jismoniy tarbiyasiz hech narsa qilish mumkin emas. Shu sababli ham olimlar ham o‘qituvchilar ham talabalarning jismoniy tarbiyasiga katta e‘tibor berishadi. Hozirgi vaqtda jismoniy mashqlarning talabalar organizmiga ta‘sirining tabiati muhokama qilingan ko‘plab ishlarning natijalari ma‘lum va bu natijalar talabalarning mehnat va dam olish tartibi, jismoniy mashqlar metodikasining asosini tashkil etdi. Biroq ko‘pchilik ilmiy tadqiqotlarda talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish masalasiga asosiy e‘tibor beriladi. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya imkoniyatlari biz o‘ylagandan ancha kengroq. Binobarin, oliy ta‘lim muassasasida jismoniy tarbiya va sport kursini maqsadga muvofiq va uyg‘unlashtirishning asosiy vositasi, bo‘lajak mutaxassislar tayyorlash tizimida alohida yo‘nalish sifatida ko‘rish zarur. Oliy ta‘lim muassasalarida mavjud bo‘lgan jismoniy tarbiya tizimi jismoniy mashqlarning barcha mumkin bo‘lgan shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi va uning asosiy shakllari: 1) o‘quv rejasiga muvofiq majburiy mashg‘ulotlar; 2) mustaqil va tashkillashtirilgan auditoriyadan tashqari ishlar kiradi.

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, oliy ta‘lim muassasasida harakat normasining mazmuni va tegishli hajmi talabalarning jismoniy qobiliyatiga, organizmning funksional holatiga, aqliy faolligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jismoniy mashqlar talabalar salomatligini mustahkamlaydi va bilvosita ularning o‘quv faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Faol harakat nafas olish tizimining funksional holatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga haddan tashqari faollik va harakatchanlik talabalar tomonidan bilimlarni yaxshi o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda oddiy faoliyat va aqliy faoliyatning kombinatsiyasini talab qiladigan ko‘plab kasblar mavjud. Ish past faollik rejimida amalga oshiriladi, bu esa harakatsizlikni keltirib chiqaradi. Harakatsizlik moddalar almashinuvining buzilishiga olib keladi. Organizmda moddalar almashinuvi jarayonining buzilishi va harakatsizlikka qarshi kurashning nisbatan samarali vositasi jismoniy tarbiya va sportdir. Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari organizm faoliyati buzilishining

nomaqbul va salbiy ko‘rinishlariga qarshilik ko‘rsata olishlari uchun ta‘lim davrida jismoniy tarbiya va sportdan sifatli foydalanish qobiliyatini mustahkamlash zarur. Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: - salomatlik masalasi va salomatlikni mustahkamlashda jismoniy tarbiya vositalaridan unumli foydalanish uzoq vaqtdan beri dolzarb masalalar sifatida qaralib kelinmoqda; - hozirgi vaqtda jismoniy mashqlar, sport mashg‘ulotlarining organizmga ta‘siri, talabalarning ahvoli to‘g‘risidagi masala yetarli darajada va har tomonlama o‘rganilmagan; - oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayoniga katta e‘tibor berilmoqda. Lekin asosan bu sohadagi barcha tadbirlar talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan; - oliy ta‘lim muassasalarini isloh qilish sharoitida jismoniy tarbiya tizimini modernizatsiyalash zarurati aniq talab hisoblanadi. Zamonaviy jismoniy tarbiyani insonparvarlashtirish vazifalarini hal etishning muhim shartlari qatorida pedagog-olimlar quyidagi fikrlarni bildirdilar:

- mukammal pedagogik muhit yaratish; - etnik-madaniy muhitning xususiyatlarini hisobga olish;

- refleksiv pedagogik, germinativ va kognitiv-xulq-atvor (ilg‘or pedagogika) munosabatlarini qurish asosida insonparvarlik texnologiyalaridan foydalanish;

-jismoniy salomatlik holatini ijtimoiy-pedagogik monitoring qilish, diagnostika qilish, jismoniy tarbiya fanidan tayyorgarligi va bilim darajasi bo‘yicha testlar o‘tkazish;

- jismoniy tarbiya masalalarini ishlab chiqish va qayta ishlashga sinergetik yondashuv va uni amaliy tashkil etish; - gender munosabatlari;

- jismoniy faollik va salomatlikni rag‘batlantirish uchun xulq-atvor modelining nazariy hissasidan foydalanish; - jismoniy tarbiya jarayonini jadallashtirish, faollikni oshirish, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning muloqot va munosabatlarini yaxshilash maqsadida qaror qabul qilishda qisqa muddatli maslahat usullaridan foydalanish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida rahbarlik va boshqaruv tizimini takomillashtirish. Shunday qilib, zamonaviy jismoniy tarbiyani takomillashtirish va qayta qurish, ushbu pedagogik faoliyatni nazariy rivojlantirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning umumiy kontseptual munosabatlari jismoniy tarbiyani sport bilan bog‘lash imkonini beradi.

Talabalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy tizimi bo‘lajak ishlab chiqarish, fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va shu kabi soha mutaxassislari sifatida talabalarning sog‘lom turmush tarzi va turmush tarzini shakllantirishda ustuvor vazifa hisoblanadi. Mutaxassislar ko‘pincha jismoniy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yishning asosiy ob‘ektiv omillari insonni zamonaviy sharoitlarga, kasbiy va himoya faoliyatiga tayyorlash zarurati haqida gapiradilar. Jismoniy tarbiya ko‘pchilik talabalar uchun bolaligidanoq akademik fan sifatida tanilgan. Hozirgi vaqtda oliy ta‘limning o‘quv predmeti sifatidagi vazifasi shundan iboratki, oliy ta‘lim talabalarga inson hayoti va faoliyati, salomatligi va sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi bilimlarning barcha jabhalari bilan ta‘minlashi, shuningdek, inson salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashni ta‘minlaydigan ko‘nikma va malakalarni egallashi lozim.

Ta‘lim muassasasida jismoniy tarbiya yosh mutaxassisning shaxsiyati va madaniyatini tarbiyalashni ta‘minlaydigan pedagogik jarayonning ajralmas elementi hisoblanadi. Majburiy fan sifatida oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, kelajakdagi kasbiy faoliyatga optimal jismoniy va psixofiziologik tayyorgarlikni talab qiladi. Oliy ta‘lim muassasalarida

_Jismoniy tarbiya va sport‘‘ o‘quv predmeti bir qator ijtimoiy funksiyalarni hal qiladi, masalan: transformativ-ijodiy, dizayn-ijodiy, integratsiya-tashkiliy, qadriyatga yo‘naltirilgan, kommunikativ va intizomiy, dizayn-diagnostika va ijtimoiylashuv funksiyasi. Ijro etuvchi funksiyalar doirasida jismoniy tarbiya insonning biologik ehtiyojlarini va harakat faoliyatini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning to‘g‘ri ishlashiga yordam beradi deb hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya yuqoridagi asosiy funksiyalardan tashqari, boshqa shaxsiy funksiyalarni kognitiv, amaliy, sport, dam olish, gigiyenik, tarbiyaviy, tartibga solish, estetik va hokazolarni amalga oshiradi. Oliy ta‘limda ushbu maqsadlarga erishish uchun jismoniy tarbiya kursida tarbiyaviy, kognitiv, rivojlantiruvchi va sog‘lom xarakterli vazifalarni hal qilish kerak. Xususan:

- shaxsning rivojlanishi va uning kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligi; - shaxsni rivojlantirish va talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash;

- sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilimlar asoslarini shakllantirish;

- o‘quvchilarda jismoniy mashqlar va sportga bo‘lgan talab va qiziqishni shakllantirish;

- talabalar tomonidan organizmning hayotiy jismoniy sifatlarini zarur darajada ushlab turish imkonini beruvchi uslubiy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi;

- talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga kasbiy, jismoniy, fiziologik va aqliy tayyorlash;

- hayotiy va kasbiy maqsadlarga erishish uchun jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya usullari, texnikasi va texnologiyalaridan maqsadli foydalanish. Shuni ta‘kidlash kerakki, ilmiy manbalarda kasbiy muassasalarda bir-biridan farq qiladigan jismoniy tarbiya vazifalari va iboralari ro‘yxati mavjud.

Biroq, ularni tahlil qilish va taqqoslashda ularning barchasi bir-biriga o‘xshashligi, yagona guruhning vazifalarini tashkil etishi va quyidagi maqsadlarga qaratilganligi aniqlandi: - talabalarda samarali va foydali faoliyat uchun axloqiy va irodali faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni va jismoniy fazilatlarni rivojlantirishintizomiy, dizayn-diagnostika va ijtimoiylashuv funksiyasi. Ijro etuvchi funksiyalar doirasida jismoniy tarbiya insonning biologik ehtiyojlarini va harakat faoliyatini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning to‘g‘ri ishlashiga yordam beradi deb hisoblanadi. Jismoniy tarbiya yuqoridagi asosiy funksiyalardan tashqari, boshqa shaxsiy funksiyalarni kognitiv, amaliy, sport, dam olish, gigiyenik, tarbiyaviy, tartibga solish, estetik va hokazolarni amalga oshiradi. Oliy ta‘limda ushbu maqsadlarga erishish uchun jismoniy tarbiya kursida tarbiyaviy, kognitiv, rivojlantiruvchi va sog‘lom xarakterli vazifalarni hal qilish kerak. Xususan:

- shaxsning rivojlanishi va uning kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligi;

- shaxsni rivojlantirish va talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash;

- sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilimlar asoslarini shakllantirish; - o‘quvchilarda jismoniy mashqlar va sportga bo‘lgan talab va qiziqishni shakllantirish; - talabalar tomonidan organizmning hayotiy jismoniy sifatlarini zarur darajada ushlab turish imkonini beruvchi uslubiy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi;

- talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga kasbiy, jismoniy, fiziologik va aqliy tayyorlash; - hayotiy va kasbiy maqsadlarga erishish uchun jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya usullari, texnikasi va texnologiyalaridan maqsadli foydalanish. Shuni ta‘kidlash kerakki, ilmiy manbalarda kasbiy muassasalarda bir-biridan farq qiladigan jismoniy tarbiya vazifalari va iboralari ro‘yxati mavjud. Biroq, ularni tahlil qilish va taqqoslashda ularning barchasi bir-biriga o‘xshashligi, yagona guruhning vazifalarini tashkil etishi va quyidagi maqsadlarga qaratilganligi aniqlandi:

- talabalarda samarali va foydali faoliyat uchun axloqiy va irodali faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni va jismoniy fazilatlarni rivojlantirish;

- o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, sog‘lig‘ini uzoq vaqt davomida mustahkamlash va saqlash uchun shart-sharoitlarni ta‘minlash;

- yigit-qizlarni har tomonlama jismoniy tarbiyalash;

- talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatini hisobga olgan holda maxsus jismoniy tayyorgarlik; - nazariy bilimlarni rivojlantirish va talabalarning mehnat faoliyatidagi o‘quv va mashqlar mazmunini aniqlash va tashkil etish bo‘yicha uslubiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- sportning turli turlari bilan shug‘ullanuvchi talabalarning har xil tayyorgarlik darajasini oshirish;

- talabalarda sport faoliyatiga bo‘lgan barqaror talablarni shakllantirish. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim va tarbiya jarayoni, talabalarning bilim faoliyati va kasbiy tayyorgarligiga tizimli yondashish asoslanadi, ular bilan axloqiy va jismoniy, mehnat va go‘zallik, ijtimoiysiyosiy kabi turli tarbiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ta‘lim ob‘ektiv voqelik, insoniyat madaniyati, tarixi va sivilizatsiyasining eng muhim qismi bo‘lib qolmoqda. Ta‘lim muassasasida jismoniy tarbiya yosh mutaxassisning shaxsiyati va madaniyatini tarbiyalashni ta‘minlaydigan pedagogik jarayonning ajralmas elementi hisoblanadi. Oliy ta‘lim muassasasida jismoniy tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan vositalarning asosiy qismini jismoniy mashqlar tashkil etadi. Faqat jismoniy mashqlar uch guruh jismoniy tarbiya vazifalarini bajarishga imkon beradi. Jismoniy tarbiyaning qolgan barcha vositalari jismoniy mashqlarni bajarish natijasida yuzaga keladigan mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun o‘qituvchi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida umumiy, tabiiy va gigiyenik omillar bilan jismoniy mashqlardan unumli foydalanishi zarur. Oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

1) jismoniy tarbiya talabalarning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblangan ta‘limning gumanitar elementida o‘quv predmeti sifatida;

2) jismoniy tarbiyaning maqsadli jarayonida to‘liqroq amalga oshiriladigan jismoniy tarbiyaning kognitiv va rivojlantiruvchi vazifalari;

3) mutaxassis davlat imtihonlari va bakalavriat bitiruv attestatsiyasi mazmunini belgilovchi jismoniy tarbiya bo‘yicha ishchi dastur va ―Jismoniy tarbiya‖ fanining namunaviy dasturi;

4) jismoniy tarbiya bilan bog‘liq bevosita o‘quv faoliyati, uning davomida jismoniy tarbiyaning kognitiv, tarbiyaviy va sanitariya vazifalari to‘plami hal qilinadi:

-oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni o‘qitish jarayonida hal etiladigan kognitiv vazifalarga jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo‘yicha maxsus bilimlarni egallash, umumiy harakat ko‘nikmalarini hamda amaliy va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish kiradi;

-oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo‘yicha akademik tayyorgarlik jarayonida hal etiladigan tarbiyaviy vazifalarga quyidagilar kiradi: talabalarning axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirish, intellektual, mehnat va boshqa turdagi ta‘limni qo‘llab-quvvatlash;

- jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirish vazifalari tana tizimining funktsional holatini yaxshilash, salomatlikni mustahkamlash va muhofaza qilishni o‘z ichiga oladi. Oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish talabalarning jismoniy tarbiyasi samarali faoliyatini ta‘minlaydi; - shaxsni har tomonlama rivojlantirish;

- mehnat va himoya faoliyatiga e‘tibor berish; - sanitariya yo‘nalishiga ega. Oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, uning yetarli jismoniy rivojlanishi va talabalarning jismoniy tayyorgarligining zarur darajasiga kirishi bilan bog‘liq o‘z vazifalari mavjud. Natijada, jismoniy tarbiya har xil ko‘rinishda kasbiy muassasalarda to‘liq tizimni tashkil etadi, bu talabalarning butun o‘qish davri uchun mo‘ljallangan.

Xulosa. Jamiyatimiz taraqqiyotining zamonaviy bosqichida siyosiy va iqtisodiy qonun-qoidalarning o‘zgarishi bilan bog‘liq oliy ta‘lim mazmunining o‘zgarishi talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasi rivojlanishning yangi yo‘nalishlarini egalladi. Jismoniy tarbiya va sport fani pedagogik tizim bo‘lib, oliy ta‘limida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida e‘tibor qaratishini taqozo etmoqda. Jismoniy tarbiya jarayoni bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning yagona tizimiga organik ravishda kiritilgan. Jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida jismoniy tarbiya va ta‘lim sharoitlarini moslashtirish bo‘yicha ko‘plab tajribalar to‘plangan. Oliy ta‘limi muassasalarida jismoniy tarbiya imkoniyatlarini yangicha nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish, sharoitlardan kelib chiqadigan vazifa va maqsadlarni aniqlash, jismoniy tarbiya

jarayonini qurishning maqsadga muvofiqligini aniqlash, jismoniy tarbiyadan foydalanish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. Saruxanov A. A., Uktamova M. M. Q. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish shartlari //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 69-75.

2. Mahmutaliyev A.M. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari //Ta‘lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 74- 79.

3. Усмонов Ш. Х., Самадов С. С., Фармонов А. Ч. Физкультурно-спортивные интересы и мотивационные установки студентов // Вопросы науки и образования. – 2021. – Т.

4. – С. 129. 4. Samadov S. S., Mirkhon K. AGE Characteristics of preschool children‘s development and physical education activities //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 212-216.

5. Murodov J. J. Women‘s sports is a key link of physical culture. – 2022.

K.Baylepesov
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAKATLARGA O‘RGATISH USLUBLARI VA TAMOYILLARI

Ayrıqsha dereklerdiń kórsetiwinshe, qılıshpazlıq - rapira hám shpaganı ózlestiriw óneri retinde Ispaniyada júzege kelgen. Qılıshpazlıq teoriyası boyınsha birinshi kitaplar Ponsada Perpinyan hám Pedrosda Torre sıyaqlı Ispaniyalıq oqıtıwshılardıń 1474-jılı baspadan shıqqan kitapları esaplanadı.[6]

Shama menen, sol dáwirde, Germaniyada qılıshpazlıq oqıtıwshılarınıń koroporaciyası (Fextbruder) shólkemlestirilgen. Angiliyada da qılıshpazlar associaciyası dúzilgen.

Italiyalıq pedagoglar qılıshpazlıqtı úyreniw boyınsha máselelerge arnalǵan kópshilik baspa islerdiń avtorları bolǵanlar. Olardıń dóretpelerinde sol dáwirdiń qılıshpazlıq texnikası evolyuciyası óz kórinisin tapqan. Rimlik qánige Agrippa 1553-jılı quraldı filosofiyalıq dialog penen ózlestiriw tuwrısında traktattı baspadan shıǵarǵan.

Bul maqalada duellerdi alıp barıw ónerine úyretiwshi máslahátler jazılǵan. Grassi (1570-j) óz kitabında birinshi ret liniyalar joqarıǵı, tómengi, sırtqı hám ishki liniyalar tuwrısındagi maǵlıwmatlardı alıp kelgen. Ol da Agrippa sıyaqlı shanshıwlarǵa úlken áhmiyet qaratǵan. Grassi tárepinen “quraldı seziw” túsinigi kiritilgen. Fabri (1624-j Paduya) óziniń tarktatida qılıshpazlıq texnikasına dene menen shep beriw, quralsız qoldan paydalanǵan halda qorǵanıwlardı, jasırın batmanlardı, aralıqtı tańlawdı kirgizgen.

Kavalkabo (1610-j) sırtqı hám ishki batmanlardı, 3-hám 4-tómengi, joqarıǵı qorǵanıwlardı hám tómengi fintlerdi hámde batmandı hám odan keyin keletuǵın tómengi sektorǵa alıp ótiw menen shanshıwdı bayanlaǵan.

Kapo-Ferro (1610-j) qorǵanıw ushın bir ǵana shpaganıń ózi jetkilikli, bellesiwde daga ásbabın qollaw bolsa, qarsılas tárepinen qarsı húјim qılıw múmkinshiligin ápiwayılastıradı, dep shamalaǵan.

Shpagada qılıshpazlıq qılatuǵın Parijlik ustalar 1567-jılı Fransiya qılıshpazlıq oqıtıwshılardıń akademiyasın dúzgen. Onıń quramına 20 kisi kirgen bolıp, olardan 6 kisi eń húrmetli bolǵan. Fransiyada shpagada qılıshpazlıq qılıw XVII ásirdiń ortasında rawajlanıwda dawam etken, keyinirek ádewir rawajlanıp, variativ bola baslaǵan, shpaga jeńillew, onıń quralı tıǵlı ushı qırlı formaǵa iye bolǵan.

Fransiyada XVII ásirdiń ortasında, shawatuǵun hám shanshatuǵun shpaga qollanılǵan Italiya mekteplerinen ayrıqsha túrde, tek ǵana shanshatuǵun shpaganı qollaytuǵın, qılıshpazlıq mektepleri tarqalǵan. Italiya hám Fransiya qılıshpazlıq mekteplerinińparqı sonnan ibarat bolǵan.

Qılıshpazlıq – áyyemgi sport túrlerinen biri esaplanadı. Roje Dyushosse sport ensiklopediyasında jazadı: «Qılıshpazlıq áyyemgi Greciya Olimpiada oyınlarınan tórt ásir ilgerilep ketti, eger eramızdan aldınǵı 1190 -jılda Ramzes III tárepinen Madina Abu (Joqarı Egipet) sıyınıwxanasındaǵı jazıwlar boyınsha baqlaw júrgizilse, ol jaǵdayda Liviyalıqlar ústinen qazanılǵan jeńis húrmetine islengen sport jarısları suwretlengen. Mushkette qural anıq kórinip turıptı, qol garda menen qılıshdaǵı sıyaqlı qorǵanılǵan, ayrım qılıshpazlardıń júzleri maska menen qorǵanǵan. Jekpe-jek gúresshilerdiń júrisi hám shólkemlestiriwshilerdi olar ustap turǵan párlerinen biliw múmkin».

Hár-túrdegi suwıq qurallardaǵı qılıshpazlıq, sonıń menen birge, Greciya hám Rimde de ataqlı bolǵan. Orta ásirlerde qılıshpazlıq ricardıń «jeti adamgershilikli intaları» nan biri esaplanǵan. Oq atar quralları payda bolǵandan keyin kúsh emes, bálki arnawlı shınıǵıwlar arqalı iyelengen shaqqanlıq qádirlene basladı. Bul XV ásir basında Ispaniyada qılıshpazlıq óneriniń tuwılıwına alıp keldi.

Qılıshpazlıqta sport baǵdarı XIV-XV ásirlerde Italiya hám Germaniyada payda boldı. Shınıǵıw bellesiwleri menen baylanıslı úsh Principial jańalıq onıń en jayıwına sebep boldı. Bul-jeńil hám qawipsiz qural- rapiranıń payda bolıwı hám bellesiw qatnasıwshılarınıń qawipsizligi maqsetinde jara jetkiziletuǵın dene maydanın shegaralap, jeke gúres qaǵıydaların anıqlaw, qorǵaw

kiyim-bastı, eń dáslep maskanıń jaratılıwı edi. XVII ásirdiń aqırlarında Fransiyada sport qılıshpazlıǵınıń tiykarǵı principleri payda boldı. Ol áste-aqırın jeńillikli siyasiy gruppalar ushın rusum bola basladı.

Zamanagóy qılıshpazlıqtıń hár túrli qural túrleriniń qaǵıydalarındaǵı, sonıń menen birge, texnika hám taktikalıqasındaǵı ayırmashılıqlar kóbirek olardıń kelip shıǵıw tariyxı menen baylanıslı.

Házirgi kúnge kelip sport qılıshpazlıǵı kiyim-kensheklerinde de, qaǵıydalarda da jeke gúres hám jarıslar formulasında, tayarlıq usılında da bir qansha ózgerislerdi basınan keshirdi, mısalı, úyreniwdi tek ǵana rapiradan baslaw májburiy esaplanbaydı.

Ápiwayı qılıshpazlıq penen bir qatarda dúnyanıń túrli mámleketlerinde suwıq quraldaǵı jekegúreslerdiń dástúriy milliy túrleri keń tarqalǵan. Yaponiyada bul kendo - bambuk tayaqshalarında qılıshpazlıq, usı sport túri 1964-jılda Yaponiyada ótkerilgen Olimpiada oyınlarınıń rásmiy bolmaǵan programmasına kiritilgen. Arqa Kavkazda Parikaoba - qalqanlı qılısh penen qılıshpazlıq, bunda sonıń menen bir qatarda, jawınger yaki xevsur halqashaları - qoldıń úlken barmaǵına taǵılatuǵun qaptalları ótkir egelgen keń tegis halqashalar isletilgen. Xıtayda Duanbin-kelte szyan hám dao bambuk qılıshlarında qılıshpazlıq, Filippinde bolsa- Arvis Kavayan dep atalıwshı insan boyı menen teń, uzın jawınger tayaqlardaǵı qılıshpazlıq keń tarqalǵan.

Xalıq aralıq qılıshpazlıq federaciyası (XQF) 1913-jıldıń 29 -noyabrinde Parijde shólkemlestirilgen. Shólkemlestiriwshi mámleketler — Belgiya, Bogemiya, Ullı Britaniya, Vengriya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Fransiya, Shveysariya. 2012-jıldıń 1-yanvarına kóre mámleketlerdıń milliy birlespeleri, federaciyaları, birlespeleri, awqamları Xalıq aralıq qılıshpazlıq federaciyasına aǵzalar.

Qılıshpazlıq- sózsiz barlıq Olimpiada oyınları programmasına kirgen tórt sport túrinen biri esaplanadı.

Juwmaq: 1896 -jılda Olimpiada qatnasıwshıları rapira hám qılıshda jarısıwlar. Usı jarısta tek er adamlar qatnastı. Rapirashılar arasında Fransiyalıq E. Gravelot, qılıshda bolsa Greciyalıq Y.Georgiadis dúnyanıń eń kúshli Sporshıları ekenliklerin tastıyıqladı. Bul Olimpiadanıń ayrıqsha tárepi sonda, jarısta professionallar (óz isiniń ustaları) - qılıshpazlıq boyınsha jol-jobashılar, (olardı maestrolar dep te ataǵan), qatnastı. Bul ayrıqsha jeńillik zamanagóy Olimpiada háreketi tiykarshısı baron Pyer de Kubertenniń islep shıqqan qaǵıydalarında aytıp ótilgen. 1896-1900-jıllardaǵı oyınlarda rapirashı maestrolar qatnastı. 1900-jılda bolsa olar qatarına 1898-jılda eki arada ótkerilgen Olimpiada oyınlarında jarıslarǵa shpagashı hám qılıshpazlar qosıldı. 1904-yilda AQSHtıń Sent-Luis qalasında tayaqta qılıshpazlıq jarısları ótkerildi. Bunda Kubalıq Van Zo Post jeńimpazlıqtı qolǵa kirgizdi hám jeke jarıslarda rapirada gúmis, shpaga hám qılıshda eki bronza medalın qolǵa kirgizdi.

Qılıshpazlıq boyınsha Olimpiada chempionları arasında da óz rekordshıları bar. Italiyalıq Nedo Nadi 1920-jılda ótkerilgen Olimpiada oyınlarında jáhán qılıshpazlıq tariyxında birden-bir bolǵan ullı nátiyjege eristi - rapira hám qılıshda qılıshpazlıq jeke jarıslarında hám rapira, qılısh hám shpagada komandalıq jarıslarda 5 altın medaldı qolǵa kirgizdi. Ol, sonıń menen birge, 1912-jıldaǵı Olimpiada oyınlarınıń rapirada qılıshpazlıq túri boyınsha da chempionı bolǵan. Biraq, Italiyalıq Edoardo Mandjarotti eń kóp Olimpiada sıylıqları kolleksiyalarına iyelik etken: ol 6 altın, 5 gúmis, 2 bronza, jámi 13 medalǵa iye bolǵan. Bul sıylıqlardı ol 1936 -1960 -jıllarda ótkerilgen bese Olimpiada oyınlarında qolǵa kirgizgen.

Vengriyalıq qılıshpaz Aladar Garevich 1932-1960-jıllarda ótkerilgen altı Olimpiadalarda qatar jeńiske erisken birden-bir sporshı esaplanadı. Sońǵı sıylıqtı ol 50 jasında qolǵa kirgizdi.

Tórt Olimpiada oyınlarında basqa Vengriyalıq qılıshpaz Rudolf Karpati qatnasıp, 6 altın medal iyesi bolǵan.

Aytıp ótiw kerekk, Ózbekstanda da Olimpiada bayraqdarları bar. Bul S.Róziyev - rapirada 1980-jıldaǵı Olimpiada oyınları gúmis medalı jeńimpazı, V. Zaxarevich - shpagada qılıshpazlıqda

1992-jıldağı Olimpiada oyınlarınıń bronza medalı iyesi.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “Ózbekstan”. 2017. 488 bet.
2. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. T. “Sharq”. 1998.
3. Usmonxo’jayev T.S., Meliyev X.A. va boshqalar. “Jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlari”. T.: O’qituvchi. 2005. 352 bet.
4. Usmonxo’jayev T.S., Meliyev X.A. – “Milliy harakatli o’yinlar”. O’qituvchi. T. 2000j.
5. “Qilichbozlik” asoslar va qoidalar. Sug’diyona nashriyot uyi. T.: 2012
6. Abdurasulova G.B., Fesitova N.A. Ibragimov A.U. “ Qilichbozlik nazariyasi va uslubiyati” o’quv qo’llanma Toshkent – 2018.
7. Fesitova N.A. “Qilichbozlik nazariyasi va uslubiyati” o’quv qo’llanma 2009-yil.
8. Tishler D.A. Tishler G.D. Fextovaniye. Chto doljen znat sporcmen o texnike i taktikalıqe. – M.: FON, 1995 g.
9. Tishler D.A. Movshovich A.D. Fizicheskaya podgotovka yunix fextovalshikov. – M: Soveckiy sport, 1996 g.
10. Tishler D.A. Tishler G.D. Movshovich A.D. Bazarevich V.Ya. Fextovaniye. Chto doljen znat sporcmen i trener o sudeystve i provedenii sorevnovaniy – M.: FON, 1996 g.
11. S.T.Usmonxodjayev“ Qilichbozlik nazariyasi va uslubiyati” o’quv qo’llanma 2022 -yil

A.Orınbaev
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali

ESHKAK ESHUVCHILARNING TEZKOR KUCH TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI USUL VA VOSITALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sportchilarning tezkor kuch tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyatini o‘rganish haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *tezkor kuch, metodologiya, reglamentlashtirilgan mashq metodi, mashg‘ulot, eshkakchi, vosita, usul, yuklama.*

Аннотация: *Научно-исследовательская работа посвящена изучению методики развития быстрой силовой подготовки спортсменов.*

Ключевые слова: *скоростная сила, методика, регламентированная методика тренировки, тренировка, гребец, средства, метод, нагрузка.*

Abstract: *The research work is devoted to the study of methods for developing rapid strength training for athletes.*

Key words: *speed force, methodology, regulated training methodology, training, rower, means, method, load.*

Dolzarblik. Standart og‘irlikdagi harakatlarni ko‘p marotaba qaytarishlar sekin astalik bilan mushaklarning qisqarish darajasining stabillashuviga olib keladi, bu esa tezkor kuch qobiliyatini rivojlanishini chegaralaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki shug‘ullanuvchilarning tezkor kuch imkoniyatlarini rivojlantirishda to‘g‘ri uslubni tanlay olish va uni qo‘llashda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

Tadqiqot maqsadi. Sportchilarning tezkor kuch tayorgarligini rivojlantirish uslubiyatini

o‘rganish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Mavzuga doir adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish.

2. Eshkakchilarning tezkor kuch tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan samarali uslub va vositalarni aniqlab olish.

3. Sport maktablarida murabbiylarning mashg‘ulot olib borish jarayonini kuzatish va tahlil qilish.

4. Tajriba va nazorat guruhlarini tashkil qilish maqsadida maxsus nazorat testlarini aniqlab olish.

5.Guruhlarda sportchilarning tezkor kuch ko‘rsatkichlarini o‘zaro taqqoslashtirish va xulosa qilish.

Tadqiqot usullari. 1. Ilmiy uslubiy adabiyotlarni o‘rganib chiqish va tahlil qilish.
2. Pedagogik kuzatuv.
3. Pedogogik test nazorati sinovlari.
3.1. 20 soniyalik eshkak eshish testi (m)
3.2. 10 soniya ichida turnikda tortilishlar soni (marta)
3.3. Start kesimini bosib o‘tish, 150m (s)
3.4. Yerga tayangan xolda qo‘llarni bukib yozish (marta)
4. Pedagogik tajriba
5. Olingan ma’lumotlarni matematik statistik usulda ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil etish. 2022 – 2023 yillar davomida 2 – sonli sport maktabida 17 – 18 yoshli eshkakchi baydarkachilar ustidan pedagogik kuzatuvlar olib borildi. Tadkikotda 20 nafar shugullanuvchilar tanlab olindi. Nazorat guruxi dastur materiallari asosida trenirovka mashgulotlarini olib bordi. Tajriba guruxi esa dasturdagi materiallardan tashkari biz tomondan saralab olingan vositalardan foydalandi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarni xal etishda biz Toshkent shahridagi bir nechta sport maktablarida mashg‘ulotlarni olib borilishi bo‘yicha kuzatuv ishlarini olib bordik. Bunda biz asosiy e’tiborni murabbiylar tomonidan sportchilarning tezkor kuch imkoniyatlarini rivojlantirishda qanday uslub va vositalardan foydalanayotganliklariga qaratdik. Murabbiylar sportchilarni tezkor kuch imkoniyatlarini rivojlantirishda asossan samarali uslublardan xisoblangan aylanma trenirovka, dinamik kuchlanish va “zarbli” uslublardan foydalanishlari, juda kam xollarda stadodinamik va o‘yin uslublarini qo‘llashlari ma’lum bo‘ldi, vaxolanki barcha samarali uslublardan variativ foydalanish tezkor kuch sifatini oshishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari murabbiylar tomonidan qat’iy reglamentlashtirilgan mashqlarni berib borishda uslubiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yishlari, ya’ni mashqlarni to‘g‘ri bajarish qoidalariga to‘liq amal qilmasligi ko‘zga tashlanadi. Sportchilar har mashg‘ulotda bir xil tipdagi mashqlarni uzoq muddat davomida bajarmoqdalar, mashg‘ulotdan mashg‘ulotga mashqning shakli, yuklama darajasi, qaytarishlar soni, dam olish intervali o‘zgartirilmayapti. Barchaga ma’lumki mushaklar ma’lum og‘irlikdagi yuklamaga vaqt o‘tishi bilan moslashadi, shu paytda mashqning shakli yoki og‘irligi, bajarilish tartibi yoki qaytarilish sonini o‘zgartirish talab etiladi. Aks xolda mashq kutilgan samarani bermaydi, yakunda sportchining shaxsiy natijalariga qanchalik ta’sir ko‘rsatishini aniqlash uchun tadqiqot o‘tkazishga qaror qildik. Maxsus nazorat teslari yordamida nazorat va tajriba guruhlarini saralab oldik.

Xulosa. Nazorat guruhida tajriba davomida mashg‘ulotlar odatiy xolatda dastur asosida olib borildi. Tajriba guruhida tezkor kuch imkoniyatlarni rivojlantirishda samarali uslublarni variativ qo‘llagan xolda hamda mashqlarni uslubiy to‘g‘ri bajargan holda mashg‘ulotlar olib borildi. Buni amalga oshirishda sportchilarning har mashg‘ulotda bajargan mashqlari, mashqlardagi og‘irliklar, qaytarishlar soni, bajarish shakllari yozib belgilanib boriladi. Har bir mashg‘ulot bir biridan farq qilinishi ta’minlanadi. Bunga erishishda quyidagi tavsiyalardan foydalanildi:

1. Dinamik kuchlanish uslubidan foydalangan xolda qo‘llaniladigan mashqlar, ya’ni ma’lum og‘irlikdagi yuklamani maksimal tezlikda va amplitudada bajariladigan mashqlardan foydalanishda har bir mashg‘ulotning bir xilda olib bormaslik muxim axamiyat kasb etadi, buning uchun har bir mashqda qaytarishlar soni ma’lum chegaragacha ortib borishi va yuklama darajasi ortishi bilan qaytarishlar soni yana pastki chegaradan boshlanishi lozim, bundan tashqari mashqlar har 12 ta mashg‘ulotdamashg‘ulotda o‘zgartirib borilishi lozim.

2. “Zarbli” uslubdagi mashqlardan foydalanishda faqatgina blokli trenajerlar bilan cheklanib qolmasdan, 70-75sm.balandlikdagi ustunlardan sakrash mashqlarini qo‘llash ko‘proq samara beradi, sakrashlarni oyoqlarga ma’lum og‘irliklarni bog‘lagan xolda bajarish mumkin.

3. Stadodinamik uslubdagi elementlarni so‘ngi qaytarishlarda qo‘llash ko‘proq samara beradi.

4. Mashg‘ulotlarda murabbiylar tomonidan o‘yin uslubidan foydalanmaslik juda achinarli holat, turli estafetalar shaklida turli hajmdagi og‘irliklarni bir joydan ikkinchi joyga olib borish nafaqat tezkor kuch imkoniyatlarini oshiradi balki sportchiga ijobiy ruxiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. Suvda bajariladigan maxsus mashqlar, start kesimlarini bosib o‘tish, 20 soniyalik eshkak eshishlar ko‘proq musobaqa uslubida bajarilishi maqsadga muvofiq

Tajriba so‘ngida guruhlarda olingan test natijalarini o‘zaro taqqoslash natijasida quyidagi farqlar ko‘zga tashlandi, 20 soniyalik eshkak eshish testida **2,1**, 10 soniya davomida turnikda tortilish testida **1,6**, start kesimini bosib o‘tish testida **1,6**, yerga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish testida **2,4**. (1-jadval)

Tajriba va nazorat guruhlarining test natijalari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlari va ular orasidagi farqlar

Guruhlar	**Nazorat testlari**			
	20 soniyalik eshkak eshish testi(m)	10 soniya ichida turnikda tortilishlar soni(marta)	Start kesimini bosib o‘tish, 150m(s)	Yerga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish, 10s (marta)
Tajriba	88,2	8,5	33,1	17,4
Nazorat	86,1	6,9	34,7	15,0
O‘rtacha farq	2,1	1,6	1,6	2,4

Tajriba so‘ngida olingan natijalarga tayanib shuni aytish mumkinki, ma’lum bir jismoniy sifatni rivojlantirishda eng samarali uslublardan to‘laqonli foydalanmaslik, mashqlarni bajarishda, haftalik mashg‘ulotlar siklini tuzishda uncha muxim bo‘lib ko‘rinmagan holatlarda kichik xatoliklarga yo‘l qo‘yish yakunda natijalarni sezilarli pasayishiga olib keladi.

Tezkor kuch tayorgarligini rivojlantirishda barcha samarali uslublardan variativ foydalanish tezkor kuch sifatini oshishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari murabbiylar tomonidan qat’iy reglamentlashtirilgan mashqlarni berib borishda uslubiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yishlari, ya’ni mashqlarni to‘g‘ri bajarish qoidalariga to‘liq amal qilmasligi yakunda sport natijalarining sezilarli pasayishiga olib keladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. H.L.Fourie, I.W.Fourie An Introduction to Rowing UK, 2013

2. John Chase Power to the Raddle: Exercises to Improve your Canoe and Kayak Paddling USA, 2014

3. Korbut V.M., Korotkov V.A. Greblya na baydarkax i kanoe. Uchebnoe posobie UzGIFK

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
“Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı”
ISSN 2181-2268

O‘zbekistan davlat jismoniy tarbiyasi va sport universiteti Nukus filiali
“Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi”
ISSN 2181-2268

Jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish mazmuni

D.Nurishov
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali

Annotatsiya: *Ekologik muammolarning global xarakteri asosida yuqori sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirsh shakllari va metodlarini alohida talab qiladi. Hozirgi ekologik vaziyatda yuqori sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatini “inson-tabiat-jamiyat” tizimida rivojlantirish hamda tabiatning o‘zida, tabiatga munosabatida mavjud bo‘lgan holda, u bilan o‘zaro ta’siri asosida strategiya va texnologiyalarga mos keluvchi o‘zaro aloqalarida uyg‘unlik masalalarini hal qilish bilan bog‘laydi. Tadqiqot faoliyati davomida motivatsiyaning ortishi yuqori, past, ongli bo‘ladi. Bunga bilim motivi yordam beradi, u tomonidan taqdim etilgan yangi tadqiqot bilimlarini o‘zlashtirishga qaratilgan va bu bilimlarni o‘zlashtirish motiviga hissa qo‘shish faoliyatini rag‘batlantiruvchi bilish motivi usullarini o‘rganishda yo’nalishni aniqlaydi yangi bilimlarni olish va o‘zlashtirishda ahamiyatli sanaladi.*

Ka’lit so‘zlar: *Ekologik muammolar, madaniyat, ekologik madaniyat, inson-tabiat-jamiyat.*

Аннотация: *Учитывая глобальный характер экологических проблем, формы и методы развития экологической культуры старшеклассников приобретают особую требовательность. В современной экологической ситуации развитие экологической культуры у старшеклассников в системе «человек-природа-общество» и существования самой природы, по отношению к природе, и на основе их взаимодействия с ней, в их взаимодействиях, совместимых с стратегии и технологии относятся к решению проблем. В ходе исследовательской деятельности повышение мотивации бывает высокой, низкой и осознанной. Этому способствует представленный им мотив познания, который направлен на приобретение новых исследовательских знаний, и определяет направление в изучении методов мотива познания, что стимулирует деятельность, способствующую мотиву приобретения и получение новых знаний.*

Ключевые слова: *Экологические проблемы, культура, экологическая культура, человекприрода-общество*

Annotation: *Based on the global nature of environmental problems, the forms and methods of developing the environmental culture of high school students are particularly demanding. In the current environmental situation, the development of ecological culture in high school students in the "man-nature-society" system and the existence of nature itself, in relation to nature, and based on their interaction with it, in their interactions compatible with strategies and technologies. relates to solving problems. During the research activity, the increase in motivation is high, low, and conscious. This is helped by the motive of knowledge, which is aimed at the acquisition of new research knowledge presented by him, and determines the direction in the study of methods of the motive of knowledge, which stimulates the activity of contributing to the motive of acquiring and acquiring new knowledge.*

Key words: *Ecological problems, culture, ecological culture, human-nature-society.*

Ta’lim muassasalari faoliyati mazmunining tubdan o‘zgarishi, ta’limni ochiq tizim sifatida pozitsiyalash tashqaridagi tashkilotlarning ta’lim muassasasi faoliyatida sherik sifatida jalb qilish zarurligini ko‘rsatib berdi. Maktab yoshida shaxsning intensiv rivojlanishi kuzatiladi, shuning uchun bu davrda madaniy odatlarni shakllantirish uchun sog‘lom turmush tarzi asoslarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bolaning ta’lim tizimiga o‘tishi ijtimoiy rivojlanish va turmush tarziga ta’sirining ortishi bilan kechadi. Munosabatlarning ushbu tipi sheriklarning imkoniyatlarini optimallashtirishga imkon beradi, ohirgi natija uchun mahsulotni taqsimlashni taqozo qiladi. Shunday qilib, sheriklar va maktab orasidagi shakllangan va uzoq davom etuvchi munosabatlar

resurslarni sinf o‘quvchilarida ekologik yo‘naltirilgan ta’lim muhiti sharoitida ekologik madaniyatni tarbiyalash muammosini hamkorlikda hal qilish uchun konsolidatsiyani ta’minlaydi [90; 146-b., 88; 25-b].

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida sheriklik munosabatlarini shakllantirish uchun ishlar amalga oshirilmoqda: maktablarning sheriklar bilan ishlash tajribalari mavjud, sheriklarning maktab turmushida ishtirok qilishining barqaror dasturlari shakllandi, boshqarish va kuzatish kengashlari, saxovat jamg‘armalari kiritildi va boshqalar. Bolalarga oid qo‘shimcha va kasbiy ta’lim muassasalari, mulkchilikning turli shakllari, korxonalar va tashkilotlar, jamoat birlashmalari, mahalliy boshqarish organlari va boshqalar ijtimoiy sheriklar sifatida faoliyat olib borishi mumkin. Bu vaziyatda ijtimoiy sheriklarning roli nafaqat homiylik yordami (moddiy-texnik, mablag‘ va boshqa) ko‘rsatishdan, balki eng asosiysi, ularning barcha sinf o‘quvchilarini ta’lim faoliyatida ishtirok qilishidan ham iborat. Jumladan, ijtimoiy amaliyotlar, kasbiy sinovlar, tanlangan qisqa muddatli kurslar, loyihalash-tadqiqot ishlari, ekologik yo‘nalishdagi ekspeditsiya ishlari natijalarini ishlab chiqish, o‘tkazish, baholash (ekspertizada) shular jumlasidandir.

Ijtimoiy sheriklar bilan o‘zaro harakat oqibatida qo‘shimcha ta’lim maktabi ta’lim fazosining tashkil qiluvchisi sifatida bolalar birlashmalari (to‘garaklar, seksiyalar, klublar, studiyalar, ekspeditsiyalar, lagerlar)ni, o‘quv darslari (o‘quv kabinetidagi dars, tashqaridagi amaliy darslar, yurishlar, ekspeditsiyalar va boshqa)ni tashkil qilishning turli shakllari orqali amalga oshirish mumkin.

Ijtimoiy sheriklar ishtirokining ahamiyatini aniqlab shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim muassasasi ochiq ijtimoiy-pedagogik tizim bo‘lishi, dialogga, shaxslararo muloqotga, ijtimoiy o‘zaro ta’sirga intilishi kerak.

Ota-ona va o‘qituvchilar (kengashi) o‘zini o‘zi boshqarish shakli sifatida ijtimoiy sheriklar rolini bajarishi mumkin. Ta’lim tizimini qayta qurish sharoitida ota-onalar bilan hamkorlik pedagogik ta’sir o‘tkazishning, umumiy ta’lim maqsadlarini tushunish asnosida shaxsning erkin rivojlanishiga yo‘naltirilgan holda yangi samarali shakllarini qidirish ishini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayoniga yuqori sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilar orqali ota-onalar ham tabiiy holda jalb qilinadi.

Shaxsning dastlabki ijtimoiylashuvi bazaviy asosi hisoblanadi. Bola tomonidan jamoaviy normalar va madaniy qadriyatlarni individual o‘zlashtirish jarayoni oiladan boshlanadi. Jamiyatning rivojlanish darajasi yosh avlod ta’lim sifati bilan belgilanadi va har bir tarixiy vaqt ta’lim jarayoniga o‘z tuzatishlarini kiritadi. XX asrning o‘rtalaridan boshlab yuzaga kelgan ekologik inqiroz insoniyat va tabiat-jamiyat shu bilan birga tabiiy atrof-muhit, insoniyat tizimidagi muhim muvozanatni saqlash, bu insoniyat jamiyati taraqqiyotining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Turmushning kelgusi tarzini aniqlovchi hayotiy intilishlar oilada qo‘yiladi. Shaxslararo munosabatlar va psixologik atmosfera, uning barcha a’zolari uchun birgalikda ahamiyatli ekanligi rejim, madaniyat, ovqatlanish va dam olish – bularning barchasi bolaning shaxsi rivojlanishiga va sezilarli darajada dunyoqarashining shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishga qodir.

V.K.Valsevich, N.V.Gruzdeva, tadqiqotlarida shu narsa ta’kidlanadiki, aynan oila, ota-onalar tabiat haqidagi ertak, qo‘shiq, adabiyot ilgaridagidek bolalar o‘qishi doirasida yetakchi o‘rnini saqlab qolishga xizmat qiladilar. E.O.Turdiqulov, kabi tadqiqotchilar ota-onalarni ekologik madaniyatni tarbiyalashning hamkorlikdagi jarayoniga jalb qilish zarurligiga e’tiborni qaratadilar.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bolalarning salomatligini mustahkamlash bilan bog‘liq masalalar ota-onalarda katta jonlanishni yuzaga keltiradi. Bu qiziqish ota-ona va o‘qituvchilarning kichik hamda yuqori sinf o‘quvchilari bilan muloqotida sog‘lom turmush tarziga inson ekologik madaniyatining ahamiyatli bo‘g‘ini sifatida jalb qilinishi umumiy

intilishlarining tayanchi bo‘lishi mumkin. Bolalar, ota-onalar va pedagoglarning hamkorlikdagi ijtimoiy madaniy faoliyatini tashkil qilish o‘zaro harakatning natijasi bo‘ladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat, pedagoglar, ota-onalar va bolalarning ixtiyoriy ishtirokiga asoslangan emotsional tashvishlanish va shaxsiy yuksalish imkoni hamda uyg‘un munosabatga erishish uchun sharoit yaratuvchi hamkorlikdagi faoliyatidir. U insonning amaldagi kuchlarini ro‘yobga chiqarishning ahamiyatli vositasi, bir-birilarini bilish va tushunish usuli, ota-onalarning bolalar bilan samarali muloqoti va xulqiy ko‘nikmalarini egallashda, oilani jismoniy tarbiyalashda noformal do‘stlik atmosferasini va yakdilligini yaratish, maktab va oilaning tarbiyadagi samarali aloqasini amalga oshiruvchi pedagogik ta’minoti dasturini amalga oshirish turi hisoblanadi.

Maktab faoliyatini tashkil qilishda ota-onalarning innovatsion elementlarini tahlil qilish yoki ishlab chiqishda ishtirok qilishi ijtimoiy amaliyotlarni, kasbiy tanlovlarni amalga oshirishni (imkon qadar) ta’minlaydi, yuqori sinf o‘quvchilarining tanlov tadbirlarida va ekologik tadbirlarda ishtirok qilishlariga imkon yaratadi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiyada oila va maktabning pedagogik o‘zaro hamkorligi kompleks dasturi asosida olib boriladigan yuqori sinf o‘quvchilari tarbiyasini ta’minlovchi ahamiyatli o‘zaro hamkorligini yaratishi asosida innovatsion texnologiyani joriy etish katta ahamiyatga ega.

Ta’lim fazosida tanlov uchun elementlar keng jamlanmasining mavjudligi, birinchi navbatda, yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan tanlov tadbirining o‘zini qo‘llab-quvvatlash zarurligini keltirib chiqaradi. Bu modelni amalga oshirish bosqichida yuqori sinf o‘quvchisining motivlari va qiziqishlarining aniqlashtirishga, individual ta’lim rejalarini tuzish uchun resurslarni qidirishga, oila bilan ishlashga, yuqori sinf o‘quvchilarining tanlovi va refleksiyasi uchun mas’uliyatining shakllanishiga yo‘naltirish mumkin. Jismoniy tarbiyaning xilma-xil innovatsion shakli, metodi va vositalaridan *faol foydalangan bolalar tarbiyasida ota-onalarning* faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning sog‘lom turmush tarzidan xabardorligini, bolalarning jismoniy rivojlanishiga ijodiy munosabati mavjudligi bo‘yicha bolada shaxsiy harakatning, o‘zini aniqlashning, tanlovning, qaror qabul qilishning, ta’lim muhiti sharoitida refleksiyasini shakllantiradi.

Pedagog-o‘qituvchi bu vaziyatda madaniyat va yuqori sinf o‘quvchilari orasidagi bog‘lovchi sifatida harakat qiladi, bunda yuqori sinf o‘quvchisining individual ta’lim talabini qondirishning madaniy shaklini o‘ziga qabul qiladi, uning ta’lim faolligini ta’minlaydi. Ushbu juftlikda (o‘qituvchi-yuqori sinf o‘quvchisi) aynan bilish faoliyatining turlari va usullari, yuqori sinf o‘quvchisi qiziqishining ilmiy yoki predmetlilik sohasi, bilim olishning mumkin bo‘lgan manbalari, o‘ziga xos qiyinchiliklar va xatolar, bosqichlar o‘qituvchi dasturlari va metodlari haqida bilimlarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga muloqot va dam olishning yangi shakllarini tanlash, jismoniy madaniyat va ta’lim jarayonida ishtirok etishga yordam beradi, o‘qituvchi yuqori sinf o‘quvchisi faolligining madaniy doirasini yaratishga qodir bo‘ladi. Ammo, maqsadni belgilashning va faollikning manbai yuqori sinf o‘quvchisidir – aynan u o‘z faoliyatining maqsadini, uning normalarini aniqlaydi, rejalashni, tashkil qilishni va nazoratni amalga oshiradi, eng asosiysi – amaliy ta’lim harakatini amalga oshiradi. Shu sababli zamonaviy ta’lim vaziyatida o‘rganuvchining ta’limni xususiy jarayoniga tan olingan buyurtmasi juda ahamiyatli hisoblanadi. Pedagog vazifasi yuqori sinf o‘quvchilarining o‘qishdagi qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlashda yordam berishdan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi faoliyati yuqori sinf o‘quvchilarining motivlari va qiziqishlarini aniqlashga, individual ta’lim rejalarini yaratish uchun resurslarni qidirishga, yuqori sinf o‘quvchisining tanlov va refleksiyasi uchun mas’uliyatining shakllanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilik pozitsiyasining mavjudligi ekologik yo‘naltirilgan ta’lim muhiti sharoitlarida maqsadni belgilashni, tanlashni, qaror qabul qilishni, o‘zini aniqlashni ta’minlaydi. O‘qituvchilik funksiyasi yuqori sinf o‘quvchilarining o‘quv

tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rasmiylashtirish; ularni ekologik sifatga ega bo‘lgan ijtimoiy loyihalashlarga jalb qilish; maktabda (jumladan, kunning ikkinchi yarmida) yoshiga mos ta’lim muhitini yuqori sinf o‘quvchisining ijtimoiy o‘zlashtirishini ta’minlash uchun tashkil qilish; oilaning ta’lim buyurtmasini quvvatlash; yuqori sinf o‘quvchilarini tanlovlarga, fan olimpiadalariga jalb qilish; har xil vaziyatlarda axloqiy madaniyatini shakllantirishdan, o‘quv, o‘zini o‘zi tashkil qilish, ya’ni nazorat va baholash, ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik jarayoni muammosini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Shunday qilib, yuqori sinf o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy yakuni faqat konkret ekologik bilimlarni egallashgina bo‘lmaydi. Yuqori sinf o‘quvchisi ijtimoiy-ekologik loyihalash va ekologik-o‘lkashunoslik tadqiqoti kabi ta’lim faoliyatlari bilan tanishadi, u ekologik ta’limning ahamiyatini tushunib yetadi. Yuqori sinf o‘quvchisi yoki talabaga hamroh bo‘lgan va ular uchun individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqqan o‘qituvchi bo‘lib ularga ta’lim jarayonida o‘zining eng yaxshi sifatlarini ko‘rsatishga yordam beradi. Qo‘llab-quvvatlash bunday yondashuvda yuqori sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya darslarida ekologik madaniyatni ta’lim berish va tarbiyalash jarayoni modelini amalga oshirishda zaruriy pedagogik sharoitni yaratuvchi shaxs hisoblanadi.

Yakuniy xulosalarni chiqargan holda shuni ta’kidlaymizki, yuqorida bayon qilingan pedagogik sharoitlarning har birini amalga oshirish alohidalash tamoyili asosida emas, balki yuqori sinf o‘quvchilari ekologik madaniyatini tarbiyalash jarayonida shaxsiy yo‘naltirilgan faoliyat, madaniy va muhit yondashuvlarining integratsiyasi, to‘ldirilishi va mos kelishi asosida amalga oshirilishi kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimi dolzarb masala bilan yuzlashmoqda. Ekologik axloqiy jismoniy tarbiyaning ustuvor ahamiyati u g‘amxo‘rlik qiladigan shaxsni shakllantirish, takomillashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, farovonlikni oshirish bo‘lib, mazkur yondashuv shaxsni faoliyatning subyekti sifatida qarash imkonini beradi, u o‘zi boshqa insonlar bilan faoliyatda va muloqotda shakllanadi, ushbu faoliyatning xarakterini ham aniqlaydi. Subyektlilik shaxsning ekologik muammolarini hal qilishda faol ijodiy pozitsiyasini aniqlaydi, bu esa yuqori sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyat tarbiyasi masalasini amalga oshirishda ahamiyatli hisoblanadi.

Mazkur yondashishni qo‘llay turib, o‘rganuvchilar bilimlarning amaldagi, dastlabki, dolzarb darajalarini refleksiyalashga o‘rgatishi va so‘ngra o‘z muvaffaqiyatlarini, o‘z shaxsiy yuksalishini baholashi mumkin bo‘ladi. Ya’ni tarbiyaviy ish shakllari, usullari va metodlarini qo‘llash jarayoni va natijasida shaxs tug‘iladi, u uning tabiatiga mos bo‘lgan faoliyat turlarini tanlash, baholash, dasturlash va konstruksiyalash qobiliyatiga ega bo‘ladi, o‘zini namoyon qilishda, o‘zini rivojlantirishda uning ehtiyojlarini qondiradi. Faoliyat yondashishi asosi psixologiyada B.G.Ananiyev, N.V.Posherstnik, L.S.Vigotskiy, Y.I.Pochekayeyeva ishlarida tadqiq qilingan.

Shunday qilib, umumiy maqsadlar sifatida o‘zining shaxsiy turmush faoliyatini amaliy turlantirishlar predmetiga aylantirishga, o‘ziga o‘zi munosabatda bo‘la olishga, o‘zini baholashga, o‘z faoliyati usullarini, qiziqishlarini, qadriyat yo‘nalishlarini, uning kechishini va natijalari nazoratini hisobga olgan holda tanlashga qodir shaxsni tasavvur qiladi.

Shu bois, tadqiqotimiz doirasida harakatli yondashish ekologik madaniyat tarbiya jarayonining bunday modelini yaratishda shunday ifodalanadi, u yuqori sinf o‘quvchilari ekologik faoliyatining har xil turlarida shaxsning o‘zini namoyon qilishi va rivojlantirishini stimullashtirish maqsadida qamrab olish vaziyatini yaratadi.

Tadqiqotimiz uchun zarur bo‘lgan shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashishning asosiy xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz (Y.P.Pivovarov, A.V.Xutorskoy va boshqalar).

Mazkur yondashish tadqiqotimiz asosida ta’lim va tarbiya hamkorligida individuallashtirish va differensiallashda, o‘rganuvchilarning har biri bilan ishonchli munosabat o’rnatishda, yuqori sinf o‘quvchilarining individual-shaxsiy xususiyatlarini bilishda ifodalanadi.

Y.P.Pivovarov fikri bo‘yicha shaxsiy yo‘naltirilgan pedagogikadir. Yondashishning ekologik faoliyatida qiziqish, muammolilik, shaxsiy jalb qilinish kabi xususiyatlar hisobga olinadi. Bunda bilimlar va normalarni shaxsiy-ahamiyatli sifatida o‘zlashtirish amalga oshadi. Bunda shaxsning qadriyatli-emotsional sohasini rivojlantirish, uning tabiatga shaxsiy munosabatlari, faoliyati, shaxsiy pozitsiyasi ustun hisoblanadi. Shunday qilib, shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashishning natijaliligi, avvalo, o‘quvchining shaxsiy yuksalishlari, jumladan, ekologik madaniyatning shakllanish darajasining ortishi bilan xarakterlanadi [163; 60-b.]. U mazkur yondashishda tarbiya masalalarini ishlab chiqish uchun umumnazariy asosni tayyorladi (R.I.Aleksandrova, R.S. Salomov, Y.M.Akopyan, D. Bobileva va boshqa).

Y.M.Akopyan fikri bo‘yicha jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yondashishning quyidagi komponentlarini ajratadi, ular esa tadqiqotimiz mantig‘ida yuqori sinf o‘quvchilari ekologik madaniyatini tarbiyalash jarayonida ahamiyatli bo‘ladi:

bolaga madaniy rivojlanuvchi va o‘zini o‘zi o‘zgartirishga qodir turmush subekti sifatida munosabat;

pedagogika bola va madaniyat orasidagi, uni madaniyat olamiga yetaklab kirishda va bola shaxsiga uning ma’naviy-axloqiy qadriyatlar olamida individual o‘zini aniqlashishida qo‘llab-quvvatlashga qodir ko‘prik sifatida munosabat;

tarbiyaga harakatlantiruvchi kuchlar, shaxsiy munosabat, dialog va undagi ishtirokchilarning shaxsiy rivojlanishdagi maqsadlariga erishishdagi hamkorlikdagi bo‘ladigan madaniy jarayon sifatida munosabat;

maktabga butun madaniy-ta’lim fazosi sifatida munosabat, bunda bolalar va kattalarning birgalikdagi turmushlarining madaniy namunalari modellashtiriladi va qayta tuziladi, madaniy hodisalar yuzaga keladi, madaniyatli ijod qilish va madaniyat kishisini tarbiyalash amalga oshadi.

Madaniyatli yondashish olam haqida bilimlarni, faoliyat usullarining mavjudligi tajribasini, real olam obektlari va jarayonlariga emotsional-qadriyatlar munosabat tajribasini ajratishga asoslangan. Bu vaziyatda tabiiy birlashmalarda aloqa va munosabatlarni o‘rganishdan “inson – jamiyat – tabiat” tizimidagi aloqa va munosabatlarga o‘tishni amalga oshirish ahamiyatli bo‘ladi. Ekologik muammolarni madaniyatli yondashuv nuqtayi nazari pozitsiyasidan hozirgi zamon global muammoli sabablarini chuqur ko‘rib chiqish, ularni insonning o‘z-o‘ziga va atrof-muhitga qadriyat munosabatining o‘rnatilishi asosida hal qilish imkonini beradi, amaliy faoliyatning usullari shaxs tomonidan madaniyatning o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Ushbu yondashish oxir-oqibatda yagona madaniy-ma’rifiy fazoni yaratishni ta’minlaydi, unda esa yuqori sinf o‘quvchisi shaxsining shakllanishi yuksaladi. Talablarni ta’limdagi hozirgi sharoitga moslashtirib rivojlantirishning amaliy sharti sifatida muhitga yondashishi va unga mos holda ta’lim muhiti maydonga chiqadi.

Muhitga yondashishning asoschilari (G.P.Vogdanov, A.G.Vannikov, A.A.Vakulin, A.K.Rustamov, V.T.Kozlov va boshqalar) uning mohiyatini shunda ko‘radi, bolalar ularni umumiylik sifatida o‘rab olgan, bolalarning o‘zlari pedagoglar, ota-onalar, ijtimoiy sheriklar va maktab do‘stlari yordamida yuksaltiradigan ushbu muhitni qabul qilishini tashkil qilish orqali tarbiyalanadi.

G.P.Vogdanov tomonidan vatanparvarlik pedagogika muhitida potensial tarbiya vositasi sifatida qabul qilinadi. U bolalar rivojida muhitning ortib boruvchi rolini va uning tarbiya tizimi bilan kuchli o‘zaro ta’sirini ta’kidlaydi. G.P.Vogdanov muhitning quyidagi ta’rifini taklif qiladi: “subekt nimaning ichida bo‘lsa, nimaning ta’sirida uning turmush tarzi shakllansa, o‘sha narsa uning shaxsini ham “o‘rtalashtiradi”. Bunda o‘rtalashtirish deganda tipiklashtirish nazarda tutiladi. O‘rtalashtirish – nimagadir qo‘zitish, yordam berish, imkon berish, yuzaga keltirishdir. O‘rtalashtirish – demak yo‘nalishini o‘zgartirmoq, ta’sir qilmoq, yuqori darajaga ko‘tarilish demak.

1. Tadqiqotimiz mantig‘ida mazkur yondashish muhit strukturasi nuqtayi nazaridan

ahamiyatli. G.P.Vogdanov fikriga ko‘ra, muhit tabiiy sharoitlar va stixiyalardan tashkil topadi, uning ichida bolalarning turmushi o‘zaro ta’siri asosida kechadi. Tabiiy sharoitlar (tabiiy, ijtimoiy, madaniy) – bu o`quvchilarga o‘zlarining ehtiyojlarini qondirish va ular tomonidan o‘z subektiv fazilatlarini namoyon qilish imkonini beruvchi ma’lum fazodir. Stixiya – bu tartibsiz, hech nima bilan ushlab turilmaydigan, tabiiy va ijtimoiy muhitdagi ijtimoiy harakat, axborot oqimi, nimagadir qiziqish to‘lqini, kayfiyatlarning o‘zgarishlari va boshqa shaklda harakat qiluvchi kuch. Stixiya o‘quvchilar ustidan zo‘ravonlik hukmiga ega va ular tomonidan o‘zini o‘zi rivojlantirishni ta’minlaydi.

2.

Foydalangan adabiyotlar

1. Исакулова Н.Ж. Узлуксиз таълим жараёнида ўқувчиларга фанлараро экологик тарбия беришнинг назарияси ва амалиёти (Умумий ўрта таълим ва педагогика коллежининг “Бошланғич таълим” йўналиши мисолида). Дис. .. пед. фан. док. – Тошкент: ЎМКНТТКМО ва УҚТИ, 2012 – 288 б. 4 .

3. Киселева А.С. Гигиеническое обоснование osenki физического развития городских школ в системе популяsионного мониторинга: Дис. … канд. мед. наук. 14.02.01. – Нижний Новгород, 2014.

4. Королев А.А., Несвийский Е.В., Никитенко Е.И. Микробиология, физиология, питание, санитария и гигиена. В 2 в.п. Ч.1: Учебник. – М., Академия, 2017. – 540 с.

5. Краснайон С.В. Клинико-физиологическое обоснование и восстановительная корреksия уровня здоровья школьников: Дис. ... канд. мед. Наук. 14.03.11. – М., 2017.

6. Ксензова Г.Е. Инноваsионные технологии обучения и школьного образования. – М., ПО России, 2008. – 108 с.

7. Куликова Т.А. Семейная педагогика Учеб. – М., Академия, 2016. – 72 с.

8. Курзанов А.Н., Заболоцкий Н.В., Ковалев Д.В. Функциональный резерв организма. 75-е годы

9. Лазарев Н.В. – М., Медицина, 1987. – 97 [2] с.: ил. -(Выдаущиеся деятели отечественной медиsины и здравоохранения).

10. Матвиева Н.А., Леонов А.В. Гигиена и экология человека. Учебник. – РФ.: Финкс, 2017.

11. Назарова Н.М. Сравнительная специальная педагогика: Учебное пособие. – М., Академия, 2018. – 204 с.

12. Неверковича С.Д. Педагогика физической культуры. Учебник для студентов ВУЗов. Под ред. – М., Академия, 2017. – 46 с.

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
“Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı”
ISSN 2181-2268

O‘zbekistan davlat jismoniy tarbiyasi va sport universiteti Nukus filiali
“Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi”
ISSN 2181-2268

A.Alimbetova[1] M.Bekmuratov[2]
O‘qituvchi[1,2]
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali

JISMONIY TARBIYA VA TA’LIM JARAYONIGA HARAKATLI (MILLIY) O‘YIN VOSITASINING PEDAGOGIK TA’SIR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Maqolada jismoniy tarbiya va ta’lim jarayoniga harakatli (milliy) o‘yin vositasining pedagogik ta’siri, jismoniy tarbiya jarayonida harakatli o‘yinlar o‘ta samarali vosita ekanligi, bolalarni harakatli o‘yinlar orqali sog’lom, harakatchan qilib tarbiyalash haqida fikr yuritilgan*

Kalit so‘zlar: *bolalar, jismoniy tarbiya, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, ta’lim, ijtimoiy, ilmiy.*

Аннотация: *В статье утверждается, что педагогическое влияние родвижным (национальной) игры на физическое воспитание и процесс обучения заключается в том, что родвижные игры являются очень эффективным инструментом в процессе физического воспитания для воспитания детей здоровым, активным образом с помощью родвижных игр.*

Ключевые слова: *дети, физическое воспитание, педагогика, психология, анатомия, физиология, образование, социальная, научная.*

Annotation: *The article argues that the pedagogical impact of mobile (national) play on physical education and learning process is that mobile games are a very effective tool in the process of physical education to bring up children in a healthy, active way through mobile games*

Key words: *children, physical education, pedagogy, psychology, anatomy, physiology, education, social, scientific.*

Kirish. Jismoniy tarbiya oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda barcha o‘quv yurtlari ta’lim tizimdagi yosh avlodni jismoniy baquvvat, chaqqon, irodali, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish uchun jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlarini “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish choratadbirlari to‘g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002-yil 24-oktyabrdagi PF-31-54 sonli “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasini tuzish” to‘g’risidagi Farmoni va uni bajarish tadbirlariga suyangan holda yangi usullar bilan tashkil qilish va o‘tkazish maqsadida muvofiqdir. Ushbu ishlar samarali bajarilishi uchun bolalarning eng kichik yoshdan boshlab milliy harakatli o‘yinlar vositasi bilan jismoniy salamatlik “poydevorini qurish”ni amalga oshirish mumkin.

Maktab davridan boshlab o‘quvchilarning ma’naviy, jismoniy va funksional shakllanishida harakatli o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. Standart mazmundagi vazifa, ko‘rsatma yoki mehnat va sport mashqlarini bajarish kishini tez toliqtiradi. Lekin shunday harakatlarni milliy o‘yinlar asosida ijro etish odamning ruhiyatiga ijobiy ta’sir etib, charchash muddatini orqaga suradi. O‘yinlar o‘zining hammabopligi (universalligi), ko‘p funksionalligi va keng ta’sirchanligi bilan xilma-xil toifalarga bo‘linadi. Jumladan, jismoniy sifatlar, nuqt, talaffuz, merganlik, tadbirkorlik, hisob va hokazo hislatlarni rivojlantiruvchi o‘yinlari shular jumlasiga kiradi. Lekin, qanday o‘yin bo‘lmasin, unda harakat elementi yoki harakatlar majmuasi mavjud bo‘ladi.

Asosiy qism. Ma’lumki, harakatli o‘yinlar turli xalq va elatlarning rasm-rusumi, udumi, an’analari hamda etnogenetik xususiyatlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham bunday harakatli o‘yinlarni ko‘pincha xalq o‘yinlari deb yuritiladi.

Qadimgi mutafakkir-olimlar va pedagoglar insonda saxiylik, rostgo‘ylik, vatanparvarlik hissiyoti, raqibga nisbatan hurmat va tabiatni e’zozlash kabi xislatlarni aynan milliy o‘yinlar ta’sirida tarbiyalash imkoni yuqori ekanligini e’tirof etganlar. Bu borada, ayniqsa, o‘zbek xalq harakatli o‘yinlari turli hayotiy muhim odatlarni, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish qudratiga egadir. Xalq o‘yinlari shu xalqning kashfiyotidir. Shuning uchun ushbu o‘yinlar uning ongida, ro‘zg’or ishlarida, oila va mahalla tarbiyasida faol o‘rin egallaydi.

Harakatli o‘yinlar, shu jumladan xalq milliy o‘yinlari noyob qadriyat sifatida faqatgina mamlakatimiz

o‘z mustaqilligiga erishgandan keyingina qayta tiklanib, hozirgi kunda aholi, ayniqsa o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida keng va jadal ommalashib bormoqda. Xalq harakatli o‘yinlari ilmiy obyekt sifatida borgan sari tadqiqotchi olimlar e’tiboridan mustahkam o‘rin egallamoqda.

Jismoniy tarbiya jarayonida harakat malakalari va jismoniy sifatlarni shakllantirishda harakatli o‘yinlar o‘ta samarali vosita ekanligini isbotlovchi talaygina ilmiy adabiyotlar nashr etilgan (L.V. Bileyeva, I.M. Korotkov, 1982; I.M.Korotkov, 1988; M.S. Bril, 1980; T.S.Usmanxo‘djayev, F.X.Xo‘jayev, 1990, 1992; A.I.Lisista 1991; T.S.Usmanxodjayev, X.A. Meliev, 2000; V.V. Kuzin, S.A. Polievskiy, 2000; F. Kerimov, N. Yusupov, 2002). I.M.Karotkov (1982)larning fikricha, zamonaviy sport o‘yinlarida jismoniy sifatlar, texnik va taktik mahoratni shakllantirish uchun o‘yin uslublaridan qanchalik ko‘p va mohirona foydalanilsa, shunchalik sportchilarning qobiliyatlari va mahorati yuqori saviyada o‘sishi mumkin. To‘g’ri, bir qaraganda sport o‘yinlari o‘zi o‘yinlardan iborat bo‘lib, yana turli o‘yinlardan foydalanish "ortiqcha yukday" ko‘rinadi. Lekin bunday tushuncha batamon noto‘g’ri. Chunki pedagogika, fiziologiya va psixologiya fanlariga oid ilmiy ma’lumotlarga asosan, jismoniy sifatlar, texnik-taktik malakalar va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirishda an’anaviy ixtisoslashtirilgan va standart mashqlarni qo‘llash, ayniqsa, dastlabki o‘rgatish jarayonida yosh shug’ullanuvchilarni tez charchashiga, qiziqishning susayishiga olib keladi. Harakatli o‘yinlar esa, aksincha, bolaning emostional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, charchash alomatlarining vujudga kelishi “orqaga” suriladi, eng asosiysi bolaning irsiy (genetik) qobiliyatlari hamda yangi harakat malakalari paydo bo‘lishi mumkin (I.M. Korotkov, 1971; 1979; A.I. Lisistina, T. S. Usmanxodjayev, 1985; M.N. Jukov, 2003; I. Vlasyuk, 2005 va boshqalar). Agar, voleybol o‘yiniga mos harakatli o‘yinlar saralab olinsa va bu o‘yinlar voleybol to‘pi bilan ijro etilsa samara yanada yuksakroq bo‘ladi (M.A. Kurbanova, 2003).

Bunday o‘yinlarga masalan, “To‘p uzat - o‘tir”, “To‘p uzatib estafeta yugurish”, “To‘pga to‘siq qo‘y" va boshqa shunga o‘xshash o‘yinlarni kiritish mumkin. Sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini shakllantirishda harakatli o‘yinlarning ahamiyati va ularning afzalligi qator ilmiy-uslubiy adabiyotlarda qayd etilgan [20]. A.I.Lisista (1991)ning fikricha harakatli o‘yinlar nafaqat jismoniy sifatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishga qodir, balki aniq mo‘ljalga olish, aniq harakat, diqqat kabi xislatlarni ham samarali rivojlantirishi mumkin. Shunday ixtisoslashgan o‘yinlar borki, ularni muntazam qo‘llash natijasida yosh sportchilarning maxsus jismoniy sifatlari va texnik tayyorgarligining taraqqiy etishi sezilarli darajada ancha oson kechadi.

Harakatli o‘yinlar bo‘yicha O‘zbekistonda yetakchi mutaxassis-olimlar T. Usmanxodjayev va F. Xo‘jayevlar (1992) turli yo‘nalishdagi harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazish masalalariga oid qator tavsiyalar berib o‘tishgan. Jumladan, ularning fikricha harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazishda bir qator masalalarga e’tibor berish maqsadga muvofiq. 1. O‘quvchilarning jismoniy barkamolligi, salomatligini yaxshilanishiga, chiniqishiga, tana a’zolari va umumiy ish qobiliyatining o‘sishiga yordam berish. 2. Erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan bilimlar va hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantirish. 3. Ruhiy, aqliy, kasbiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish. 4. Umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash; 5. Jasurlik, topqirlik, zukkolik, tadbirkorlik xislatlarini rivojlantirish shular jumlasidandir. Mualliflar turli sinf o‘quvchilariga mos o‘yinlar, yilning turli fasllarida, kunduzgi va kechqurun o‘ynaydigan o‘yinlarni saralab berishgan va ularning mohiyatini yoritishga muvaffaq bo‘lishgan. Eng asosiysi, mutaxassislar maktab sport seksiyalarida, jumladan, sport o‘yinlari bilan shug’ullanuvchi bolalarga “Mushuk va sichqon”, “Bo‘sh joy”, “Qoziq”, “Bo‘ri zovur ichida” kabi o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb ta’kidlaydilar. Yuqorida tahlil etilgan ilmiy va uslubiy adabiyotlar yoshlikdan boshlab jismoniy tayyorgarlikni rivojlantira borish, nafaqat bolalarni chiniqtirishda, ularning sog’ligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlab beryapti, balki ularni sportga bo‘lgan qiziqishi ortishiga, sport mashg’ulotlarida o‘rnatiladigan texnik-taktik malakalarni tezroq o‘zlashtirishlariga imkon yaratishni ko‘rsatib berdi. O‘z navbatida yosh bolalar jismoniy sifatlarining samarali shakllanishida harakatli o‘yinlar o‘ta samarali vosita ekanligini ochib berdi. Lekin ushbu adabiyotlar sharhidan ko‘rinib turibdiki, qaysi jismoniy sifatlarni rivojlantirishda qanday harakatli o‘yinlardan foydalanish ma’qulligini yoritib beruvchi ma’lumotlar nihoyatda kam o‘rnatilgan. Muhokamalar va natijalar. Yosh avlodning jismoniy jihatdan to‘kis, sog’lom, Vatan himoyasiga tayyor, baquvvat tarzda o‘sib-ulg’ayishidan, xalq ham, jamiyat ham manfaatdor, buning uchun o‘quvchilar jismoniy tarbiya bilan chuqur shug’ullanishlari, turli milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari zarur. Bu esa yosh valod tarbiyasiga e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni

o‘z xalqi, mustaqil davlati va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g’oyat muhim vazifalar bilan bog’liq tarzda maktabda o‘qiy boshlagan birinchi kunidanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakillantirish imkonini yaratadi. Bunda jismoniy tarbiyaning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlari juda qo‘l keladi, chunki bu o‘yinlar bolalarni ruhiy, jismoniy, ma’naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo‘lgan sog’lom, yetuk va komil inson qilib tarbiyalash mustaqil yurtimiz kelajagining zamini mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi.

Milliy xalq harakatli o‘yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o‘zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun-qoidalari va o‘zining muayyan izini qoldirgani haqiga yuqorida to‘xtalgan edik. Ba’zi o‘yinlarning nomi va qoidalari hozirgacha saqlanib qolgan. Ana shunday o‘yinlardan foydalanishda bolalarga jismoniy tarbiyadan tashqari tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishni ham zarardan soqid qilmaslik, ularni ijodiy qo‘llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak. Masalan, “Uloq” o‘yini deganda odatda ot bilan o‘ynalanadigan, chavandozlar haqiqiy uloq uchun kurashadigan qadimiy ko‘pkari o‘yini tushuniladi. Bolalarga mo‘jallangan “Uloq” o‘yini otsiz o‘tkaziladi, o‘yinchilar, bir parcha echki terisi yopishtirilgan to‘ldirma to‘pni olish uchun kurashadilar. O‘yin qoidalarining ba’zi jihatlari qolganlarinikiga o‘xshab ketadi. Tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni tarbiyalovchi bu o‘yin katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, bunda bir-birini hurmat qilish, samimiy munosabat, qo‘pollik qilmaslikka e’tibor beriladi. Xalq milliy harakatli o‘yinlarni bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘g’il bolalarning qiziqishini oshiradi, unga zavq bag’ishlaydi, ish qobiliyatini tezroq tiklanishini ta’minlaydi. O‘yinda bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishiga harakat qiladilar.

Xalq milliy harakatli o‘yilarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega. Shuning uchun ham o‘yinlarga umumiy jismoniy ta’sir ko‘rsatuvchi mashq sifatiga qarash lozim. Birorta o‘yin yo‘qki, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantiruvchi mashq bo‘lib hisoblanmasin. Masalan, “Do‘ppi kiyishda kim g’olib?” milliy o‘yinida faqat chaqqon bo‘libgina qolmay, balki epchil, sezgir bo‘lishi kerak. Jismoniy tarbiya tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan-bir va yagona maqsadi – insonni sog’lom va to‘g’ri yashashga tayyorlashdir. Maktab o‘quvchilari jismoniy tarbiyaning vazifalarini bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy tarbiyaning umumiy maqsadi ko‘zdan qochirilmaydi. Maktabda o‘quvchilarni jismoniy tarbiyasida sog’lamlashtirishni, ta’lim berishi va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirishi ko‘zda tutiladi.

Xulosa, yuqorida qayd etilgan harakatli o‘yinlarga xos nazariy mulohazalar ularning jismoniy tarbiya va sport borasidagi salohiyatini belgilab beradi. Demak, yosh sportchilarni tayyorlashda harakatli o‘yinlarni, jumladan, xalq milliy o‘yinlarining ahamiyati beqiyosdir. Milliy xalq harakatli o‘yinlari o‘quvchilarda xalqning madaniy boyliklari haqidagi tasavvurini ma’lum darajada kengaytiradi, ularni hozirgi hayotga singdirishga yordam beradi. Chunki milliy harkatli o‘yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridan bo‘lib, o‘quvchilarni aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o‘yinlarining ruhi, tabiati, xarakteri, ishtirokchilarning xatti-harakatilari kabi jihatlariga e’tibor berish zarur.

Foydalangan adabiyotlar

1. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. -Тошкент, 2000 й.

2. Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. –Тошкент, 2001й.

3. Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. –Тошкент, 2002 й.

4. Шарипов Т.Ю., Усмонходжаев Т.С. Жисмоний тарбия. Дарс ишланмалари ва ҳаракатли ўйинлар. 2005 й.

A.Alimbetova
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali

ERKIN KURASHCHILARNI TEXNIK HARAKATLARGA O‘RGATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH METODIKASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalaridagi talaba yoshlarda tashkil etiladigan erkin kurash sport turi bo‘yicha sport mashg‘ulotlari jarayonida shug‘ullanuvchilarning texnik va taktik harakatlarga o‘rgatishda raqamli texnologiyalardan samaroali foydalanish metodlari haqidagi asosli ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, erkin kurash sport mashg‘ulotlari jarayonlarida talaba yoshlar tomonidan o‘rganilgan kurash usullarini raqamli texnologiyalar orqali individual uslubda talaba yoshlar tomonidan o‘zlarining xato va kamchilliklarini tuzatishlari hamda texnik harakatlarini takomillashtirishga doir amaliy va nazariy materiallar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *harakatlarga o‘rgatish, umumiy jismoniy tayyorgarlik, texnika, taktika, induvidual tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar, jismoniy sifatlar.*

Аннотация: *В статье представлены основные сведения о методах эффективного использования цифровых технологий при обучении технико-тактическим движениям студентов в спортивных тренировках по борьбе, организуемых для молодѐжи в высших учебных заведениях. Также в процессы борцовской спортивной подготовки были включены практические и теоретические материалы по исправлению ошибок и недостатков и совершенствованию технических движений обучающихся в индивидуальном порядке посредством цифровых технологий.*

Ключевые слова: *двигательная тренировка, общая физическая подготовка, техника, тактика, индивидуальная тренировка, цифровые технологии, физические качества.*

Annotation: *The article presents basic information about the methods of effective use of digital technologies when teaching technical and tactical movements to students in wrestling sports training organized for youth in higher educational institutions. Also, the processes of wrestling sports training included practical and theoretical materials on correcting errors and shortcomings and improving the technical movements of students individually through digital technologies.*

Key words: *motor training, general physical training, technique, tactics, individual training, digital technologies, physical qualities.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalarida faol qo‘llanilmoqda. Iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek, sport ta‘lim jarayonini ham tez sur‘atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatmizda kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi barcha sportchilar, jumladan yosh sportchilardan tortib katta sport arenalarida kurashayotgan talabalarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o‘rtasidagi raqobat masalasi ham ko‘tarilmoqda. Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so‘zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o‘rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog‘liq masalalar tobora ko‘proq e‘tiborga olinmoqda. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa

yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, sifatli ta‘lim va xizmatlar deganidir. Raqamli‖ atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi.

Ishning maqsadi Erkin Kurash sport mashg‘ulotlari davomida talaba yoshlarga texnik harakatlarni o‘rgatishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: - talaba yoshlarda erkin kurash sport turining dastlabki texnik tayyorgarlik uslubining mazmuni va uslubiy shart-sharoitlarini aniqlash;

- erkin kurash bo‘yicha sportchilarning tayyorgarlik jarayonlarini o‘rganish va o‘rgatish hamda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchilliklarni raqamli texnalogiyalar vositalari asosida bartaraf etish ketma-ketlik algoritmini ishlab chiqish;

- texnik harakatlarga o‘rgatish bosqichida shug‘ullanuvchi oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kurash sport turining texnik harakatlarini oqilona shakllantirish metodikasini takomillashtirish; - oliy ta‘lim muassasalaridagi jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan talabalarga kurashning texnik harakatlarini o‘rgatishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali dastlabki o‘rgatishda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajribada tekshirish.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili: Mamlakatimizdagi olimlar hamda xorijlik yetuk olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ishlarini ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish natijalari shundan dalolat beradiki, Oliy ta‘lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba yoshlarning jismoniy tarbiyasi va kurash sport turi bo‘yicha tashkil etiladigan sport mashg‘ulotlari borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, K.T.Yusupov, J.T.Toshpo‘latov, J.M.Nurshin, A.R.Taymuratov, F.A.Kerimov, N.A.Tastanov T.S.Usmanxodjayev va boshqalarning ilmiy ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Talaba yoshlarning kurash sport turidagi jismoniy tayyorgarliklari bo‘yicha tahlil qilish hamda ularga, jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik jarayonlari bo‘yicha ilmiy nazariyasi va uslubiy ishlar olib borgan V.V.Nelubin, I.R.Rasulov, M.M.Bogen, R.A.Piloyan, L.S.Vigotskiy, L.P.Matveyev, V.V. Davidov, O.A.Sirotin, A.M.Kuzmin, N.G.Ozolin singari olimlar hamda; yakka kurashchilardagi harakat ko‘nikmalarini shakllantirish konsepsiyasining asoschilaridan bo‘lgan K.T.Yusupov, R.D.Xalmuxamedov, A.A.Karelin kabi olimlar tomonidan yaratilgan fundamental adabiyotlar bu tadqiqot ishida atroflicha o‘rganilgan. Errkin kurash sport turi mashg‘ulotlarining oldiga talabalar bilan o‘quv-mashg‘ulot va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish vazifasini qo‘yilgan. Mashg‘ulotlar mazkur oliygohda va unga yaqin joylashgan sport majmuada ta‘lim oladigan talabalar hisobidan komplektatsiya qilinadi, bu, muvaffaqiyatli ta‘lim olish, muntazam mashg‘ulotlar va ommaviy-sport tadbirlarini uyg‘unlashtirish uchun qulay sharoitlarni ta‘minlaydi. Erkin kurash sport turi mashg‘ulotlari rejimni to‘g‘ri rejalashtirish sport bilan har kuni shug‘ullanish, iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda esa kuniga ikki marta shug‘ullanish imkoniyatini beradi. O‘quv-tarbiyaviy ishlar mashg‘ulot o‘tkazish jarayoni uslubiyatini ishlab chiqish hamda tashkil qilish bo‘yicha biz tomonimizdan o‘tkazilgan dastlabki tadqiqotlar kurash sport mashg‘ulotlari talabalarning Erkin kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi fanlari dasturi bo‘yicha davomati oshganligini, salomatlik holatining yaxshilanganligini ko‘rsatdi. Talaba yoshlarning, kasallik tufayli dars qoldirishlari kamaydi, ancha intizomli va uyushqoq bo‘lib qolishdi. Ushbu sharoitlarda murabbiylarning talaba yoshlarning ota-onalari, tyutorlari va kafedra mudir hamda dekanlari bilan mahsuldor aloqani o‘rnatishlari oson bo‘lishini hisobga olish kerak. Kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga qabul qilish

uchun talabalarning xohish istaklari, ota-onalari roziligi asosida kurashning biror bir turi bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishlari asosiy mezon hisoblangan. Jami tajriba guruhiga talaba yoshlardan 140 nafari kiritildi. Dastlab umumiy jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Kurash sport turlarining har xil turlaridagi vositalardan foydalangan holda bo‘lajak kurashchilarni tayyorlash bo‘yicha istiqbolli o‘quv-mashg‘ulot rejasi, bilimli va keng ma‘lumotga ega bo‘lgan yuqori natijalarga erishish ko‘zda tutilgan sportchilarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlar rejasi ishlab chiqildi. Talaba yoshlarning salomatligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tadbirlar belgilandi. Rejada kurashchi talaba yoshlarning salomatliklari holatini kuzatish uchun doimiy tibbiy kuzatuv nazarda tutilgan. Talaba yoshlarning ma‘naviy o‘sishi ham e‘tiborsiz qolmagan. Ekskursiyalar, badiiy havoskorlik konsertlari, o‘qish va mashg‘ulotlarning yakunlarini muhokama qilish tayyorgarlik dasturi tarkibiga kiritilgan.

Tadqiqotlar davomida biz quyidagi savollarga obyektiv javoblar olishga intildik:

- Oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib boradigan kurash sport turi mashg‘ulotlarida talaba yoshlar bilan tashkiliy va uslubiy ishlarni qanday o‘tkazish kerak?;

- talabalar orasidan o‘sib kelayotgan va yuqori malakaga ega bo‘lgan kurashchilar bilan ishlashda tayyorgarlikning qanday hammabop vositalarini qo‘llash maqsadga muvofiq?;

- erkin kurash sport turi mashg‘ulotlari haftasiga necha marotaba va qancha vaqt davomiyligida yoki bir mashg‘ulot vaqti qancha (daqiqa, soat) bo‘lishini xohlaysiz? - kurash sport turi mashg‘ulotlarida yoki individual tayyorgarlik jarayonlarida kurashchilar raqamli texnologiyalardan foydalan oladimi?

- sizningcha kurash mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning qanday ustunlik tomonlari bor?

- erkin kurash sport turida yuqori natijalarga erishishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati bormi? - kurash sport mashg‘ulotlari va bellashuvlar jarayonlarida siz o‘zingizning ruhiy-irodaviy, faolligingizni raqamli texnologiyalardan foydalanib aniqlay olasizmi? Tadqiqot olib borgan Oliy o‘quv yurtlarimizda o‘tkazilgan so‘rovnamadan olingan natijalarga ko‘ra, hozirgi kunda talabalar kurash sport turi mashg‘ulotlarini o‘tkazishning tashkiliy va uslubiy tuzilishi modeli va raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi to‘liq ishlab chiqilmagan va mashg‘ulotlarni olib borish bo‘yicha professor-o‘qituvchilarda yetarlicha tajriba va tushunchalar yo‘qligi aniqlandi. Biz ushbu olingan natijalarga tayanib, oliy o‘quv yurtlarida kurash sport turi mashg‘ulotlarini o‘tkazishning takomillashtirilgan tashkiliy va uslubiy tuzilishi modelini ishlab chiqdik, u, o‘z navbatida, quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, modelning asosiy maqsadi qilib Oliy o‘quv yurtlarida talabalarining kurash sport turi texnik harakatlarini oson o‘zlashtirishlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini yaratish belgilab olindi. Biz model maqsadiga asosan quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

1. OTM larda kurash sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlarining tashkiliy va uslubiy tarkibi mazmunini shakllantirish.

2. OTM larda kurash sport turi texnik harakatlirini o‘rgatuvchi dasturiy va uslubiy ta‘minotini ishlab chiqish.

3.OTM larda kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi kurashchilarning natijalarini tahlil qilish va yaxshilash metodikasini takomillashtirish.

Ushbu vazifalarga erishish uchun o‘quv jarayonining funksional modullari ishlab chiqildi va takomilashtirildi, motivatsion, ya‘ni sportchilarning psixologik tayyorgarligining boshlang‘ich tushunchasi bo‘lib unda talabalarni kurash sport turi mashg‘ulotlariga nisbatan barqaror motivatsiya, ijodiy va tashabbuskor munosabatni shakllantirishda hamda harakatlar texnikasini shakillantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanildi, metodika sport sohasida mavjud uslublarni takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, bizning ishimizda tayyorgarlik turlari: Nazariy tayyorgarlik, Umumiy jismoniy tayyorgarlik, Maxsus jismoniy tayyorgarlik, Texnik-taktik tayyorgarlik,

Psixologik tayyorgarlik, O‘tkazish-nazorat sinovlari, Hakamlik va yo‘riqchilik amaliyoti, Musobaqalarda ishtirok etish, Tiklanish tadbirlari va Mustaqil ta‘limni qo‘llash metodikasi takomillashtirildi va kurash mashg‘ulotlari jarayoniga tatbiq etildi hamda amaliy modul natijasida talabalarda kurash sport turi texnik harakatlarini oson o‘zlashtirish, jismoniy, psixologik tayyorgarlik darajasini nazorat qilish, sport me‘yorlarini bajarish imkoniyatlari kengaytirildi. Shuningdek nazorat-tuzatish moduli orqali shug‘ullanuvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi xato va kamchiliklari raqamli texnalogiyalar orqali nazorat qilinib tezkor bartaraf etish mexanizmlari qo‘llanildi. Natijada, shug‘ullanuvchilarda kurash sport turi bo‘yicha sport mashg‘ulotlari jarayonida qo‘yilgan vazifalarni bajarish, olingan bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llay olish va samarali natija, ya‘ni musobaqalarda ishtirok etish, sport me‘yorlarini bajarish hamda sport musobaqalarini tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallash imkoniyatlari kengaytirildi. Oliy o‘quv yurtlarida kurash sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlari uchun dasturiy ma‘lumot alohida qismlarida guruhlashtirilgan mashg‘ulotlar ko‘rinishida berilgan. Hajmi bo‘yicha bu eng katta va mujassamlashtirilgan bo‘lim. Uning tarkibida asosiy vositalar nomlari, usullari va ularni bajarish rejimlari joy olgan. Ko‘p yillik mashg‘ulot tuzilmasining kelib chiqish birligini chuqur tushunish maqsadida metodik maslahatlarda qisqa masofaga bo‘lajak kurashchilarni tayyorlash jarayonida standart o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyasi va mazmunini qo‘llash metodikasini o‘z ichiga oladigan asosiy qoidalar bayon etilgan.

Avvalambor, ko‘p yillik sport mashg‘ulotining tuzilmasini o‘z ichiga oladigan asosiy qoidalar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Kurashchi talaba yoshlarning sport mashg‘uloti tuzilmasi quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi: a) tayyorgarlikning har xil tomonlarining aniq nisbati (masalan: jismoniy va psixologik); b) mashg‘ulot yuklamalari ortishining kerakli nisbati (masalan: hajmi va izchilligi); v) mashg‘ulot jarayonini har xil bo‘g‘inlarining ketma-ketligi maqsadi va mazmuni (masalan bosqichlar, qismlarning (L.P.Matveyev)); Kurashchi talaba yoshlarning ko‘p yillik sport mashg‘ulot tizimini to‘liq ko‘rib chiqib, quyidagi tuzilmaviy tarkibiy qismlarga ajratildi: 1. O‘quv mashg‘ulotlari. 2. O‘quv mashg‘ulotlari va uning qismlari. 3. Mikrotsikllar. 4. Mezotsikllar. 5. Makrotsikllar (yillik va yarim yillik mashg‘ulot davri). 6. Ko‘p yillik mashg‘ulotning bosqichlari (1 yildan 7 yilgacha). Ushbu bosqichlarning har biri kurash bilan shug‘ullanuvchi talabalar uchuun muhim ahamiyatga egadir. Har bir bosqichda ma‘lum bir vazifa amalga oshiriladi va bu navbatida kurash texnik harakatlarini o‘zlashtirishda asqotadi.

Xulosa. Bugungi kunda zamonaviy sportning eng asosiy muammolaridan biri sportchilarning foydali ish qobilyatini oshirishdir. Dunyo tajribasida malakali sportchilar bir kunda kamida 3-4 marta sport mashg’ulotlarda ishtirok etadi. Sport mashg’ulotlarini ko’lami va jadalligi oshishi bilan birga sport musobaqalarining soni ham oshib bormoqda. Kurash sport turi mashg‘ulotlarida shug‘ullanuvchi talaba sportchilarning o‘quv-mashg‘ulotlari tizimiga raqamli texnologiyalarining vositalaridan foydalanish keyingi mashg‘ulotlarga faol ishtirok etish imkoniyatlarni kengaytiradi. Mashg‘ulotlardan so‘ng raqamli texnologiyalarning pedagogik va psixologik vositalari o‘quv mashg‘ulotlarining mikro-, mezo- va makrotsikllarida individual tayyorgarlikdan keyin ham o‘z xato va kamchilliklarini vedio va onlayn kuzatuvlar orqali tuzatish uchun qo‘llanishi mumkin. Texnik tayyorgarlik va taktik tayyorgarlikdagi shiddatli mashqlardan keyin mashg‘ulotlar yakunida talaba sportchilar o‘zlarining mashg‘ulotlar davomidagi harakatlar texnikasini yozib olingan vedio lavhalari orqali tahlil qilishlari hamda o‘z ustilarida ishlashlari uchun asosiy vosita sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanishlari zarur. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kundagi raqobatbardosh muhitdagi sport mashg‘ulotlari jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, kurashchi yoshlarimizning har tamonlama, ya‘ni umumjismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik va ruhiy irodaviy tayyorgarliklarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda o‘z ustilarida induvidual ishlashlari, tayyorgarliklari hamda dunyoning barcha yerlaridagi mahoratli sportchi yoshlarning tayyorgarlik

jarayonlari bilan ham o‘rtoqlashish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni lex.uz

2. Абдулхаков М.Р., Трапезников А.А. Боротся, чтобы побеждат! Спорт в твоей жизни. – М.: Просвещение, 1990г. – С.144

3. Абдиев А.Н. Борьба, монография. Ташкент, 2004 г.

4. Аккуин Д.Ю., Романцов О.В., Сыроватский Ф.Ф. – Поуровневая схема овладения техническими действиями в спортивной борбе // Сборник научных трудов кафедры борбы. – Челябинск: УралГАФК, 2001 г. Вып - IV. С.35-42.

5. Абдуллаев Ш.А. Эркин кураш. Тошкент, ахборот пресс 2017 й.

6. Астахов Л.М. Новое в методике обучения технике борбы // Спортивная борба: Ежегодник. – М, 1976г. С.29-30

B.Batyrov
Senior lecturer
West Kazakhstan Agrarian-Technical University named after Jangir Khan.
b.batyr75@inbox.ru
ORCID ID: 0009-0008-7977-7504

A.Primbetov,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (Ph.D.), Associate Professor
Nukus Branch of the Uzbek State University of Physical Culture and Sports,
azamat.1383@mail.ru
ORCID ID: 0009-0001-2416-8073

A.Jaleliev
PhD Doctor (Ph.D.), associate professor
Eurasian National University named after L.N. Gumilev
zhalel.ali.phd114@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-0127-990X

UDC 796.894.2

EFFECTIVE CONSTRUCTION OF AN INDIVIDUAL PLAN FOR A NOVICE BODYBUILDER

Abstract: *This article discusses the effective construction of an individualized training plan for novice bodybuilders. It highlights the importance of tailoring workout programs based on the unique physiological characteristics, goals, and fitness levels of beginners. The article covers key components such as exercise selection, progression models, nutritional guidelines, and recovery strategies, all designed to promote muscle growth, strength, and overall fitness. By integrating scientific principles of hypertrophy and personalized nutrition, the article offers a comprehensive guide to creating a safe, efficient, and adaptable bodybuilding plan for beginners, aimed at optimizing results while minimizing the risk of injury.*

Keywords: *Novice bodybuilder, individualized training plan, hypertrophy, muscle growth, strength training, progression model, nutrition, recovery strategies, injury prevention.*

Аннотация: *В этой статье обсуждается эффективное построение индивидуального плана тренировок для начинающих бодибилдеров. В ней подчеркивается важность адаптации программ тренировок на основе уникальных физиологических характеристик, целей и уровня физической подготовки новичков. В статье рассматриваются ключевые компоненты, такие как выбор упражнений, модели прогрессии, рекомендации по питанию и стратегии восстановления, все из которых направлены на стимулирование роста мышц, силы и общей физической подготовки. Интегрируя научные принципы гипертрофии и персонализированного питания, статья предлагает всеобъемлющее руководство по созданию безопасного, эффективного и адаптируемого плана бодибилдинга для начинающих, направленного на оптимизацию результатов при минимизации риска получения травм.*

Ключевые слова: *начинающий бодибилдер, индивидуальный план тренировок, гипертрофия, рост мышц, силовые тренировки, модель прогрессии, питание, стратегии восстановления, профилактика травм.*

Аннотация: *Бұл мақалада жаңадан бастаған бодибилдерлерге арналған жеке жаттығу жоспарын тиімді құру қарастырылады. Ол жаңадан бастағандардың бірегей физиологиялық сипаттамаларына, мақсаттарына және дене шынықтыру деңгейіне негізделген оқу бағдарламаларын бейімдеудің маңыздылығын атап көрсетеді. Мақалада жаттығуларды таңдау, прогресс үлгілері, тамақтану бойынша ұсыныстар және қалпына келтіру стратегиялары сияқты негізгі компоненттер қамтылған, олардың барлығы бұлшықет өсуін, күшін және жалпы фитнесті арттыруға бағытталған. Гипертрофия мен жеке тамақтанудың ғылыми принциптерін біріктіре отырып, мақала жарақат алу қаупін барынша азайту кезінде нәтижелерді оңтайландыруға бағытталған жаңадан бастаушыларға арналған қауіпсіз, тиімді және бейімделгіш бодибилдинг жоспарын құру бойынша кешенді нұсқаулықты ұсынады.*

Түйінді сөздер: *жаңадан бастаушы бодибилдер, жеке жаттығу жоспары, гипертрофия, бұлшықеттердің өсуі, күш жаттығулары, прогрессия моделі, тамақтану, қалпына келтіру стратегиялары, жарақаттардың алдын алу.*

Introduction. Recently, specialists of physical culture and sports, especially physical education teachers, have noted in their practice that students have very low physical fitness in the educational process when performing power gymnastic elements and passing standards of the national level. Of course, to increase their physical fitness, the teacher includes such physical exercises as pulling up on the crossbar, flexion-extension of the arms from the stop lying down, flexion-extension of the arms from the bars, and these exercises undoubtedly develop the strength qualities of students.

If a student is poorly developed in somatic terms, that is, physically weak, then he needs to systematically load those muscle groups that are less developed when solving tasks.

To solve this difficult task, there is a sport-bodybuilding:

1. Bodybuilding is one of the best sports, as it not only increases strength qualities and body mass volume, but also strengthens health, rejuvenates the human body.

2. In many countries of the world, this sport is included in the educational program of physical education of young people, which cannot be said about developing Kazakhstan. In this sport, the main thing is that there are no age restrictions. In many cities there are wellness groups “who is over 50 years old”.

3. By training with free weights and on simulators, choosing the right methods and principles of training, eating rationally and in a balanced way, a person can work wonders.

Since the trainers have a goal of increasing the strength quality and muscle mass of young

men, they use the method of repeated unsaturated efforts [1]. The method provides for multiple overcoming of unsaturated external resistance to significant fatigue. A young novice athlete needs to complete an initial course of exercises, which is built on the principle of split, [2] as a method of distributing training into separate muscle groups, on different days of the week. Here is an approximate plan (split system) for a week:

Monday – 1 day.

Table 1

№ №	Group of muscles	Exercises	Number of approaches	Number of repetitions	Rest between	Type of weights
1.	Chest muscles	Bench press on a horizontal bench	3	8	2	Barbell
2.	Broad back muscle	Pulling up with a wide grip	3	8	2	On the crossbar
3.	Abdominal muscles, abdominal press	Lifting the torso from the prone position, hand behind the head	3	20	2	Special bench

Tuesday – rest.
Wednesday – day 2.

Table 2

№ №	Group of muscles	Exercises	Number of approaches	Number of repetitions	Rest between	Type of weights
1.	Muscles of the lower back	Deadlift from the floor	3	8	2	With Barbell
2.	Biceps	Biceps standing	3	8	2	With Barbell
3.	Triceps	French bench press with a narrow grip	3	8	2	With Barbell
4.	Abdominal muscles	Lifting the torso from the prone position, hands behind the head	3	20	2	Special bench

Thursday- rest.
Friday – 3 day.

Table 3

№ №	Group of muscles	Exercises	Number of approaches	Number of repetitions	Rest between	Type of weights
1.	Leg muscles	Squat with a barbell on the shoulders	3-4	8	2	With Barbell
2.	Deltoid muscles	Standing press, medium grip	3	8	2	With Barbell

3.	Abdominal muscles	Lifting the torso from the prone position, hands behind the head	3	20	2	Special bench

Saturday, Sunday – rest.

The data given in the tables, splits are compiled for novice athletes, which athletes should use only basic exercises in their training. It is they who give the muscles the maximum load, affecting almost all the fibers of muscle tissue, stimulating their growth.

The first week of classes in the initial course, you need to perform three sets of eight repetitions each. During this week, it is necessary to perform the exercises correctly and technically competently. To learn to breathe properly, exhalation is done with effort in performing exercises [3].

It is very difficult for a novice young athlete to choose the right weight to perform this or that exercise. It is necessary to try to choose the weight so that the last repetitions in the approach are given with a noticeable strain. Only in this case it will be possible to say that the weight is chosen correctly.

The choice of the weight of the load, as well as the pace of execution, plays an important role, having the maximum impact on one or another trained parameter. All recommendations can be summarized in the following table by G.N.Khripach [4].

Table 4

The ratio of the number of repetitions and the trained parameters.

Number of repetitions	The trained parameter
1-3	Maximum force
4-6	Explosive force, muscle hypertrophy
7-12	Maximum muscle hypertrophy
13-20	Strength endurance
›21	Endurance

It should be noted that at certain stages of training, the author of modern bodybuilding Gusev I.E. in his writings [5] believes that only one thing remains an immutable truth: novice athletes need to use free weights, since only they will be able to work out as many muscles as possible in one workout, unlike simulators that, moving according to a rigid trajectory, only a certain part of the muscle group is worked out.

Before you start diligently lifting dumbbells and barbells, let's look at some aspects of the training process, having mastered which the athlete is constantly progressing.

The pace of performance is an important characteristic of the training process. Pace is one of the cornerstones of successful training. The fact is that the load on the muscle in bodybuilding is characterized not by a raised weight, but by the time the muscle group is under tension. That is, if an athlete is engaged with an average weight and constantly keeps the muscle group in tension, the effect will be much more pronounced than with a single or double lifting of the maximum weight. Of course, the pace of the exercise largely depends on what goals are pursued at this stage of the training process. However, at the beginning of training (during the first year), the pace of exercises in the vast majority of cases should obey the “magic” combination of numbers 4-0-2-0 [4, -31c.]. This technique means:

- 4 – the time in seconds it takes to lower the barbell.

- 0 – the delay time at the bottom point.
- 2 – the time in seconds spent lifting the barbell.
- 0 – delay time at the top point.

Thus, the time of lowering the projectile is exactly twice as long as the time of lifting.

When performing exercises, it is necessary to clearly maintain the required time frame, because the impact exerted during the negative phase of movement is much more effective for the muscle group than the impact in the lifting phase.

This fact formed the basis of many techniques that are designed for multi-second slow lowering of the training projectile.

There is no delay in the lower and upper phases because when the barbell is held at the extreme points, the muscles relax and thus tension is relieved from the muscle group. This, as we already know, is undesirable.

And so, performing the exercise according to this scheme in eight repetitions, the athlete keeps the muscle group under tension for 48 seconds, which is more than enough to stimulate the muscle group to grow.

If it will be necessary to perform the exercise according to a different time scheme, then this is shown in Table 5.

Table 5

The pace of the exercise	The trained parameter
1-0-1-0	Explosive power
2-0-1-0	Maximum power
3-1-3-0 или 4-0-4-0	Maximum muscular hypertrophy
8-0-4-0	Maximum muscle hypertrophy when working with a small weight

The analysis of pedagogical observation showed that both beginners and many experienced athletes ignore the pace of exercise, literally throwing a barbell or dumbbells up and down at maximum speed, so there is little benefit in terms of gaining high-quality muscle mass from such training.

The rest time between sets is also a very important part of the workout. It all depends on the purpose of the athlete's training process. If an athlete trains to achieve maximum strength, then the rest time between sets can be 5-10 minutes, and sometimes more than half an hour. However, in this case, of course, it is inefficient. Purely strength training is the lot of representatives of other sports: weightlifting and powerlifting. If an athlete does not strive to achieve maximum muscle growth and physique correction, then maximum weight is not a goal, but only an auxiliary tool when performing his tasks. We have considered how rest time correlates with physiological processes.

Table 6

The ratio of rest time with the recovery of the body

Rest time	What is being restored
0-30 seconds	Metabolism occurs at 50 %
30-120 seconds	Metabolism occurs at 90 %
2-3 minut	Metabolism occurs almost completely
3-5 minut	The nervous system is restored almost completely
5-10 minut	Full recovery

Analysing the above, it should be noted that to make the muscles grow and include more and more new fibers in the work, you need to rest for at least one, but not more than two minutes. It is this pace that will allow you to tune in to the next approach and do it qualitatively.

Reducing the rest time leads to the involvement of new fibers in the trained muscle group. Depending on what weight the athlete trains with and how many repetitions he performs, he has an effect on one of the two types of muscle fibers present in the body, that is, on fast muscle fibers or on slow ones, developing endurance. The pattern presented by us is shown in Table 7.

Table 7

Type of muscle fibers and number of repetitions

Number of repetitions	**Type of predominant fibers**	**Working range of repetitions**	
		65-75% of the maximum	**80-95% of the maximum**
2-4	Very fast	6-8	3-4
5-10	Fast	9-12	5-8
11-20	Prevalence of slow	16-18	10-12
15-20	Slow	18-25	14-16

Analyzing the literature review of leading experts and summarizing the experience of sports activities for a novice athlete to select an effective technique, it is necessary to draw the following conclusions:

1. Builds an individual training plan for individual muscle groups;
2. The correct choice of the weight of the load and the pace of the exercise;
3. Depending on the goal, it is necessary to determine the rest time between approaches.

It should be noted that the training methodology and recommendations are intended for students aged 14-17. Training for young athletes should be organized during extracurricular time (sectional classes) and extracurricular time.

These studies are conducted both in theoretical and practical directions and the main task is to determine the most accessible and successful bodybuilding techniques.

References:

1. Ashmarin B.A. Theory and methodology of physical education. M., 1990. – 141p.
2. Heidenshtam O. Bodybuilding for beginners. M., 2004. - 62
3. Solodkov A.S. Physiological bases of adaptation to physical exertion. GDOIFK named after P.F.Lesgaft, lecture. L., 1988.
4. Hripach G.N. Effective bodybuilding. – St. Petersburg: Peter, 2007. – pp. 31-34.
5. Gusev I.E. The book a complete course of bodybuilding. Minsk. - 2002. – 97.

G.Baltabaeva
Stajyor o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARGA BASKETBOL TEXNIKASIGA O‘RGATISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim basketbol jamoalarining instrumental va ekspressiv rahbarlarida raqobatbardosh faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdir. Instrumental rahbarlar karpal dinamometriyada, barda tortish, joydan uzunlikka sakrash, dori to‘pini uloqtirishda qolgan sportchilar guruhining sportchilariga nisbatan yuqori natijalarni (besh foiz ahamiyatlilik darajasi) ko‘rsatdilar. Ekspressiv rahbarlar 3x10 m Shuttle yugurishini yanada samarali bajardilar, o‘yindan ko‘proq zarbalar (15,4 ta zarba) o‘tkazdilar, zarbalar natijadorligining eng yuqori ko‘rsatkichiga (48,5%) ega bo‘ldilar, ko‘proq natijaviy o‘tkazib yuborishlarni (7,9 ta o‘tkazib yuborish) bajardilar. Instrumental rahbarlar to‘plarni muvaffaqiyatli ushlab turishdi (12,6 ta ushlab turish), to‘pni boshqarish va uzatishda kamroq xatolarga yo‘l qo‘yishdi (7,4 ta xato). Talabalar jamoalari basketbolchilarining jismoniy tayyorgarligi va raqobatbardosh faoliyat natijalarida instrumental va ekspressiv rahbarlar va qanot egalari o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlandi, ularni o‘quv jarayoni va raqobatbardosh faoliyatda hisobga olish kerak.*

Kalit so‘zlar: *basketbolchi talabalar, jismoniy tayyorgarlik, raqobatbardosh faoliyat, instrumental va ifodali rahbarlar.*

Аннотация: *Цель исследования – выявить особенности соревновательной деятельности у инструментальных и экспрессивных лидеров студенческих баскетбольных команд.*

Инструментальные лидеры показывали более высокие результаты (пятипроцентный уровень значимости) в сравнении с показателями спортсменов остальной группы спортсменов в кистевой динамометрии, подтягивании на перекладине, прыжке в длину с места, метании набивного мяча. Экспрессивные лидеры результативнее выполняли челночный бег 3х10 м, проводили больше бросков с игры (15,4 броска), имели наибольший показатель результативности бросков (48,5%), выполняли больше результативных передач (7,9 передачи). Инструментальные лидеры успешнее перехватывали мячи (12,6 перехвата), делали меньше ошибок при ведении и передаче мяча (7,4 ошибки). Выявлены существенные различия в физической подготовленности и результатах соревновательной деятельности баскетболистами студенческих команд между инструментальными и экспрессивными лидерами и ведомыми, которые следует учитывать в тренировочном процессе и соревновательной деятельности.

Ключевые слова: *студенты-баскетболисты, физическая подготовка, соревновательная деятельность, инструментальные и экспрессивные лидеры.*

Abstract: *Objective of the study was to identify the features of competitive activity among the*

instrumental and expressive leaders of student basketball teams.

The instrumental leaders showed higher results (5% significance level) in comparison with the performance of the athletes of the rest of the group of athletes in carpal dynamometry, pull-ups on the bar, standing long jump, medicine ball throwing. The expressive leaders performed the 3x10 m shuttle run more effectively. The expressive leaders performed more shots from the field (15.4 shots), had the highest rate of throws effectiveness (48.5%). completed more assists (7.9 assists). The instrumental leaders intercepted balls more successfully (12.6 interceptions), made fewer mistakes when dribbling and passing the ball (7.4 errors). Significant differences in physical readiness and results of competitive activity by basketball players of student teams between instrumental and expressive leaders and followers were revealed, which should be taken into account in the training process and competitive activity.

Keywords: *basketball students, physical training, competitive activity, instrumental and expressive leaders.*

Kirish. Zamonaviy basketbolda raqobatbardosh faoliyatning yuqori samaradorligi sport mashg‘ulotlarining barcha omillarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi [1, 3, 4]. Ushbu yo‘nalishdagi katta zaxira instrumental va ekspressiv rahbarlarning jismoniy tayyorgarligi va raqobatbardosh faoliyatining xususiyatlarini aniqlashdir [2, 4]. Instrumental va ekspressiv rahbarlarning raqobatbardosh faoliyatining xususiyatlarini hisobga olish muvaffaqiyatning muhim sharti har xil tipologik guruhlarning sportchilarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligining qiyosiy xususiyatlari sport jamoasi. Biroq, basketbolchilarning raqobatbardosh faoliyatining ushbu yo‘nalishi kam o‘rganilgan bo‘lib qolmoqda.

Ko‘rsatkichlar	Tipologik guruhlar		
	Instrumental rahbarlar	Ekspressiv rahbarlar	Qolganlari
Tana uzunligi, sm	189,4	190,6	188,5
Tana vazni, kg	81,5	82,2	82,4
Cho‘tkaning kuchi, kg	69,8	65,1	64,9
Barda tortish, necha marta	10,2	9,4	9,2
Joydan uzunlikka sakrash, sm	298,5	286,4	287,5
Joydan yuqoriga sakrash, sm	65,8	63,3	62,1
Dori to‘pini uloqtirish, m	17,75	17,10	16,85
30 metrga yugurish, bilan	4,31	4,34	4,38
Shuttle yugurish 100 metr	9,7	9,5	10,0
Shuttle yugurish 300 metr	11,4	11,5	11,8
3000 metrga yugurish, bilan	747,4	748,5	753,1
Tananing oldinga egilishi, sm	10,1	9,6	9,7

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim basketbol jamoalarining instrumental va ekspressiv rahbarlarining raqobatbardosh faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdir.

Tadqiqotning metodologiyasi va tashkil etilishi. Kettel shkalasi bo‘yicha ishda etakchilik, hissiy namoyon bo‘lish va samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlandi, basketbolchilar instrumental va ekspressiv rahbarlarga taqsimlandi. Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosiy test topshiriqlari, raqobatbardosh faoliyat natijalariga ko‘ra aniqlandi-o‘ynagan vaqt, maydondan uloqtirish, jarima zarbalari, paslar va to‘siqlar, o‘z va boshqa odamlarning qalqonlarida to‘pni tanlash, qoidabuzarliklar. Tadqiqotda Moskva universitetlarining 156 basketbolchisi ishtirok etdi.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish. Ekspressiv va instrumental rahbarlar basketbol bilan shug‘ullanadigan universitet talabalarini jismoniy va texnik-taktik tayyorlash muammolarini hal qilishda murabbiyning asosiy yordamchilari hisoblanadi. Ular murabbiyga futbolchilarning sport mahoratini oshirishning zamonaviy vositalari va usullarini amalga oshirishda yordam beradi, murabbiy va sportchilar bilan o‘yin sifatini oshirish yo‘nalishlarini muhokama qiladi, jamoada tarbiyaviy ishlarda yordam beradi tekshirilayotgan basketbolchilar uch guruhga bo‘lingan: instrumental (biznes), ekspressiv (hissiy) va qolganlari (birinchi ikki guruhga kiritilmagan). Instrumental yetakchilarning ulushi 12,2%, ekspessiv yetakchilarning ulushi 9,0%, qolgan basketbolchilarning ulushi 78,8% ni tashkil etdi.

Mutaxassislar instrumental rahbarlarning etakchilik fazilatlarini o‘n balli shkala bo‘yicha 9,05 ball, hissiy fazilatlarni 6,57 ball va ularning samaradorligini 8,89 ball bilan baholadilar. Etakchilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ekspressiv rahbarlar 6,50 ball, hissiy namoyishlar 8,14 ball, natijalar 7,43 ballga ega edi. Boshqa ishtirokchilar guruhida tahlil qilingan xususiyatlar o‘rtacha qiymatlar darajasida edi (4-6 ball). Ekspressiv rahbarlar ochiqko‘ngil, xushyoqishni ilhomlantiradi va ular yaxshi sheriklar, instrumental rahbarlar mehnatsevar, talabchan, baquvvat, qat’iyatli va qat'iyatli.

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarining qiyosiy xususiyatlari sub'ektlarning turli kontingentlarida farqni aniqlamadi. Instrumental rahbarlar karpal dinamometriyada (69,8 kg), barda tortish (10,2 marta), joydan uzunlikka sakrash (298,5 sm), dori to‘pini uloqtirishda (17,75 m) qolgan sportchilar guruhining ko‘rsatkichlariga nisbatan ko‘proq natijalarni (besh foiz ahamiyatlilik darajasi) ko‘rsatdilar.) va ekspressiv natijalar rahbarlari shuttleni yanada aniqroq bajarishdi.

Basketbol talabalarining jismoniy tayyorgarligini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, instrumental va ekspressiv rahbarlar jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish darajasi yuqori (jadvalga qarang).

Basketbol bo‘yicha Moskva shahar birinchiligiga 15 ta rasmiy o‘yin davomida oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida har bir sportchining o‘yin harakatlari qayd etildi. Bizning ma’lumotlarga ko‘ra, jamoa rahbarlari o‘yinda boshqa o‘yinchilarga qaraganda ko‘proq vaqt o‘tkazishgan. Etakchi o‘yinchilar, ayniqsa, ekspressiv etakchilar (15,4 zarba) bilan ko‘proq zarba berishdi, ular eng yuqori zarba ko‘rsatkichiga ega bo‘lishdi (48,5%).

O‘yin uchun eng ko‘p jarima zarbalari instrumental rahbarlar tomonidan bajarilgan (7,4 zarba), ularning jarima zarbalari natijadorligi ham yuqori (68,2%). Ekspressiv rahbarlar ko‘proq samarali paslarni (7,9 pas) bajarishdi, instrumental rahbarlar esa to‘plarni muvaffaqiyatli ushlab turishdi (12,6 to‘p). To‘pni boshqarish va uzatishda kamroq xatolar instrumental rahbarlar tomonidan qilingan (7,4 xato). Qoidabuzarliklarni targ‘ib qilish ko‘rsatkichlari va shaxsiy sharhlarga ko‘ra, sub’ektlarning turli kontingentlarida ishonchli farqlar aniqlanmagan.

Xulosalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim basketbol jamoalari rahbarlari raqobatbardosh faoliyat ko‘rsatkichlarini ancha samarali bajarishgan. Etakchilik talabalar jamoalari basketbolchilarining raqobatbardosh faoliyatdagi o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun zarur shartdir.

Adabiyot

1.Елевич, С.Н. Динамика специальной подготовленности баскетболистов высокой

квалификации в соревновательном периоде годичного цикла: автореф. дис. … канд. пед. наук. – М., 2004. – 27 с.

2.Казаков, Д.А. Взаимосвязь баскетболистов различного возрас та и игрового амплуа / Д.А. Казаков А.В. Романова, М.В. Еремин, М.Н. Комаров // Теория и практика физической культуры. – 2021. – № 7. – С. 45-46.

3.Карпов, В.Ю. Содержание технической подготовки спортсменов в игровых видах спорта / В.Ю. Карпов, Р.Е. Петрунин, А.В. Родин// Вестник Сочинского государственного университета туризма и курортного дела. – 2011. – № 4 (18). – С. 271-273.

4.Родионов, А.В. Общая психологическая подготовка спортсменов высокого класса / А.В. Родионов // Актуальные проблемы спор тивной науки в подготовке спортсменов к олимпийским играм: материалы междунар. конф. – Минск: ЗАО «Веды», 2004. – С. 21- 26.

И.Исламов
доценти
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети

СУЗУВЧИЛАРНИНГ СТАРТ ТЕХНИКАСИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШ

Аннотация. *Ушбу мақолада муаллиф сузувчи спортчиларнинг индивидуал қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда мусобақа фаолияти натижадорлигига старт турларининг таъсирини аниқлаш бўйича тадқиқот ўтказган. Тадқиқот давомида муаллиф қуйидаги хулосаларга келган: стартни бажариш усулини танлаш мусобақа натижасига сезиларли таъсир кўрсатади, шунингдек, старт сакраш усулини танлашда спортчиларнинг "портловчи" куч даражасини ва сузиш ҳаракатларини ўз вақтида бошлашни инобатга олиш зарур. Олинган натижаларни турли малакага эга бўлган спортчиларнинг индивидуал тузилган машғулот режаларини ишлаб чиқишда ҳисобга олиш лозим.*

Калит сўзлар. *Греб-старт, трэк-страт, портловчи куч*

Аннотация. *В данной статье автор провел исследование по определению влияния стартовых видов на результативность соревновательной деятельности с учетом индивидуальных способностей пловцов. В ходе исследования автор пришел к следующим выводам: выбор способа выполнения старта оказывает существенное влияние на результат соревнований, а также при выборе способа стартового прыжка необходимо учитывать уровень “взрывной” силы спортсменов и своевременное начало плавательных движений. Полученные результаты следует учитывать при разработке индивидуально составленных тренировочных планов для спортсменов различной квалификации.*

Ключевые слова. *Греб-старт, трэк-страт, взрывная сыла*

Annotation. *In this article, the author has conducted the study to determine the impact of the types of starts for performance of the competitive activities of athletes in swimming, taking into account their individual abilities. In the process of work, the author has come to the conclusion that the choice of the start option has a significant effect on the result of the competitive activity, as well as when choosing the starting jump option, it is necessary to take into account the level of development of the "explosive" strength of the athletes and the speed of the beginning of the swimming movements. The results obtained should be taken into account when drawing up individually structured plans for classes of athletes of various qualifications.*

Keywords. *Grab-start, track-start, explosive power*

Кириш. Сузувчининг старти кўп йиллар давомида маҳаллий ва хорижий

мутахассисларнинг эътибор марказида бўлиб келган, ва бу бежиз эмас. Ҳозирги кунда халқаро майдонда рақобат сезиларли даражада кучайди, баъзида ғолибни таъқибчилардан сониянинг юздан бир қисми ажратиб туради. Яхши бажарилган старт эса сузувчига масофа бошидаёқ 0,5 сониягача устунлик бериши мумкин, бу эса кескин рақобат шароитида ғалабага эришишда ҳал қилувчи аҳамият касб этади [1, 2].

Долзарблиги. Бугунги кунда старт техникаси бўйича спортчилар ва мураббийлар старт техникасининг барча фазалари ва элементларининг тажрибавий асосланган модель хусусиятларига эга эмаслар. Турли спорт малакасига эга бўлган сузувчилар стартининг фазовий, вақт, куч ва бошқа параметрлари ҳақида маълумотлар мавжуд эмас. Буларнинг барчаси шундай ҳолатга олиб келадики, бошланғич ўргатиш давридаёқ старт техникасини ўзлаштириш жараёни мураббий томонидан аниқ тавсиялар ва кўрсатмаларсиз ўтади. Старт техникасини ўргатиш ва такомиллаштиришга мўлжалланган модель хусусиятларнинг тажрибавий асосланган тизимини ишлаб чиқиш ўта зарур вазифа ҳисобланади. Старт техникасини такомиллаштиришда хар бир фазадан самарали фойдаланиш учун спорт машғулотларининг янги, ноанъанавий деб аталадиган воситалари ва усулларини тажрибавий асослашни талаб қиладиган элементлар, фазалар, ҳаракатлар мавжуд бўлиб, улар старт техникасининг бутун мажмуасининг ҳаракат самарадорлигини белгилайди. Бироқ, стартни ўргатишда айнан шундай ёндашув амалиётда кўпинча кузатилмайди [1, 2, 3].

Тадқиқот мақсади. Шундай қилиб, старт техникасининг қисмларида тезлик йўқотишларини камайтириш имкониятларини ўрганиш ва натижаларни машғулот жараёнига татбиқ этиш жуда долзарбдир. Шу муносабат билан тадқиқотимизнинг мақсади спортча сузишни ривожланишининг ҳозирги босқичида спринтер-сузувчиларнинг стартни бажаришда старт фазаларидан самарали фойдаланиш самарадорлигини назарий ва тажрибавий асослашдан иборат.

Натижалар ва уларнинг муҳокамаси. Қўйилган вазифаларни ҳал қилиш учун қуйидаги тадқиқот усулларидан фойдаланилди: илмий-услубий адабиётлар маълумотларини таҳлил қилиш, педагогик тажриба, педагогик назорат синовлари (тестлар), педагогик кузатувлар, хронометрия, математик статистика усуллари. Старт техникасидаги сакраш фазасини такомиллаштиришни ўрганиш мақсадида ушбу йўналишда олиб борилган тадқиқот натижалари келтирилган илмий-услубий адабиётлар таҳлил қилинди. Бундан ташқари сузучиларга стартни ўргатишда ва такомиллаштиришга оид 40 та сузиш мураббийсининг амалий тажрибасини ўрганиш мақсадида сўровнома ўтказилди. Сўнгра стартнинг техник элементларини такомиллаштириш учун комплекс машқлар ишлаб чиқилиб, унга асосланган тажриба ўтказилди. Унда 13-14 ёшли 20 нафар сузувчи иштирок этди. Биринчи гуруҳ "граб-старт" (классик) моделидан фойдаланди, иккинчи гуруҳ эса "траск-старт" (енгил атлетик) усулини бажаради. Бир ой давомида иккинчи гуруҳ спортчилари ҳафтасига 5 марта тажрибавий машғулот дастури бўйича шуғулланди. Баҳолаш учун сузиш масофасининг старт қисми фазаларини баҳоланди. Стартнинг гидродинамик параметрлари 15 метрлик масофа давомида сирпаниш узунлиги, тезлиги ва давомийлиги бўйича баҳоланди. Махсус тайёргарлик эса стартдан 25 метр масофани босиб ўтиш вақти ҳамда тезлиги бўйича баҳоланди. 1-жадвал.

1-жадвал

“Граб-старт” ва “трэк-старт” старт турларини баъзи фазаларидаги фарқлари

Кўрсатгичлар	"граб-старт" (классик) усулдан фойдаланган сузувчилар	“траск-старт” (енгил атлетик) усулданфойдаланган сузувчилар	Ўртадаги фарқ
Старт реакцияси (секунд)	0.85	0.78	0.07

Шўнғиш тезлиги м/сек.	3.15	3.56	0.41
Сирпаниш тезлиги м/сек.	1.86	1.95	0.09
25 метрлик масофа сек.	12.86	12.31	0.55

Тажриба якунида биринчи гуруҳ синалувчиларида старт масофасини ва ҳар иккала гуруҳда 25 метрлик масофани босиб ўтиш тезлиги сезиларли даражада ошди. Юқорида айтилганларнинг барчаси сузувчиларнинг, айниқса "траск-старт" ни бажарадиганларнинг стартини такомиллаштириш учун экспериментал дастурдан фойдаланиш мумкинлигини кўрсатади.

Тажриба натижалари шуни кўрсатадики, 25 метр масофани босиб ўтиш вақти старт сакраш турига статистик жиҳатдан сезиларли даражада боғлиқ.

Старт сакрашнинг икки тури ўртасида статистик жиҳатдан муҳим фарқ аниқланмади. Бироқ, старт сакрашининг турли хиллари бир-биридан фарқ қилади.

Шу сабабли, биз старт турини танлаш спортчиларнинг индивидуал хусусиятларига, хусусан, портловчи кучнинг ривожланганлик даражасига боғлиқ, деб тахмин қилдик. Бу тахминни текшириш учун сузувчиларни "портловчи" куч қобилиятларининг ривожланиш даражасига кўра икки гуруҳга ажратдик. Биринчи гуруҳга портловчи куч кўрсаткичлари юқори бўлган сузувчилар, иккинчи гуруҳга эса бу кўрсаткичлари пастроқ бўлган сузувчилар киритилди.

Старт сакрашининг икки тури - классик "граб-старт" ва енгил атлетик "трек-старт" таҳлил қилинди ҳамда уларнинг самарадорлик кўрсаткичлари таққосланди.

Олинган маълумотлардан кўринадики, биринчи ва иккинчи гуруҳ сузувчиларининг 25 метр масофани босиб ўтиш вақти турлича. Ушбу фарқларнинг ишончлилигини текшириш учун ўтказилган дисперсия таҳлили шуни кўрсатдики, 25 метр масофани босиб ўтиш вақти портловчи куч кўрсаткичларига ва ундан ҳам кўпроқ сузувчиларнинг "портловчи" куч қобилиятларига мос келадиган тўғри танланган старт сакраш турининг ўзаро таъсирига статистик жиҳатдан сезиларли даражада боғлиқ.

Шундай қилиб, сузишдаги старт сакрашининг самарадорлиги кўп жиҳатдан сузувчиларнинг "портловчи" куч қобилиятларининг ривожланганлигига боғлиқ эканлигини таъкидлаш мумкин.

Хулоса. Илмий ишларнинг назарий таҳлили асосида спортча сузишида стартнинг икки варианти қўлланилиши аниқланган. Уларнинг барчаси самарали бўлиши мумкин, агар спортчи старт вариантларидан бирини танлашда ўзининг антропометрик кўрсаткичлари (бўйи, вазни, тана тузилиши), бўғимларининг ҳаракатчанлиги, портловчи куч имкониятлари, психологик хусусиятларини ҳисобга олиши керак.

Тадқиқот маълумотлари шуни тасдиқлайдики, сузишдаги старт спортчининг энг юқори натижасини таъминлашда энг муҳим элементлардан бири ҳисобланади ва у самарали, мақсадга мувофиқ, тежамкор, ишончли бўлиши ҳамда сузувчининг тайёргарлиги ва малакасига мос келиши лозим. Стартни ўргатиш ва кейинчалик такомиллаштириш учун сузишда стартни самарали бажариш учун махсус ишлаб чиқилган дастуридан фойдаланиш зарур.

Адабиётлар

1. Иванова Лидия Александровна, Казакова Ольга Александровна, Гурова Наталья Викторовна, Головина Людмила Геннадьевна Стартовый прыжок в плавании - как один из элементов показателей результативности соревновательной деятельности // Ученые записки университета Лесгафта. 2018. №3 (157). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/startovyy-

pryzhok-v-plavanii-kak-odin-iz-elementov-pokazateley-rezultativnosti-sorevnovatelnoy-deyatelnosti (дата обращения: 01.10.2024).

2. Чаплинский, Н.Н. Анализ техники современных вариантов стартового прыжка в плавании и разработка путей ее совершенствования : автореферат канд. пед. наук / Чаплинский Н.Н. – Москва, 1980. – 20 с.

3. Скирене, В. Сравнительный анализ техники старта пловцов разной квалификации / В. Скирене, Д. Саткунскене // Наука в олимпийском спорте. – 2004. – № 1. – С. 39-45.

A.Shopulatov
Pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA AXLOQ MEZONLARI HAMDA ILMIY-TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida axloq mezonlari hamda ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish muammolari tahlil qilingan bo‘lib, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishda axloq mezonlarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, ilm-fan, rivojlanish, ilmiy-tadqiqot, qonun, mezon, ilmiy yondashuv, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar, axloq mezonlari.

Аннотация. В данной статье анализируются этические критерии в области физической культуры и спорта, а также проблемы развития научно-исследовательских работ, раскрывается значение этических критериев.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, наука, развитие, право, критерий, научный подход, фундаментальные, прикладные и инновационные исследования, этические критерии.

Annotation. This article analyzes the ethical criteria in the field of physical culture and sports, as well as the problems of the development of scientific research, reveals the importance of ethical criteria.

Keywords: physical education, sport, science, development, law, criterion, scientific approach, fundamental, applied and innovative research, ethical criteria.

Har bir soha vaqt o‘tishi hamda yangi texnologiyalarning kirib kelishi bilan o‘zgarishlarga uchraydi. Vaqt va o‘zgarishlarning ta’siri natijasida sohadagi jarayonlarni tartibga solish, rivojlanish sari yo‘naltirish, malakali mutaxassislar tayyorlashdagi jarayonlarda uch avlod vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni nazorat qilib, taraqqiyot sari yo‘naltirish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zaro tushunish jarayonini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning o‘z funksiyalarini bajarishini ta’minlash, sohadagi olimlarning axloqiylik imperativlarga qattiq rioya qilishini va shaxsiy pozitsiyasiga qattiq amal qilishga olib keluvchi ijtimoiy muhitni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Chunki, jismoniy tarbiya va sport sohasi sotsial institut sifatida shakllanib, jamiyat hayotining barcha bo‘g‘inlariga kirib bordi. Insonlar kundalik turmush tarzining ajralmas qismi bo‘lib bormoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport sohasidagi malakali mutaxassislar tayyorlash tizimining nazariy va amaliy qismini takomillashtirib borishni hamda sohadagi mavjud muammolar va to‘siqlarni o‘rganib, tegishli chora-tadbirlarni ko‘rib borishni taqozo etmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohadagi yetakchi mutaxassislardan L.P.M.Matveev, V.N.Platonov, V.I.Lyaxlar malakali mutaxassislar tayyorlash ishlarini tizimli ravishda rivojlantirib borish zarurligini ta’kidashgan bo‘lsa, oxiri yillarda esa mamlakatimiz yosh mutaxassislardan

N.T.To‘xtaboev jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirishga tashkiliy-pedagogik yondashuv masalasini, N.A.Xudayberdieva jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, B.B.Ibragimov malaka oshirish tizimida sport kurashlari bo‘yicha trenerlarning kasbiy mahoratini takomillashtirish, D.B.Mamaziyatov jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimida olimpiya bilimlarini rivojlantirish, A.I.Olimov bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini o‘qitishda mobil ilovalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish, Z.P.Rasulov trenerlarning kasbiy-psixologik tayyorgarligini rivojlantirish masalalarini o‘rganishgan. Biroq mazkur ishlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi yangi atamalarning kirib kelishi, jarayonlarni to‘g‘ri ifodalovchi so‘zlarni ishlatish, yosh olimlarning axloqiy prinsiplarga rioya qilishi jarayonlarini qamrab olgan masalalar e’tiborga olinmagan.

Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi fanlarning rivojlanishi ortidan ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘pgina muammolar yuza kela boshladi. Asosan, dunyo miqyosida avj olib borayotgan ko‘chirmachilik (plagiat) muammolari bo‘lsa, yana sohaga xorijiy va boshqa sohalardan kirib kelayotgan atama va tushunchalarning yosh avlod tomonidan to‘g‘ri qabul qilish jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tashkil etilmayotganligi kabi muammolar nazoratdan chetda qolib kelmoqda.

Har bir fan yo‘nalishida nazariy tadqiqotlar tashkil qilinmas ekan ular albatta o‘z ta’siri amaliy yo‘nalishda ham ko‘rsatadi. Fan rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, soha mutaxassislarida o‘z sohasiga bo‘lgan axloqiy tamoyillarga asoslangan “qat’iyat”ni shakllantirib borish muhim hisoblanib, faning barqaror va uzluksiz rivojnatishini ta’minlab beradi. “Sport to‘g‘risidagi fanning nazariyalashuvi uning nazariyalar bilan to‘yinishi, unda nazariy fikrlar rolining oshishi, fan tuzilishining yuzaga kelgan qayta qurilishi dekmakki, natijada uning samaradorligi ko‘proq nazariy tadqiqotlarga bog‘liq bo‘lib qoladi”[3;10-b].

Hozirda dunyoda olimlar faoliyatini etika jihatdan baholab boradigan tashkilotlar tashkil topib, axloq qoidalarini joriy qilib kelmoqda. Birgina “Germaniyada tadqiqotlarni tashkil etish bo‘yicha 53 ta etika qo‘mitasi bo‘lib, sohalar bo‘yich ilmiy tadqqotlarning axlqiy qoidalar asosida tashkil qilinishi nazorat qilib boradi”[10]. Ilmga axloq qoidalarining joriy qilinishi insoniyat hayotiga xavf soluvchi ixtirolarning paydo bo‘lishini oldini olib, olimlar ichida nosog‘lom raqobatning vujudga kelishiga hamda turli illatlarning shakllanishga yo‘l qo‘ymaydi. “Ilm axloqi nima joizligini, nimani rag‘batlantirilishini va turli vaziyatlarda olim uchun qabul qilinmaydigan va qabul qilinaydigan narsalarni belgilaydi” [4].

Olimlarning nashr faoliyati ilmiy etika me’yorlariga yanada mos kelishi uchun 1997 yilda buyuk Britaniyada ilmiy nashrlar etikasi bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi (Committee ofPublication Ethics), unga hozirgi kunda dunyodagi 12000 dan ortiq ilmiy jamoalar a’zolari kiradi. Endi COPE tavsiyalari o‘z ishlarining natijalarini nashr etishni istagan barcha ilmiy nashrlar va tadqiqotchilar uchun qo‘llanma hisoblanadi. Ammo, ilmiy jamoatchilik tomonidan olib borilayotgan ishlarga qaramay, ushbu sohadagi qonunbuzarliklarni kamdan-kam uchraydigan hodisa deb atash mumkin emas.

“Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunning “Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy faoliyat yuritish” nomli 17-moddasining ikkinchi xat boshisida “Oliy ta’lim muassasalarining pedagog kadrlari tegishli yo‘nalishlarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari shart” deb qayt etilgan. Shuningdek, mazkur qonunning “Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari” deb nomlangan 14-moddasi 9 xatboshisida, Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar: Inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmaslikka; Ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘ymaslikka, o‘zgalarning ilmiy ishlanmalarini o‘zlashtirmaslikka va yolg‘on ma’lumotlarga asoslanmaslikka; Intellektual mulk huquqlari va ilmiy odob-axloq qoidalariga rioya qilishga majburdilar, deb ta’kidlangan [2;18-b].

Mazkur qonun-qoidalarning joriy qilinishi ilm-fanda ko‘pgina illatlarning avj olishini to‘xtatib, olimlarni belgilangan qoidalarga rioya qilib ishlashga o‘rgatmoqda. Natijada esa jamiyatda olimning axloqiylik prinsiplari shakllandi. Ushbu axloqiy qoidalarni jismoniy tarbiya va sport sohasida ham shakllantirish, shu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan yosh olimlarga tushuntirish hamda tizimga xorij tajribasi asosida axloqiylik prinsiplarini shakllantirish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. *Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar o‘rtasida axloq mezonlarini amal qilmasligining salbiy oqibatlari hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar sxemasi*

Bizga ma’lumki har bir soha taraqqiyotida so‘z va atamalar vorisiylik tamoylini amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular har bir sohadagi o‘zgarish va yangiliklarni o‘zida ifodalash bilan birga boshqa bir insonga yetkazib berishda ishtirok etadi. Shu orqali ma’lum bir sohadagi yangiliklarni o‘rganish, o‘zlashtirish jarayonlari rivojlanib boradi. Bu esa ulardagi yangilik va o‘zgarishlarni to‘g‘ri tushunish, boshqalarga to‘g‘ri yetkazish zaruriyatini yuzaga keladi. Mazkur jarayonda yangi so‘z va atamalar ishtirok etib boshqalarda yangilik haqida axborotning shakllanishiga hamda shu axborotning oson va to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, ma’lum bir sohani o‘rganishda shu sohaga oid bo‘lgan so‘z va atamalarni to‘g‘ri tushunish sohaning qonuniyatlarini o‘rganishda, malakali mutaxassis bo‘lib yetishishda zarur hisoblanadi.

Yosh alodni tarbiyalashda, ma’lum bir kasbga bo‘lgan mehrni shakllantirishda ham so‘z va atamalar shu kasbning xususiyatlarini, sir-asrorlarini o‘zida ifoda etadi. Bu jarayonda o‘qituvchilar va murabbiylarning vazifasi kasb yoki sohadagi o‘ziga xos xususiyatlarni yosh avlodni to‘g‘ri tushuntira olish, kerakli so‘z va atamalarni qo‘llay olishi kerak bo‘ladi. Chunki, ma’lum bir jarayon to‘g‘ri tushuntirilmas ekan o‘z ortidan katta xatolarni, tushunmovchiliklarni olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham sohalarning rivojlanishi, yangiliklarning paydo bo‘lishi, ularda ixtirolarning amalga oshirilishi negizida ularni ifodalovchi atamalarning yuzaga kelishi tabiiy jarayon bo‘lib, so‘z va atamalarning hamma uchun tushunarli, talafuz qilish oson bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Qisqa, talaffuzi qulay bo‘lgan so‘z va atamalar o‘quvchilarning jarayonlarni tez va to‘g‘ri anglashiga yordam beradi. Ularning bilimlari boyish bilan birga mustahkamlanib boradi. Shuning uchun ham har bir sohada vujudga kelayotgan so‘z va atamalarni o‘rganib borish, mazmun-mohiyatini tushunish sohadagi yangiliklarni tez o‘zlashtirish, to‘g‘ri tushunish hamda boshqalarga to‘g‘ri yetkazishda asosiy vazifani bajaradi.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasi ham tez rivojlanib, jamiyatda sotsial institut sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu holatni avvalo jismoniy tarbiya va sportdan salomatlikni ta’minlovchi vosita foydalanish hamda moliyaviy daromad olish uchun imkoniyatlarni oshishi bilan izohlash mumkin. Jismoniy tarbiya va sport taraqqiy etib borar ekan unga yangiliklarning, ixtirolarning kirib kelishi ham kuchayib boradi. Bu esa sohani o‘rganish, o‘zgarishlarni tahlil qilish, yangiliklarni to‘g‘ri anglab yetish, kirib kelayotgan fan yutuqlarini o‘zlashtirish kabi holatlarni zaruriyat sifatida yuzaga keltiradi. Ayniqsa, aniq fanlar tizimidagi yangiliklarning kirib kelishi, ularni ifodalovchi yangi so‘z va atamalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Natijada, ularning o‘rganish, mazmun-mohiyatini tushunish hamda o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilish, atamaning o‘zbek tilidagi muqobilini shakllantirish kerak bo‘ladi.

Ushbu jarayonlarning rivojlanishini to‘g‘ri tahlil qilish hamda kirib kelayotgan yangi so‘z va atamalarni o‘rganib borish uchun tizimli ishlarni tashkil qilish zarur hisoblanadi. Xususan, sohadagi o‘zgarishlarni, yanliklarni holati haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish muhim hisoblanadi. Mazkur jarayonni tizimli ravishda tartibga solishda ijodiy guruhlarni tashkil qilish orqali jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ensiklopediyalar, izohli lug‘atlarni yaratib borish o‘z samarasini beradi. Jumladan, har bir sport turi bo‘yicha izohli lug‘atlarni yaratish sport turining qonuniyatlarini o‘zlashtirishga, yangi ilmiy ixtirolarning ahamiyatini o‘rganishga yordam beradi.

Umuman olganda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari hamda mavjud manbalar tahlili jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim berish hamda ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin:

birinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ham olimlar faoliyatini nazorat qilib boruvchi axloq qo‘mitalarini tashkil qilish zarur hisoblanadi. Bunday qo‘mitalarning tashkil qilinishi olimlar o‘rtasida ko‘chirmachilik va boshqa shunga o‘xshash holatlarini oldini olib, o‘zining axloqiylik prinsiplariga ega bo‘lgan olimlar avlodining shakllanishiga olib keladi;

ikkinchidan, Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolarni o‘rganishga yo‘naltirilgan loyihalar tanlovini tashkil qilish, ularni moliyalashtirish hamda ijodiy guruhlarni shakllantirishda har bir sohadan malakali mutaxassislarni jalb qilish orqali jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid yangi so‘z va atamalarni qo‘llash bo‘yicha o‘quv adabiyotlari (ensiklopediya, izohli lug‘at) yaratish;

uchinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan izlanuvchilarning ilmiy ishlarini mazkur muammolarni o‘rganishga yo‘naltirish, yoshlar o‘rtasida ilmda axloqiylik imperativlari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid yangi so‘z va atamalarni qo‘llash muammolarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy maktablarni shakllantirish va rivojlantirib borish;

to‘rtinchidan, mazkur muammolarni o‘rganish va bartaraf etish masalalariga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarni tashkil qilish, shu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan olimlar bilan aloqalarni tiklash, muassasalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, yosh olimlarni jalb qilgan holda davra suhbatlari, ilmiy seminarlar, anjumanlarni tashkil qilish;

beshinchidan, jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida ilmiy faoliyat olib borayotgan olimlar, izlanuvchilar uchun ilmdagi illatlar va ularning ilm-fan taraqqiyotiga ta’siri bo‘yicha videoroliklar tayyorlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida elektron adabiyotlarni yaratishga e’tibor qaratish. Masalan, lug‘atlarning mobil ilovalarni yaratish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish jismoniy tarbiya va sport sohasida olimlarning o‘z sohasida yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasida so‘z va atamalar ustida olib borilayotgan ishlarni tizimlashtirish, ilmiy-tadqiqot shilarini zamonaviy talablar doirasida tashkil qilish hamda egallangan tajribalarni yosh avlodga tushunarli qilib yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonuni”.-B.29.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni”.-B.37.

3. Керимов Ф.А. Спорт соҳасида илмий тадқиқотлар.-Тошкент. Зар қалам, 2004. - 334 б.

4. Цвык В.А., Саввина О.В. — Этика науки и этика научных публикаций// Человек и культура. – 2017. – № 3. – С. 8 - 22.

5. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. -М.: Советский спорт, 2005. - 820 с.

6. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и её прикладные аспекты: учеб. для вузов / Л.П.Матвеев. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Советский спорт, 2010. – 340 с.

7. Саламов Р.С. Совершенствование образовательного процесса подготовки бакалавров по направлению «физическая культура и спорт». /дисс. док. наук. –Ташкент, 2003. -236 с.

8. Макаренко С.И. Справочник научных терминов и обозначений.-СПб.: Наукоемкие технологии, 2019. – 254 с.

9. Маткаримов Р.М. Юқори малакали оғир атлетикачиларни кўп йиллик тайёрлашнинг илмий-назарий асослари/Пед. фан. док. дис.автореферати(DSc) –Чирчиқ: Tipograff, 2022. – 70 б.

А.Хасанов
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD), доцент
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети

СПОРТ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация. *Мазкур мақола спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантириш бўйича амалга оширилиши лозим бўлган масалалар муҳокама қилингани ҳамда янада ривожлантиришга қаартилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *спорт, таълим, сифат, инновация, мотивация, малака ошириш, таълим дастурлари, илмий-тадқиқотлар.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы, которые должны быть реализованы по развитию качества образования в спортивных образовательных учреждениях, и разрабатываются предложения и рекомендации по дальнейшему развитию.*

Ключевые слова: *спорт, образование, качество, инновации, мотивация, повышение квалификации, образовательные программы, научные исследования.*

Annotation. *This article examines the issues that should be implemented to develop the quality of education in sports educational institutions, and develops proposals and recommendations for further development.*

Keywords: *sport, education, quality, innovation, motivation, professional development, educational programs, scientific research.*

Бугунги кунда спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантириш жамиятда спортнинг аҳамияти, ёшлар тарбияси ва келажак авлоднинг жисмоний ва маънавий ривожланишига таъсир кўрсатади. Ҳозирда соғлом турмуш тарзи ва жисмоний фаолликни ошириш муҳим ижтимоий масалалардан бирига айланмоқда. Одамлар ўртасида жисмоний фаоллик камайиши турли касалликларга олиб келиши мумкин. Спорт таълим муассасалари соғлом авлодни тарбиялашда асосий рол ўйнайди, шу боис, улардаги таълим сифатини ошириб бориш зарур ҳисобланади.

Халқаро мусобақаларда муваффақиятга эришиш учун спортчилар юқори малакали таълим ва тайёргарликни талаб қилади. Спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш миллий спортчиларнинг халқаро миқёсда рақобатбардошлигини кучайтиришга ёрдам беради. Спорт ёшларнинг ижтимоийлашувида муҳим роль ўйнайди. Уларни жисмоний, руҳий ва ахлоқий жиҳатдан мустаҳкамлайди. Спорт таълими ёшларни турли зарарли одатлардан, ижтимоий муаммолардан сақлашда муҳим аҳамиятга эга.

Ҳозирги замонавий дунёда таълим соҳаси жадал ривожланмоқда, янги технологиялар, таълим методларининг жорий этилиши таълим сифатини оширишга ёрдам бермоқда. Спорт таълим муассасаларида ҳам бу инноватsияларни жорий этиш муҳим, чунки янги технологиялар орқали жисмоний тайёргарлик ва билимлар самарадорлигини ошириш мумкин бўлади. Спорт таълим муассасалари фақат жисмоний машғулотлар билан чекланиб қолмай, ёшларнинг маънавий ва ахлоқий ривожланишига ҳам эътибор қаратиши зарур. Бу ёшларнинг келажакда жамиятда муваффақиятли ва масъулиятли шахс бўлиб етишишларини таъминлаш учун зарурдир.

Шу сабабли, спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантириш долзарб масала бўлиб, у нафақат жамиятнинг соғлом авлодини тарбиялаш, балки миллатнинг халқаро миқёсдаги спортдаги муваффақиятини ошириш учун ҳам муҳимдир.

Спорт таълим муассасалари жамиятда жисмоний тарбия ва спорт соҳасида юқори малакали мутахассислар тайёрлашда муҳим ўрин тутади. Бу муассасаларда таълим сифатини ривожлантириш нафақат самарали таълим бериш тизимини ташкил этишни, балки ёш авлодни ҳам жисмонан, ҳам маънан баркамол шахс сифатида тарбиялашни ўз олдига мақсад қилиб қўйган.

1. Малакали педагоглар ва мураббийлар тайёрлаш. Таълим сифати педагоглар ва мураббийларнинг билим ва тажрибасига боғлиқ. Бунинг учун қуйидагиларга эътибор қаратиш муҳим:

- Педагоглар малакасини ошириш: Мураббий ва ўқитувчиларни мунтазам равишда малака ошириш курсларига юбориш, замонавий педагогик усуллардан фойдаланишни йўлга қўйиш;

- Таълим дастурларини янгилаш: Таълим дастурлари жаҳон стандартлари ва халқаро тажрибаларга асосланиб ишлаб чиқилиши лозим. Замонавий трендлар ва илмий янгиликларни таълим жараёнига жорий этиш мақсадга мувофиқдир;

- Халқаро ҳамкорлик: Мураббий ва педагогларни чет элдаги илғор таълим муассасаларида малака оширишга юбориш, халқаро тренерлар ва экспертларни жалб этиш орқали спорт таълимида янги усуллар ва ёндашувларни жорий қилиш.

2. Спорт иншоотлари ва технологик имкониятлардан фойдаланиш: Таълим сифати жисмоний машғулотларни ўтказиш учун етарли спорт иншоотлари ва замонавий технологиялардан фойдаланиш билан ҳам боғлиқ.

Бу йўналишда қуйидагилар амалга оширилиши керак:

- Спорт иншоотлари ва жиҳозлар: Спорт таълим муассасаларида замонавий стандартларга жавоб берадиган спорт заллари, стадионлар ва анжомлар билан таъминлаш. Шундай шарт-шароитлар яратилса, ёш спортчиларнинг машғулот жараёни янада самарали бўлади;

- Ахборот технологиялари: Жисмоний тарбияда инновatsion усулларни қўллаш, видео таҳлиллар, симуляция машқлари, виртуал тренажёрлар орқали машғулотларни самарадорлигини ошириш мумкин;

- Тиббий ёрдам: Спорт таълим муассасаларида тиббий хизматни юқори даражада ташкил этиш муҳим. Спортчиларнинг соғлиғини кузатиш ва уларни профессионал даражада назорат қилиш учун мутахассислар жалб қилиниши зарур.

3. Мотиватsiя ва рағбатлантириш тизими: Ёш спортчилар ва ўқитувчиларнинг спортга қизиқишини ошириш учун рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш лозим.

Бу қуйидагиларни ўз ичига олиши мумкин:

- Мусобақалар ва тадбирлар: Регионал ва халқаро спорт мусобақаларида иштирок этишни рағбатлантириш, ғолиб ва иштирокчиларни моддий ва маънавий рағбатлантириш тизимини йўлга қўйиш;

- Степендиялар ва мукофотлар**: Муваффақиятли спортчилар учун махсус стипендиялар ажратиш, уларнинг ютуқларини кенг ёритиш ва жамиятда эътироф этилишини таъминлаш.

4. Инновatsion ва илмий тадқиқотлар: Спорт таълим муассасаларининг ривожланишида илмий тадқиқотлар муҳим аҳамиятга эга.

Бу йўналишда қуйидаги тадбирларни амалга ошириш зарур:

- Илмий тадқиқотлар ва инновatsiялар: Спорт психологияси, спорт биомеханикаси, озиқланиш ва тикланиш соҳаларида илмий тадқиқотлар ўтказиш ва уларни амалиётга жорий этиш;

- Тадқиқот марказлари: Спорт таълим муассасалари қошида илмий тадқиқот марказларини ташкил қилиш, ёш олимлар ва мутахассисларнинг илмий фаолиятини қўллаб-қувватлаш.

Хулоса. Спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантиришда комплекс ёндашув зарур. Малакали мураббийлар тайёрлаш, замонавий технологиялардан фойдаланиш, илмий тадқиқотлар ўтказиш ва ёш спортчиларни рағбатлантириш тизимларини ривожлантириш орқали ушбу муассасаларда таълим сифатини юқори даражага олиб чиқиш мумкин. Спорт соғлом ҳаёт тарзи ва жисмоний тарбияни ривожлантиришда муҳим ўрин тутиши сабабли, бундай ёндашувлар жамият ривожига ҳам катта ҳисса қўшади.

Спорт таълим дастурларини замонавий талабларга мувофиқ янгилаш ва уларни тўлиқ назарий, амалий ва психологик жиҳатларини қамраб оладиган қилиб тайёрлаш муҳим. Илмий асосланган дастурлар спортчиларнинг жисмоний ва интеллектуал ривожланишини таъминлаш учун шарт. Бу эса қуйидаги вазифаларни амалга ошириб бориш заруриятини кўрсатади:

- Ҳар бир спортчининг жисмоний қобилиятлари ва эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда индивидуал таълим режаларини ишлаб чиқиш керак.
- Ҳозирги замонда таълим жараёнига инноватsion воситаларни қўшиш, масалан, симуляция технологиялари ва видео таҳлил воситаларини жорий этиш ҳам натижадорликни оширади.
- Спорт машғулотлари юқори самарали бўлиши учун уларнинг илмий асосланганлиги зарур. Бу, ўз навбатида, жисмоний машқлар ва юкламаларнинг миқдорини тўғри белгилашни талаб қилади.
- Жисмоний тайёргарлик жараёнида спортчиларга берилган юкламаларни аста-секин ошириб бориш илмий асосланган самарали метод ҳисобланади.
- Спортчи соғлиғини мунтазам текширувдан ўтказиб туриш, юкламаларни назорат қилиш, жароҳатлар хавфини камайтириш учун диагностика ва мониторинг механизмларини қўллаш керак.
- Спорт таълим сифати мураббийлар ва ўқитувчиларнинг малакасига боғлиқ. Уларнинг профессионал даражасини ошириш учун доимий равишда илмий-техникавий семинарлар, малака ошириш курслари ташкил қилиш зарур.
- Мураббий ва ўқитувчилар илмий методлардан фойдаланишни билишлари ва спорт психологияси, физиологияси каби соҳаларда билимларга эга бўлишлари керак бўлади ҳамда уларни халқаро тажрибалар билан таништириш, илғор спорт мамлакатларидан ўрганиш ҳам таълим сифатига ижобий таъсир кўрсатади.
- Спортчиларнинг психологик тайёргарлиги ҳам спорт таълимининг ажралмас қисми ҳисобланади. Спортчида мотиватsiяни ошириш, руҳий барқарорлик ва ўз-ўзига ишончни мустаҳкамлаш учун психологик ёрдам кўрсатиш, психологлар томонидан спортчилар учун махсус мотиватsion тренинглар ўтказиш ишларини ташкил қилиб бориш ҳамда спортчилар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш уларни юқори натижаларга эришишга ундайди.
- Спорт таълим жараёнида спортчиларнинг нафақат жисмоний, балки ахлоқий ривожланиши ҳам муҳим. Уларга юқори ахлоқий қадриятларни сингдириш, спортда ҳалоллик ва интизомга риоя қилишни ўргатиш керак.

Спортда таълим сифати жисмоний тайёргарлик, назарий билимлар, психологик барқарорлик, тарбиявий жиҳатлар ва ахлоқий қадриятларни қамраб олади. Бунинг учун замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш, илмий асосланган дастурларни ишлаб чиқиш ва юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш зарур. Спорт таълимининг

самарадорлигини ошириш учун комплекс ёндашув ва доимий равишда тадқиқотлар олиб бориш муҳим аҳамиятга эга.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonuni”.-B.29.

2.Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. -М.: Советский спорт, 2005. - 820 с.

3.Матвеев Л.П. Общая теория спорта и её прикладные аспекты: учеб. для вузов / Л.П.Матвеев. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Советский спорт, 2010. – 340 с.

4.Саламов Р.С. Совершенствование образовательного процесса подготовки бакалавров по направлению «физическая культура и спорт». /дисс. док. наук. –Ташкент, 2003. -236 с.

5.Shopulatov A.N. Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimi mexanizmlarini takomillashtirish/Pedagogika fanlari doctori(DSc)...diss.avtoref.: 2023.–79 b.

Р.Бурнашев
«Теория и методика легкой атлетики»
д.ф.п.п.н (PhD), доцент кафедры
Узбекский государственный университет
физической культуры и спорта

ЭВОЛЮЦИЯ ПРЕДПОСЫЛОК К ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БЕГУНОВ НА 400м и 800м

Аннотация. *В данной научной статье рассматриваются исторические предпосылки развития методик подготовки бегунов и эволюция лёгкой атлетики и её дисциплин. Особое внимание уделяется роли тренерских школ в формировании подходов к тренировкам, а также сравнительному анализу методик подготовки бегунов на дистанции 400 м и 800 м в разные исторические периоды. В статье анализируются переходы от универсальных к специализированным тренировочным методикам, а также рассматриваются физиологические особенности бегунов на данных дистанциях. Отдельное внимание уделяется энергетическим системам, активным при беге на 400 м и 800 м, с целью более глубокого понимания механизмов, влияющих на эффективность тренировок. В заключении подведены итоги эволюции подходов к подготовке бегунов, обозначены современные тенденции и выделены перспективы дальнейших исследований в области спортивной тренировки.*

Ключевые слова: *развития методик подготовки бегунов, формирование подходов к тренировкам, бег на 800м, бег на 400 м, специальная выносливость, эволюция методов тренировки.*

Abstract. *This scientific article examines the historical prerequisites for the development of training methods for runners and the evolution of athletics and its disciplines. Special attention is given to the role of coaching schools in shaping training approaches, as well as a comparative analysis of training methods for runners at distances of 400 m and 800 m during different historical periods. The article analyzes the transition from universal to specialized training methods and considers the physiological characteristics of runners at these distances. Special attention is paid to*

the energy systems active in running 400 m and 800 m, with the aim of gaining a deeper understanding of the mechanisms affecting training efficiency. The conclusion summarizes the results of the evolution of approaches to runner training, highlights current trends, and outlines prospects for further research in the field of sports training.

Keywords: *development of runner training methods, formation of training approaches, 800 m running, 400 m running, special endurance, evolution of training methods.*

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada muallif tomondan yugurivchilarni tayyorlash uslubiyatlarini rivojlantirishning tarixiy dinamikasi, yengil atletikaning 400 metr va 800 metr masofalarga yugurish turlari evolyusiyasi ko‘rib chiqilgan. Murabbiylik maktablarini tashkil qilinishi turli tayyorlash usullarini ishlab chiqilishi va ularni takomillashib borilishiga alohida e’tibor qaratilib, 400 m va 800 m masofalardagi yugurivchilarni tayyorlashning turli tarixiy davrlardagi qiyosiy tahlili o‘tkazilgan. Maqolada universal metodikalardan maxsuslashtirilgan mashg‘ulotlarga o‘tish jarayonlari tahlil qilinib, ushbu masofalardagi yugurivchilarning fiziologik xususiyatlari o‘rganilgan. 400 m va 800 m masofalarga yugurish jarayonida energiya tizimlariga alohida e’tibor qaratilgan, bu esa mashg‘ulotlarning samaradorligiga ta’sir etuvchi mexanizmlarni chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Xulosada yugurivchilarni tayyorlash evolyusiyasining natijalari, zamonaviy tendensiyalar va sport mashg‘ulotlari sohasidagi kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbollar belgilab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yugurivchilarni tayyorlash uslubiyatlarini rivojlantirish, mashg‘ulotlarni tashkil qilish, 800 m yugurish, 400 m yugurish, maxsus chidamkorlik, mashg‘ulot uslubiyatlarining evolyusiyasi.*

Актуальность исследования. Эволюция спортивной подготовки всегда была тесно связана с поиском эффективных методов и подходов, способствующих достижению максимальных результатов спортсменов. Специализация подготовки в лёгкой атлетике, особенно в таких дисциплинах, как бег на 400 и 800 метров, имеет долгую историю, в течение которой происходили значительные изменения и усовершенствования. Эти дистанции требуют от спортсменов сочетания скорости, выносливости, координации и психологической устойчивости, что ставит высокие требования к процессу подготовки.

В последние десятилетия всё большую актуальность приобретают методы индивидуализации тренировок, которые учитывают уникальные физиологические и психологические характеристики каждого спортсмена. Развитие науки в спорте, а также появление новых технологий, таких как биомеханический анализ и мониторинг физиологических параметров в режиме реального времени, значительно расширяют возможности для создания индивидуализированных программ подготовки.

С ростом конкуренции в спорте высоких достижений подготовка атлетов становится всё более детализированной и научно обоснованной. Индивидуализация тренировочного процесса — это один из ключевых элементов, который может существенно улучшить результаты спортсмена. Оптимизация нагрузки, планирование отдыха, учёт уникальных особенностей организма спортсмена, а также использование современных методов диагностики и контроля за состоянием атлета позволяют значительно повысить эффективность тренировок. В данной работе будут рассмотрены основные предпосылки и факторы, которые привели к развитию индивидуализированных подходов в подготовке бегунов на 400 и 800 метров.

Цель данной статьи — рассмотреть эволюцию предпосылок к индивидуализации

подготовки бегунов на дистанции 400 и 800 метров. Особое внимание будет уделено историческому развитию тренерских методик, физиологическим и психологическим особенностям этих дистанций, а также современным подходам к созданию индивидуальных программ тренировок.

Задачи исследования:

-проанализировать исторические аспекты подготовки бегунов на беге на 400 и 800 м.

-оценить влияние физиологических и психологических факторов на тренировочные программы.

-изучить современные технологии и методики индивидуализации подготовки бегунов.

-определить перспективы развития индивидуализированных тренировочных программ для спортсменов на дистанциях 400 и 800 метров.

Результаты исследования. Исторические предпосылки развития методик подготовки бегунов. Подготовка спортсменов к бегу на средние дистанции, такие как 400 и 800 метров, имеет долгую и богатую историю. Методики тренировки постоянно развивались, начиная с традиционных подходов, ориентированных на общие принципы подготовки, и заканчивая современными, индивидуализированными подходами, опирающимися на научные данные. Развитие лёгкой атлетики и её дисциплин [14;87-92с.]. Лёгкая атлетика как вид спорта начала активно развиваться в конце XIX — начале XX века, когда были заложены основы соревновательных дисциплин, включая бег на различные дистанции. Первоначально соревнования были сосредоточены вокруг более длительных дистанций, таких как 1500 м или марафон, где наибольшее внимание уделялось выносливости. Однако постепенно короткие и средние дистанции, включая 400 и 800 метров, стали привлекать внимание исследователей и тренеров. К началу XX века появились первые попытки систематизировать процесс подготовки бегунов на средние дистанции. Это время характеризовалось универсальным подходом к тренировкам: спортсмены выполняли стандартные наборы упражнений, рассчитанные на общую физическую подготовку. Подходы к развитию силы, выносливости и скорости носили общий характер, и индивидуальные особенности спортсменов учитывались мало.

В середине XX века различные тренерские школы начали развивать свои методики подготовки бегунов на 400 и 800 метров. В этот период особую роль сыграли школы из таких стран, как США, Советский Союз и страны Европы. Тренеры начали замечать, что бегуны с разными физиологическими особенностями могут показывать разные результаты при одинаковом тренировочном процессе, что привело к первым попыткам дифференцировать подготовку атлетов. Одним из важных шагов стало развитие советской школы лёгкой атлетики, которая во многом сосредоточилась на систематическом подходе к тренировкам, где ключевыми факторами были строгий контроль нагрузки, периодизация тренировочного процесса и акцент на восстановление. Советские специалисты одними из первых начали внедрять элементы индивидуализации, опираясь на научные данные о физиологии спортсменов. В это же время американские тренеры разрабатывали свои методики подготовки. В США большое внимание уделялось специфическим тренировкам, направленным на развитие скоростных качеств, особенно для дистанции 400 метров, которая требовала от спортсменов максимальной скорости на протяжении всего забега. Это создавало основу для дальнейшего разделения методик подготовки бегунов на 400 и 800

метров, так как стало очевидно, что эти дистанции требуют различных типов физических качеств. Сравнительный анализ подходов подготовки бегунов на 400 м и 800 м в разные временные периоды показал, что подготовка бегунов на 400 м и 800 м постепенно становилась более специализированной. Бег на 400 м требует сочетания спринтерской скорости и кратковременной выносливости. В 1950-60-е годы тренеры делали акцент на развитие анаэробных возможностей спортсменов, а также на технике бега и устойчивости к кислородному долгу, что делало подготовку близкой к спринтерским методикам. На тренировках использовались интенсивные интервальные нагрузки, короткие дистанции с максимальной скоростью и упражнения для развития взрывной силы. Подготовка бегунов на 800 м, напротив, требовала более сложного баланса между скоростью и выносливостью. В отличие от бегунов на 400 м, 800-метровики должны были развивать аэробные и анаэробные системы практически в равной степени. Это делало тренировки более многообразными: сочетались длинные, медленные пробежки для развития общей выносливости и короткие, интенсивные спринты для повышения скорости [1;39-42с.]. В 1970-80-е годы стала популярной теория «молочной кислоты», согласно которой особое внимание уделялось способности организма справляться с её накоплением во время бега. Переход от универсальных к специализированным методикам в мире лёгкой атлетики, начался с конца XX века когда появилось понимание того, что не существует единой системы подготовки, подходящей для всех спортсменов. Появление научных исследований, направленных на изучение физиологических процессов в организме атлетов, открыло новую эру в подготовке бегунов [9;12-16с.]. Специалисты начали разрабатывать программы тренировок, ориентированные на индивидуальные особенности спортсменов — их уровень подготовки, особенности метаболизма, реакцию на нагрузки и даже генетические предрасположенности. Данный этап можно считать началом перехода от универсальных тренировок к специализированным и, впоследствии, индивидуализированным подходам, которые учитывали не только дистанцию, но и уникальные характеристики каждого спортсмена. Физиологические особенности бегунов на 400 м и 800 м очень важна, так как в процессе подготовки спортсменов в беге на 400 и 800 метров требуется учёт множества физиологических факторов. Эти дистанции имеют уникальные требования к энергетическим системам организма, распределению усилий и развитию определённых физических качеств. Для эффективной подготовки необходимо учитывать, как различные физиологические системы организма функционируют на этих дистанциях, и на какие аспекты тренеры должны делать акцент в процессе тренировок. Энергетические системы, активные при беге на разные дистанции, где энергетическая система, используемая при беге, зависит от продолжительности и интенсивности нагрузки. Бег на 400 и 800 метров требует активации как анаэробных, так и аэробных процессов, но их соотношение варьируется в зависимости от дистанции. Бег на 400 метров например является ближе к спринтерским, и основным источником энергии здесь выступает анаэробная система, а именно анаэробный гликолиз [2;15-19с.]. На протяжении 400-метрового забега организм использует запасы гликогена в мышцах, которые расщепляются без участия кислорода, что позволяет быстро генерировать энергию для мышечной работы. Этот процесс сопровождается образованием молочной кислоты, и именно её накопление приводит к ощущению усталости и мышечной боли на

последних метрах дистанции. Хотя анаэробная система является ведущей, аэробные процессы также играют роль, обеспечивая около 20-30% общей энергии в конце забега, когда запасы гликогена начинают истощаться. А вот бег на 800 метров представляет собой смешанную дистанцию, где оба энергетических пути — аэробный и анаэробный — активно участвуют в обеспечении энергией. На первых 200-300 метрах преобладает анаэробная система, как и при беге на 400 метров, однако по мере продолжения дистанции, аэробная система начинает играть всё большую роль. На втором круге аэробные процессы обеспечивают примерно 60-70% энергии, что делает важным развитие выносливости у бегунов на эту дистанцию. Таким образом, эффективная подготовка бегунов на 800 метров требует как высокого уровня анаэробных возможностей для спринтерского старта и финишного рывка, так и развитой аэробной выносливости для поддержания скорости на протяжении всей дистанции. Отличия в требованиях к физической подготовке на дистанции 400 м и 800 м при подготовке бегунов существенно отличается в зависимости от того, какие физические качества необходимы для достижения наилучших результатов.

Для успешного выступления на дистанции 400 метров необходимы следующие ключевые физические качества:

-спринтерская скорость. Бегун должен уметь развить максимальную скорость на протяжении всей дистанции. Это требует высокого уровня взрывной силы и быстроты мышечных сокращений.

-анаэробная выносливость. Способность поддерживать высокую скорость при накоплении молочной кислоты в мышцах — важный фактор успеха.

-мышечная сила и мощность. Так как бег на 400 метров требует максимального усилия на протяжении 45-50 секунд, развитие силы и мощности ног является важной частью подготовки [3;38-41с.].

-координация и техника бега. Эффективная техника бега позволяет не только снизить энергозатраты, но и минимизировать риск травм.

Для дистанции 800 метров требуется несколько иной набор физических качеств:

-скоростная выносливость. Бегун должен уметь поддерживать скорость на протяжении более длительного времени по сравнению с 400 метрами. Это требует сочетания скоростных и выносливых характеристик.

-аэробная выносливость. Способность организма эффективно использовать кислород для производства энергии становится особенно важной во второй половине дистанции.

-ритмичность и тактическая дисциплина. На 800 метрах важно уметь распределять усилия по дистанции и сохранять ритм бега, чтобы не израсходовать слишком много энергии на первых метрах.

-мышечная выносливость. Помимо взрывной силы, бегуны на 800 метров должны обладать высоким уровнем выносливости мышц для поддержания скорости и интенсивности движений на протяжении двух кругов [12;17-26с.].

Как уже было сказано, роль аэробных и анаэробных процессов в беге на дистанции 400 и 800 метров требует активации как аэробных, так и анаэробных энергетических систем. Основная разница между этими двумя системами заключается в том, как они производят энергию.

-анаэробная система не требует кислорода для производства энергии и активируется при максимальных нагрузках, таких как спринты. Она позволяет быстро генерировать большое количество энергии, но её запасы ограничены, и использование анаэробных процессов ведёт к накоплению продуктов обмена, таких как молочная кислота. В беге на 400

м анаэробные процессы преобладают, а на 800 м они играют ключевую роль на первом этапе забега и в моменты максимального усилия (старт и финиш).

-аэробная система, напротив, использует кислород для производства энергии и способна обеспечивать организм энергией на протяжении длительного времени. Однако аэробные процессы медленнее, что делает их менее эффективными для коротких дистанций, таких как 400 м. В то же время, на 800 м аэробная система включается в работу после первых 200-300 метров и обеспечивает большую часть энергии во второй половине забега [8;10-12с.].

Для оптимальной подготовки бегунов на обе дистанции важно правильно сбалансировать развитие как аэробных, так и анаэробных способностей. Это достигается через использование различных тренировочных методик, включая интервальные тренировки, спринты и длинные пробежки на низкой интенсивности.

Психологические аспекты подготовки бегунов на средние дистанции, являются важными компонентами тренировочного процесса бегунов на дистанции 400 и 800 метров. Психологическое состояние спортсмена во многом определяет его способность справляться с физическими нагрузками, выдерживать напряжённые соревнования и достигать наивысших результатов. Особое значение приобретают мотивация, концентрация и способность справляться с предсоревновательной тревогой и стрессом. Психологические барьеры и мотивация в беге на 400 и 800 метров требует от спортсмена преодоления не только физических, но и психологических трудностей. Обе дистанции находятся на границе между спринтом и выносливостью, что требует мобилизации всех ресурсов организма, а также готовности выдерживать дискомфорт и боль. Одним из ключевых аспектов является мотивация, которая позволяет бегунам преодолевать трудности и продолжать тренировки даже в моменты, когда они испытывают физическое или эмоциональное истощение. Для бегунов на 400 и 800 метров важны следующие источники мотивации:

-внутренняя мотивация. Это стремление улучшить свои результаты, преодолеть собственные границы и достичь личных рекордов. Внутренняя мотивация часто является основой для успешного выступления на соревнованиях, так как помогает спортсмену фокусироваться на процессе тренировки и поддерживать дисциплину.

-внешняя мотивация. Она связана с внешними факторами, такими как признание, награды и социальный статус. Внешняя мотивация также играет важную роль, особенно на начальном этапе карьеры спортсмена, когда он стремится завоевать внимание и уважение со стороны тренеров и болельщиков [10;27-36с.].

6	*Yoko-guruma*	*10*	*3,125*	*6*	-	-	-
7	*Ouchi-gari*	*30*	*9,375*	*7*	-	-	-
8	*Uchi-mata*	*30*	*9,375*	*8*	-	-	-
9	*O-goshi*	*10*	*3,125*	*9*	-	-	-
10	*Hiza-guruma*	*10*	*3,125*	*10*	-	-	-
11	*Yoko-otoshi*	*10*	*3,125*	*11*	-	-	-
12	*Sasae-tsurikomiashi*	*10*	*3,125*	*12*	-	-	-
13	*Ashi-guruma*	*10*	*3,125*	*13*	-	-	-
14	*Harai-tsurikomiashi*	*10*	*3,125*	*14*	-	-	-
Жами		***320***	***100***	***Жами***		***50***	***100***
		86,48%				***13,51%***	

аниқланганлигини алоҳида эътироф этиш керак. Мазкур ҳолат бевосита дзюдочилар мусобақа фаолиятида сезиларли ўзгаришлар юзага келаётганлигини кўрсатди.

Мусобақаларда қўлланилган усуллар ва уларнинг амалга оширилишидаги нисбатнинг ортиб бориши бевосита тайёргарлик жараёнида айнан ушбу усулларни бажариш юзасидан юқори даражадаги малака шаклланганлигини тавсифлайди.

Дзюдода техник усуллар шу қадар кўпки, уларни ҳар доим ҳам самарали қўллаш

имконияти мавжуд эмас, албатта. Беллашув шарт-шароитлари, мусобақа қоидалари, рақиб имкониятлари ва тайёргарлик даражаси, унинг морфологик кўрсаткичлари муайян усулни амалга оширишга замин яратади.

Бизнинг кузатишларимиз юқорида билдирилган фикрларни тасдиқлайди. Кузатилган мусобақаларда жами 370 та усул ҳисобланди. Шундан 320 таси (***86,48%***) тик туриб курашиш жараёнида қўлга киритилган. Фақатгина 50 та (**13,51%**) баҳо партерда қўлга киритилган (**1-жадвал**). Бу ўринда тик туриб курашишда қўлга киритилган баҳолар нисбати партерда қўлга киритилган баҳолардан сезиларли фарқ қилиши аниқланди. **1-жадвал.**

Мусобақаларда энг кўп қўлланилган усуллар (n=370)

Мусобақаларда энг кўп қўлланилган усуллар Ipponseoinage (25%), Kouchi-gari (18,75%), Ura-nage (9,375%), Ouchi-gari (9,375%) ва Uchi-mata (9,375%) бизнинг кузатишларимизда аниқланди. Партерда спортчилар томонидан Kata-gatame (40%) усули энг кўп қўлланилди. Партерда амалга оширилган усулларнинг ката қисми OsaekomeWaza таснифига кирувчи усулда амалга оширилганлигини алоҳида айтиб ўтиш керак.

Партерда беллашув олиб бориш ўзига хос аҳамият касб этиб, кучли дзюдочилар бевосита тик туриб ва партерда бирдек беллашув олиб бориш имкониятига эгалиги билан ажралиб туради (масалан, япон дзюдочилари).

Хулоса. Мусобақалар жараёнида қўлланиладиган усулар дзюдочилар мусобақа фаолиятининг умумий тренди ва уларнинг тайёргарлик жараёнини тавсифлайди. Дзюдочиларни техник-тактик тайёрлашда мусобақаларда энг кўп қўлланилган усулларни инобатга олиш керак ва ушбу усуллардан ҳимояланиш масаласини ҳам параллел равишда амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга.

Мусобақаларда энг кўп қўлланиладиган усуллар спортчиларнинг ушбу усулни амалга ошириш эҳтимоли юқори эканлигини кўрсатади. Тайёргарлик жараёнида мазкур усулларни такомиллаштиришга алоҳида аҳамият қаратиш лозим. Яна бир муҳим жиҳат мавжудки, мусобақаларда қўлланилган муайян усул машғулот жараёнида бажарилишидан фарқли ҳисобланади. Айнан бир усулнинг машғулот ва мусобақа шароитида амалга оширилиши ўртасида етарлича фарқ мавжуд.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Kano J. Kodokan Judo. Tokyo – New York. KodanshaInternational; 1986. 262 p.
2. Новиков.Д.Л. Обучение квалифицированных дзюдоистов способам выбора арсенала бросков с учетом тактики противника / Л.Д.Новиков: 13.00.04. автореф. дис. канд. пед. наук. Краснодар – 2016. 23-с.
3. Чибичик.Ю.Е. Индивидуализация учебно-тренировочного процесса юных дзюдоистов на начальных этапах подготовки / Ю.Е.Чибичик: 13.00.04. дис.канд.пед.наук. Челябинск – 2010. 180-с.
4. Marek Adam, Aneta Szczepanska. An individual profile of Aneta Szczepanska’s technical-tactical preparation. Journalof Combat Sportsand Martial Arts. Medsportpress, 2011; 2(2); Vol.2, 125-131.
5. Filaire E., Sagnol M., Ferrand C., Maso F., Lac G. (2001), Psychophysiological stress in judo athletes during competitions. JournalofSportsMedicineandPhysicalFitness, 41(2), pp.263-268.
6. Sacks D.N., Petscher Y., Stanley C.T., Tenenbaum G. (2003), Aggression and violence in sport: Moving beyond the debate. International journal of sport and exercise psychology, 1(2), 167-179. doi: 10.1080/1612197X.2003.9671710.
7. Korobeynikov G., Korobeinikova L., Mytskan B., Chernozub A., Cynarski W.J. (2017), Information processing and emotional response in elite athletes, Ido Movement for Culture, 17(2), pp. 41-50. doi: 10.14589/ido.17.2.5.

8. Korobeynikov G., Korobeynikova L., Potop V., Nikonorov D., Semenenko V., Dakal N., Mischuk D. (2018), Heart rate variability system in elite athletes with different levels of stress resistance. Journalof Physical Education and Sport, 18(2), 550-554. doi:10.7752/jpes.2018.02079.

G'.Ernazarov
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali
UO'K: **796:061.2/3**

O'QUVCHI YOSHLARDA HARAKAT FAOLLIGNING MUAMMOLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarda sutka davomida xarakat faolligi va uning rivojlanishi bilan organizmnin tashqi muxitga moslashishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Oliy o'quv yurtlari talabalari, maktab o'quvchilaridagi hayot rejimini o'rganib aniqlangan ma'lumotlar bilan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Harakat faolligi, sutkalik harakat, odamning harakat, yosh farqi, maxsus bilimlar, harakat faoligini minimal, optimal, maksimal darajasini aniqlashdir***.**

Аннотация: *В данной статье представлены сведения об активности движения у младших школьников в течение дня и адаптации организма к внешней среде при его развитии. Он покрыт информацией, определенной в результате изучения образа жизни студентов высших учебных заведений и школьников.*

Ключевые слова: *двигательная активность, суточное движение, передвижение человека, разница в возрасте, специальные знания, определение минимального, оптимального, максимального уровня двигательной активности.*

Abstract: *This article presents information about the activity of movement in primary schoolchildren during the day and the adaptation of the body to the external environment during its development. It is covered with information determined as a result of studying the lifestyle of university students and schoolchildren.*

Key words: *physical activity, daily movement, human movement, age difference, special knowledge, determination of the minimum, optimal, maximum level of physical activity.*

Kirish. Hozirgi kunda odamning jismoniy statusi va jismoniy rivojlanishini aniqlovchi faktorlar sistemasida harakat faolligi boshlovchilikda rol o'ynashi inkor yetib bo'lmas dalildir. Harakat og'irligi yurak qon tomirlari, bezlari faoliyati, (kostnaya-suyakli) to'qimaning rivojlanishi va mushak tizimida, organizmning tashqi muhit ta'siriga qarshiligida yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan aktiv harakat jarayonida yangi davriy aloqalar o'rnatiladi. Yangi-yangi shartli reflektor aloqalar paydo bo'ladi.Sport bilan shug'ullanishda haddan tashqari harakat faolligi, ayniqsa, organizm katta og'irlikga tayyor bo'lmasa, vegetativ tizim faoliyatidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.Harakat faolligi odamlarning rivojlanishi va to'g'ri o'sishini nazorat qiluvchi biologik regulyator bo'lib, shaxsning rivojlanishi va shakllanishida asos bo'ladi. Oxirgi yillarda turli yoshdagi odamlarning harakat faolligini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda.Tushunarliki, harakat faolligi kamchiligi oxirgi yillarda sog'likni yomonlashtiruvchi asosiy omildir [1. B.162].

Tadqiqot metodologiyasi. Aniqlanganki, nazorat qilinmaydigan harakat faolligi genetik tomondan belgilangan, shuningdek organizmning yosh-jinsiy hususiyatlarini ko'rsatadi va bu borada tana o'lchovlari, organlar va tizimlarning funksional holati ko'rsatkichi kabi biologik ko'rsatkich hisoblanishi mumkin[1. B.162].

Ayni shu paytda odamning harakat faolligi ma'lum miqdorda ijtimoiy pedagogik ta'sirlar va

atrof-muhit omillariga bog’liq. Ularning hususiyatlari harakat faolligini chegaralagandek harakat rejimining optimizatsiyasiga asos bo‘ladi.

Ko‘pchilik mutaxassislar fikricha harakat faolligi ba’zi qatiy o‘rtacha kattaliklarda kundan kunga yotgan doimiy individual kattalikdir. Iqlimi mo‘tadil bo‘lgan joylarda u baxor va yozga nisbatan kuzda va qishda ancha pastroq[2. B. 160].

1-jadval

Turli yoshdagi maktab o‘quvchilarining sutkalik harakat aktivligi
(G‘.N.Ernazarov 2020 yil)

Yoshi	**Ming qadam**	**Km**	**Sarflangan Vaqt, soat**
8-10	15-20	7,5-10	3,0-3,5
11-14	20-25	12-17	3,6-4,8
15-17 o‘g‘il bolalar	18-23	18-23	4,8-5,6
15-17 qiz bolalar	0-23	15-20	3,6-4,8

Odamning harakat faolligi uning ko‘nikma va qobiliyatlariga bog’liq: odam qanchalik ko‘p harakatlarga ega bo‘lsa, ular turli tuman bo‘lsa, ularni ko‘rsatma olish imkoniyati shunchalik keng, motor faoliyati shunchalik faol bo‘ladi[2. B. 161].

Harakat faolligi organizmning barcha tizimlarini shakllantiruvchi, ularni bir butun qilib to‘plovchi omil sifatida chiqqanda tezlashtirilgan o‘sish davrida faol motor faoliyati juda ahamiyatli.

Yosh farqi bilan har kunlik harakat faolligining darajasi shakllanishda biologik va ijtimoiy bog’liqlik o‘zgaradi: maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy omil tabiiy talab bo‘ladi, maktab o‘quvchilarida esa ijtimoiy sharoitlar.

Kamchilik kabi, harakatlarning ortiqchaligi ham organizmda katalogiklarga olib kelishi mumkin va bunga aloqador harakat faolligining ilmiy asoslangan optimal hajmlar bu muammoning muhim aspektidir.

Harakat faolligining optimal normalarini qidirish, optimal xarakat rejimini tashkillashtirishda asosiy muammo hisoblanadi. Biroq harakat faolligining kattalik normalari munosabatlarida aniq bir qaror yo‘q: ba’zilari faollik bolalarning maktabdagi o‘qish, xulqi kabilarni tushunsalar, boshqalari bolalarning tabiiy talablarini qondiruvchi, organizmning funksional imkoniyatlariga to‘la hajmlarini optimalligini tushunadilar[3;166-b,4;156-160-b].

2-jadval

Bolalar sutkalik harakatini aktivligini quyidagicha baholash qabul qilingan o‘quvchilarni sutkalik harakat aktivligi meyorini baholash

Qadam	**Baho**
10 ming	Past
10-20 ming	O‘rtacha
21-30 ming	Yuqori
31 ming va undan ortiq	Maksimal yuqori

Harakat faolligini normallashtirishga biologik normalar ko‘rinishida hajmlarni ham aniqlaydi. Bu holatlar 12000 dan 35000 gacha chegara orasida sutkada bo‘ladi.Bolalar harakat faolligini optimal hajmini rejalashtirish,bolalarning harakat faolligini yozgi davrda tekshirilib aniqlandiki, u 18000- 20000 lokomosiyalar davrida bo‘lar ekan. Shuning uchun harakat faolligini optimal hajmini rejalashtirishda ularga asoslanish mumkin. Ayni shu paytda tayyorlov sinfini o‘tayotgan 6 yasharliklarning harakat faolligini ko‘rsatilgan normada 2 marta kam va atigi 8000-10000 lokomosiylarni tashkil etadi.

Bu o‘quvchilarda statik holatni saqlab qolishni talab etuvchi faoliyat turlariga tendensiyaning o‘sishi bilan bog’lik: darslar, darslarga tayyorgarlik, kam harakat o‘yinlar, teledasturlar ko‘rish.

Aynan shuning bilan maktabda o‘qitish boshlanishi bilan harakat faolligi 50 % ga tushib ketdi, bu esa o‘quvchilar organizmida ma’lum o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi, o‘pkaning ko‘rsatkichlari, jismoniy ishga layoqat, dianometriya turli jismoniy mashqlardagi natijalar pasayadi. Tana tarkibi o‘zgaradi, markaziy asab tizimi qo‘zg’aluvchanligi oshadi, kasallik ko‘rsatkichlari o‘sadi. O‘qish jarayoni nafaqat sog’lik ko‘rsatkichlariga, balki bosh miyaning funksional faolligi, aqliy mehnat layoqatiga ham manfiy ta’sir ko‘rsatadi. Anchagina funksional ko‘rsatkichlar yomonlashuvi yil oxirida bilinadi.

Adabiyot analizlari normal jismoniy rivojlanishi jismoniy tayyorgarlik va ish layoqatining optimal darajasi uchun bolalarga biologik normaning sharoitini yaratib berish lozim. Bu ayniqsa 6-7 yoshga to‘g‘ri keluvchi bolaning kritik davrida juda muhim. Shunda qilib jismoniy tarbiyaning yana bir asosiy vazifalaridan biri bolalarning jismoniy rivojlanishi, ish layoqati, o‘qitishning yuqori darajasini belgilovchi harakatlarga yuqori talabning ta’minlashidir.

Harakat faoliyatini o‘qitish jarayoni, harakatni qila bilish,bajara olish,harakat malakasini shakllantirish (yuzaga kelitirish),harakat malakasining oliy maqomi, maxsus bilimlarga ega bo‘lish, ko‘nikmaga aylantirish. Bolalarda bir kundagi qadamlarning farqlari aniqlandi. Asosan, harakatchan bolada ko‘plik qadamlar hisobi 20000-30000 ga boradi, kam harakatlarda esa bu 10000 tadan ko‘p emas. Ortiqcha vaznli boalarda harakat faolligning pasayishi aniqlanadi.

Kattalar harakat faolligini optimal hajmini tahlil qilish.Ma’lumki, erkaklarning o‘gil bolalarning jismoniy faolligi ayollar, qizlarnikiga nisbatan ancha yuqori 1-3 sinf qizlarida 1 sutkada qadamlar hajmi 1-2 mingga bolalarnikidan kamroq.

Yil bo‘yi bolalarning harakat faolligini o‘rganuvchi tadqiqotlar fasliy ritmlarga ko‘rsatadigan harakat faolligi ta’sirlarini ko‘rsatib berdi.

Bizning iqlim sharoitlarida o‘quvchilarning harakat faolligi o‘rta sutkaviy faollik qishki davrda juda yuqori bo‘lgan va sutkada 16500-22400 qadamni tashkil etgan.

7 yoshli bolalar uchun 12000-15000 qadam sutkada kizlar uchun 12000-16000 qadam o‘gil bolalar uchun me’yor hisoblanadi.Sal kattaroq yoshlardagilar uchun bu ko‘rsatkich ancha yuqori bo‘lishi kerak. Masalan, yuqori bo‘lishi kunda 20000 qadam, turli jismoniy mashqlarni bajarish lozim. Suxarevning fikricha 11-15 yoshli o‘quvchilarni organizmining eng yaxshi holati sutkada 21000-30000 qadamda belgilanadi. Bu holda sutkaviy energiya sarfi 3100-4000 kkalga teng.

Istagan tashkilllashtirilgan harakat faoligi qadamlar sonining ko‘payishiga olib keladi.

Oliy o‘quv yurtlari talabalari, maktab o‘quvchilarida, talabalarning hayot rejimini o‘rgangan. SH.Xankeldiyening fikricha, talabalarida asosiy lokomosiyalar hajmi juda past va 1-2 kurs talabalarida sutkada 6000 qadam xolos.

Aktometrik usul bilan belgilangan talabalaring kam xarakatligi bevosita pedagogik kuzatuvlarga mos keladi. Sutkaviy vaktning 83 % ni talabalar harakatsizlikda o‘tkazishadi va qadamlar sonining ko‘payishi asosan dam olish kunlariga to‘gri keladi.

Talabalar xarakat faolligini o‘rganish jarayonida nafakat haftalik balki, harakat faolligi hajmidagi yillik o‘zgarishlar qayd etiladi. O‘quv yili davomida harakat faolligi kuz va qishda pasayadi va faqatgina may oyida o‘zining eng kata hajmiga, o‘rtacha 10600 qadam chiqar edi. Eng kichik faollik qishki va yozgi sessiyalar davrida kayd etilgan. Faollikning birdan o‘sib ketishi ta’til davriga, asosan, yozgi ta’til davriga to‘gri keladi. Natija shuni faollik o‘z-o‘zini qo‘lga olishda namoyon bo‘ladi[5.61-63-b,6. 148-155-b].

3-jadval

Haftalik ixtiyoriy harakat rejimiga qo‘yiladigan talablar

Harakat faoliyatining turlari	18 – 24 yosh yigitlar	18 - 20 yosh qizlar
Sog‘lomlashtirish yugurishi km.da	15-17	12-14
Yurish (velosipedda bo‘lsa ham)	22-24	16-18
Turnikda tortilish (qizlar kichik turnikda osilib yotib)marta	70-85	85-95
Qo‘lga tayanib tirsakni bukib to‘rilash (polda),(qizlar skameykaga tayanib)	120-140	210-220
Orqa bilan yotib oyoqlarni ko‘tarib tushirish marta Qizlar nolg‘da yotib gavdani ko‘tarish qo‘llar bo‘yinda zanjir	140-160	100-120
Asosiy turishdan oyoqlarni bukmay oldinga engashish marta	90-120	90-100
Tez yurish bilan turistik poxod. km. da qizlar.	-	21-35

Sport pedagogikasining masalalari тadqiqotlar ko‘rsatadiki, oliy o‘quv yurtlaridagi hozirgi kunda mavjud harakat rejimi talabalarga yetarli darajada harakat faolligi hajmini ta’minlab bermaydi va bu ularning jismoniy faollik, sog‘liklariga yomon ta’sir o‘tkazadi.

Davriy ko‘rsatkichlarga asoslanib harakat faolligi baholanayotganda bir haftada harakat faolligiga ajratiladigan soatlar tavsiya etiladi. Talaba va o‘quvchilar uchun optimal hajm harakat rejimi haftada 8-10 soatda harakat faolligi hisoblanadi[6. B. 148-155].

Sport pedagogikasining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchi yoshlarning harakat faoligini minimal, optimal, maksimal darajasini aniqlashdir.

Bunda minimal tavsifnomalar organizmni normal, funksional holatini belgilovchi chegaralarni ta’minlashi kerak bu gigenik harakterning harakat rejimi darajasidir. Tabiiyki, harakat faolligi inson organizmiga faqatgina optimal kattaliklar chegarasida bo‘lsa, ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uning yetishmovchiligi natijasida organizmning funksional va moslashuv imkoniyatlari pasayadi, noqulay sharoitlarga qarshiligi tushib ketadi. Buning natijasida kasallikka chalinish imkoniyati ortadi.

Ortiqcha faollikda ham buning aksida ham organizmda patalogik o‘zgarishlar kuzatiladi. Katta mikdordagi haddan tashqari toliqish ga olib keladi va oxir oqibat o‘sishda to‘xtalish sodir bo‘ladi, organizmnig turli tizimlari yemiriladi.

Harakat faolligini maksimal rejimlarini aniqlash ishga layoqat, o‘qishning pasayishiga olib keluvchi ogir mashqlarni bajarish chegarasini belgilaydi

Optimal rejim anchagina yaxshiroq. Bu holda organizm turli tomondan ta’sir ostida bo‘ladi, bu esa uning atrof-muhitga sekin-asta moslashishga imkoniyat yaratib beradi. O‘z navbatida, bu insoning moslashuvchanligini oshiradi va sog’liqni mustahkamlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xarakat faollik odam organizmini umuman o‘zgartiradi, ta’sirning individual ko‘rinishida uni morfologik va funksional o‘zgartiradi. Bolalarning jismoniy faolligi uning shakli va mikdoriy xususiyatlari, shuningdek organizmning rivojida anik tankidiy davrlarni bilish nafakat individual rivojlanish templarini anikdash, balki jismoniy tarbiyaning ilmiy asoslangan dasturini ishlab chikarish uchu asos bo‘la oladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Хонкельдиев Ш.Х.,Эрназаров Г.Н., Регилнальные особенности физического статуса 2021 г.162-s.
2. Ernazarov G‘.N. O‘quvchi-yoshlar jismoniy tarbiyasining xududiy xususiyatlari.:Uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2022 y.160-b.
3. Ernazarov G‘.N. Jismoniy tarbiyaning regional xususiyatlari: O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona 2023 y.166-b.
4. Эрназаров, Ғ. Н. (2024). Турли экологик шароитда яшаётган ўқувчилар организмидаги аэроб имконияти билан ишқобилиятидаги негативликлар. *xalqaro konferensiya va* jurnallarni sifatli indexlash xizmati, *1*(1), 156-160.
5. Эрназаров, Г. Н. (2020). Исследование изменений ростово-массовых показателей студентов педагогического ВУЗа. Достижения науки и образования, (12 (66)), 61-63.
6. Эрназаров, Ғ. Н. (2024). Талабаларининг чидамкорлик жисмоний сифатлари ривожлантириш усуллари. xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati, *1*(1), 148-155.

D.Norkulov
Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali.
UO‘K: 126:063.3/4

“YETTI QADAM” DASTURI ASOSIDA TRENERLIK FAOLIYATIDA TIZIMLI YONDASHUV

Annotatsiya. *«Yetti Qadam» dasturi trenerlik faoliyatida tizimli yondashuvni o‘rnatishga qaratilgan muhim vositadir. Ushbu dastur, trenerlarga ish jarayonlarini tozalik, poklik va halollik bilan boshqarish, istiqbolli strategik rejalar tuzish, shaxsiy sport klubi ochish, va ishni biznes sifatida yuritish orqali professional o‘sishga erishishga yordam beradi.Shaxsiy brendni rivojlantirish va mahalliy korxonalar bilan hamkorlik, tadbirlarni muvaffaqiyatli tashkil etishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tizimli yondashuv, trenerlik faoliyati, strategik rejalashtirish, shaxsiy brend, sport klubi,hamkorlik, muntazam musobaqalar, professionallik.*

Ключевые слова: *Системный подход, тренерская деятельность, стратегическое*

планирование, личный бренд, спортивный клуб, сотрудничество, регулярные соревнования, профессионализм.

Аннотация. *Программа «Семь шагов» является важным инструментом, направленным на установление системного подхода в тренерской деятельности. Эта программа помогает тренерам достичь профессионального роста, управляя рабочими процессами с чистотой, порядочностью и честностью, создавая перспективные стратегические планы, открывая личный спортивный клуб и ведя работу как бизнес. Развитие личного бренда и сотрудничество с местными предприятиями способствует успешной организации мероприятий.*

Keywords: *Systematic approach, coaching activities, strategic planning, personal brand, sports club, collaboration, regular competitions, professionalism.*

Annotation: *The “Seven Steps” program is an important tool aimed at establishing a systematic approach in coaching activities. This program helps coaches achieve professional growth by managing work processes with cleanliness, integrity, and honesty, creating promising strategic plans, opening a personal sports club, and running their work as a business. Developing a personal brand and collaborating with local businesses contributes to the successful organization of events.*

Kirish. Trenerlik faoliyati bugungi kunda nafaqat sport, balki biznes sohasida ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun tizimli yondashuvni o‘rnatish zarur. «Yetti Qadam» dasturi, trener sifatida faoliyat yurituvchi shaxslarning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu dastur yordamida, trenerlar o‘z ish jarayonlarini boshqarish, strategik rejalashtirish, shaxsiy brend yaratish va hamkorlik o‘rnatish orqali o‘z faoliyatlarini yanada professional va muvaffaqiyatli qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi [1. B. 168].

Tadqiqot metodologiyasi. Birinchi qadamda, ish jarayonlarini tozalik, poklik va halolik bilan boshqarishga intilish talab etiladi. Bu nafaqat jamoa a’zolari, balki mijozlar bilan ishonchli aloqalar o‘rnatishda ham muhimdir. Muvozanatli va samimiy muhit yaratish orqali, trener o‘z faoliyatini yanada samarali boshqarishi mumkin.



1-rasm *Trenerlik faoliyatida tizimli yondashuv asosida «Yetti Qadam» dasturi*

Ikkinchi qadamda, istiqbolli strategik rejalar tuzish muhimdir. Rejalar, maqsad va vazifalarni aniqlab berish bilan birga, kelajakdagi muvaffaqiyatlarni belgilaydi. Bu qadamni amalga oshirishda o‘z maqsadlaringizni aniqlash va ularni erishish uchun zarur bo‘lgan resurslarni belgilash

muhimdir[2. B. 151].



2-rasm. *Trenerlik faoliyatida tizimli yondashuv asosida «Yetti Qadam» dasturi asosida amaliy tavsiyalar.*

Uchinchi qadamda, shaxsiy sport klubini tashkil etish orqali, trener o‘z brendini yaratishi va o‘z imkoniyatlarini yanada kengaytirishi mumkin. O‘z sport klubingiz orqali, nafaqat individual sportchilar, balki jamoa sifatida ham rivojlanishingizga imkoniyat yaratadi[4. 56-58-b].1-rasmga qarang.

To‘rtinchi qadamda, ishga biznes kabi munosabatda bo‘lish talab etiladi. Trenerlik faoliyati, o‘z ichiga moliyaviy rejalashtirish, marketing strategiyalarini o‘z ichiga oladi. O‘z faoliyatingizni

biznes sifatida ko‘rish, uni barqaror rivojlantirishga yordam beradi[5. 89-91-b].

Beshinchi qadamda, shaxsiy brendingizni yaratish zarur. O‘z brendingiz orqali, professional obro‘ni oshirish va mijozlar bilan yanada chuqurroq aloqalar o‘rnatish mumkin. Shaxsiy brend, sizni bozorga ta’sir ko‘rsatadigan shaxsga aylantiradi.

Oltinchi qadamda, mahalliy korxonalar, tadbirkorlar va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish muhimdir. Tashkil etilgan tadbirlar orqali, sportni rivojlantirishda kuchli tarmoq yaratish va resurslarni samarali ishlatishga erishish mumkin.

Yettinchi va oxirgi qadamda, muntazam ichki liga musobaqalarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. Musobaqalar, sportchilarni rag‘batlantirish va jamoaviy ruhni oshirishga yordam beradi. Bu o‘zaro tajriba almashish va rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi[6. B. 121].

Quyidagi jadvalda Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida joriy etilgan «Yetti Qadam» dasturi asosida 6 oy davomida 200 nafar trenerga nisbatan oylik maoshga qo‘shimcha haq olgan trenerlar soni ilmiy asosda keltirilgan. Ushbu dastur natijasida trenerlarning oylik maoshiga 200 qo‘shimcha haq va 150% gacha qo‘shimcha haq olish natijalari aks ettirilgan.

1-jadval.

Quyidagi jadvalda Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida joriy etilgan «Yetti Qadam» dasturi o‘sish ko‘rsatkichlari(n-200).

Viloyatlar	Trenerlar soni	Oylik maoshiga 200 qo‘shimcha haq olganlar (%)	200 qo‘shimcha haq olganlar (trenerlar soni)	Oylik maoshiga 150% gacha qo‘shimcha haq olganlar (%)	150% gacha qo‘shimcha haq olganlar (trenerlar soni)
Farg‘ona	70	45%	32	27%	19
Andijon	65		29		18
Namangan	65		29		18
Jami	200		90		55

Oylik maoshiga 200 qo‘shimcha haq olish: Dastur joriy etilganidan so‘ng, jami 200 nafar trenerning 45% (90 nafar) oylik maoshiga 200 qo‘shimcha haq olgan. Bu ko‘rsatkich har bir viloyatda bir xil bo‘lib, Farg‘ona, Andijon va Namanganda ham bu ko‘rsatkich 45% ni tashkil etgan.

Oylik maoshiga 150% gacha qo‘shimcha haq olish: Shuningdek, 27% (55 nafar) trenerlar oylik maoshiga 150% gacha qo‘shimcha haq olishgan. Bu ham barcha uch viloyatda bir xil ko‘rsatkich bilan o‘lchangan. Shu bilan birga, Farg‘ona viloyatida 19 nafar, Andijon va Namangan viloyatlarida esa 18 nafardan trener 150% gacha qo‘shimcha haq olishgan.

Ushbu natijalar «Yetti Qadam» dasturining trenerlar daromadiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatib, ularning professional rivojlanishiga katta hissa qo‘shayotganini isbotlaydi. Trenerlarning daromad o‘sishi ularda motivatsiyani oshirib, yanada samarali va sifatli mehnat qilishlariga yordam bergan.



1-diagramma. *Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida joriy etilgan “Yetti Qadam” dasturi o‘sish ko‘rsatkichlari(n-200).*

Xulosa. Ushbu yetti qadam trenerlik faoliyatida tizimli yondashuvni o‘rnatish va muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhim vositadir. Har bir qadam o‘z ichiga strategik yondashuv, samarali boshqaruv va innovatsion g‘oyalarni o‘zlashtirishni oladi. Trenerlar, o‘z faoliyatlarini yanada samarali va professional darajada amalga oshirish orqali, nafaqat o‘z sportchilarining rivojlanishini ta’minlaydi, balki butun jamoaning o‘sishi va muvaffaqiyati uchun ham katta hissa qo‘shadi. To‘g‘ri yo‘l tutish, har bir qadamni amalga oshirish jarayonida trenerlarning o‘z bilim va tajribalarini kengaytirishlariga yordam beradi. Bu jarayon, jamoa ruhini oshirish, motivatsiyani kuchaytirish va sportchilar orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish kabi muhim omillarni o‘z ichiga oladi. Trenerlar, o‘z sportchilari bilan birga ishlash orqali, nafaqat individual rivojlanishni, balki jamoaviy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Har bir qadamni to‘g‘ri amalga oshirish muvaffaqiyatning kalitidir. Tizimli yondashuv orqali olingan natijalar, sportchilarni yangi darajalarga olib chiqadi va sport sohasida yangi standartlarni belgilaydi. O‘zbekiston sporti uchun bu jarayon, nafaqat milliy muvaffaqiyatlarni, balki xalqaro arenada ham yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi. Shu sababli, trenerlarning bu yetti qadamni to‘g‘ri va muntazam ravishda amalga oshirishi, sportchilar va jamoalar rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Har bir qadamning ahamiyatini tushunish, trenerlarni professional rivojlanish yo‘llarini ochadi va ularni haqiqiy muvaffaqiyatga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Norkulov D.R, Jaxbarov A.S, Ne’matov M, Maxamadjonov M.M “Lider-Trener” dasturi Farg‘ona-2024 B-168.
2. Pulatov A.A., Ganieva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. // Darslik. T.: 2017. – 351 b.
3. S.M.Siddiqov, D.R.Norkulov, I.To‘xtanazarov, I.Islomov Basketbol.// uslubiy qo‘llanma Farg‘ona. 2015. -131 b.
4. Smith, J. (2021). Michael Jordan: A Biography. New York: Sports Publishing.56-58 p.

5. Jones, L. (2020). Cristiano Ronaldo: The Biography. London: Arena Sport. 89-91 p.
6. Williams, S. (2022). Serena Williams: My Life in Tennis. Los Angeles: Sporty Press.121-124 p.

Т.Пахратдинова
Қарақалпақ аўыл хожалығы ҳәм агротехнологиялар институты,
Еркин излениўши
УДК 372.851

ЕСАП-КИТАПҚА ҮЙРЕТИЎШИ ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛЫҚ ОЙЫНЛАРЫ (ШҮЛЛИК ОЙЫНЫ)

Аннотация: *Мақалада Қарақалпақ халқының әйемги дәўиринен киятырған балалар ойыны «шүллик» ҳаққында сөз етилген. Соның менен бирге бул ойын ойыншыларда, есап-санақ қәбилиетин раўажландырып, санаў көнликпелерин ҳәм геометриялық өлшеўлерди үйренетуғынлығы ашып көрсетилген. Мақалада бундай ойынның киши жас балалар билимлерин раўажландырыўдағы әҳмийети анықланған.*

Таяныш сөзлер: *ойын, топар, спорт, жарыс, ойын тәртиби, шүллик, дәстек, есап-санақ, өлшеў.*

Аннотация: *В статье рассмотрена игра для подростков «шуллик», в которую играют Каракалпаки с давних времен. Эта игра развивает у играющих способности к быстрому счету и арифметическим вычислениям. В статье раскрывается роль этой игры в укреплении навыков к вычислению и счету, а также помощь в овладении геометрическими знаниями. Определен значение игры в развитии математических знаний и навыков по счету.*

Опорные слова: *Игра, группа, спорт, соревнование, правила игры, шуллик, дастек, вычисления, измерение.*

Annotation: *The article discusses the game for teenagers "shullik", which has been played by Karakalpaks since ancient times. In addition, this game develops the ability of players to quickly count and perform arithmetic calculations. The article reveals the role of this game in strengthening the skills of calculation and counting, as well as assistance in mastering geometric knowledge. The importance of the game in the development of mathematical knowledge and counting skills are determined.*

Key words: *Game, group, sport, competition, rules of the game, shullik, dustk, calculations, measurement.*

Изертлеўдиң актуаллығы: Қарақалпақ халық ойынларын үйрениў, қызықтырыў ҳәм раўажландырыў, ойын түринде балалардың күш, шыдамлылық ҳәм масласыўшаңлықты раўажландырыў ҳәм жетилистириўдиң айрықша қәсийетлерине арналған илимий изертлеўлердиң жүдә аз екенлиги**.**

Изертлеўдиң мақсети: Миллий есап-санақ жүритилетуғын ойын ойнаўшылардың ьуўапықластырыў қәбилетин асырыўға қаратылған ҳәм мөлшерленген оқыў комплекс нәтийжесин үйрениў болып табылады.

Изертлеўдиң ўазыйпасы: Ерисилген нәтийжелерди анализ қылыў ушын көбирек мағлыўматлы үлгилерге ерисиў

Кирисиў: Қарақалпақ халық ойынлары узақ өтмиши менен, бай тарийхына ийе болған, ата-бабалардан әўладларға мийрас сыпатында өтип киятырған рухый байлығымыз ҳәм үрп-

әдетимиз есапланады. Республикамыз ғәрезсизликке ерискеннен баслап миллий үрп-әдетлеримиз, дәстүрлеримиз сондай-ақ халық ойынлары қайта тиклениўине үлкен итибар қаратылды. Халық ойынлары әзелден ата-бабаларымыздың мәдений турмысының ажыралмас бир бөлеги сыпатында қәдирленген. Көпшилик ойынларымыз әйемги заманлардан киятырған болып, олар әсирлер даўамында халқымыз руўхый байлығын көтериўге (байытыўға), аңы, ойлаў қәбилиети ҳәм ишки сезимлерин тереңлестириўге хызмет қылған. Ойынларда халықтың турмыс тәризин, мийнетлерин, жетискенликлерин көриўимизге болады. Сонлықтанда жас әўладлардың тәрбиясында “турмыс мектеби” ўазыйпасын атқарған.

Изертлеў методологиясы: Қарақалпақ халқы әййемги заманлардан бери өзиниң миллий ойынларына бай халық болып есапланған. Байрам салтанатларында, соның ишинде Наўрыз, зурәәт байрамларында, той-мерекелеринде усындай миллий ойынлар ойналып, халқымызға үлкен қуўаныш бағышлаған. Миллий халық ойынларының еркин раўажланыўына, шын мәнисинде өткерилиўине Совет дәўиринде қарама-қарсылыклар, тосқынлыкларда болды. Бирақ, өзлигимизди қайта таныўымыздың нәтийжесинде ғәрезсизлигимиздиң шарапаты менен миллий ойынларымыз әўладтан-әўладқа өз мазмунын жоғалтпастан жетип келди. Миллий ойынлар, соның ишинде шүллик ойыны жас әўладларымызды дурыс, еркин ҳәрекет етип қәлиплестириў менен бир қатарда, олардың сана-сезимин, ойнаў ўқыплылығын арттырыўда, ден-саўлықларын беккемлеўде ҳәм есап-санақ билимлерин раўажландырыўда әҳмийетли орын тутқан. Бул ойынлар халқымызды шаққанлыққа, тапқырлыққа, ақыллылыққа, жигерлиликке, шыдамлылыққа ҳәм күшлиликке таярлайды. Сондай-ақ, миллий ойынлар халқымыздың мийнетке болған ўқыплығын арттырыўда үлкен хызмет атқарады.

«Шүллик» ойыны кең жазықлықта ойналатуғын аўылда жасайтуғын балалардың жақсы көрип ойнайтуғын ойыны. «Шүллик»ти падада мал бағып жүргенде ойнаған. «Шүллик» ойынын ойнаў ушын арнаўлы орын яки таярлық көриў талап етилмейди. Еки ушы жонылған «шүллик» ҳәм оны ушырыў ушын «дәсте» (дәстек) болса жеткиликли. Ойын ушын дәстени ҳәм оның шүллик таяқшаларын тал ағашынан соғатуғын болған.

Бул ойынды кем дегенде еки бала ямаса көп балалар еки топарға бөлинип ойнаўы мүмкин. Ойын жүдә ҳәўиж алған ўақтында аўылға-аўыл балалары топар болып жарысқан. Ойын басланыўынан алдын бир бала шөп жасырады ҳәм сол шөпти тапқан бала топары менен ойынды баслайтуғынлығы анықланған. Ойын басламасынан алдын усы шүллик таяқларын қойып, дәсте (дәстек) менен илип, ҳаўаға көтерип, соң қолындағы дәстеси менен күшиниң барынша урады ҳәм илажы барынша узаққа ушырады.

Майданның арғы тәрепиндеги қарсылас балалар қулашын жайған ҳалда ушып киятырған шүлликти илажы барынша қақшып алыўға ҳәрекет етеди. Бул жерде шүлликти услап алыў ушын кийимлериниң етеклерин жайып ямаса бас кийими менен қақшып алатуғын болған. Егер тутып алса бул топар балалары өзлерин саўашта жеңиске ерискен жаўынгерлердей гердийип, сол ўақытта-ақ ылақтырыў гезегин қолға киргизеди. Бирақ сондай күш пенен ушырылған шүлликти қақшып алыў аңсат ис емес. Енди шүлликти барып түскен орнынан ушырылған орындағы шуқырға қолдан ылақтырыў керек. Сондай етип гүзелеп ылақтырыў керек, иләжи барынша сол шуқырға түсиўи керек. Егер шүллик сол шуқырға түссе, онда сол тәреп балалары жеңиске ериседи. Бирақ бул ўазыйпаны орынлаў аңсат емес шүлликти дәстекке тийгизиў ушын мергенлик ҳәм епшиллик талап етиледи. Егер шүллик дәстек турған жерге жақынлап түссе, онда қарсылас топар балаларының сәрдары (басшысы) шүлликтиң бир шетин урып ҳаўалатып қолындағы дәстек пенен күш салып урады. Усындай етип сәрдар 3 мәрте урыў ҳуқықына ийе болады. Топардың қалған балалары тек бир мәрте урыў ҳуқықына ийе. Солай етип бул топар балалары шүлликти илажы барынша шуқырдан алыслатыўға ҳәрекет етеди. Енди усы жерде ойынның еки түрли усылы

ойналады.

- Биринши усылы: Киши топар балалары яки еле ойнаўға уқыбы еле раўажланбаған топар балалары ушын: Шүллик ең алыс орынға түскенде, енди қарсылас топар балалары шүлликтиң турған жеринен шуқырға шекемги аралықты шама менен дәстектиң узынлығы менен өлшенетуғын санды айтады. Егер айтылған сан дәл шықса, онда сол топар өзлерине 1 упай қосып алады.Егер айтылған сан 1 дәстек кем болса, яки артып кетсе, онда упай қарсылас топарға бериледи.
- Екинши усылы: Үлкен топар балалары ямаса ойынды жақсы өзлестирген балалар ойнайды. Шүллик ең алыс орынға түскенде, енди нәўбет жүгириўге келеди. Бирақ бул әпиўайы жүгириў емес, ал шүллик түскен орыннан дәстек турған шуқырға шекем, бир дем менен жүгирип барыўы керек.

Ески араб әлипбесин үйрениў усылларынан бири араб тилиндеги 32 ҳәрипти бир демде айтыў тәртиби бар. Яғный әлипбени жақсы ядлаған бала бир дем алғанда, деми таўсылғанша 32 ҳәрипти анық етип устазына, муғаллимге айтып бериўи керек болған. Булда өз алдына ақылый қәбилетин ҳам саламатлығын талап еткен. Усы тапсырманы орынлаған оқыўшы ғана кейинги тапсырмасын алған.

Усындай шүллик ойынында да бир дем менен жүгирген ҳалда шуқырға жетип барыўы керек. Егер шәрт орынланбаса яғный белгиленген мәнзилге жете алмай, дем алып қойса, баланы сол жерде тоқтатып, шүлликти және ҳаўалатып ылақтырады. Мәнзилге жете алмай деми таўсылған бала ойын басланған жерге яғный шуқыр қазылған жерге утылған топар балалары, жеңиске ерискен балаларды арқасына салып мәнзилге апарады. Жеңиске ерискен топар балалары ойынды және баслайды. Ойын усылайынша даўам етип бара береди.

«Шүллик» ойынының ҳәр аўылда ҳәр қыйлы көринислери бар. Мысалы «Шахаман» елатында екинши усылы яғный дем алмастан жуўырыў ойналса, ал «Назархан» елатында биринши усылы дәстек пенен санап, упай жыйнаған. Қағыйдаларға ҳәр бир дәўирде жас әўладлар өзгерислер ҳәм қосымшалар кириткен. Бул «Шүллик» ойыны ата-бабаларымыз бурыннан жақсы көрип, ардақлап заманнан-заманға, аўладтан-әўладқа жеткерилип келинген ойынларының бири.

«Шүллик» ойынын ойнаған бала, бириншиден ден-саўлығы беккемленеди, дем алыў жоллары, көкирек клеткалары, даўысы жақсы раўажланып ҳәр қыйлы кеселликлерден аўлақ болады. Екиншиден математикалық есап-санақ ислери ҳәм геометриялық өлшеў жумыслары раўажланып билимлери асқан.

Жуўмақлаў: Миллий халық ойынларын, соның ишинде шүллик ойынының умытылған жерлерин жаңартып, кайта тиклеп, бугинги кунниң талабына жуўап беретуғындай етип толықтырып, халкымыздын, миллий байрамларында, той-мерекелеринде, сейиллеринде атқарылатуғын миллий халық ойынларын қайта енгизиў зәрүр. Бугинги куни миллий ойынлардың миллийлигин, ойналыў қағыйдаларын, тәрбиялық әҳмийетин буннан былай да тереңирек раўажландырыў мәселелери шешилип атыр. Әсирлер даўамында қарақалпақ халқы тәрепинен топланған миллий ойынларымызды кайта тиклеў, улыўма инсаныйлық қәдириятларды жетилистириў үлкен әҳмийетли уазыйпа болып табылады.

Пайдаланған әдебиятлар:

1. Ө. Алеўов «Қарақалпақстанда тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиўи ҳәм раўажланыўы» Нөкис «Билим» 1993, 503-бет.
2. Қарақалпақ фольклоры. 20 томлык. Қарақалпақ халық жумбақлары. - Н: Қарақалпақстан. 1978. 3 - том. - 207 б.
3. Махмуд Саттор «Ўзбек удумлари» Тошкент «Фан» 1993, 224-стр.

4. Ў. Алеўов, А. Бекимбетова «Халқ педагогикасида ёшларга ақлий тарбия бериш анъаналари» Нукус «Қарақалпақстан» 2018,104-бет.

5. Есбергенов Х. Қарақалпақлардың гейпара дәстурлери ҳаққында - Нөкис. Қарақалпақстан, 1964. - 86 б.

6. Торежанова Р.У. Қарақалпақ халқының эстетикалық тәрбиясының дәстүрлери ҳәм олардың заманагөй тәлим процессинде қолланылыўы. Методикалық қолланба. - Т.: Фан, 2007. - 48 с.

S.Kamchiyev
ADPI Jismoniy madaniyat fakulteti
Jismoniy tarbiya va xotin-qizlar sporti kafedrasi mudiri, dotsent

BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUAXASSISLARINI GIMNATSIKA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY VA XORIJ TAJRIBA TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqola “Bo‘lajak jismoniy madaniyat muaxassislarini gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda milliy va xorij tajriba taxlili” mavzusiga bag‘ishlangan. Maqola, jismoniy madaniyat sohasidagi ta’lim jarayonini takomillashtirish maqsadida milliy va xorijiy tajribalarni tahlil qiladi.Gimnastika mashg‘ulotlarining samarali tashkil etilishida individual yondashuv va jismoniy tayyorgarlik darajasining ahamiyati muhokama qilinadi. O‘qituvchilarning roli, innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishning imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada milliy qadriyatlarni saqlash va o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion metodlarni joriy etish bo‘yicha takliflar keltirilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarni jamiyatga moslashishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator istiqbollar ko‘rsatilgan. Ta’lim sohasidagi tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va jismoniy madaniyat sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar va ilmiy asoslangan fikrlarni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *gimnastika, pedagogik tayyorgarlik, milliy tajriba, xorijiy tajriba, individual yondashuv, innovatsion metodlar, ta’lim jarayoni, o‘qitish metodikasi, o‘quvchilar, faol o‘qitish, o‘quv muhit, o‘qituvchilar, raqamli ta’lim, motivatsiya, jismoniy tayyorgarlik, o‘z-o‘zini baholash, ta’lim sifatini oshirish, jamiyatga moslashish.*

Аннотация: *Данная статья посвящена теме «Анализ отечественного и зарубежного опыта развития педагогической подготовки будущих специалистов по физической культуре при организации занятий гимнастикой». В статье анализируется отечественный и зарубежный опыт с целью совершенствования учебного процесса в области физической культуры. Обсуждается важность индивидуального подхода и уровня физической подготовки в эффективной организации занятий гимнастикой. Рассмотрены роль учителей, инновационные педагогические подходы и возможности повышения качества образования за счет использования современных технологий. В статье содержатся предложения по сохранению национальных ценностей и внедрению инновационных методов в процесс подготовки учителей. В системе образования Узбекистана обозначен ряд перспектив,*

важных для эффективной организации процесса подготовки специалистов по физической культуре и подготовки студентов к адаптации в обществе. Предлагает практические рекомендации и научно обоснованные идеи для исследователей в области образования, учителей и специалистов по физическому воспитанию.

Ключевые слова: *гимнастика, педагогическая подготовка, отечественный опыт, зарубежный опыт, индивидуальный подход, инновационные методы, образовательный процесс, методика обучения, студенты, активное обучение, образовательная среда, педагоги, цифровое образование, мотивация, физическая подготовленность, самооценка, совершенствование качество образования, адаптация к обществу.*

Abstract: *This article is devoted to the topic "Analysis of national and foreign experience in the development of pedagogical training of future physical culture specialists in the organization of gymnastics classes." The article analyzes national and foreign experiences in order to improve the educational process in the field of physical culture. The importance of an individual approach and the level of physical training in the effective organization of gymnastics training is discussed. The role of teachers, innovative pedagogical approaches and opportunities to improve the quality of education through the use of modern technologies are considered. The article contains proposals for the preservation of national values and the introduction of innovative methods in the process of teacher training. In the educational system of Uzbekistan, a number of perspectives are indicated, which are important for the effective organization of the training process of physical culture specialists and the preparation of students for adaptation to society. Offers practical recommendations and science-based insights for educational researchers, teachers, and physical education professionals.*

Key words: *gymnastics, pedagogical training, national experience, foreign experience, individual approach, innovative methods, educational process, teaching methodology, students, active teaching, educational environment, teachers, digital education, motivation, physical fitness, self-evaluation, improving the quality of education, adapting to society.*

Kirish. Jismoniy madaniyat sohasidagi mutaxassislar tayyorlashda pedagogik yondashuvlar, ayniqsa, gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil qilishdagi tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega. Milliy va xorij tajribasining tahlili bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqola bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishda milliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularning qiyosiy o‘rganilishi orqali metodik yondashuvlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Xorijiy davlatlar, xususan, AQSh, Rossiya, Yevropa mamlakatlari hamda O‘zbekiston tajribalari ushbu maqolada muhokama qilinadi. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayoni, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarlik darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Pedagogik tayyorgarlik — bu o‘qituvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalardir. Ushbu jarayonda, ayniqsa, gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Gimnastika, nafaqat jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish, balki o‘quvchilarda muhim ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatlidir.

Pedagogik tayyorgarlik darajasi va samaradorlik: jismoniy madaniyat mutaxassisi tayyorlashda pedagogik tayyorgarlik darajasi, ayniqsa, gimnastika mashg‘ulotlarining samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Agar pedagogning tayyorgarlik darajasi past bo‘lsa, bu o‘z navbatida o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘g‘ri baholash, ularni rag‘batlantirish va samarali mashg‘ulotlar tashkil etishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, pedagogik tayyorgarlikning zaifligi natijasida o‘qituvchi gimnastika mashqlarini noto‘g‘ri tashkil etishi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olmaydi va natijada mashg‘ulotlar samaradorligi pasayadi.

Milliy yondashuvlar va xorijiy tajribalar: O‘zbekistonning jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash tizimida milliy yondashuvlar, asosan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarbiyaviy asoslar bilan bog‘liqdir. Biroq, ushbu yondashuvlar zamonaviy xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirilmaganligi ba’zi yetishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, O‘zbekiston ta’lim tizimida an’anaviy pedagogik usullar ko‘p ishlatiladi, lekin zamonaviy texnologiyalar va interaktiv ta’lim metodlari yetarlicha joriy etilmagan. Bu esa ta’lim jarayonini qisqa muddatda takomillashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Xorijiy tajribalar, xususan, AQSh, Yevropa mamlakatlari va Rossiyada, pedagogik tayyorgarlik jarayoni innovatsion yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu mamlakatlarda jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Bu jarayonlar bo‘lajak mutaxassislar uchun jismoniy va psixologik tayyorgarlikni oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonning jismoniy madaniyat ta’lim tizimida esa bunday yondashuvlar hali to‘liq rivojlanmagan. Zamonaviy ta’lim yondashuvlarini milliy sharoitlarga moslashtirish va xorijiy tajribalarni o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda, O‘zbekistonning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik yondashuvlarini xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish, bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi. Masalan, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, mashg‘ulotlarni interaktiv tarzda tashkil etish kabi yondashuvlar orqali jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonini samarali amalga oshirish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini, psixologik holatini va jamiyatga qo‘shadigan hissasini kuchaytiradi. Ushbu muammo bo‘yicha yuqorida aytib o‘tilganlar asosida, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirish va zamonaviy ta’lim yondashuvlarini joriy etish, shuningdek, milliy va xorij tajribalarini qiyosiy tahlil qilish zaruriyatini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida muammo qo‘yilishi zarur bo‘lgan masalalarni ko‘rsatadi. Pedagogik tayyorgarlik darajasi va samaradorlik, milliy yondashuvlar va xorijiy tajribalar o‘rtasidagi uyg‘unlik, zamonaviy ta’lim yondashuvlarini milliy sharoitlarga moslashtirish dolzarb masalalardir. Shu bilan birga, ta’lim tizimida o‘zgarishlar qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va pedagogik metodlarni takomillashtirish orqali jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Pedagogik tayyorgarlik darajasining ahamiyati: bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining tayyorgarlik darajasi va ular olib boradigan mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish uchun pedagogik tayyorgarlikni zamonaviy va an’anaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik tayyorgarlik, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon jismoniy madaniyat mutaxassislari tomonidan qo‘llaniladigan metodlar, usullar va texnologiyalarni to‘g‘ri tanlashga yordam beradi. O‘zbekistonning ta’lim tizimida pedagogik tayyorgarlik darajasi ko‘pincha an’anaviy usullar bilan cheklangan. Biroq, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘g‘ri baholash va ularga individual yondashuvni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy va xorijiy tajribalar: milliy tajribalar, O‘zbekistonning tarbiyaviy va madaniy qadriyatlarini inobatga olgan holda, jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Biroq, xorijiy tajribalar bilan taqqoslaganda, milliy yondashuvlar ko‘pincha zamonaviy texnologiyalardan va innovatsion metodlardan mahrum bo‘ladi. Xorijda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tayyorgarlik jarayoni ko‘proq zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, AQSh va Yevropa mamlakatlarida pedagoglar, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda, mashg‘ulotlarni interaktiv tarzda tashkil etadilar. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy yondashuvlar va xorijiy tajribalar o‘rtasidagi uyg‘unlik: Milliy va xorijiy tajribalarni uyg‘unlashtirish, jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning jismoniy madaniyat ta’lim tizimida an’anaviy usullar ko‘p ishlatiladi, lekin zamonaviy texnologiyalar va interaktiv ta’lim metodlari yetarlicha joriy etilmagan. Bu esa ta’lim jarayonini qisqa muddatda takomillashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu tajribalar orasida integratsiya amalga oshirilganda, o‘quvchilar uchun eng maqbul va samarali pedagogik muhit yaratish mumkin. Milliy qadriyatlar bilan birga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash, ta’lim jarayonini yanada sifatli va samarali qilishga yordam beradi.

Milliy Tajriba Tahlili: O‘zbekistonda gimnastika bo‘yicha bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda an’anaviy pedagogik yondashuvlar qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar milliy qadriyatlar, madaniyat va urf-odatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Jismoniy madaniyat bo‘yicha dasturlar amaliy va nazariy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirib, mutaxassislarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Milliy qadriyatlar va pedagogik yondashuvlar: O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlar asosiy o‘rinda turadi. O‘zbekistonning tarixiy va madaniy merosi, o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi va ularni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu esa, an’anaviy o‘yinlar, milliy sport turlari va jismoniy mashqlarni o‘z ichiga olgan holda, o‘quvchilarga jismoniy faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi. An’anaviy pedagogik yondashuvlar bo‘yicha gimnastika mashg‘ulotlari ko‘pincha jamoaviy va individual formatda amalga oshiriladi. O‘qituvchilar o‘z o‘quvchilariga sifatli ta’lim berish, ularni jismoniy jihatdan tarbiyalash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga intiladilar. Ushbu yondashuv, jismoniy madaniyat mutaxassislarining o‘zaro hamkorlik va jamoa ruhini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim dasturlari va metodlar: O‘zbekistonda gimnastika bo‘yicha ta’lim dasturlari jismoniy tarbiya va sport sohasidagi zamonaviy talablar va standartlarga javob berishga qaratilgan. Ushbu dasturlar o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni nazariy bilimlar bilan ta’minlash va amaliy ko‘nikmalarni oshirishga xizmat qiladi. Gimnastika mashg‘ulotlarida ko‘plab metodlar qo‘llaniladi, jumladan, demonstratsiya, amaliy mashg‘ulotlar, o‘z-o‘zini baholash va guruhli faoliyat. Bu metodlar, o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlari, shaxsiy ehtiyojlari va maqsadlariga qarab tanlanadi.

Islohotlar va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar: O‘zbekistonning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlari, pedagogik tayyorgarlik tizimiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yo‘naltirilgan. Mamlakatda jismoniy tarbiya sohasida yangi dasturlar va innovatsiyalar, ta’lim jarayonini yaxshilash, pedagogik tayyorgarlikni oshirish va o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida interaktiv va innovatsion muhit yaratishga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Rossiya, Germaniya va Yaponiyada gimnastika mashg‘ulotlari pedagogik jihatdan puxta rejalashtirilgan va innovatsion yondashuvlar bilan boyitilgan. Ushbu mamlakatlarda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanadilar. AQShda pedagoglar talabalar bilan individual ish olib borib, ularning ehtiyojlariga qarab gimnastika mashg‘ulotlarini moslashtiradilar. Bu, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Xususan, O‘qituvchilar, sport o‘yinlarida o‘quvchilarning ko‘nikmalarini baholashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llaydilar. Rossiyada, gimnastika bo‘yicha pedagogik yondashuvlar ko‘proq qat’iy va harbiylashtirilgan tizimga asoslangan. Mashg‘ulotlarda harbiy intizom va sportchilarning irodaviy xususiyatlarini rivojlantirish asosiy o‘rinda turadi. Shuningdek, o‘qituvchilar, jismoniy tarbiya jarayonida amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini oshirishga e’tibor qaratadilar. Germaniya va Yaponiyada pedagogik yondashuvlar milliy qadriyatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga asoslangan. Bu yondashuvlar o‘quvchilarga mashg‘ulotlarda yuqori texnologik jihozlar yordamida o‘z jismoniy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish imkonini beradi. Yaponiyada o‘qituvchilar jismoniy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning ruhiy salomatligini ham e’tiborga oladilar. O‘qituvchilar, o‘quvchilarga guruhda ishlash, jamoaviy sport o‘yinlari va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirishga harakat qiladilar. Milliy va xorij tajribalarni qiyosiy tahlil qilish jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida pedagogik tayyorgarlikning samaradorligini oshirish uchun zarur ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va an’analar asosida shakllangan pedagogik yondashuvlarni xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy ta’lim yondashuvlarini joriy etish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, mashg‘ulotlarni interaktiv tarzda tashkil etish kabi yondashuvlar orqali bu jarayonni yanada rivojlantirish mumkin. Xorijiy mamlakatlarda, xususan, AQSh, Rossiya, Yevropa davlatlarida gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslanadi. Bu mamlakatlarda gimnastika mashg‘ulotlari individual yondashuv, differensiallashtirilgan mashqlar hamda psixologik va jismoniy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirgan pedagogik modellar orqali olib boriladi. Xorij tajribasida ko‘proq innovatsion texnologiyalardan foydalanish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni samarali tarzda uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. AQShda jismoniy madaniyat sohasida o‘quv dasturlari ko‘pincha o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiriladi. Bu yondashuv, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

- *Onlayn platformalar:* O‘qituvchilar onlayn ta’lim platformalari va interaktiv ilovalarni qo‘llab, mashg‘ulotlar jarayonini muvofiqlashtirishda yordam beradi. Bu, o‘quvchilarga uydan chiqmasdan, o‘z bilimlarini oshirish imkonini beradi. Masalan, "Khan Academy" yoki "Coach's Eye" kabi platformalar yordamida o‘quvchilar o‘z ko‘nikmalarini baholashlari va takomillashtirishlari mumkin.
- *Video monitoring texnologiyalari:* O‘qituvchilar, o‘quvchilarning jismoniy faoliyatini nazorat qilish va tahlil qilish uchun video monitoring tizimlaridan foydalanadilar. Bu texnologiyalar yordamida, o‘qituvchilar o‘quvchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini baholash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishda aniq tavsiyalar berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Rossiyadagi tajriba: Rossiyada, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda an’anaviy yondashuvlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, zamonaviy texnologiyalarni ham joriy etish yo‘lga qo‘yilgan. Rossiyada gimnastika mashg‘ulotlari qat’iy nazorat va harbiy intizomga asoslangan.

- *Amaliy mashg‘ulotlar:* Mashg‘ulotlar ko‘pincha amaliy mashg‘ulotlar shaklida o‘tadi va jismoniy qobiliyatlar, harakatlar va taktikalarni o‘rganishga qaratilgan. O‘qituvchilar jismoniy tayyorgarlikni oshirishda o‘quvchilarning irodaviy va psixologik xususiyatlarini ham hisobga oladilar.

- *Innovatsion metodlar:* Rossiyada zamonaviy pedagogik metodlar, masalan, motivatsiya beruvchi mashg‘ulotlar va o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini baholashda innovatsion usullar qo‘llaniladi. O‘qituvchilar guruhda o‘zaro baholash va o‘rganish jarayonini tashkil etish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladilar.

Yevropa mamlakatlaridagi tajriba: Yevropa davlatlarida jismoniy tarbiya va sport ta’limi jarayonida innovatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi.

- *Interaktiv mashg‘ulotlar:* Yevropada jismoniy madaniyat mutaxassislari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish maqsadida interaktiv metodlar va texnologiyalarni qo‘llaydilar. Masalan, guruhli mashg‘ulotlar, o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlari rivojlantiriladi.
- *Tahlil va nazorat:* O‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining faoliyatini tahlil qilish va nazorat qilish uchun turli texnologiyalarni qo‘llaydilar. Bu texnologiyalar yordamida, o‘qituvchilar o‘quvchilarning qobiliyatlarini yanada chuqurroq baholash va ularning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Xorijiy tajribalar tahlili, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirish uchun muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, individual yondashuvlar va innovatsion metodlar, jismoniy tarbiya sohasida ta’lim berishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun zarur. Ushbu tajribalar O‘zbekistonda jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida qo‘llanilishi, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishga, zamonaviy talablar va innovatsion imkoniyatlarni hisobga olishga yordam beradi.

Qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar: Milliy va xorij tajribalarning qiyosiy tahlili, O‘zbekistondagi jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil orqali, milliy yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklarini, xorijiy tajribalar esa zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Milliy pedagogik yondashuvlar: O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy pedagogik yondashuvlar an’anaviy qadriyatlar va madaniyat asosida shakllangan. Bu yondashuvlar quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- *An’anaviy metodlar:* O‘zbekistonda jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlashda an’anaviy metodlar, masalan, ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar, nazorat va baholash jarayonlari ko‘p qo‘llaniladi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning nazariy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.
- *Milliy qadriyatlar:* Milliy pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarni o‘z milliy madaniyati va tarixini hurmat qilishga, jismoniy faoliyatni milliy sport turlari va o‘yinlar orqali rivojlantirishga qaratilgan.
- *Shaxsiy yondashuv:* Milliy ta’lim tizimi o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olishga qaratilgan. O‘qituvchilar o‘z o‘quvchilariga individual yondashuvlarni taqdim etish orqali, ularning motivatsiyasini oshirishga harakat qiladilar.

Xorijiy pedagogik yondashuvlar: Xorijiy mamlakatlarda jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodologiyalar keng qo‘llaniladi. Xorijiy tajribalar quyidagi asosiy jihatlarga ega:

- *Innovatsion metodlar:* Xorijiy ta’lim tizimlarida interaktiv va innovatsion metodlar, masalan, o‘yinlar, simulyatsiyalar, onlayn mashg‘ulotlar va video monitoring texnologiyalari keng qo‘llaniladi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularning motivatsiyasini oshiradi.

- *Zamonaviy texnologiyalar:* O‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan, masalan, mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanib, o‘quvchilarni baholash va o‘qitish jarayonini yanada samarali tashkil etadilar.
- *Tahlil va baholash:* Xorijda o‘qituvchilar o‘quvchilarni tahlil qilish va baholash jarayonida turli xil metodologiyalarni qo‘llaydilar. O‘quvchilar o‘z bilimlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Qiyosiy tahlil: Milliy va xorijiy pedagogik yondashuvlar o‘rtasida ko‘plab farqlar mavjud. O‘zbekistondagi pedagogik yondashuvlarda nazariy qismning rivojlanmaganligi, pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlar yetishmasligi kuzatiladi. Xorij tajribasida esa, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta’lim jarayoni ko‘proq sifatli va samarali amalga oshiriladi.

- *Ijobiy tomonlar:* Milliy yondashuvlar, an’anaviy qadriyatlar va o‘ziga xos madaniyatni o‘z ichiga olgan holda, o‘quvchilarni jamiyatga moslashishga yordam beradi. Bu, o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasini mustahkamlash va madaniy identifikatsiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.
- *Kamchiliklar:* Xorijiy tajribada, pedagogik metodologiyaning rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar bilan birga jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida yanada yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatini yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, milliy va xorijiy tajribalar uyg‘unligi, yangi pedagogik model yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qiyosiy tahlil, O‘zbekiston jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida pedagogik tayyorgarlikni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan takliflar ishlab chiqishda yordam beradi.

Xulosa milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil qilishda pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishda muhim jihatlar mavjud. O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va an’analar asosida shakllangan tizim samaradorligini oshirish uchun xorijiy tajribalardan o‘rganilgan innovatsion texnologiyalar va metodologiyalarni joriy qilish zarur.

Milliy va xorijiy tajribalarning muhim jihatlari: O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlar va an’analar ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu jarayon, nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham nazarda tutadi.

Milliy qadriyatlar: O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy qadriyatlar asosida jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash, an’anaviy metodlar va uslublar yordamida amalga oshiriladi. Milliy sport turlari, masalan, kurash, o‘zbekcha kurash, va boshqa jismoniy faoliyatlar, o‘quvchilarning milliy o‘zligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, o‘quvchilarning jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, milliy madaniyat va qadriyatlarni hurmat qilishni o‘rgatadi.

An’anaviy metodlar va uslublar: An’anaviy metodlar, masalan, nazariy ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar va jismoniy tayyorgarlikning mustahkamlanishi, O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Bu metodlar, o‘quvchilarning jismoniy ko‘nikmalarini, muvozanatini va harakatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kelgusidagi istiqbollar: O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida milliy va xorijiy tajribalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, jismoniy tarbiyaning sifatini oshirish va o‘quvchilarni jamiyatga moslashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida:

- *Interfaol ta’lim metodlarini joriy etish:* O‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatini oshirishga yordam beradi.
- *Jismoniy tarbiya sifatini yaxshilash:* Jismoniy tarbiya sifatini oshirish uchun samarali nazorat va baholash tizimlarini joriy etish zarur.

- *Jismoniy madaniyatda ijtimoiy hamkorlik*: Jismoniy madaniyat sohasida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish, o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida milliy va xorijiy tajribalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni, innovatsion metodologiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Abdullayeva, S.** (2020). *Ta’lim jarayonida jismoniy tarbiyaning ahamiyati.* Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.
2. **Ismoilov, A.** (2019). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. Tashkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti.
3. **Kurbanov, T.** (2021). *Jismoniy madaniyat sohasida o‘qitish metodikasi.* Tashkent: O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport akademiyasi.
4. **Murodova, G.** (2018). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’limda qo‘llanishi.* Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
5. **Siddiqov, B.** (2022). *Zamonaviy ta’lim tizimida individual yondashuv.* Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
6. **Xudoyberdiyeva, N.** (2023). *Milliy va xorijiy tajribalar asosida jismoniy tarbiyani rivojlantirish.* Tashkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti.
7. **Yusupov, R.** (2021). *O‘qitish metodlari va ularning samaradorligi.* Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.
8. **Zokirova, D.** (2020). *Gimnastika mashg‘ulotlarida innovatsion yondashuvlar.* Tashkent: O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport akademiyasi.
9. **Webber, A.** (2018). *Educational Technology and Its Impact on Physical Education: A Global Perspective*. London: Routledge.
10. **Smith, J.** (2020). *The Role of Physical Education in Schools: An International Review*. New York: Springer.

M.Shukurov
Sport faoliyati kafedrasi p.f.b.f.d.(PhD) katta o‘qituvchisi
Alfraganus universiteti

YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O‘RGATISHDA KLASTER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH.

Annotatsiya: *Ushbu maqola yakkakurashchilarning organezimiga klasterlangan maxsus tayyorlov texnik harakatlarining tasiri yoritib berilgan. Shuningdek yakkakurashchilarning o’ziga xos ayrim turdagi jaroxatlarni oldini olishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *klaster uslubi, kurash, tehnik-taktik, jismoniy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, pedagogik mahorat, mashg‘ulot.*

Ключевые слова: *кластерный стил, борба, технико-тактическая, физическая подготовка, спесиалная подготовка, педагогическое мастерство, тренировка.*

Аннотация: *В данной стате освещено влияние кластерных технических движений спесиалной подготовки на организм мастеров боевых искусств. Также даются*

практические рекомендатсии, направленные на предотвращение отделных видов травм, характерных для мастеров единоборств.

Kirish. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishining zamonaviy talablari shug‘ullanuvchilar salomatligini saqlash va musaboqalarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishga hamda erishilgan yutuqlarni saqlab turishga qaratilmoqda. Yakkakurash sport turlari mashg‘ulotlarida raqib qarshiligini yengib o‘tish uchun turli xil bellashuvlarda sportchi tomonidan barcha bo‘g‘imlaridagi murakkab burilishlarni katta amplitudalar bilan bajarilishini talab etmoqda. Texnik harakatlarga o‘rgatish paytida, yakkakurashchilarni jarohatlanishlarini oldini olish va turli jarohatlanishlardan so‘ng ekstensiv tiklanish vositalarini tanlab yo‘naltirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yakkakurashchilar o‘quv-mashq jarayonida tajriba uslubining asosiy mazmuni sportchilarning organizmini maxsus kurash yuklamalariga tayyorlash imkonini beruvchi, mashg‘ulotning asosiy qismida yiqilishlar xavfsizligini ta’minlovchi va mashg‘ulotning yakuniy qismida faol ishlagan mushaklardan yuklamani kamaytiruvchi maxsus-tayyorlov mashqlar klasteridan foydalanishdan iborat bo‘ladi. [4; 43-47 -b.].

Yakkakurash sport turlarini rivojlanayotgan mamlakatlar mutaxassislari tomonidan kurashchilarni musobaqalarga tayyorlashning turli bosqich va davrlarini o‘z ichiga olgan, xususan, texnik usullarga o‘rgatishning o’ziga xos xususiyatlari, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirish, mashg‘ulot va musobaqa jarayonida kurashchilarni jarohatlanishlarini oldini olish va qayta tiklanishiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin, yakkakurash bellashuvlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, sportchilarning tayanch-harakat apparatiga katta xajmdagi jismoniy yuklamalar sifatida ta’sir qiluvchi maxsus-tayyorgarlik va korreksiyalovchi mashqlarning pedagogik shartlari bo‘yicha mashg‘ulotlar klasterini amalga oshirishga qaratilgan izlanishlar olib borishga undamoqda. Yakkakurashchilarning tayanch-harakat apparati tizimiga beriladigan og‘ir jismoniy yuklamalar va maxsus-tayyorgarlik mashqlarini qo‘llashda zamonoviy usullardan foydalanish, amaliy ko‘rinishdagi texnik-taktik mahorat bilan yuqori mlakali yakkakurashchilarni texnik-taktik xarakatlarga o‘rgatishda klaster uslubidan foydalanishni takomillashtirish masalasi dolzarbligini taqozo etadi. [3; 276-277-b.].

Yakkakurashning ko‘p turlari mavjud, ammo olishuvni olib borishning turli xil texnikalariga qaramay tayyorgarlikda katta o‘xshashliklar mavjud. Mashg‘ulot chigal yozdi mashqlari va tananing turli qismlarini maxsus yuklamalarga tayyorlashdan boshlanadi. Shug‘ullanuvchilarni tanasini boshqarishga, jismoniy xususiyatlarni rivojlantirishga o‘rgatish kerak, unga o‘zini ehtiyot qilish elementlari, texnik usullar va yakkama-yakka kurash olib borish uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlikning boshqa elementlarini o‘rgatish muxim xisoblanadi [2; 295-b.].

Chalqanchasiga yiqilishda o‘zini ehtiyot qilishni o‘rganib chiqish uchun ayrim tadqiqotchilar ikkita mashqni keltiradilar, bu, albatta, ushbu elementni mahorat darajasida egallash uchun yetarli emas fakat bilish darajasida egallab olishga imkon beradi. Yonboshga yiqilishda o‘zini ehtiyot qilishni egallab olish uchun o‘nta mashq tavsiya qilingan, bular ushbu elementni o‘rganishda murabbiy arsenalini yetarli darajada kengaytiradi. Ko‘krakka yiqilishda o‘zini ehtiyot qilishning ushbu elementini o‘rganish uchun uchta mashq tavsiya etiladi, bu ham ushbu elementni mahorat darajasida egallab olish uchun yetarli hisoblanmaydi.

Kurashchini tayyorlashda asosiy o‘rinni jismoniy tayyorgarlik egallaydi. Kurashda jismoniy tayyorgarlik sport mashg‘uloti samaradorligining “poydevor toshi” hisoblanadi. Tayyorgarlik bosqichlarida klaster uslubi yordamida kurashchilarni jarohatlanishi holatlarini oldini olish va musobaqa sharoitida maxsus-tayyorlov mashqlar samaradorligini oshirishga qaratish muhum hisoblanadi.

Jismoniy tayyorgarlik tizimi ikkita uzviy bog‘liq elementlarni o‘z ichiga oladi; umumiy va maxsus tayyorgarlik. Yakkakurashchilar tayyorgarlik bosqichida kurashchilar tomonidan texnik

harakatlarni bajarishni takomillashtirish uchun korreksiyalovchi mashqlarni klaster uslubi orqali qo’llash zarur. [1; 285-b]

Olimlar fikriga ko‘ra, jismoniy sifatlar tayyorgarlikning barcha tomonlarini mukammallashtirish uchun qulay sharoitlarni yaratadigan funksional imkoniyatlarini rivojlantirish va jismoniy xususiyatlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan jarayon hisoblanib, umumiy va maxsus turlarga ajratiladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik deganda, sportning aniq bir turida muvaffaqiyatga erishishda va mashg‘ulot jarayonining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan harakatlanish xususiyatlarining uyg‘un rivojlanish jarayoni shuni ta’kidlaydi-ki, maxsus jismoniy tayyorgarlik birinchi navbatda organlar va tizimlarni mustahkamlashga, ularning fuknksional imkoniyatlarini ko‘tarishga, tanlangan sport turi talablariga qat’iy qo‘llaniladigan harakatlar xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik sharoitlarning kurashchi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini rivojlantirishga ta’sirini tashkil etish jarayonlari mashg‘ulot ishlarini tuzishda ketma-ketlik va asta-sekinlikni talab qiladi, sport kurashida jismoniy mashqlarni tasniflash bilan bog‘liq uslubiy ishlarda o‘z aksini topgan. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar kurashchining jismoniy rivojlanishini, organizmning ishga layoqatliligini oshirishga ko‘maklashib funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi Ushbu mashg‘ulotlar sportchilar malakasiga bog‘liq holda ishlatiladi.

Maxsus tayyorgarlik mashqlarning bunday talqini bilan kelishish qiyin, chunki ular ko‘pincha tayyorgarlikning umumiy rivojlantiruvchi vositalariga kiradi. Bizning fikrimizcha, ushbu guruhga kurashchilar organizmini qiyin moslashuvchi faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirilgan mashqlarni kiritish lozim, ehtiyot choralari va o‘zini ehtiyot qilishga karatilgan vazifaning muhimligi tufayli mashqlarning alohida guruhini tashkil qilish va tayyorgarlik bosqichida kurashchilar tomonidan texnik harakatlarni bajarishni takomillashtirish uchun korreksiyalovchi mashqlardan foydalangan xolda amalga oshirish yuqori malakaga erishishga zamin yaratadi.

Yakkakurashchilar Klaster uslubi qo’llash orqali maxsus mashqlar mahoratini egallashni bevosita ta’minlovchi ma’lum jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirish maqsadlariga ega. Ular quyidagilarga bo‘linadi: maxsus tayyorgarlik (yetakchi) va taqlid qilish. Maxsus tayyorgarlik (yetakchi) mashqlar asosan kurashning texnik usullarni, shuningdek taktik-texnik komplekslarni bajarishda harakatlar tuzilmasiga muvofiq keladi va ma’lum jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Eng avvalo klaster tushunchasiga izoh berib o‘tsak: Klaster ingliz tilidagi (cluster) so‘zidan olingan bo‘lib yaxlit holatning elementlarga bo‘linishini anglatadi, lekin har bir element o‘z xossalari bilan to‘laqonli mustaqillikga ega, shuning uchun xam, o‘quv mashg‘ulotlarida pedagogik sharoitlar yaratish va maxsus tayyorlov mashqlarini qo‘llashda aynan ushbu elementlar xususiyatlarini ochib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan; Kurash o‘quv mashg‘ulotini yaxlit pedagogik jarayon ekanligini tassavur kilsak, unda katnashuvchi sub’ektlar ya’ni, murabbiy va shug‘ullanuvchilar, mashg‘ulot utkazish uchun asos bo‘lgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar, sport zalining kurash turi talablariga to‘liq javob berishi va u yerda yaratilgan xavfsizlikni ta’minlovchi omillar, va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish zamon talabi bulib kolmokda. Ushbulardan kelib chikib mazkur ilmiy izlanish o‘zbek kurashi o‘quv-mashg‘ulotlari pedagogik sharoitlarini hamda maxsus-tayyorlov mashqlarining klaster usulida tashkilashtirishni sinovdan utkazishga karatilgan. [5; 34-36-b]

Yuqorida biz ta’kidlagan fikrlar yaxlit bitta texnik usulni klaster usulida o‘rgatish davrida, xayolan tassavur qilish (abstraksiya) tanqidiy fikrlash, eng muxumi mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Klaster usuli, odatda sxema shaklida namoyon bo‘ladi, masalan “Supurma” texnik usulni o‘rgatishda, u quyidagicha bo‘lishi mumkun.



Shunday qilib, birinchi navbatda, ushlash va tayyorgarlik holatidan kelib chiqqan xolda, yengi va yoqasidan ushlab raqibga nisbatan sharoit yaratiladi, raqibni qulay ushlagan holda muvazanatdan chiqariladi, yon tomonga tortib raqib yurg‘iziladi, qo‘llarini pastga tortish davomida gilamga nisbatan holati tekshiriladi, old va yon tamonlarga harakatini sezadi va kerakli kuchni ishlatish davomida raqibni oyoqlari orqasidan, oyoq kafti bilan “supurma” usulini mohirona yakuniga yetkaziladi. “Supurma” usuli, shu tariqa ketma-ketlik bilan elementlarga ajratilib bajarilganda xech qanday lat yeyishlar, jarohatlar bo‘lmaydi.

Shu tarzda, kurashdagi barcha mavjud texnik usullarni o‘rganishda ushbu shakl va mazmundagi ko‘rinishda ishlab chiqilgan klaster usulining komponentlariga rioya qilgan holda, xar bir bog‘liqlik, izchillik, ketma-ketliklarni davom ettirish muhim hisoblanadi, masalan; muvoazanatdan chiqarish holatida barcha jihatlar: yoqasidan oldinga tortib joyidan siljitish, raqibni oldingi oyog‘idan chapga-o‘ngga chalish, yiqilayotgan tomonidagi qo‘lini o‘ziga tortish, boshqa qo‘l bilan raqibni yiqilayotgan tomoniga ko‘zg‘atib qo‘yish va boshqa harakatlar qo‘llaniladi. Xuddi shunga o‘xshash holatlar boshqa texnik usullarni bajarishda ham qo‘llaniladi.

Xulosa. Shunday qilib, shuni tasdiqlash mumkinki, maxsus tayyorgarlik mashqlari sportchilarni texnik harakatlariga bo‘lgan maxsus harakatlar ta’sirlarga tayyorlash, xavfsiz yiqilishni ta’minlashga imkon beradigan klaster vositalarni o‘z ichiga oladi, tuzatuvchilari esa yakkakurashchilar mashg‘ulotining “qattiq” ta’sirini yumshatishga yordam beradi.

Klaster uslubini qo’llash va texnalogiyasini amalga oshirish va texnik tayyorgarlik va tuzatish vositalarini qo‘llashda klaster uslubini ishlab chiqish va bellashuvga kirishish jarayonida kurashchi his qiladigan ta’sirni aniqlash va o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlari jarayonida kurashchini jarohatlanishi oldini olishda qo‘llaniladigan maxsus-tayyorlov mashqlari klasteri blok-sxemasini inobatga olgan xolda tayyorlash zarur hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati: Darslik. – T., 2001. – 285 b.

2. Taymurotov A.R., Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T-2019. 195 b.;

3. Tastanov N.A. Yuqori malakali yunon-rum kurashchilarining musobaqa faoliyatiga bog‘liq tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati. / “Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatining zamonaviy muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. T., 2015, II qism, b. 276-277.

4. Шукуров М.Н. Кураш машғулотларини ташкил қилишнинг педагогик шароитларини такомиллаштириш *ФАН-СПОРТГА Илмий назарий журнал 2020/5* 43-47 б

5. Шукуров М.Н. Шароити иссиқ бўлган худудларда Кураш машғулотларини ташкилқилишнинг педагогик шароитларини такомиллаштириш. *ФАН-СПОРТГА Илмий назарий журнал 2021/2* 34-36 б

Н.Бобомурадов
(PhD), доцент
Алфрагамус унверситети

МАЛАКАЛИ ПАРАДЗЮДОЧИЛАРНИНГ КОМПЛЕКС ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ УСЛУБИЁТИ

Аннотация: *Ушбу мақолада малакали парадзюдочиларнинг ўқув-машғулот жараёнини ташкил этиш ва амалга оширишдаги турли ёндашувлар тахлили ёритилган. Мақолада парадзюдочиларни тайёрлаш воситаларини уларнинг курашни олиб бориш услубига боғлиқ равишда олиб боришдаги тақсимлаш вариантлари тақдим этилган бўлиб, унда малакали парадзюдочиларни комплекс тайёргарлиги такомиллаштириш услубияти, машғулотларнинг мезоцикл мазмуни ва унинг асосий тавсифлари таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *парадзюдо, малакали парадзюдочилар, ўқув-машғулот жараёни.*

Аннотация: *В данной статье представляются различные подходы учебно-тренировочного процесса высококвалифицированных парадзюдоистов. В статье представлены варианты распределения средств подготовки парадзюдоистов в зависимости, анализируется структура высококвалифицированных парадзюдоистов тренировки, содержание и основные характеристики мезоциклов тренировки.*

Ключевые слова: *дзюдо, квалифицированные парадзюдоисты, учебно тренировочный процесс.*

Долзарблиги. Бугунги кунда Паралимия спорт турларига мамлакатимизда катта этибор берилмоқда. Юртбошимиз ташаббуслари билан паралимия спорт турларида эришилган натижалар билан соғлом спортчилар эришган натижалар бир хилда рағбатлантирилмоқда. Бугунги кунда парадзюдо спорт тури ҳам жадал ривожланмоқда.

Парадзюдо машғулотларини комплекс тайёргарлигини такомиллаштириш режалаштириш ҳолатини тартибга солиш ва аниқ жадвал асосида режалаштириш.

Машгулотни қулай ва тартибли бўлиши режалаштирилган ва ҳаракат услуби шакллантирилди.Ҳозирда ҳукуматимиз томонидан оммавий спортни ривожлантириш, аҳоли саломатлигини яхшилаш ва спортчиларни нуфузли мусобақаларга тайёрлаш бўйича бир қатор қарорлар, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 18-майдаги ПФ-5114-сон «Паралимпия ҳаракатини ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида», 2021-йил 5-ноябрдаги ПФ-5279-сон «Спорт та‘лими тизимини тубдан такомиллаштириш орқали олимпия ва паралимпия спорт турлари бўйича спортчилар

захирасини шакллантириш сифатини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» ва 2021-йил 5-ноябрдаги ПФ-5281-сон «2024-йил Париж шаҳрида (Франция) бўлиб ўтадиган XXXIII ёзги Олимпия ва XVII Паралимпия ўйинларига Ўзбекистон спортчиларини комплекс тайёрлаш тўғрисида»ги Фармонлари, 2022-йил 3-ноябрдаги ПҚ-414-сон “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрларни тайёрлаш ҳамда илмий тадқиқотлар тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2022-йил 19-апрелдаги ПҚ-209-сон “Кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар учун ихтисослаштирилган мактаб-интернатларда таълим бериш сифатини ошириш ҳамда улар фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорларини амалга оширишда замонавий ва халқаро талабларга мос келадиган иш режаларини такомиллаштириш масаласи ҳозирги куннинг долзарб мавзуларидан бири ҳисобланади.

Замонавий спортда ҳозирги кунда спортчининг комплекс тайёргарлигини такомиллаштирмасдан туриб, катта ютуқларга эришиб бўлмайди. Бу эса олий спорт маҳоратини қуйидаги объектив қонуниятларини шакиллантирилишида илмий-амалий томондан асосланиши лозим. Спорт маҳоратини шаклланишининг фазавий характери; спорт натижаларини ҳаракат ва вегетатив функцияларини ривожлантириш кўрсаткичлари билан ўзаро боғлиқлиги; иш қобилияти ва иммунологик реактивлик; спортчини етуклик даражасига чиқишида организмнинг мослашиб бориши: (функционал, таянч-ҳаракат аппарати, мушакларнинг кучли юкламаларга, чидамкорлик юкламаларига) мослашиши шунингдек, ҳаракат координациясининг адаптив қайта қурилиши ҳамда спорт тайёргарлигининг турли босқичларида, энергия таъминоти тизимида намоён бўлади [1, 2, 3, 4].

Спорт фаолиятини режалаштириш назарий, психологик, жисмоний, техник-тактик ва мусобақа фаолияти бўйича тайёргарликларни мажмуали шакллантириш тизимини олдиндан белгилашни ўз ичига олади.

Парадзюдочиларнинг комплекс тайёргарлигини такомиллаштиришни оқилона режалаштиришнинг самарадорлиги туфайли спортчиларни тайёрлашнинг ҳар бир босқичининг такомиллаштириб борилиши юқори натижаларга эришишда муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқот мақсади. Малакали парадзюдочиларнинг ўқув-машғулот жараёнини режалаштиришда техник-тактик маҳоратини ошириш хусусиятлари.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси. Етакчи олимлар ва мутахассислар томонидан ишлаб чиқилган парадзюдочиларнинг комплекс тайёргарлигини такомиллаштириш, машғулотнинг мазмуни, мезоцикл даврининг асосий тавсифлари, машғулотнинг анъанавий микроцикл турлари, машғулот юкламаларининг ҳажми ва шиддати, малакали парадзюдочилар машғулотининг ҳафталик режалари тадқиқотимизнинг асосий методологик тавсифларини ишлаб чиқишда асос сифатида хизмат қилди.

Яккакураш спорт турлари билан шуғулланувчиларда ўрганилган индивидуаллаштириш масалалари биз томондан танланган мавзу бўйича мавжуд муаммоларнинг ечимини топишда чуқур таҳлил қилинган ишлар [5, 6, 7] бизнинг илмий ва амалий қизиқишимизга сабаб бўлди.

Малакали парадзюдочиларнинг базавий тайёргарлиги уларнинг бошланғич тайёргарлигига нисбатан ўқув-машғулотнинг умумий ҳажми 50% гача ёрдамчи компонентларнинг ҳамда 20% гача махсус тайёргарлик компонентларининг оширилиши билан характерланади. Кучли парадзюдочиларни тайёрлаш уларнинг ёркин индивидуал хусусиятларига асосан йўналтирилди.

Бу ерда жуда кўп ҳолатларда базавий тайёргарликнинг ярмидан кўпроғини ёрдамчи машқлар ташкил қилди. Енгил вазн тоифасидаги парадзюдочиларнинг жисмоний тайёргарлиги асосан тезкорлик ва координацион имкониятларни ривожлантиришга

қаратилди, ярим оғир вазн тоифасидаги парадзюдочиларда эса асосий эътибор максимал кучни ривожлантиришга йўналтирилди. Жисмоний сифатларни ривожлантириш бўйича тадқиқотлар асосан усулларни бажариш ва комбинацияларга қаратилди. Кучни ривожлантириш жараёнида асосий диққат эътибор юкламаларни қабул қилишда фаол қатнашадиган мушакларга берилди.

Базавий тайёргарлик жараёнида йиллик битта цикллик режалаштиришда бир йил муддатга мўлжалланган тайёргарлик даври, ўртача қисқа мусобақа даври ҳамда 30-40 кунлик ўтиш даври режалаштирилди. Индивидуал имкониятлардан максимал равишда фойдаланиш ва уни амалга ошириш босқичида асосий вазифа юқори натижаларга эришиш учун йўналтирилди. Бу даврда тайёргарликнинг умумий ҳажмидан 40-60 фоизи махсус тайёргарликни ошириш воситаларига қаратишни тақозо этди. Йил давомида мусобақа амалиёти бўйича юкламаларнинг ортиши парадзюдочиларни юқори спорт формасига киришини таъминлади.

Тадқиқот жараёнида малакали парадзюдочиларнинг тезкор куч сифатларини такомиллаштириш мақсадида қуйидаги машқлар қўлланилди: яккачўпда тортилиш (20 сония давомида катта тезлик билан); полда қўлларни букиб ёзиш (20 сония ичида тезкорлик билан); 30 м масофага югуриш; татамида қўлларда юриш; чалқанча ётган ҳолда гавдани букиб ёзиш (20 сония ичида тезкорлик билан); яккачўпда қўлларни тирсакдан буккан ҳолда осилиб туриш. Техник тайёргарлик ва махсус чидамкорликни ошириш учун: рақибни тезкорлик билан йиқитиш (20 сония ичида); топшириқ бўйича рақибни ушлаш ҳолатига ўтиш (1 дақиқа ичида); ўзининг шоҳона усули бўйича рақибни ушлаш ҳолатига ўтиш (1 дақиқа давомида); топшириқ бўйича ўқув кураши ўтказиш (4 дақиқа); мусобақа кураши (4 дақиқа).

Ўқув машғулотларининг бир ҳафталик ўртача сони 10,9±0,3 ва 29,0±1,6 соатга етди. Шунингдек, ушбу кескин босқичда баъзи бир парадзюдочи-ларнинг, масалан, Шерзод Номозовда бир ҳафтада 18 та машғулот ўтказилди, шу ўринда таъкидлаш жоизки, бу машғулотлардан 9-11 таси катта ҳажмдаги юкламалар билан олиб борилди. Кўпгина кучли парадзюдочиларда йил давомида яхши натижалар кузатилди, уларда бир маромда юкламаларга мослашиш кузатилган бўлса, бошқа бир парадзюдочиларда юқори натижаларга эришиш бўйича ўзгарувчан динамика кузатилди.

Йил давомида юқори натижаларга эришиш мақсадида зарбали, мусобақавий микроцикллар режалаштирилди, бу даврда парадзюдочилар икки ва ундан ортиқ мусобақаларда қатнашди. Машғулотларни режалаштиришда мезоцикл ишлаб чиқилиб, бу мезоцикл бир нечта микроцикллардан ва шунинг мобайнида тикланиш воситаларидан фойдаланилди. Тикланиш тадбирларида кенг миқёсда фаол дам олиш, саёҳат, концертлар ташкил этилди ва натижада иш қобилияти тикланишига эътибор берилди.

Шуни таъкидлаш керакки, режалаштиришнинг барча босқичларида ҳар бир спортчига унинг индивидуал хусусиятларидан келиб чиқиб ёндашилди.

Катта ютуқларга эришиш босқичларида парадзюдочиларнинг спорт формасида узоқроқ муддат қолиши ва кейинги йирик мусобақаларда муваффақиятли қатнашишлари учун тикланиш тадбирларининг кенг миқёсда олиб боришдан ташқари жароҳатларнинг олдини олиш ва касалликларга қарши профилактик тадбирлар олиб борилди. Ваҳоланки, спорт формаси муддатини узайиши орқали макроциклнинг ўтиш даврида машғулотларда юклама ҳажмини секинлик билан камайтиришга эришиш мумкин бўлади.

Шундай қилиб, парадзюдочиларни ҳар томонлама шакллантиришнинг кўп йиллик якуний босқичида асосий аҳамият индивидуал хусусиятларга қаратилиши лозим. Бунда спортчиларни кучли томонлари намоён бўлади. Шундан келиб чиқиб машғулот жараёнини турли-туман ўзгаришларга мос равишда тузиш, мусобақа амалиётини ошириш, жароҳатлар ва касалликларнинг олдини олиш тадбирлари парадзюдочини юқори ютуқларга эришишига

замин яратади.

Айнан шу босқичда спортчининг ҳаракат малакаси сезиларли даражада ошиб боради. Бу кўрсаткич сифатли тарзда ишлаб чиқилган спорт фаолиятида кескинлик, машғулот ҳажми ва шиддатини оширишга қаратилган режалаштириш билан чамбарчас боғлиқдир. Лекин охирги пайтда терма жамоа аъзоларининг йиллик тақвим режаси жуда зич оралиқлардан иборатки, бу спортчиларнинг тикланиш жараёнларига, жисмоний ва психологик тайёргарлигига ҳамда жароҳатлардан холи бўлиш муаммоларига салбий таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳозирги пайтда парадзюдочиларнинг узоқ вақт спорт формасида бўлишлари имконияти йўқ [8, 9, 10].

Жаҳон чемпионатлари, Осиё чемпионатлари ва ёзги Паралимпиада ўйинларида муваффақиятли қатнашган парадзюдочиларнинг тайёргарликлари бўйича ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, улар мусобақа оралиғида юкламани кескин камайтиради, умумий тайёргарлик воситаларини эса оширади. Шундай қилиб, улар йил охирида ўтказиладиган асосий мусобақага тайёрлик кўришлар ва унда муваффақиятли қатнашишлари керак.

Илмий адабиётларда тақдим этилган ишларнинг таҳлиллари натижасида шуни айтиш лозимки, парадзюдочиларни тайёрлашда машғулот жараёнини режалаштириш бўйича тузилган иш режалари умумий тарзда бир хилликни характерлайди. Бу ҳозирда мусобақа вақтини қисқартирилиши ҳамда спортчига қўйиладиган талабларни кескин оширилиши, йил давомида йиллик мусобақалар тавқим режасидан кўпроқ курашларда қатнашиши билан боғлиқ. Малакали парадзюдочиларнинг шу тарздаги йиллик юкламаларининг ортиб кетиши умумий машғулот ҳажмининг кўпайиб кетишига олиб келади. Ушбу ҳолат парадзюдочиларнинг махсус ва жисмоний ҳолатининг пасайишига, қаттиқ толиқишга ва асаб тизимининг зўриқишига сабаб бўлиши мумкин.

Ушбу камчиликларни бартараф этиш учун парадзюдочиларнинг техник-тактик маҳоратини ошириш, спортчиларнинг индивидуал хусусиятларини такомиллаштириш бўйича тайёргарликнинг йиллик циклида биз томондан [11], парадзюдочиларнинг кураш олиб бориш услубидан келиб чиқиб ишлаб чиқилган машғулотни режалаштириш воситаларини тақсимлаш бўйича тахминий режалаштириш жадвали тайёрланди.

Шуни таъкидлаш керакки, йиллик циклга мўлжаллаб ишлаб чиқилган жадвал варианти нафақат спортчининг кураш олиб бориш бўйича махсус тайёргарлик услубига, балки тезкорлик-куч ва чидамкорликни такомиллаштиришни таъминлайди.

Йиллик машғулот даврининг бундай тузилиши парадзюдочиларнинг кучли томонларини аниқлаш ва такомиллаштиришни кўзда тутади ҳамда техник-тактик тайёргарлик бўйича индивидуал хусусиятларнинг шаклланишига ёрдам беради.

Ўтказилган педагогик тадқиқотлар ўзининг яхши натижасини берди. Парадзюдочиларнинг 2019 йилда турли мусобақаларда кўрсатган натижалари терма жамоа аъзоларида 74% кўрсаткични ташкил этди.

1-жадвал

Турли услубда кураш олиб борадиган парадзюдочиларнинг тайёргарлигида қўлланиладиган воситаларни (%)да тақсимлаш

Кураш олиб бориш услуби	Тайёргарлик воситалари		
	Умумривожлантирувчи машқлар+ тезкорлик- куч тайёргарлиги	Махсус тайёргарлик	Мусобақа тайёргарлиги
Юқори суръатда кураш олиб	14+14	54	16

бориш			
Тезкорлик-куч	18+17	46	16
Техник	19+20	42	16
Махсус чидамкорлик	12+12	40	16

Буларга қуйидагилар киради:

– стандартталабларга жавоб берувчи йиллик машғулотнинг шакли ва формасини режалаштиришда ҳар томонлама жисмоний етукликка эришган спортчини тайёрлаш бўйича қарама-қарши фикрлар;

– машғулот жараёнида жисмоний фаоллик, индивидуал қобилиятлар, иқтидорли спортчи тўғрисида башорат қилиш масаласи бўйича қарама-қарши фикрлар.

Бизнинг фикримизча, машғулот юкламаларини режалаштиришда педагогик жараёнларни тўғри тузиш ва уни моделлаштириш спорт фаолиятида олиб бориладиган машғулотларнинг мақсадлари билан мутаносиб тарзда амалга оширилиши лозим. Бу эса ўз вақтида машғулотларнинг тизимли равишда, қўйилган мақсадларга мос равишда олиб борилишига асос бўлади.

Хулоса. Шундай қилиб, соҳа бўйича етакчи олимлар ва мутахассисларнинг фикрларидан келиб чиқиб ўқув-машғулот жараёнини режалаштиришнинг мазмуни, воситалари, унинг шакллари бўйича тузилган йиллик иш режаларида қарама-қарши хулосалар мавжуд. Йиллик цикл даврида кўзда тутилган жисмоний сифатларнинг ривожлантирилиши, техник-тактик тайёргарлик ҳамда мусобақа амалиётини такомиллаштириш бўйича ташкил этилган машғулотлар, шунингдек, ўқув режасини тузишнинг анъанавий кўринишлари, машғулотнинг шакли ва услубларини йиллик тайёргарлик даврида ташкиллаштириш, ҳаракат малакаларини шакллантириш, мусобақа амалиёти малакасини шакллантириш масалалари бўйича келтирилган бир-бирига қарама-қарши фикр ва мулоҳазаларнинг вужудга келиши ушбу танланган мавзуни такомиллаштириш қанчалик муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 мартдаги “Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) бўлиб ўтадиган XXXII ёзги Олимпия ва XVI Паралимпия ўйинларига тайёрлаш тўғрисида”ги ПҚ-2821 сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031- сонли қарори.

3. Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019 йил 13 февралдаги 118-сонли қарори.

4. Афонина И., Анализ заболеваемости и травматизма у спортсменов-борцов / И. Афонина // Совершенствование системы подготовки кадров по единоборствам: мат. науч.-практ. конф. преподавателей каф. теории и

методики единоборств. – М., 2010. – Ч. 2. – С. 50-52.

5. Бабаев М.А. Проблема педагогического контроля в подготовке парадзюдоистов / М.А. Бабаев, В.А. Никифоров, А.М. Кадыров // «Физическая культура, спорт, биомеханика, безопасность жизнедеятельности»: материалы IV междунар. электрон. науч. конф. Ч. II. – Майкоп: Изд-во АГУ, 2010. – С. 67-70.

6. Бабушкин Г.Д. Теоретико-методологические подходы к решению проблемы предсоревновательной подготовки парадзюдоистов / Бабушкин Г.Д., Шумилин А.П. //

Вестник Псковского государственного университета. Серия: Психолого-педагогические науки. – 2016. - № 3. – С. 3-10.

7. Бучнев А.А. Модель повышения спортивного мастерства квалифицированных парадзюдоистов /А.А. Бучнев //Теория и практика физической культуры. – 2012. – № 1. – С. 47-49.

8. Вершинин М.А. Физическая подготовка высококвалифицированных парадзюдоистов на основе дифференцированного подхода / М.А. Вершинин, А.В. Ерофицкий, Д.Л. Новиков // Физическое воспитание и спортивная тренировка. – 2014. – № 3 (9). – С. 5-10.

9. Ерофицкий А.В. Особенности планирования учебно-тренировочного процесса квалифицированных парадзюдоистов / А.В. Ерофицкий, Д.Л. Новиков // Физическое воспитание и спортивная тренировка. – 2014. – № 3 (9). – С. 15-19.

10. Коваленко И.А. Планирование тактической подготовки и преобразование тактических действий в парадзюдо /И.А. Коваленко // Студенческий электронный журнал СтРИЖ. – 2016. – № 1 (5). – С. 25-28.

11. Элипханов С.Б. Методика многолетней силовой подготовки в женском парадзюдо: учеб. – метод. пособие для тренеров спорт. шк. /С.Б. Элипханов, И.В. Вержбицкий. – Майкоп: Изд-во «Магарин О.Г.», 2013. – 73 с

D.Salayev
Sport faoliyati kafedrasi dotsent v.b
ALFROGANUS UNIVERSITY

O‘QUV-MASHG‘ULOT GURUHI O‘RTA MASOFAGA YUGURUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI TUZILISHI DINAMIKASI

Ushbu maqolada o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarni jismoniy tayyorgarlik tuzilish dinamikasi jismoniy sifatlarini ifodalovchi maxsus testlar asosida jismoniy tayyorgarligi aniqlangan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan maxsus testlar asosida olingan natijalarni yoritishga etibor berilgan. Olingan natijalarni yetakchi olimlar tomonidan berilgan pedagogik tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlili berilgan va ishning yakunida xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘quv mashg‘ulot guruhi, yuguruvchilar, jismoniy tayyorgarlik, funksional ko‘rsatkich, tana indeksi, total o‘lcham, qiyosiy tahlil, jismoniy tayyorgarlik dinamikasi, yillik mashg‘lot.*

В этой статье тренировочная группа фокусируется на определении физической подготовленности на основе специальных тестов, представляющих физические характеристики о динамике физической подготовленности бегунов на средние дистанции. Это дало уверенность пролить свет на результаты, полученные на основе специальных тестов, полученных на основе проведенных исследований. Полученные результаты представлены в сравнительном анализе с результатами педагогических исследований, проведенных ведущими учеными, и подчеркнуты выводами, сделанными в конце работы.

Ключевые слова: *тренировочная группа, бегуны, физическая подготовленность, функциональный индекс, индекс массы тела, общий улчам, сравнительный анализ, динамика физической подготовленности, ежегодная тренировка.*

In this article, the training group focuses on determining physical fitness based on special tests representing the physical characteristics of the dynamics of the physical fitness of middle-distance runners. This gave confidence to shed light on the results obtained on the basis of special tests obtained on the basis of the studies conducted. The results obtained are presented in a comparative analysis with the results of pedagogical research conducted by leading scientists, and are highlighted by the conclusions made at the end of the work.

Key words: *training group, runners, physical fitness, functional index, body mass index, general*

ulcham, comparative analysis, dynamics of physical fitness, annual training.

Kirish. Yurtimizda yengil atletika sport turini rivojlantirish, ommaviyligini oshirish, iqdidorli yosh sportchilarni saralab olish, ularni ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga yo‘naltirish va yuksak sport natijalariga erishtirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim [1, 2]. Albatta, ushbu yuksak natijalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan jismoniy tarbiya va sportga oid chiqarilayotgan Farmon va Qarorlarning o‘rni beqiyosdir. Jumladan, 2024-yil Parij shahrida bo‘lib o‘tadigan XXXIII Yozgi Olimpiya va XVII Parolimpiya o‘yinlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish vazifalarni belgilab berilganligi soha xodimlarini yanada samaraliroq mehnat qilishga undaydi.

Asosiy qism. Bugungi kunda o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash bo‘yicha juda ko‘pchilik olimlar tamonidan tadqiqot ishlari olib borilgan va hozirda ham tadqiqotlar olib borilmoqda [3, 4, 5]. F.P.Suslov, A.I.Polunin, O.Pavlova, V.Nikitushkin, Y.G.Travin, V.N. Verxoshanskiy, M.S.Olimov, H.T.To‘xtaboyeb, B.T.Haydarov, I.R.Soliyev va boshqalar tamonidan yillik va ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish, musobaqa oldi tayyorgarligi, saralash va yo‘naltirish, ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga sportchilarni tayyorlash va mashg‘ulot jarayonini boshqarish masalalariga e’tibor qaratilgan bo‘lsada [6, 7], ammo o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofalarga yuguruvchi sportchilarni tayyorlash bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar yurtimizda olib borilmaganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi. Ma’lumki, bolalar, o‘smirlar sport maktablari bugungi kunda milliy terma jamoa uchun zaxira sportchilarni tayyorlashda yetakchilik qiladi [8].

O‘tkaziladigan tadqiqotda o‘rta masofaga yuguruvchilarning sport natijalarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, Jahon va Osiyo chempionatlari hamda Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilarini ko‘rinmayotganligi va sport natijalarining past darajada shakllanganligi o‘rta masofaga yuguruvchilarni tayyorlash tizmida yetarlicha kamchiliklar borligini ko‘rsatadi [9, 10].

Qolaversa, tayyorgarlikning ko‘p yillk dasturlarining takomillashtirilgan optimal variantlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda sohada dolzarb vazfalardan sanaladi.

Tadqiqod maqsadi: mashg‘ulot jarayonida o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi. Tadqiqot vazifalari: - o‘rta masofalarga yuguruvchi o‘quv mashg‘ulot guruhi sinaluvchilarni tadqiqot oldidan jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishini aniqlash; - o‘quv mashg‘ulot guruhi, o‘rta masofalaraga yuguruvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqod natijalari va unlarning muhokamasi. Jismoniy tayyorgarlik o‘rta masofaga yuguruvchilarning mashg‘ulot jarayonida vositalarni qo‘llash nazariyasi va usuliyotining tarkibiy qismi sifatida mutaxassislar e’tiborini ko‘pdan buyon tortib keladi. Murabbiy ish tajribasini umumlashtirish asosida olimlar tamonidan ko‘p sonli qo‘llanmalar nashr etilgan, jumladan, asosiy uslubiy qonuniyatlarning tizimlashtirilgan va jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan. Ularning ko‘pchiligida gimnastika, akrobatika, yengil atletika, sport va harakatli o‘yinlardan olingan yo‘nalishdagi vositalar ustunlik qiladi deb hisoblanadi. Biroq hozirgi zamon sport amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, o‘quv mashg‘ulot guruhlari o‘rta masofaga yuguruvchilarning turli tayyorgarlik bosqichlarda sport mashg‘ulotlarini yanada samaraliroq tashkil etish va vosita usullarini qo‘llash ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishni talab etmoqda. O‘quv mashg‘ulot guruhlari o‘rta masofaga yuguruvchilarni birinchi, ikkinchi tayyorgarlik yillarida yuqori darajada funuksional tayyorgarlikka ega bo‘lish hamda jismoniy sifatlarning rivojlanishiga ularni yugurish texnikasini egallashida va musobaqa tajribasiga ega bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Sportchi shakllanishining ilk bosqichidagi umumiy jismoniy tayyorgarlik shunday poydevor hisoblanadiki, u yosh sportchiga o‘z mahoratini takomillashtirishda zarur bo‘lgan harakat ko‘nikma va malakalarining jismoniy sifatlarning har xil turlarini hosil qilishga imkon yaratadi. Mashg‘ulot jarayonida turli xil vositalarini muntazam ravishda ko‘p marotaba bajarish mushak tolalari, suyak to‘qimalari, ichki organlarda morfofunksional o‘zgarishlarga, harakat vegitativ va energiya bilan ta’minlovchi funksiyalar orasidagi o‘zoro aloqalarning optimallashtiruviga olib keladi. Biz o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini maxsus testlar yordamida aniqlashga e’tibor qaratdik. Biz tomonimizdan o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash

bo‘yicha tadqiqod oldidan testlash o‘tkazdik. Unda jismoniy rivojlashni aniqlashda bo‘y, vazn, bo‘y vazn indeksi, ko‘krak qafas aylanasi bo‘yicha tananing total o‘lchamlari aniqlandi va, shu bilan birgalikda, jismoniy tayyorgarlik darajasini 12 ta ko‘rsatkichlar asosida aniqladik. Tezkorlikka bo‘lgan kuch sifatini 100-200 metr masofaga yugurush, tezkor chidamlilikni 300-400- 800-1000-1500 metr masofaga yugurish va maxsus chidamlilikni 3000 metrga yugurush, oyoqning portlovchanlik kuchini joyidan turib uzunlikka sakrash, uch va o‘n hatlab sakrash, qo‘l kuchini 2 kg lik to‘ldirma to‘pini uloqtirish testlarinidan foydalangan holda aniqlashga e’tibor qaratdik. Olingan natijalar 1- jadvalda beridi.

Jismoniy tayyorgarlik va funksional ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan pedagokik tajribada o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchlarning jismoniy tayyorgarligini B.T.Haydarov tamonidan berilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil etganimizda [8], sportchilar bo‘yi, vazni, tana indeksida va jismoniy tayyorgarlik natijalar o‘rtasida sezilarli farqlar kuzatilmadi.

Xulosa. O‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanganligini total o‘lchamlari va tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijasi quyidagi xulosalarni qayd etish imkonini berdi:

- 15 yoshli o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilardan olingan jismoniy rivojlanish bo‘yicha total o‘lchamlarining yetakchi olimlar tomonidan berilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilganda, ular o‘rtasida bo‘yining o‘sishi va vaznlarida farqlar borligi kuzatildi;

- o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarda jismoniy tayyorgarligini rivojlanganligini B.Haydarov tamonidan berilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilganimizda ular o‘rtasida sezilarli darajada farqlar borligi ko‘zatildi;

- o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha olingan tayyorgarlik dasturlarini, eskirganligi o‘rta masofaga yuguruvchilarni tayyorlash samaradorligi oz bo‘lsada ta’sir etayotganligi tadqiqod jarayonida aniqlandi.

- yuqoridagilarni inobatga olib, o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilar bilan o‘tkazilgan yillik mashg‘ulot yuklamalarini rivojlantirishda ularning tayyorgarlik darajasi, funksional holatini inobatga olgan holda tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish lozim. Shundagina ko‘zlagan natijaga erishish uchun zamin yaratiladi.

Adabiyotlar

1. Ивочкин В.В., Травин Ю.Г., Королев Г.Н., Семаева Г.Н. Легкая атлетика: бег на средние и длинные дистанции, спортивная ходьба: Примерная программа спортивной подготовки для детскоюношеских спортывных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – М.: “Советский спорт”, 2009. - 108 с.

2. Шакиржанова К., Солиев И., Олимов М., Баратов А., Акманов Б., Сайдкулов З., Педагогисал течнологиес анд интерастиве метҳодс ас а фастор оф инсреасинг спесиал кноwледге оф студенц. Жоурнал оф Сритисал Ревиеwс., 2020; 7(6): 42-46.доu:10.31838/жср.07.06.10.

3. Полунин А.И. Школа бега Вячеслава Евстратова. Советский спорт. – М., 2013 й. 135 с

4. Soliyev I.R. Qisqa masofalarga yugurishda sportchilarni texnik tayyorgarlik davrida start reaksiyalarini takomillashtirishni tahlil qilish. // FAN-SPORTGA ilmiy – nazariy jurnal. –Toshkent, 2018-yil, 2-son. 56-60 betlar.

5. Soliyev I.R. Yuqori malakali uzoq masofaga yuguruvchi sportchi qizlarni tayyorgarlik mashg‘ulotlari va musobaqa jarayonining qiyosiy tahlili. // O‘zMU XABARLARI. –Toshkent, 2018 yil №1/1. 2018-y. 171-174 betlar.

Özbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
“Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı”
ISSN 2181-2268

O‘zbekistan davlat jismoniy tarbiyasi va sport universiteti Nukus filiali
“Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi”
ISSN 2181-2268

A.Xolmatov
Sport faoliyati kafedrasi dotsent v.b
ALFROGANUS UNIVERSITY

SPORT MAKTABLARIDA BOLALARNI DZYUDO MASHQLARI YORDAMIDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni dzyudo mashqlari yordamida jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgam turli vosita va metodlardan foydalanilgan. Dzyudo inson organizmining shakl va faoliyatini, jismoniy sifatlarini har tomonlama tarbiyalashga, takomillashtirishga, salomatligini mustahkamlashga, umrini uzaytirishga hamda faol yashashga xizmat qiladi. Muhim hayotiy harakat, ko’nikma va malakalari (shu jumladan, amaliy va sport ko’nikmaiari)ni shakllantiradi va maxsus bilimlar bilan qurollantiradi.

Kalit so‘zlar: Bolalar va o’smirlar, jismoniy mashqlar, jismoniy sifatlar,takomillashtirish, salomatligini mustahkamlash, ko’nikma va malakalar, jismoniy sifatlar, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik tezkorlik, chaqqonlik.

Abstract: In this article, various tools and methods are used aimed at developing children's physical fitness through judo exercises. Judo serves to comprehensively educate, improve the shape and activity of the human body, physical qualities, strengthen health, prolong life and live actively. Forms important life actions, skills and competencies (including practical and sports skills) and equips with special knowledge.
Key words: Children and adolescents, physical exercises, physical qualities, improvement, strengthening health, skills and abilities, physical qualities, strength, endurance, flexibility, quickness, agility.

KIRISH Bolalar va o‘smirlarni jismonan hamda aqliy barkamol qilib shakllantirishda dzyudoning o‘rni katta. Uning xilma-xil vosita va usullari boshlang‘ich jismoniy tarbiya vazifalarini bajarishda yuqori o‘rin tutadi. Bolalar va o‘smirlarda jismoniy, aqliy hamda harakat sifatlarini tarbiyalash uchun asos yaratilib, organizmni funksional, jismoniy mashqlar vositasi ta‟sirida tashqi muhitga qarshilik ko‟rsatish imkoniyatlari o‘stiriladi shuning uchun bu mavzu dolzarbdir. Dzyudo inson organizmining shakl va faoliyatini, jismoniy sifatlarini har tomonlama tarbiyalashga, takomillashtirishga, salomatligini mustahkamlashga, umrini uzaytirishga hamda faol yashashga xizmat qiladi. Muhim hayotiy harakat, ko‟nikma va malakalari (shu jumladan, amaliy va sport ko‟nikmaiari)ni shakllantiradi va maxsus bilimlar bilan qurollantiradi (1,2).Jismoniy mashqlar organizmning asab va turli xil tizimlariga ijobiy ta‟sir ko‟rsatadi, inson salomatligini mustaxkamlash yo‘li bilan ruxiyatini, salaxiyatini yuksaltiradi.Mavzuning dolzarbligi. Ko‘pgina olimlar tomonidan o‘tkazilgan tajribalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxsning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi o‟quvchining mexnat qila olish qobiliyati darajasi hamda doimiy bajariladigan mashqlar xarakteri va xajmiga bog‟liqdir deb ta’kidlashgan. Hozirgi vaqtda sportchilar organizmiga ortiqcha jismoniy yuklama qanday ta‟sir ko‘rsatishi bo‟yicha kattama‟lumotlar to‟plangan bo‟lsada, o‟quvchi yoshlar organizmi xususiyatlarini hisobga olmasdan, ularga bir xildagi yuklamalar berish xollari xam ko‟p uchraydi. Shu tufayli trenirovka (ya‟ni mashg‟ulot) jarayonini to‟g‟ri rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni dzyudo mashqlari yordamida sog‘ligini mustahkamlash, jismoniy rivojlanishini taminlash vazifalari davlat ahamiyatiga ega bo‟lgan vazifalardan biridir. Shu boisdan o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda dzyudo mashg‟ulotlarini samarali vosita usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Dzyudo mashg‘ulotlarini tashkil qilishda samarali uslubiyatini ishlab chiqish, bolalarni jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi saralash mashqlar uslubiyatini qo‟llash, bolalar jismoniy tayyorgarligini oshirishga funktsional holatini yaxshilashiga imkon yaratadi.Yosh avlodni ma‟naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunda pedagogika fani oldidagi muhim masalalaridan biridir.Muammoning o’rganilganlik darajasi. Yosh avlodning jismoniy sifatlarini rivojlantirish muxim. Shuning uchun bolalarni jismoniy tayyorlashda

ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish asosida ulardan foydalanishda yangi uslubiy yondashuvni izlash hamda ishlab chiqishga ushbu olimlar O.V. Gancharova, Sh.A. Arslanov, A.J. Tangriyev va boshqalar o‘z xissalarini qo‘shishgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur ish bu muammoni ilmiy yo‘nalishda yechishga qaratilganligi bilan muhimdir. Bu esa, eng avvalo, hayot talablari asosida bolalarni jismoniytayyorlashda ularning jismoniy sifatlarini tarbiyalash bilan bog‘liq masalalarni to‘liq yaxlit holda ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash va ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Tadqiqotning maqsadi. Bolalarni dzyudo mashqlari yordamida jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.

Tadqiqotning obekti. Tadqiqot Urganch shaxar 24-son maktaning 5 sinf o‘quvchilarida olib borilgan dzyudo bo‘yicha mashg‘ilotlar jarayoni.

Tadqiqot predmeti. O‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun qollanilgan dzyudo mashqlari, vosita va usullari.Tadqiqotning ilmiy yangiligi.Mazkur tadqiqot ishda bolalarda dzyudo mashqlari yordamida ularni jismoniy sifatlarini (kuch, chidamlilik, egiluvchanlik tezkorlik, chaqqonlik,) nazariy hamda tajriba yo‘li bilan asoslab berildi. Buning uchun quyidagilar aniqlandi:Bolalar jismoniy tarbiyasi tizimida ularning jismoniy sifatlari rivojlanishining samaradorligini tajriba asosida ilmiy jihatdan keng va chuqur o‘rganish;jismoniy sifatlarni tarbiyalash, ularning samaradorligini oshirish, unga bolalarni jismoniy tarbiyalashning asosiy vositasi deb qarash nazariy va amaliy jihatdan aniqlandi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Tadqiqotlar jarayonida qo‘lga kiritilgan ilmiy ma’lumotlar o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish maqsadida o‘quv-tarbiyaviy jarayonda ularni qo‘llash, nazariy asoslash usullari ishlab chiqildi. Unda asosiy va muhim o‘rinni tajriba-tadqiqot ishlari, tahlillar tashkil etadi, bolalarda pedagogik ta’sirning to‘liq, aniq maqsad asosidagi yo‘nalishi yaratiladi.Tadqiqotning amaliy ahamiyati.Tadqiqotda o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va shunga asosan mashg‘ulot jaroyoninito‘g‘ri rejalashtirish ishlari o‘rganildi va amalda qo‘llanildi.Jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi dzyudomashqlarinivosita va uslublarni qo‘llash orqali natijalar aniqlandi.Tavsiya qilingan jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi vosita va uslublarni amalda isbotlandi.Tadqiqotning farazi. O‘quvchilarni yosh jixatlarini hisobga olib mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish va shug‘ullanuvchilarni sifatli vosita va uslublar orqali asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalash bilan birgalikda umumiy jismoniytayyorgarligini oshirishga erishish faraz qilindi

5- sinf o’quvchilarining (tadqiqot) guruhi o’quvchilarida jismoniy tayyorgarlik ko’rsatkichlari. Tadqiqotdan oldin (n =10)

№	F.I.O.	Baland turnikda tortilish (marta)	Chalqancha yotgan holda 90° gavdani ko`tarish (marta)	Arg`amchida 1 daqiqa davomida sakrash (marta)	Polda qo`llarga tayanib, qo`llarni bukish va yozish (marta)
1	Sabirov A.	3	13	56	8
2	Inoyatov M.	5	14	62	11
3	Erkinov A.	4	16	65	9
4	Karimov N.	2	13	54	12
5	Sultanbekov S.	5	18	50	13
6	Sobirov A.	4	15	45	14
7	Xakimov D.	6	20	65	17
8	Rustamov O.	3	14	60	8
9	Raximov M.	4	17	57	10
10	Ubaydullaev D.	6	18	46	9
O’rtacha ko’rsatkich		**4**	**15.8**	**56**	**11.1**

Kuch, tezlik, chidamlilik va boshqa sifatlarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan mashqlar umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda asosiy rol o‘ynaydi. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda ayni mana shu jihatlar rivojlanishning har tamonlama bo‘lishini va yuksak yutuqlarga erishishi imkoniyatini ma'lum darajada belgilab beradi. Shunday bo‘lishi tabiiydir, chunki ko‘rsatib o‘tilgan jismoniy sifatlar sportchining ayrim a’zolari va sistemalari hamda, umuman, butun organizmning yuksak darajadagi ish qobiliyatiga asoslangan harakat imkoniyatlarining namoyon etilishi hisoblanadi.Tadqiqot natijalari boyicha 5a sinf va 5b sinflarda o‘tkazilgan o‘quv mezonlari bo‘yicha 5 b sinf o‘quvchilari faqat nazorat guruhi sifatida qaraldi. Nazorat guruhida baland turnikda tortilish3.4marta 0.2% chalqancha yotgan holda 90° gavdani ko`tarish 14.6 marta 0.4%, arg‘amchida 1 daqiqadavomidasakrash54 marta 10%, polda qo‘llarga tayanib,qo‘llarni bukish va yozish 11 marta 0.1 %.Tadqiqotdan keyin nazorat guruhida unchalik o‘zgarish bo‘lmadi.5a sinv o‘quvchilarining tadqiqotdan keyingi ko‘rsatkichlari sezilarli o‘zgargani guvoxi bo‘ldik bu o‘zgarishlarga sabab gimnastikaning kuchtezkorlik va chaqqonlikni rivojlantiruvchi mashqlardan samarali foydalanganlikdan dalolat beradi.

Egiluvchanlik qobiliyati –bu sportchining tayanch harakati apparatlariga xos bo‘lgan morfo-funksional xususiyat bo‘lib, sportchi a'zolari harakatchanligi darajasini belgilab beruvchi fazilatdir. Egiluvchanlikni ikki xil turin bir-biridan farq qilinadi, ya'ni: faol egiluvchanlik (bunda sportchining o‘z muskullari kuchi hisobiga namoyon bo‘ladi) va passiv egiluvchanlik bo‘ladi (bu gavdaning harakat qilayotgan qismiga tashqi kuchlar ta’sirida og‘irlik kuchi, sheriklar qarshilik ko‘rsatayotgan paytdagi kuch va hokazolar ta'siri ostida namoyon bo‘ladi). Passiv egiluvchanlik har doim faol egiluvchanlikdan ko‘ra kattaroq bo‘ladi va ko‘p hollarda uning kuchayishi faol harakatlar amplitudasining o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Yosh dzyudochilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish muxim. Shuning uchun bolalarni jismoniy tayyorlashda ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda dzyudo maxsus mashqlaridan samarali foydalanildi.

1. O‘rta maktab yoshida asosiy dzyudo mashg‘ulotlarida keyingi jismoniy rivojlanish xamda bolalarning o‘sib kelayotgan organizmini mustahkamlash davom ettiriladi. Iroda-axloqiy sifatlar tarbiyalanadi, asosiy xarakat malakalari yanada chuqurroq o‘rganiladi, o‘z xarakatlarini makonda, vaqt oralig`ida xamda mushak kuchlanishlari darajasiga ko‘ra baxolash ko‘nikmasi hosil qilinadi.

2. Bolalar organizmining o‘ziga xos yosh xususiyatlarini o‘rganishda ularning o‘sishi va rivojlanishini inobatga olish orqali mashqlar tanlab olindi va o‘rganildi.

3.Bolalarda jismoniy tayyorgarligini oshirishda jismoniy sifatlarni tarbiyalash uslublari ishlab chiqildi.

4. Bolalar kuchini rivojlantirishda dzyudo mashqlarini samarali qo‘llanildi. Akrabatika mashqlari yordamida kuch va egiluvchanlikni tarbiyalash va rivojlantirish mashqlari o‘rganildi va samarasi o‘rganildi.Gimnastik snarayadlarda bajariladigan mashlar yordamida dzyudochilar jismoniy tayyorgarliklari rivojlantirildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Верхошанский Ю.В. Программирование и организация тренировочного процесса. - М.: ФиС, 1985.

2.Верхошанский Ю.В. Программирование и организация тренировочного процесса. - М.: ФиС, 1985.

3.УсманходжаевТ.С. Жисмоний тарбия. 7-8 синф.Т. 2004.

4.УсманходжаевТ.С. Жисмоний тарбия. 10-11 синф.Т. 2004

5.Гончарова О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш.Т 2005

M.Yo‘ldoshev
O‘qiuvchi
ALFRAGANUS UNIVERSITY

KONTAKTSİZ MASHQLAR YORDAMİDA YUQORİ MALAKALİ BOKSCHİLARNİNG TEXNİK-TAKTİK MAHORATİNİ RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kontaktsiz mashqlar yordamida yuqori malakali bokschilarning texnik-taktik mahoratini takomillashtirish, kontaktsiz mashqlar orqali sportchilarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, bokschilarning texnik-taktik mahoratini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikasini davomiyligini oshirishning dolzarb muammolarini ochib berishga qaratilgan.*

Ka’lit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, taktik tayyorgalik, texnik tayyorgarlik, maqsadli o‘qitish tizimini takomillashtirish.*

Annotation: *Improving the technical and tactical skills of highly skilled boxers with the help of non-contact exercises in this article. Through non-contact exercises, athletes must build confidence in their will, strength and capabilities. Further development of technical and tactical skills of boxerstirishga is aimed at clarifying the actual problems of increasing the duration of the oriented methodology.*

Key words: *physical education, tactical readiness, technical training, improvement of the targeted training system.*

Аннотация: *данная статья направлена на раскрытие актуальных проблем совершенствования технико-тактического мастерства высококвалифицированных боксеров с помощью бесконтактных упражнений, укрепления у спортсменов уверенности в собственной воле, силе и возможностях посредством бесконтактных упражнений, повышения преемственности методики боксеров, направленной на дальнейшее развитие технико-тактического мастерства.*

Ключевые слова: *физическая подготовка, тактическая подготовка, техническая подготовка, совершенствование системы целевого обучения.*

Dolzarblıgı. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining sport sohasidagi davlat siyosatining

asosiy yo‘nalishlaridan biri O‘zbekiston sportining raqobatbardoshligini oshirish, bu nafaqat sog‘lom turmush tarzi standartlarini shakllantirishga, balki mamlakatimiz fuqarolarining milliy birligi va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori tasdiqlandi. Shu munosabat bilan milliy sport darajasini va xalqaro sport maydonlarida mamlakat raqobatbardoshligini belgilovchi oliy malakali sportchilarni tayyorlash sifatini yanada takomillashtirish zarurati paydo bo‘ladi.

Yuqori sinf sportchilarini tayyorlash samaradorligini oshirishning yangi, yanada mukammal usullarini izlash sport fanining eng muhim vazifasidir. Jahonda sport fani sohasida o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, yuqori yutuqlarning zamonaviy sportida natijaga

erishiladi, sport va texnik mahoratning asosini tashkil etuvchi turli xil vosita, sensorimotor va ruhiy fazilatlarning keng kompleksini rivojlantirishning juda yuqori darajasi, sportchiga qo‘yilgan badallarni sotish hisobiga ushbu depozitlar, bir tomondan, jismoniy va aqliy fazilatlarni rivojlantirishning yuqori darajasini, boshqa tomondan, ta‘lim va raqobat faoliyatining o‘rta sharoitlarning barqarorligini belgilovchi qobiliyat sifatida amalga oshiriladi. Faoliyatning muayyan usulini o‘zlashtirib, sportchi maxsus qobiliyatlarni rivojlantiradi. Faoliyat usuli har bir sportchining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq shakllanadi va individual uslub ishlab chiqiladi. Boks bo‘yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar va mutaxassislarning aksariyati, ta‘lim metodikasidagi keyingi yutuqlar ortib borayotgan rolga bog‘liq deb hisoblashadi. Bokschilarning ta‘lim – tarbiya jarayoni tarkibida kontaktsiz mashqlar bu borada sport nazariyasi va metodologiyasini takomil- lashtirishning dolzarbligi va o‘z vaqtida bajarilishi to‘plangan nazariy-tadqiqot materiallari va sport amaliyotining katta tajribasi (I.P. Degtyarev, E.I. Ogurenkov, V.A. Taimazov, R.D. Xalmuhamedov, N.A. Xudodov, V.N. Shin va boshqalar. Yuqoridagi mualliflarning mavjud tadqiqotlariga qaramasdan, muammo bokschilarning individual texnik-taktik mahoratini nazorat qilish, kontaktsiz mashqlarni tayyorlashning asosiy vositasi sifatida foydalanishga asoslangan bu hal qilinmagan.

Zamonaviy mahalliy va xorijiy adabiy manbalarning aksariyati tahlili va umumlashtirilishi shuni ko‘rsatdiki, kontaktsiz mashqlar yordamida yuqori malakali bokschilarning texnik-taktik mahoratini takomillashtirishni boshqarishni ilmiy-uslubiy asoslash – eng muhim pedagogik vazifa.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama va samarali rivojlantirish, jismonan baquvvat, sog‘lom avlodni barkamol qilib tarbiyalash, shuningdek, O‘zbekiston sportchilarining yirik xalqaro sport musobaqalarida munosib ishtirok etishi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda O‘zbekiston bokschilarining yuksak sport yutuqlari fonida yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqish. Bokschilarimizning raqobat faoliyati samaradorligini oshirishning yanada samarali vositalarini izlashning amaliy vazifasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq bu juda murakkab vazifadir, chunki u zamonaviy ta‘lim uslubining xususiyatlarini yaxshi bilishni emas, balki ularni sportchining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘lash qobiliyatini ham talab qiladi.

Ushbu muammoning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-martdagi “O‘zbekiston sportchilarini XXXII Olimpiya o‘yinlari va shaharda XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi PF–2821 Farmonlarida belgilanadi, Tokio (Yaponiya) 2020 yil", 24- yanvardan 2020-yilgacha “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston terma jamoalarining Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari, jahon, qit‘a va Osiyo sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini taminlashga qaratilgan.

Bugungi kunda dolzarb bo‘lgan sportchilarni tayyorlash tizimida individualizatsiya muammosiga katta qiziqish sport faoliyatining samaradorligi va ishonchliligini oshirish- ning o‘ziga xos muammolarini hal qilish bilan bog‘liq. Shunga qaramay, rivojlanish bilan bog‘liq ayrim qoidalar kontaktsiz mashqlarni qo‘llash asosida yuqori malakali bokschi- larning texnik-taktik mahoratini boshqarish modellari, hozirgi kunga qadar etarli darajada ishlab chiqilmagan va eksperimental asoslanmagan. Tanlangan qarama- qarshiliklarning nazariy va amaliy ahamiyati va ularni hal qilish zarurati bilan bog‘liq holda, tadqiqot muammolari shakllantirildi. Bu usullar yuqori malakali bokschilarning ta‘lim-tarbiya jarayoni tarkibida

kontaktsiz mashqlarni qo‘llash va ularning individual texnik-taktik mahoratini samaradorligini aniqlashdir.

Tadqiqotning maqsadi – yuqori malakali bokschilarning umumiy jismoniy, maxsus jismoniy tayyorgarligi samaradorlikni oshirish metodologiyasini takomil- lashtirish.

Tadqiqot obyekti – yuqori malakali bokschilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayoni.

Tadqiqot vazifalari:

1. Musobaqalarda ishtirok etish uchun yuqori malakali bokschilarni tayyorlash samaradorligini belgilovchi eng oqilona kontaktsiz mashqlarni aniqlash.
2. Yuqori malakali bokschilarni tayyorlashning turli bosqichlari uchun kontaktsiz mashqlardan tashkil topgan o‘quv mashg‘ulotlarining modellarini ishlab chiqish.
3. Yuqori malakali bokschilarni kontaktsiz mashqlardan foydalanishga asoslangan holda texnikani ishlab chiqish va eksperimental ravishda kompleksni takomillashtirish

Tadqiqotning tashkil etilishi. Maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; test, pedagogik tajriba; pedagogik kuzatuvlar; sport musobaqalari natijalarini tahlil qilish; matematik-statistika; modellashtirish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Pedagogik tajriba bokschilarni tayyorlash uchun o‘quv vositalarini juftlikda o‘qitish ishlarini qisqartirish va maxsus etkazib berish mashqlari bilan almashtirish, shuningdek, boksga xos bo‘lgan maxsus oziqlantirish mashqlari orqali funksional va umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, ularni aerobik rejimda bajarish imkoniyatini yaratish uchun taqdim etildi. Bundan tashqari, yuqori sinf sportchilarini tayyorlashda maxsus ish bilan mashg‘ulotning barcha davrlarida sport natijalariga, maxsus mashqlarga erishish uchun mashg‘ulot ishlarida ishtirok etish ko‘zda tutilgan.

O‘tkazilgan eksperiment natijasida sportchilar ilgari ishlab chiqilgan va bugungi kunda bolalar sporti maktablari, Olimpiya zaxiralari maktablari, oliy sport mahorati maktablari uchun qo‘llaniladigan o‘quv yuklamalarining umumiy hajmlarini bajarishlari mumkinligi aniqlandi.

Biz taklif qilgan tajriba natijasida tayyorgarlik vositalarini qayta taqsimlash aerobik rejimda olib boriladigan mashqlar tizimi orqali jami ta‘lim ishlarining 67% ga qadar amalga oshirish imkonini berdi.

Yiliga ikki marta o‘tkaziladigan nazorat standartlari natijalariga ko‘ra, guruhning funktsional va umumiy fizikaviy holatini nazorat qilish va tartibga solish mumkin edi. Nazorat standartlari deyarli barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha natijalarning sekin, ammo uzluksiz o‘sishini tasdiqladi va bizni tajribamizda qo‘llab-quvvatladi. Sinov natijalari bo‘yicha o‘rganilayotgan guruh sportchilarining jismoniy sifatidagi o‘zgarishlar aks ettirilgan.

O‘rganilayotgan barcha ko‘rsatkichlarda individual va guruh natijalarining ishonchli o‘sishi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni tanlash uchun qo‘llani- ladigan yondashuvning ishonchliligi, yetkazib berish mashqlaridan ustun foydalanishga asoslangan yondashuv haqida gapiradi.

Sport ustasi standartining bajarilishi dinamikasi bokschilarning texnik-taktik mahorat darajasining ishonchli o‘sishini aks ettiradi.

Tajriba guruhi bokschilarining yirik xalqaro musobaqalarida o‘tkazilgan chiqishlar dinamikasi turli darajadagi musobaqalarda natijadorlik darajasi va muvaffaqiyat darajasining oshishini ishonchli tarzda ko‘rsatib turibdi. Bu esa ushbu uslub amalda

qo‘llanilganda bokschilarning jismoniy va maxsus sifatlari o‘sishiga, texnik-taktik mahorat darajasini oshirishga kompleks mashqlar ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va uni amaliyotga tavsiya etish mumkin.

Maxsus adabiyot va amaliy ish tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali bokschilarning texnik – taktik mahoratini shakllantirish ularning motor va jismoniy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Shuningdek, har yili mashg‘ulot va musobaqa rejimida janglar soni bilan belgilanadi.

Eksperimentda turli davrlarda va ularning texnik-taktik mahoratini shakllantirishning turli bosqichlarida sportchilarga ta‘lim ta‘sirining maqsadga muvofiq mazmuni kontaktsiz etkazib berish mashqlari ekanligi aniqlandi. O‘quv jarayonining yuqori intensivligi o‘quv ta‘sirlarining bir xilligi va ularning hajmi va intensivligining qat‘iy nazorat qilinishi bilan ta‘minlanadi.

Bokschilarning jismoniy va maxsus fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o‘z ichiga olgan darslar (o‘quv mashg‘ulotlari) modellarini bosqichma- bosqich joriy etish taklif etildi. Dars modellarini loyihalash uchun quyidagi tashkiliy- uslubiy ko‘rsatmalar berildi:

O‘quv jarayonining keskinligi va zamonaviy boksning raqobatbardosh amaliyoti sportchilarning yuqori zararlanishi va shikastlanishi uchun obyektiv shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, ushbu shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish va tashkil etish masalalari etarlicha asosli tavsiyalarsiz hal etiladi, bu esa bokschilarning texnik va taktik mahoratini rivojlantirishni boshqarish samaradorligini pasaytiradi.

- jismoniy mashqlar miqdori va tabiati;
- dam olishni to‘xtatib turish va subyektlarni tiklashning tabiati;
- mashq qilish tezligi;
- mashqlarni almashtirishda davomiylik va moslik;
- qo‘rg‘oshin mashqlariga ajratilgan vaqt miqdori.

Shakllantiruvchi eksperiment o‘quv jarayonining turli bosqichlari va davrlari uchun ishlab chiqilgan kontaktsiz yetkazib berish mashqlari uchun an‘anaviy tayyor-garlik vositalarini almashtirish zarurligini oqlaydi. Har yili aylanish jarayonida 67% gacha yetkazib beradigan mashqlar miqdori UJT, JTS va bokschilar MT ($P<0,05$-0,001) ko‘rsatkichlarida natijalarning ishonchli o‘sishiga olib keldi.

Olingan ma‘lumotlar yuqori malakali bokschilarning o‘quv jarayonining nazariy va amaliy bazasini yuqori malakali qoidalar bilan kengaytirish imkonini beradi, ular kontaktsiz yetkazib berish mashqlarini qo‘llash, o‘quv-mashq yukining parametrlarini belgilash va shikastlanish va shikastlanishni kamaytirish asosida texnik va taktik mahoratini shakllantirishni oqilona boshqarish imkoniyat muhiti yuzaga keldi.

Bokschilarning ta‘lim-tarbiya jarayonida yetakchi mashqlarni qo‘llashning ishlab chiqilgan usuli barcha bosqichlarda va tayyorgarlik davrlarida sportchilarning har qanday malakasidan keng foydalanish uchun tavsiya etiladi. Uning qo‘llanilishi turli miqyosdagi musobaqalarda g‘alaba qozonishda raqobatbardosh ishonchlilik va muvaffaqiyat qobiliyatini oshiradi.

Xulosa. Eksperiment natijalari bokschilarning texnik-taktik mahoratini takomil-lashtirish, ularning jismoniy sifatlarini va funksional tayyorgarligini yaxshilash bo‘yicha taklif qilgan

yo‘nalish zamonaviy boks uchun yanada istiqbolli ekanligiga umid qilish imkonini beradi. Shuningdek, boks mashg‘ulotlari yosh avlodning ko‘pchiligi uchun yanada jozibador bo‘lishiga umid qilish imkonini beradi. Ta‘lim jarayonida sezilarli darajada kamroq shikastlanishga olib keladi. Qo‘l va oyoq ishidagi aloqalarni yaxshilash, yetkazib berish mashqlari orqali erishilgan, muvofiqlashtirish qobiliyatlari, qobiliyatlilik, havodagi turli harakatlar bilan bog‘liq harakatlarning plastiklaridagi umumiy yaxshilanish, bu ta‘lim jarayonida ishlab chiqilgan sifatlarning hayot uchun bu sportchilarda qolishiga umid qilish imkonini beradi. Dvigatel ma‘lumotlarini tezroq qayta ishlash qobiliyati va tezroq qaror qabul qilish odati ham ushbu sportchilarga keyingi hayotda yordam berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi. Qarori. 03.06.2017-y. PQ–3031-tush. // “Xalq so‘zi”, 2017-yil. 6-iyun.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni. www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF–5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni. www.lex.uz.

4. Агеев Н.Ф. Бокс: Подготовка спортсменов: учебно-методическое пособие. – 2-изд.,перераб., и доп. изд-во Нижний.: Дятловы горы, – Нижний Новгород, 2017. – С. 85.

5. Александров Ю.М. Особенности формирования ведущих морально-волевых качеств квалифицированных боксеров. // Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта, № 1 (30) 2014. – С. 6–14.

M. Muxammadov
Alfraganus universiteti,
“Sport faoliyati” kafedrasi o‘qituvchisi

FUTBOL SPORT TURI BILAN SHUG‘ILLANUVCHI 16-17 YOSHLI QIZLAR JAMOASI DARVOZABONLARINING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI ANIQLASH SAMARADORLIGI

Annotatsiya.*Ushbu maqolada futbol sport turi bilan shug‘illanuvchi qizlar jamoasi yosh darvozabonlarning texnik-taktik harakatlarini aniqlash va o‘zaro taqqoslash orqali ustunlik va kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur maqoladagi ma’lumotlar murabbiylarga yosh darvozabonlar uchun qaratilgan mashg‘ulot samaradorligini aniqlash uchun uslubiy manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Futbol, sport, qizlar, umumiy, zarba, darvozabon, texnika, to‘p, mashg‘ulot.*

Аннотация. *В данной статье приведены сведения, направленные на выявление преимуществ и недостатков путем выявления и сопоставления технико-тактических действий юных вратарей женской команды, занимающейся футболом. Информация в данной статье служит методическим источником для определения эффективности тренировок, направленных на молодых вратарей.*

Ключевые слова: *Футбол, спорт, девушки, общий, удар, вратарь, техника, мяч, подготовка.*

Annotation: *This article presents data aimed at identifying advantages and disadvantages through the identification and comparison of the technical and tactical actions of young goalkeepers of the girls' football team. The information in this article serves as a methodological resource for coaches to determine the effectiveness of training aimed at young goalkeepers.*

Keywords: *Football, sports, girls, general, shot, goalkeeper, technique, ball, training.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7- apreldagi PQ-115 son «O‘zbekistonda ommaviy va professional futbolni xar tomonlam rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» Qarorining chiqarilishi, O‘zbekiston futbolining yanada rivojlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan futbol jamoalari moddiy texnik bazasi takomillashtirildi va infratuzilmaviy rivojlanishi ta’minlanmoqda. Jumladan har bir jamoa qoshida ayollar futbol klublarining tashkil etilayotgani xam yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Futbolda yosh darvozabonlarning texnik tayyorgarligi jarayoni faoliyat sifatida taqdim etiladi, uning samaradorligi sportchilarning raqobatbardosh faoliyati natijalarida ifodalanadi. Sportni takomillashtirish bosqichida futbolda yosh darvozabonlarning texnik-taktik tayyorgarligi umuman mashg‘ulot jarayoni tizimidagi muhim tarkibiy qismlardan biridir. Shubhasiz, darvozabonlarni tayyorlashda qancha omillar hisobga olinsa, ularning taktik va texnik harakatlarining samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi, bu asosan o‘yin tizimlarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Darvozabon o‘yin davomidagi turli xil hujum va himoya harakatlarini boshqarib turadi. Umuman, yuqori qobiliyatli futbolchilarni tayyorlashda tezlik-kuch sifatlari ahamiyatli hisoblanadi.

Jamoaning himoya va hujumdagi umumiy o‘yini darvozabonning individual taktik tayyorgarligiga anchagina bog‘liq. Darvozabonning texnik mahorat va jismoniy tayyorgarlikdan o‘yinda to‘laroq foydalanishiga uning taktik bilimi yanada ko‘proq ta’sir qiladi. Ana shuning uchun ham darvozabonlarning taktik tayyorgarligi masalasiga nihoyatda jiddiy e’tibor berish kerak.

Hozirgi futbol darvozabondan ustalik bilan darvozani himoya qilishnigina emas, balki jarima maydoni ichida faol harakat olib borishni, shuningdek, hamma himoyachilarni boshqarib turishni ham talab qiladi. U jamoasining hamma mudofaa harakatlarini muvofiqlashtirib turadi. Darvozabon turadigan (hammadan orqada) joyning o‘zi unga hujumchilar qanday tizilib kelayotgani va ular nima maqsadda ekanini ko‘rib turish imkonini beradi. Vaholanki, bu narsa ba’zida maydonning ayrim joylaridagi o‘yinchilar nazaridan chetda qoladi. Shuning uchun mudofaadagi sheriklariga vaqtida «shipshitib qo‘yish» himoya harakatlarining mustahkamligiga muhim ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Buning ustiga, darvozabon o‘z jamoasining ko‘pgina hujumlarini boshlab beradigan (to‘pni qo‘lga kiritganida yoki darvozadan to‘p tepib berganida) futbolchi, shu sababli ham hujum qatorlarida tashabbus va izchillik saqlanib turishi uchun uning mahorati juda zarur.

Ishning maqsadi. Musobaqa sharoitida yosh darvozabonlarning maydondagi texnik-taktik harakatlari o‘rganish.

Vazifalari:

-yosh darvozabonlarining o‘yin davomidagi texnik-taktik harakatlarini tahlil qilish.

-yetakchi mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan testlar orqali darvozabonlarining o‘yin davomidagi texnik-taktik harakatlarini samaradorligini aniqlash.

Olingan natijalar tahlili. Biz tomonimizdan O‘zbekiston chempionati 1 - ligasida ishtirok etgan “Olmaliq-W”, “Andijanka-W” jamoalarining 16-17 yoshdagi futbolchi qizlarining darvozabonlarida olib borildi. Kuzatish davomida darvozabonlarning berilgan zarbalarni chiziqda qaytarish, darvozadan chiqib yerdan va havoda o‘ynash, 1-1 chiqib o‘ynash, to‘pni qo‘lda qisqa, o‘rta va uzoq masofaga oshirib berish, to‘pni oyoqda qisqa, o‘rta qa uzoq masofaga oshirib berish harakatlari o‘rganildi.

Tajriba guruhi sifatida tanlab olingan “Omaliq - W” futbolchi qizlar jamoasi darvozabonlarining o‘yin davomidagi texnik-taktik harakatlarining natijalari ask ettirilgan.

Jadvaldagi natijalarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, o‘yin davomida darvozabonlar 22-23 marotaba texnik-taktik (JTT) harakatlarni bajargan bo‘lsalar, +12 va +13 marotabasi samarali (51-54%) yakunlangan. Nazorat guruhining natijalari esa, 23-29 ta texnik-taktik harakatlarni bajarganligini va samaradorlik ko‘rsatgichi 57-66% (+13,+19) tengligi aniqlandi. Bu natijalar 5 ta o‘yin davomidagi olingan o‘rtacha (X) ko‘rsatgich hisoblanadi. (1-javdalda)

Jamoa	Zarbani chiziqda qaytarish	Darvozadan chiqib o‘ynash		Birga bir chiqib o‘ ynash	To‘pni o‘yinga kirg‘zish		TTH	Jami/ sk%
		Havoda	yerda		Qo‘ lda	Oyoqda		
16 yoshdagi								
Olmaliq-W	-2+1	-3+1	-1+2	-2	-3+5	-4+3	-15+13	28/46
	-2+2	-2+2	-2+3	-3	-3+6	-2+4	-18+15	32/47
Andijanka-W	-2+1	-3+1	-1+2	-1+1	-2+6	-2+2	-11+13	24/54
	-3+2	-1+1	-1+1	-1+1	-2+4	-4+3	-12+14	26/54
17 yoshdagi								
Olmaliq-W	-3+2	-5+1	-1+1	-2	-3+6	-4+2	-18+12	30/40
	-3+2	-6+2	-2+2	-2	-2+6	-2+3	-17+15	32/47
Andijanka-W	-2+2	-2+2	-3+1	-1	-2+5	-3+2	-11+14	25/56
	-3+2	-2+2	-1+2	-1+1	-3+6	-3+2	-13+15	28/54

1-jadval

Tajriba va nazorat guruhining darvozabonlarining tadqiqotdan oldin olingan 5 ta o‘yin davomidagi texnik-taktik harakatlari (x)

Tajriba guruhining natijalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, 16-17 yoshli darvozabonlar natijalari berilgan zarbalarni chiziqda qaytish va darvozabonni havodan kelayotgan to‘plarga chiqib o‘ynashda ko‘p texnik harakatlarni boshqa harakatlarga qaraganda ko‘pligini samaradorlik ko‘rsatkichlari esa nazorat guruhining yosh darvozabonlarining natijalaridan pastligini ko‘rsatmoqda. Bu natijalardan boshqa yoshdagi darvozabonlarning o‘yin davomida berilgan zarbalarni qaytarishda va havoda kelayotgan to‘plarni chiqib o‘ynashda ko‘p bajarishar ekan. Ammo mana shu harakatlarda har darvozabonlarning xatoliklari orqali gol vaziyatlari vujudga kelayotganligini guvohi bo‘ldik.

Hujumni tashkil etishdagi qo‘l va oyoqda to‘pni tashlab berish harakatlarida ham tajriba

guruhi sifatida tanlab olingan texnik harakatlarda noaniqliklar ko‘pligini aniqladik. Bu noaniqliklar jamoa o‘yinida g‘alaba qozonishiga salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Olingan natijalardan musobaqa sharoitida yosh darvozabonlarning olingan texnik harakatlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bu texnik-taktik harakatlarni amalga oshirishda, jismoniy tayyorgarlikni ahamiyati kattaligini bildiradi. Ayniqsa bu yoshdagi darvozabonlarning ko‘p uchraydigan to‘pni chiziqda qaytarishda.

Havodagi to‘pga chiqishda, hujumlarni boshlab berishdagi qo‘l va oyoqda tashlab berish harakatlarida va boshqa texnik harakatlarda hatoliklar ko‘pligini olingan natijalardan ko‘rishimiz mumkin.

Shu sababdan o‘quv-mashg‘ulot sharoitida bu jismoniy tayyorgarligini texnik tayyorgarlik bilan birga olib borilishiga katta axamiyat qaratishimiz kerak. Ammo biz ularga yuqori darajada yuklamalaraning bera olmaymiz, shu sababdan ularni rivojlantirishda yosh darvozabonlarning texnik-taktik harakatlarini o‘sishiga ta’sir etadigan vosita va usullarni tanlab olib ularga joriy etishimiz kerak deb o‘ylaymiz.

Xulosa o‘rnida ma’lum bo‘ldiki Yosh darvozabonlar maydonda texnik-taktik xarakatlari bir o‘yinda o‘rtacha 25-35 ta bajarishadi. Texnik taktik xarakatlarda, ayniqsa, darvozabonning to‘p uchun chiqib havoda o‘ynashida, to‘pni chiziqda qaytarishda, musht bilan urib yuborish, birga bir vaziyatlarda darvozabonlar ko‘p martoba xatolar qilishi aniqlandi. Darvozabonlar berilgan kuchli zarbalarni qaytarishda 60% foizga, burchak to‘plarni urib yuborish yoki ushlab olishda 48%, birga bir vaziyatda to‘pni olib qo‘yishda 35% samarali xarakatlanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son «O‘zbekistonda ommaviy va professional futbolni xar tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» Qarori.

2. Yusupov N.M.Yuqori malakali futbolchi qizlarni tezkor-kuch tayyorgarligining rivojlantirish uslubini takomillashtirish. Dissertatsiya. 2018 yil. Chirchiq.152 b.

3. Yo‘ldashov M.R. Yosh futbolchi qizlarning koordinasion qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish. Dissertatsiya. 2021 yil. Chirchiq.144 b.

4. Musayev B.B. Sport metrologiyasi, o‘qkv qo‘llanmasi, Toshkent, Navro‘z nashriyoti, 2015, 199 b.

5. Akbarov A., Musayev B.B., Sport metrologiyasi, darslik, Toshkent, Tafakkur qanoti, 2014, 424 b.

6. Akbarov A., “Sportda matematik tahlil usullari”, magistrlar uchun o‘quv qo‘llanma, O‘ZDJTSU, 2020, 228 b.

A.Safarov
O‘qituvchisi
Qarshi davlat universiteti

VOLEYBOL SPORT TURI VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sportning o‘rni va ahamiyatini muhim xususan gimnastika, yengil atletika va sport o‘yinlari (futbol, basketbol, voleybol, qo‘l to‘pi) ni o‘yin hamda mashqlar texnikasini o‘rgatishni takomillashtirish zarur bo‘lib, ta’lim jarayonida gimnastika, yengil atletika va sport o‘yinlari (jumladan voleybol) ni o‘yin hamda mashqlar taktikasini o‘rgatishni takomillashtirish kerak, ayniqsa sport o‘yinlaridan voleybol haqida dars jarayonida keng ma’lumotlar berib o‘tish hamda talaba yoshlarni ushbu sport o‘yiniga qiziqishini oshirish zarur deb o‘ylayman.*

Kalit so‘zlar: *Olimpiya o'yinlari, Voleybol, sport o'yini, jismoniy tayyorgarlik, funktsional xususiyatlar, taktik usullar.*

Basketbol o‘yini qatori voleybolning dunyoga kelganiga ham yuz yildan oshdi. Bu o‘yin tez orada dunyoda ommalashib ketdi. Voleybol tomoshabop, chiroyli va kishilarni o‘ziga rom qiladigan sport turi hisoblanadi. Bu narsa: o‘yin qoidalarining soddaligi, unga zarur bo‘ladigan uskunalarning murakkab emasligi, shuningdek, voleybolni har qanday yoshdagi kishilar o‘ynay olishi bilan bog‘liq. Voleybol o‘yini barcha mushaklarni rivojlantiradi, tez idrok yuritishga o‘rgatadi. Quvvatni, chaqqonlikni, chidamlilikni, yengil harakatlanish sifatlarini va bu sifatlarni to‘g‘ri yo‘naltira olish xislatlarini o‘stiradi. Nafas olish, yurak-qon tomir faoliyatini mustahkamlaydi, aqliy charchoqni yozadi. Sakrab bajariladigan o‘yin vositalaridan hisoblanadi. Voleybol gavdaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uni ortiqcha yukdan xolos qiladi. U jamoa bo‘lib harakat qilishga, o‘z shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaatiga bo‘ysundirishga, intizomli bo‘lishga, sheriklarga yordam berishga o‘rgatadi. Voleybolning kishi tanasiga ijobiy ta’siri, uning hammabopligi, texnik jihatdan uncha murakkab emasligi kabi xususiyatlari — sog‘lomlashtirish ishida yaxshi natija berishini ko‘rsatadi.

Voleybol ommabop o‘yin bo‘lib , uni uyda ham, ochiq havoda ham o'ynash mumkin. Oddiy inventarizatsiya va ushbu qiziqarli o'yinning oddiy qoidalari ko'plab havaskor o‘yinchilarning g'alaba qozonishni ta’minlaydi. Sport o'yini voleybolni tanlash yoshlar orasida keng tarqalganligi, ta’lim jarayonining o'quv va moddiy bazasi va tabiiyki, o'qituvchi -talabaning o'zi tayyorgarligi bilan belgilandi. Talabaning ta’lim jarayonidan keyin jismoniy va hissiy stresslarni yengillashtirishi juda muhimdir. Bunga voleybol orqali sport zalida osonlikcha erishish mumkin. Dastur talabaning shaxsini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga, o'qish va ijodkorlik uchun motivatsiyani rivojlantirishga, uning hissiy farovonligini ta'minlashga, asotsial xatti-harakatlarning oldini olishga, bolalarning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘i jarayonining yaxlitligiga qaratilgan.

Voleybol mashqlari ishtirokchilarning asosiy jismoniy fazilatlari - chidamlilik, harakatlarni muvofiqlashtirish, tezlik-quvvat fazilatlari, turli xil motorli ko'nikmalarni shakllantirish, sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradi va shuningdek, talabaning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi: muloqot qobiliyatlari, iroda, o'rtoqlik tuyg'usi, o'zlari va o'rtoqlari oldida o'z harakatlari uchun javobgarlik hissi hamda shu bilan birga harakat tezligi, ixtirochilik, xizmat ko'rsatish aniqligi, zarba aniqligi va g'alabaga erishishga qaratilgan boshqa harakatlar bo'yicha raqibdan ustun bo'lish istagi talabalarni o'z imkoniyatlarini safarbar etishga, maksimal kuch bilan harakat qilishga, sport jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi.

Junladan o'yinning raqobatbardoshligi, taktik individual va guruhiy harakatlarning mustaqilligi, vaziyatning doimiy o'zgarishi, yutuq yoki muvaffaqiyatsizlik o'yinchilarni turli xil

hissiyot va tajribalarni namoyon etishiga sabab bo'ladi. Yuqori hissiy ko'tarilish doimiy faollikni va o'yinga qiziqishni saqlaydi. Voleybolning bu xususiyatlari o'quvchilarni his-tuyg'ularni boshqarishga, o'z xatti-harakatlari ustidan nazoratni yo'qotmaslikka, muvaffaqiyatli bo'lsa, kurashni susaytirmaslikka, agar ular muvaffaqiyatsiz bo'lsa, o‘zini yo'qotmaslikka o'rgatish uchun qulay sharoitini yaratadi.

Yuqorida aytilganlar asosida talabalarda xulq-atvor munosabatlarini shakllantirish, voleybol sport o'yini sifatida o'zining texnik va uslubiy vositalari bilan talabaning ichki dunyosini boyitishga, uning sog'lig'ini yaxshilash va tanani rivojlantirish sohasidagi ongini kengaytirishga samarali imkon beradi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari sharoitida o'quvchilar og'ir o'quv yuklamalari va uy vazifalari hajmi tufayli harakatsizlikni rivojlantiradilar. Muammoni hal qilish uchun qisman "Voleybol" qo'shimcha ta'lim dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, uning harakati, tiklanishi va organizmning ishlashini ta'minlash ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Talabalarni voleybolga o'rgatish uchun o'yinning texnik va taktik usullarini o'zlashtirishning ko'p qirraliligi asos bo'ladi. Dastlabki o'quv guruhlari jismoniy va texnik tayyorgarlikka e'tibor beradi. Bundan tashqari, o'qishning birinchi yilida mashg'ulotlarning ayrim turlarining nisbati o'zgaradi: yil boshida jismoniy tarbiya uchun ko'proq soat beriladi, yilning ikkinchi yarmida texnik mashg'ulotlar uchun soat soni bo'lishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy tarbiya tayyorgarlik va yetakchi texnik tayyorgarlik mashg'ulotlarida amalga oshiriladi.

5. Muntazamlilik kompetentlikka bog‘liq amallarga «turtki»larni nazorat qilish qobiliyati, matonat, qat’iyat, sabrlilik, kompetentlikni amalga oshirish bilan bog‘liq maqsadga erishishdagi to‘siqlarni zabt etishga tayyorgarlik

Kompetentlikni namoyish qilishga tayyorgarlik darajasini quyidagi mezonlar bo‘yicha aniqlash mumkin: o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini namoyon etish g‘oyasi, kasbiy yo‘l tanlash, turmush qurish, farzandli bo‘lishga nisbatan qaror qabul qila olishga tayyorgarlik, o‘z hayotiga javob berishga tayyorlik, hayot yo‘lini mustaqil tanlash, kasb sohasida ko‘nikishlar hosil qilishga tayyorlik va boshqalar.

Xulosa. Talabalarga ta’lim va tarbiya berishda nafaqat ta’lim oluvchiga ta’limning yo‘naltirilishi, balki o‘qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o‘qituvchining kasbiy kompetentlik arajasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Ta’lim tizimida kompetentli yondoshuv ta’lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi, ta’lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta’lim maqsadi, mazmuni, o‘qitish shakli, o‘qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi rolida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta’limda tub o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak. Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi va darsliklarni takomillashtirish yo‘nalishida muayyan ishlar olib borilayotgan bir paytda, mavjud an’anaviy mazmundan voz kechish qiyin kechsa-da, ta’lim mazmunini yanada aniqlashtirish lozim bo‘ladi. Shunday qilib, mustaqil ishlash malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish o‘zaro bog‘liqdir.

Xulosa qilib shuni yana bir bor ta’kidlash kerakki, mustaqil ish o‘quv jarayonining asosiga, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirish omiliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boltaboyev A. X. O‘quv jaryonida qalamchizgi va qoralamalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlatnirish texnalogiyasi. // Ilmiy axborotnoma. – Namangan, 2023. – № 7. – B. 553–558.

2. Boltaboyev A. X. Tasvriy san’at darslarida talabalarining o‘quv jarayonida qoralamalar bajarish texnikalari. // «Jamiyat va innovatsiyalar» fanlararo elektron ilmiy jurnali, 2023. –№4. – B. 209–213.

3. Nabiyev, B. (2022). Natyurmort kompozitsiyasini tuzish va tasvirlashda bosqichlar asosida ishlashning ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, *3*(12), 334-338.

4. Mohirjon, O. (2023). Qaysi biri yaxshiroq: naturadanmi yoki fotosuratdanmi?. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 101-103.

5. Komoldinov, S. (2023, December). Qalamtasvir mashg’ulotlarida kompozitsiyaning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the*

topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions” (Vol. 1, No. 01).

6. Rakhimov, K. (2023). THE PLACE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS. Solution of social problems in management and economy, 2(2), 5-8.

7. Sattarov, F. (2024). Manzaraning ishlash jarayoni va uning ilmiy-nazariy tahlili. Scientific-Theoretical Journal of International Education Research, 2(1), 38-41.

8. Badirdinov D.Sh. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS THROUGH GRAPHICS. Ekonomika i sotsium, №1(104), 8-11.

9. Toxirovich S. N. VISUAL ARTS TEACHING METHODOLOGY AND PROBLEMS AND SOLUTIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 5. – С. 569-571.

J.Yuldashev
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.
Namangan davlat pedagogika instituti

BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING AKSIOLOGIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: *mazkur maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni metodik jihatdan tahlil qilinadi. Aksiologiya – qadriyatlar nazariyasi bo‘lib, tarix fani o‘qituvchilari uchun nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki madaniy, tarixiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada aksiologik pozitsiyaning nazariy asoslari, uni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari hamda amaliy metodlari keltiriladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning dars jarayonida tarixiy voqea va hodisalarni qadriyatlar nuqtai nazaridan talqin qilish malakasini oshirish yo‘llari yoritiladi. Ushbu metodikaning ahamiyati va uning o‘quvchilarda madaniy va ma’naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishdagi o‘rni alohida ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *aksiologik pozitsiya, tarix o‘qituvchilari, qadriyatlar nazariyasi, pedagogik texnologiyalar, tarix ta’limi, o‘quvchilarda qadriyatlarni shakllantirish, ma’naviy tarbiya, innovatsion metodlar, tarixiy tafakkur, ta’lim jarayonida qadriyatlar.*

Аннотация: *В статье методически анализируется процесс формирования ценностной позиции будущих учителей истории. Аксиология – это теория ценностей, которая важна для учителей истории в формировании не только знаний и умений, но и культурных, исторических и духовных ценностей. В статье представлены теоретические основы аксиологической позиции, современные педагогические технологии и практические методы ее развития. Также будут освещены пути совершенствования умений учителей интерпретировать исторические события и явления с точки зрения ценностей в ходе урока. Отдельно будет показано значение этого метода и его роль в формировании у студентов чувства уважения к культурным и духовным ценностям.*

Ключевые слова: *аксиологическая позиция, учителя истории, теория ценностей, педагогические технологии, историческое образование, формирование ценностей у учащихся, духовное воспитание, инновационные методы, историческое мышление, ценности в образовательном процессе.*

Anotation: *The article methodically analyzes the process of forming the value position of future history teachers. Axiology is a theory of values, which is important for history teachers in forming not only knowledge and skills, but also cultural, historical and spiritual values. The article presents the theoretical foundations of the axiological position, modern pedagogical technologies and practical methods of its development. It will also highlight ways to improve teachers' skills in interpreting historical events and phenomena from the point of view of values during the lesson. The significance of this method and its role in forming students' sense of respect for cultural and spiritual values will be separately shown.*

Keywords: *axiological position, history teachers, theory of values, pedagogical technologies, historical education, formation of values in students, spiritual education, innovative methods, historical thinking, values in the educational process.*

Respublikamizda o‘quvchi-yoshlarni milliy va umuminsoniyat tarixiga hurmat ruhida tarbiyalash, tarix fanini o‘qitishda uzviylik hamda uzluksizlikni ta’minlashning tashkiliy-metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish, ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitish va targ‘ib qilish ishlarini tubdan yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratilmoqda.“Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” [1]. Bu esa, tarixni o‘rganish jarayonida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida aksiologik pozitsiyani rivojlantirish tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirishning didaktik modeli va metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqoridagi masalalar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining ta’lim jarayonida aksiologik pozitsiyasi muhim o‘rin tutadi. Bu shaxsiy qadriyatlar, ma’naviyat va axloqiy prinsiplar to‘plami bo‘lib, bo‘lak tarix o‘qituvchining tarixiy voqealarga, tarixiy shaxslar va jarayonlarga bo‘lgan yondashuvini shakllantiradi.

Quyida aksiologik pozitsiyani rivojlantirishda samarali metodlar va yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

1. Aksiologik pozitsiya tushunchasi va ahamiyati

Aksiologik pozitsiya o‘qituvchining qadriyatlarga asoslangan yondashuvini ifodalaydi. Tarix darslarida o‘qituvchi nafaqat faktlarni, balki o‘sha davrda mavjud bo‘lgan qadriyatlarni ham o‘quvchilarga taqdim etishi kerak. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarga axloqiy va ma’naviy nuqtai nazardan tahlil qilishni o‘rgatadi. Tarixiy voqealar va shaxslar orqali o‘quvchilarda ijtimoiy va madaniy qadriyatlar haqida chuqur tushuncha hosil bo‘lishi kerak.

Aksiologik pozitsiyaning ahamiyati shundaki, u bo‘lajak tarix o‘qituvchilarga shaxsiy va ijtimoiy ma’naviyatni rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchi orqali o‘quvchilarda ham shaxsiy qadriyatlar tizimi shakllanadi. Bu esa yoshlarning jamiyatdagi mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Aksiologik pozitsiyani rivojlantirish maqsadlari

[1] Mirziyov Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir // “Xalq so‘zi”gazetasi, 2021 yil 20 yanvar. – №13 (7793).

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozitsiyasini rivojlantirishning asosiy maqsadi o‘qituvchining shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishdir. Bu jarayon quyidagi maqsadlarni qamrab oladi:

Qadriyatlar tizimini aniqlash va shakllantirish: O‘qituvchi o‘z shaxsiy qadriyatlarini bilishi va ularni pedagogik faoliyatga qanday tatbiq etishni tushunishi lozim.

Axloqiy va ma’naviy tarbiya: O‘qituvchi o‘quvchilarga tarixiy hodisalarni o‘rganishda axloqiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlashi kerak.

O‘quvchilarda aksiologik qarashlarni shakllantirish: O‘quvchilar tarixiy hodisalardan ma’lum bir ma’naviy saboq olishlari lozim. Bu saboqlar, o‘z navbatida, ularning shaxsiy axloqiy pozitsiyalarini mustahkamlaydi.

3. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozitsiyasini rivojlantirish metodlari

O‘qituvchilarning aksiologik pozitsiyasini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Muammoli ta’lim metodlari Muammoli ta’lim o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga tarixiy hodisalar yuzasidan o‘z munosabatlarini bildirish imkonini beradi. Muammoli savollar va tahlillar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarga axloqiy tanlovlarni va ularning oqibatlarini tushuntiradi. Bu esa o‘quvchilarda aksilologik yondashuvlarni rivojlantiradi.

Tarixiy bahs va munozaralar Bahs va munozaralar orqali o‘quvchilar o‘z pozitsiyalarini shakllantirish va himoya qilishni o‘rganadilar. Tarixiy voqealar va qadriyatlar bilan bog’liq masalalarni bahsga qo‘yish, o‘quvchilarga har xil qarashlarni o‘rganish va ularga ma’naviy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Refleksiya va shaxsiy mulohaza Refleksiya o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyati va qadriyatlar tizimiga chuqurroq qarash imkoniyatini beradi. O‘qituvchilar o‘zlari ishlayotgan darslardan keyin o‘z shaxsiy qadriyatlari va ular orqali o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish usullarini tahlil qilishlari lozim.

Tarixiy hikoyalar va o‘yinli metodlar

Tarixiy hodisalarni hikoyalar yoki o‘yin shaklida o‘rganish o‘quvchilar uchun ma’lum qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi. O‘quvchilar bu o‘yinlar orqali tarixiy voqealarni tushunib, ularning axloqiy jihatlariga e’tibor qaratadilar.

Aksiologik loyiha va tadbirlar

O‘quvchilar tarixiy mavzularda loyiha va tadbirlar o‘tkazish orqali qadriyatlar tizimida o‘z o‘rnini topishga harakat qiladilar. Bunday loyihalar axloqiy tanlovlar, ma’naviy qadriyatlar va jamiyatning taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi.

4. Aksiologik kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari

Aksiologik pozitsiyani rivojlantirish jarayonini bir nechta bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

Nazariy bosqich: O‘qituvchilar aksiologiyaning asosiy tamoyillari va qadriyatlar tizimini nazariy jihatdan o‘rganadilar. Bu bosqichda tarixiy voqealarning ma’naviy va axloqiy qiymati haqida tushunchalar shakllanadi.

Amaliy bosqich: O‘qituvchi tarix darslarida qadriyatlarga asoslangan yondashuvni tatbiq etadi. Bu jarayonda o‘qituvchi tarixiy hodisalarga ma’naviy va axloqiy nuqtai nazardan baho beradi, o‘quvchilarga qadriyatlarni tahlil qilish imkonini yaratadi.

Reflektiv bosqich: O‘qituvchi va o‘quvchilar darslar davomida o‘z qadriyatlarini tahlil qilishadi, tarixiy voqealardan o‘zlari uchun saboqlar chiqaradilar.

5. Aksiologik pozitsiyani rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari ham o‘qituvchilarning aksiologik pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Quyidagi texnologiyalar bu jarayonda samarali bo‘lishi mumkin:

Axborot texnologiyalari: Tarixiy materiallarni internet manbalari orqali tahlil qilish va virtual

muzeylar orqali qadriyatlar tizimi bilan bog’liq ma’lumotlarni o‘rganish.

Interaktiv dasturlar: Aksiologik tarbiya uchun interaktiv darslar va o‘yinlar orqali o‘quvchilarning ishtirokini ta’minlash, ularda tarixiy voqealarga qiziqish uyg’otish.

Simulyatsiya va ro‘l o‘ynash texnologiyalari: Tarixiy sharoitlarni simulyatsiya qilish orqali o‘quvchilarning qadriyatlar tizimini tahlil qilish imkonini yaratish.

6. Aksiologik tarbiyaning natijalari

Aksiologik pozitsiyani rivojlantirish natijasida o‘qituvchilar quyidagi natijalarga erishadi:

Shaxsiy va kasbiy qadriyatlarni mustahkamlash: O‘qituvchilar o‘zlarining shaxsiy va kasbiy qadriyatlarini aniqlab, ularni pedagogik jarayonda samarali qo‘llaydilar.

O‘quvchilarning axloqiy tarbiyasini oshirish: O‘qituvchilar qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirish orqali ularning ma’naviy tarbiyasiga hissa qo‘shadilar. O‘quvchilar tarixiy voqealarni o‘rganishda ulardan axloqiy saboqlar oladilar.

Ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni hurmat qilishni rivojlantirish: Tarix o‘qituvchilari o‘quvchilarda milliy va global qadriyatlarni hurmat qilishni rivojlantiradilar.

Mazkur jarayonda tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e’tibor qaratilishi, uning yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishdagi ahamiyatining ochib berilishi o‘ta muhimdir. Yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda ayniqsa quyidagi tarbiyaviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi: boy ma’naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo‘lib borish; jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy merosini chuqur anglab yetish; yoshlarni o‘z o‘tmishiga, milliy, diniy an’analarga hurmat bilan qarashi, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi; o‘z millatining o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatidan, obro‘-e’tiboridan faxrlanish; millat manfaatini himoya qilishdagi mas’uliyatni his etish va kelajakka ishonch kabi qadryatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyov Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir // “Xalq so‘zi”gazetasi, 2021 yil 20 yanvar. – №13 (7793).
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Давлатов О.Ғ. Талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини тарихий-маданий мерос воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Тошкент, 2018. – 177 б.
4. Yuldashev, J. A. "Content of development of axiological position in future teachers in the process of history education." current research journal of pedagogics 4.06 (2023): 82-88.
5. Юлдашев, Дж "Взаимосвязь развития исторического сознания и аксиологического мировоззрения в восприятии студентов." Общество и инновации 2.3/S (2021): 53-58.
6. Yuldashev J. Leveloping axiological world view in students in teaching history //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – S. 281-283.
7. Юлдашев Ж. Аксиологический Подход В Обучении Истории: Содержательный Компонент //"ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 185-187.
8. Yuldashev J. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini aksiologik pozisiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 76-78.
9. Юлдашев Д. Талабаларда тарихий онг ва аксиологик дунёқарашни ривожлантиришнинг ўзаро алоқадорлиги //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 53-58.

M.Xushnazarova
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

IJTIMOIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI KASBIY, IJTIMOIY FAOLIYAT DOIRASIDA AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy qadriyatlar tizimi, faoliyat motivlari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning aksiologik mezon va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish, qadriyatlar tizimini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi va mexanizmlarini takomillashtirish, kreativ ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *aksiologik munosabat, qadriyatlar tizimi, faoliyat motivlari, aksiologik mezon, ta’limni insonparvarlashtirish, kasbiy kompetentlik.*

Аннотация: *В данной статье считается важным уточнить аксиологические критерии и показатели развития профессиональной компетентности на основе профессиональной системы ценностей и мотивации студентов высших учебных заведений, усовершенствовать организационную структуру и механизмы развития системы ценностей. , а также по развитию творческих образовательных технологий.*

Ключевые слова*: ценностная установка, система ценностей, мотивы деятельности, аксиологический критерий, гуманизация образования, профессиональная компетентность.*

Annotation: *In this article, it is considered important to clarify the axiological criteria and Annotation: In this article, it is considered important to clarify the axiological criteria and indicators of professional competence development based on the professional value system and motivations of students of higher educational institutions, to improve the organizational structure and mechanisms of the development of the value system, and to develop creative educational technologies. held.*

Key words: *axiological attitude, value system, activity motives, axiological criterion, humanization of education, professional competence.*

Mamlakatimizda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim oluvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar ta’limni insonparvarlashtirish, bo‘lajak pedagoglarda aksiologik munosabatni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirdi. Shu bilan birga, milliy pedagogika fani oldida oliy ta’lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish zarurati mavjud. Bu borada oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy qadriyatlar tizimi, faoliyat motivlari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning aksiologik mezon va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish, qadriyatlar tizimini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi va mexanizmlarini takomillashtirish, kreativ ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy pedagogik amaliyot ijtimoiy faoliyat bilan chambarchas bog’liq va bir-birini alohida o‘rganish imkonsiz. Jamiyatdagi muammolarning kelib chiqish sabablari ijtimoiy pedagogik amaliyotning natijasi sifatida qaralishiga ko‘p jihatdan mos keladi. Talabalarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash, ularda aksiologik munosabatlarni rivojlantirish amaliy xarakterga ega.

Ijtimoiy pedagogik amaliyot kasbiy, ijtimoiy faoliyat doirasida amalga oshiriladi, shaxsiy va jamoaviy rivojlanganlik mezonlari asosida ta’sirchan bo‘ladi. Ijtimoiy pedagogik amaliyotni tashkil etishda talabalarning kasbiy ehtiyojlari va ularni shakllantiruvshi omillar hisobga olinishi natijasida

ularning ijtimoiy pedagogik faoliyatga qiziqishi ortadi va uning faol ishtirokchisiga aylanadi. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy pedagogik amaliyotda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi imkoniyatlaridan foydalanish lozim.

Professor-o‘qituvchilar sifat jihatdan ijtimoiy pedagogik amaliyotni takomillashtirish yo‘llari, talabalarning yoshiga mos ravishda ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi talab etiladi. Aksiologik yondoshuv vositasida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash qadriyatlarni ishonch va e’tiqodga aylantirishga yangicha uslub, yondashuv va texnologiyalarni qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassasalari uzluksiz ta’lim-tarbiyaning muhim bosqichini amalga oshiradi. Bunda talaba shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta’lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari (ta’lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar)ning o‘zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo‘naltirilganligi tushuniladi.[2]

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari davlat ta’lim standartlari kompetentsiyaviy yondashuv asosida shakllantirilgan. Olima Z.K.Kurbaniyazova kompetentsiyaviy yondashuvni amalga oshirishning mohiyatini “…ta’limni modernizatsiyalashda (ta’lim va tarbiyaning o‘zaro birgalikdagi harakati) uning sifat jihatidan o‘zgarishi, ta’lim-tarbiyaning ustuvor yo‘nalishi sifatida yangi insoniy qadriyatlar tizimini yaratishda yaqqol namoyon bo‘ladi”[3] deb ta’kidlab o‘tadi. Oliy ta’lim muassasalarida nafaqat ta’lim jarayonida, balki darsdan tashqari barcha tadbirlar, loyihalarda ham kompetentsiyaviy yondashuv ustuvor hisoblanadi.

Tadqiqotchi O.Karimova oliy ta’lim tizimida talabalarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash jarayoni quyidagilarni qamrab olishini tadqiq etgan:

– ijtimoiy pedagogik amaliyotni oqilona tashkil qilish; talabalarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashning samarali shakl, uslub va vositalarini izlab topish;

– talabalarni jamiyat pedagogik ehtiyojlarini to‘g’ri talqin qilishga o‘rgatish; talabalarni ijtimoiy-tarbiyaviy, ilmiy bilimlar saviyasini takomillashtirish;

– talabalarni ijtimoiy pedagogik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish;

– talabalarda ijtimoiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va boshq.[4]

Oliy ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik amaliyot talabalarda ijtimoiy, ijodiy faollik, aqliy zakovat, axloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni keng qamrovli ijtimoiy-foydali ishlarda faol ishtirok etishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga asosan ta’lim muassasalarida ijtimoiy pedagogik amaliyotni aniq rejalashtirish, uning shakllari, metodlarini yosh avlod ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratishni taqozo qiladi.

A.Rahimov o‘z ilmiy tadqiqotida oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy pedagogik amaliyot yo‘nalishlari faoliyatini rivojlantirish printsiplariga mos rejalashtirilishi, talabalarning ma’naviy-ma’rifiy faolligini rivojlantirish 3 ta: motivatsion-qadriyatli, harakatli-ijodiy, kreativ-ijodkorlik yo‘nalishda amalga oshishini tadqiq etgan.[5]

Bizningcha, pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik amaliyot yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan holda uchta vazifani bajaradi:

1) talabalarning shaxsiy rivojlanishi;
2) talabalarda ijtimoiy-siyosiy faol fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishi;
3) bo‘lajak o‘qituvchi sifatida ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlanish.

[2] Xodiev B.Yu. Iqtisodiyot va ma‘naviy tarbiyaning inson manfaatlariga xizmat qilishi // “Talaba-yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv: tarbiyaning yangi metodlari va unda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi maqolalar to‘plami. – T.: TDIU, 2018. – 5 b.

[3] Kurbaniyazova Z.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish // “Akademik Siddiq Rajabov o‘qishlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. –T.: TDPU, 2021. – 32 b.

[4] Karimova M.O., To‘ychieva R. Talabalarni kasbiy-tarbiyaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. – NamDU ilmiy axborotnomasi, №10-son, 2019. – 313 b.

[5] Raximov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari: ped. fanlari bo’y. fals. doktori (PhD) ... dis. avtoref. – T.: 2020. – 49 b.

Jahon pedagogikasidagi mavjud tendensiya talabalarida qadriyatlarni shakllantirishda ta’lim standartlarida ta’lim oluvchilarning global ko‘nikmalarini (“global skills”) shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. Bu esa hozirgi zamon talabalaridan yuksak umuminsoniy qadriyatlarni tushunish, anglash va qiyosiy tahlil qila olish qobiliyatini taqozo etadi. Talabalarning qadriyatlarga asoslangan xalqaro atamalarni tushunishi ularni xalqaro pedagogik faoliyatni tashkil etishda, xalqaro hamkorlik sharoitida faoliyatni samarali tashkil etishda kompetentligini ko‘rsatadi. Misol tariqasida quyidagi ikki atamani keltirish mumkin: “fair” (manba halollik asosida shakllantirilgan), “No Go‘s” (qilib bo‘lmas, mumkin bo‘lmagan) degan ma’nolarni bildiradi. Kuzatishlarimiz natijasida oliy ta’lim muassasalarida xalqaro pedagogik amaliyotdagi qadriyatlar tizimiga shakllangan miqdorda murojaat qilinishi kuzatiladi. Bu esa talabalarning kelgusi pedagogik faoliyatini xorijda amalga oshirishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorgarlikni bir fan yoki fanlar majmuasiga bog’liq ravishda amalga oshirib bo‘lmaydi. Ijtimoiy pedagogik amaliyotga berilgan ta’rifga asosan faoliyatning ko‘p qirraliligi, faoliyatning mazmuniga bir qator talablarni qo‘yadi. Bunday talablarning dastlabkisi sifatida bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy sifatlari hisoblanadi. Talabalarda kasbiy faoliyatga monand shaxsiy sifatlarni rivojlanishi pedagogik ta’limning ilk kunlaridanoq boshlanadigan jarayon. Talabalar dastlab mutaxassislik fanlari orqali davlat va jamiyatning bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablarni o‘rganib boradilar. Pedagoglik kasbi bo‘lajak o‘qituvchilarga shunday talab va vazifalarni qo‘yadiki, ular birinchi navbatda, faoliyat ob’ekti bo‘lgan, oliy qadriyat hisoblangan o‘quvchi shaxsiga bo‘lgan munosabatda o‘z aksini topishi lozim. Buning uchun esa talabalarda haqiqiy insonparvarlik, insonlar tabiati haqida asosli bilimlar, ularning hayotga, ijtimoiy muhitga va borliqqa nisbatan pozitsiyalariga baho bera olish darajasida tajriba orttirishi, fanlar, fanlararo va oliy ta’lim muassasidan tashqari egallanayotgan bilimlar, kuzatishlar, tajriba va xulosalar negizida shakllanadi. Ta’lim beruvchining shaxsiyati, kelib chiqishi, irqi, dini, mansubligiga qaramasdan davlat ta’lim standartlari asosida ta’lim va tarbiya berishi, o‘quvchi shaxsini insoniyatning kelajagi sifatida hurmat qilishi ijtimoiy talab sifatida qaraladi.

Hozirgi sharoitda respublikamizda bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash mexanizmini yaratish oliy pedagogika maskanlari oldida turgan eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda o‘quv jarayoniga kasbiy-ma’naviy sifatlarning kiritilishi hamda ularning kasbiy qobiliyatini shakllantirish lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash jarayonini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz :

– ijtimoiy pedagogik amaliyotni tashkil etishning nazariyasi va amaliyoti orasidagi pedagogik-psixologik ziddiyatlarni bartaraf etish;

– talabalarning ijtimoiy faolligini ta’minlashga qaratilgan tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi tizimini ishlab chiqish;

– talabalar kasbiy ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni bartaraf etishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

– oliy ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligining samaradorligini oshirish.

Demak, bunday sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilar kasbga oid fazilatlar, odob-axloq qoidalari, pedagogik mahorat sirlari, innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini egallash va amaliy faoliyati davomida ta’limiy maqsadlar, vazifalar, tamoyillar, qoidalarni davlat qonunlari va talablariga muvofiqlashtirish zarurligini ixtiyoriy (ba’zan majburiy) qabul qiladilar va bajaradilar. Ta’lim-tarbiya berish jarayoni jamiyat va uning qonunlaridan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi. Bunda o‘qituvchining u yoki bu me’yorlarni yaxshi o‘zlashtirishi natijasida kasb madaniyati va etikasi takomillashib boradi va natijada jarayonni yaxlitligini saqlash uchun muxim omil sifatida

mas’uliyat namoyon bo‘ladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagogik mas’uliyatning asosiy funkqiyalaridan biri gnoseologik, ya’ni bilishga oid funktsiya xisoblanib, u yangi texnologiyalar, fanning so‘nggi yutuqlarini faoliyatga tatbiq etishda samarali natijalarini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.Xodiev B.Yu. Iqtisodiyot va ma‘naviy tarbiyaning inson manfaatlariga xizmat qilishi // “Talaba-yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv: tarbiyaning yangi metodlari va unda axborot kommunikatsion texnologiyalarining o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi maqolalar to‘plami. – T.: TDIU, 2018. – 5 b.

2.Kurbaniyazova Z.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish // “Akademik Siddiq Rajabov o‘qishlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. –T.: TDPU, 2021. – 32 b.

3.Karimova M.O., To‘ychieva R. Talabalarni kasbiy-tarbiyaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. – NamDU ilmiy axborotnomasi, №10-son, 2019. – 313 b.

4.Raximov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari: ped. fanlari bo‘y. fals. doktori (PhD) ... dis. avtoref. – T.: 2020. – 49 b.

5. M.N.Xushnazarova. Volontyorlik faoliyatining ijtimoiy –pedagogik muammolari. Science problems .UZ.Ijtimoiy- gumanitar fanlarning dolzarb muammolari.№ 12 /2 (3)- 2023 . 311-315

6. M.N.Xushnazarova. Volontyorlik (ko‘ngillilik) faoliyatining innovatsiyon shakllari va ularning pedagogik tahlili. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari.2024.(1/4) ISSN 2181-7324,229-232

7. M.N.Xushnazarova. Oliy ta’lim talabalari orasida volontyorlikning mikro darajadagi omillariga e’tibor qaratish. NamDU ilmiy axborotnomasi . 2023 yil 12-con.792-796.

8. M.N.Xushnazarova.The need to use the experience of foreign countries regarding the improvement oft he pedagogical conceptual mechanism of volunteer activities. Journal of Advanced Zoology.Volume 44.issue-2 Year 2023 Page 3765-3771.

M.Eshnazarova
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Namangan davlat pedagogika institut

INFOGRAFIKANING NAZARIY ASOSLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada infografikaning yaratilish va rivojlanish tarixi, uni nazariy asoslari, shuningdek, kasbga doir interaktiv infografika turlari, yaratish shablonlari: Visme, Adobe Spark, Canva, Venngage, Snappa, Piktochart va Easel.ly. haqida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Infografikaning mavjud tamoyillari, ular haqida ma’lumot va tahlillari bayon qilingan. Metodoloqiya qismida infografika yaratish texnologiyalari, ularni yaratish uchun tavsiya qilinayotgan dasturlar afzallik va kamchiliklari batafsil tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье представлена что такое инфографика, информация об истории создания и развития инфографики, о создании “Концепция о развитии инфографики”, о ее теоретических основах, а также о видах интерактивной инфографики. Даны анализы о шаблонах (Visme, Adobe Spark, Canva, Venngage, Snappa, Piktochart, Infogr.am, Power Point, Microsoft Excel, Google Sheets, API и EaselLy) для создания

инфографики связанных с профессией. Описаны существующие принципы инфографики (кратко и чётко, креативность, визуализация, организационный, совместимость, простой) и сделан их анализ. В методической части подробно анализируются технологии создания инфографики, преимущества и недостатки рекомендуемых программ для их создания. В заключении пишется о эффективности использовния инфографики в образовании.

Annotation: This article presents what infographics are, information about the history of the creation and development of infographics, the creation of the “Concept on the development of infographics”, its theoretical foundations, as well as the types of interactive infographics. Analyzes are given about templates (Visme, Adobe Spark, Canva, Venngage, Snappa, Piktochart, Infogr.am, Power Point, Microsoft Excel, Google Sheets, API and EaselLy) for creating profession-related infographics. The existing principles of infographics are described (briefly and clearly, creativity, visualization, organizational, compatibility, simple) and their analysis is made. The methodological part analyzes in detail the technologies for creating infographics, the advantages and disadvantages of the recommended programs for creating them. In conclusion, it is written about the effectiveness of using infographics in education.

Kalit so‘zlar: infografika, statistic, axborot, xronologik, ierarxik, qiyosiy, geografik, protsessual infografikalar, infografika tamoyillari, infografikani yaratish texnologiyalari, Easel.ly, Piktochart.com, Infogr.am, Visme.

Ключевые слова: инфографика, статистика, информация, хронологическая, иерархические, географические, процессуальные инфографики, принципы инфографики, создание инфографики, Easel.ly, Piktochart.com, Infogr.am, Visme

Keywords: infographics, statistical, informational, chronological, hierarchical, comparative, geographical, procedural infographics, infographic principles, technology for creating infographics, Easel.ly, Piktochart.com, Infogr.am, Visme.

Kirish Infografika (yoki axborot grafikasi) iborasi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, "ma’lumot yoki ma’lumotlarning vizual tasviri" degan ma’noni anglatadi. Shundan kelib chiqib infografika so‘ziga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Infografika - bu yoritilayotgan mavzuning mohiyatini tezda tushunish imkonini beruvchi tasvirlar va diagrammalar to‘plamidir.

O‘ziga xos va ijodiy infografika e’tiborni o’ziga jalb qilganligi sababli eng samarali hisoblanadi. Infografika foydalanuvchilarda nafaqat qiziqish ortirish, balki, bayon qilinayotgan mavzuning mazmunini tushunish va eslab qolishlariga yordam berishi kerak. Hozirgi vaqtda jamiyatimizning har bir sohasiga tegishli bo‘lgan reja, yangilik va taqdimotlarini yoritishda infografikadan foydalanib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili

G.A. Nikulova, A.V.Podobnixlarning olib borgan tadqiqotlariga ko’ra, infografika bo’yicha olib borgan avvalgi tadqiqotchilar [1] qoyatosh rasmlarni infografikaning prototipi[6] deb hisoblab kelishgan. Boshqalar esa, bu nuqtai nazarni rad etib [1], toshdagi rasmlar, xuddi so’zlar kabi ma’lum bir ma’noni anglatgan deb hisoblashgan. Amerikalik psixolog, professor Maykl Fredlining fikricha, infografika XII asrda paydo bo’lib, matematika, geografiya, fizika va astronomiya fanlarining rivojlanishi bilan bog’liq bo’lgan [2].

Buyuk rassom Leonardo da Vinchi o’z tasvirlarida yashirin ma’lumotlarni ko’rsatishga va rasmlarni matn bilan birga qo’shib tasvirlab berishga harakat qilgan. O’zining "Gorizontal aylanish mashinasini yig’ish va ishlatish bo’yicha ko’rsatmalar" (1495 y.) asarida tasvirlangan ob’ektning

[6] **Prototip** (proto ... va tip) — badiiy obraz (tip) ga asos bo‘lgan real shaxs. Avtobiografik va memuar asarlarda, lirika va hujjatli nasrda, shuningdek, portret san’ati va haykal-taroshlikda boshqa janrlardagiga nis-batan kengroq foydalaniladi. (https://uz.wikipedia.org/wiki/Prototip)

ishlash printsipi va maqsadini tushuntirib bergan. Shuning uchun Leonardo da Vinchini “Tushuntirish grafikasining asoschisi” deb hisoblangan [1].

XVII-XVIII-asrlarga kelib statistik ma’lumotlarni taqdim etishda grafik ma’lumotlardan foydalanishga harakat qilindi. Edmund Halleyning “dengiz sathidan balandligiga qarab atmosfera bosimining o’zgarish grafigi” (1686), Iogann Lambertning “tuproq haroratining mavsumiy o’zgarishlar grafigi” (1779) o’sha davrda eng mashhur grafiklar hisoblangan. 1637 yilda fransuz matematigi va faylasufi Rene Dekart jadvallarni vizuallashtirishda grafik yondashuvni rasmiylashtirib bergan[2].

XVIII-asrning o’rtalarida Uilyam Playfer o’z taqdimotida inqilob qildi. U o’zining "Tijorat va siyosiy atlas" kitobida diagrammaning asosiy turlarini kiritdi:

- chiziqli, ustunli, aylana;
- hududlarni rang bilan ajratib ko’rsatish;
- o’zgarishlar va tendentsiyalarni ifodalash uchun chiziqli qiyaliklardan foydalanish;
- ko’rsatkichlarni solishtirish uchun turli o’lchamdagi raqamlardan foydalanish;
- aylanani segmentlarga bo’lish kabi usullarni qo’llab o’tdi[2].

Ingliz hamshirasi Florens Naytingeyl va fransuz muhandisi Charlz Minard Uilyam Pleyfeyring ishini davom ettirgan holda, to‘plangan ma‘lumotlar tahlili asosida o‘z qarashlarini isbotlash uchun diagrammadan foydalandilar. Ular o‘z ishlarida XIX-asrda Angliya va Fransiyaning Rossiya bilan olib borgan urushlaridagi yo‘qotishlarni statistik tahlil qilib berishgan. [3].

Urushdan avval F.Naytingeyl asli tibbiy statistika bilan shug‘ullangan. O‘qishni tugatgandan so‘ng o‘z bilimlarini urush davrida jarohatlangan askarlarning o‘lim sabablarini tahlil qilishda qo‘llagan. Natijalarni grafik ko‘rinishda taqdim etib, kichik qismini oddiy shtrixli grafika, katta qismini esa geometrik shaklda (o’zi o’ylab topgan) tasvirlab beradi. Uni oylarga mos keladigan 12 sektorga bo’lib, yaradorlar, o‘lganlar va boshqalardan iborat sonni rangli segmentlar bilan ajratib aylana diagrammasini yaratadi[4].



2-rasm. F.Naytingeylning yaradorlar bo‘yicha tayorlagan statistikasi

Qurilish muhandisi C.Minard ham grafikaga qiziqqan, nafaqaga chiqqanida tarixiy ma‘lumotlarni tahlil qilishda o‘z mahoratini qo‘llaydi. 1859 yilda u "1812-1813 yillardagi Rossiya bilan urushdagi frantsuz armiyasining yo‘qotishlar xaritasi" nomli mashhur grafikasini nashr etadi[3].

E. A. Baranova [5] infografikaning kelib chiqishini Britaniyaning “The Daily Courant” davriy

gazetasi bilan bog‘laydi, u 1702 yilda Ispaniya qiroli Filipp V ning Kadis ko‘rfaziga tashrifini geografik xarita bilan aks ettirib beradi.

O‘sha yillardan boshlab nashriyotchilar ma‘lumotlarni taqdim etishda yorqin rasmlar va qisqa matnlardan foydalanib, yangi yondashuvni qo‘llashni boshladilar[5].

XIX-asrning o‘rtalariga kelib yangiliklarni vizual tarzda taqdim etadigan jurnalning yangi turi paydo bo‘ldi. "The Illustrated London News" va "L'Illustration" jurnallari birinchi bo‘lib ommaviy auditoriyaga yangiliklarni vizualizatsiya qilish g‘oyasini taqdim etadi.

XX asr 30-yillardan boshlab “Tasviriy axborot” agentligida ham grafika rivojlana boshlaydi, Britaniyalik Garri Bek 1931 yilga kelib London metrosining sxematik xaritasini yaratib beradi.

1982 yilda infografika o‘zining zamonaviy ko‘rinishini ”USA Today” gazetasida namoyon qila boshladi. Uning birinchi muharriri Lauri Demo o‘z gazetasining bosh sahifasiga quyidagi epigraf bilan boshlar edi:”Qiyin tushunilgan axborotni grafika bilan ifodalash vaqti keldi”. Bir necha yildan so‘ng ushbu tamoyil gazetaning mamlakatdagi eng ko‘p o‘qiladigan beshta nashrdan biriga aylandi[5].

Bir qancha boshqa gazetalar “USA Today” yo‘lidan bora boshlashdi, jumladan “New Yorker” va “Esquire” nashriyotlari ham o‘z gazeta, jurnallarida grafikadan foydalana boshlashdi [2].

Infografika sohasidagi birinchi ilmiy tadqiqotlar 20–30-yillarda boshlangan. XX asrda avstriyalik sotsiolog va iqtisodchi Otto Neyrat Isotype yagona grafik tilini yaratish g‘oyasini taklifini beradi. 1936 yilda O. Neyrat o‘zining "International Picture Language, The First Rules of Isotype" kitobida grafik tilning birinchi qoidalarini ifoda etib beradi[3].

O‘sha vaqtlarda Edvard Tufte “Infografikani rivojlantirish kontseptsiyasi”ni yaratganligi uchun “Zamonaviy infografikaning otasi” deb hisoblashgan. O‘z asarlarida taqdimot materiallariga fotosuratlar, xaritalar, kompyuterda yaratilgan tasvirlarni joylash taklifini beradi[4,5].

E.Tufte “Vizual tushuntirishlar: tasvirlar, miqdorlar, dalillar va hikoyalar" asarida nafaqat infografikaning asosiy imkoniyatlarini bayon qiladi, balki jiddiy muammolarni hal qilishda infografikadan foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi[4].

Natijalar

Infografika turlari. Infografika yaratadigon shablonlar (konstruktor) ga quyidagilarni kiritish mumkin: Visme, Adobe Spark, Canva, Venngage, Snappa, Piktochart va Easel.ly. Venngage shabloni bepul infografik yaratuvchi shablonlarni 9 turga bo‘lgan[9]:

3-rasm. Infografika turlari

Infografikaning tamoyillari

Quyida keltirilgan infografika tamoyillari tahlil qilib chiqsak:

1. **Qisqa va “lo‘nda”**

Infografikaning asosiy maqsadi muayyan masala yoki muammoni yoritishdir. Muammoni shunday yoritish kerakki, u grafik tarzda taqdim etilishi lozim, shuningdek, muammoni yechish usullarini qisqa va aniq taqdim etilish kerak bo‘ladi. Ushbu tamoyilga asoslangan “qisqa va aniq infografika”, yanada samaraliroq idrok etishga yordam beradi.

2. Ijodkorlik

Ushbu tamoyilda taqdim etilayotgan infografika afisha (reklama) ko‘rinishida taqdim etiladi. Bunda rasmlar, piktogrammalar va boshqa elementlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa ijodkorlik va o‘ziga xos dizayn ko‘rinishda infografikani ajratib ko‘rsatishga yordam beradi.

3. Vizualizatsiya

Taqdimot faqat matndan iborat bo‘lib qolmasligi uchun vizualizatsiya tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq. Matndan iborat ma‘lumotlar zerikarli va ba‘zan tushunish qiyinchilik tug‘diradi. Taqdimotda geometrik shakllar, grafikalar, diagrammalardan foydalanish ma‘lumotlarni vizuallashtirishga yordam beradi.

4. Tashkilotchilik

Namunali infografikadan foydalanish ixtiyoriy sifatli taqdimotni asosi hisoblanadi. Turli ma’lumot manbalarini solishtirib, olingan ma’lumotlar ob’ektiv va to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish lozim[10]. Agar taqdim etilayotgan ma’lumot noto‘g‘ri tasvirlansa, dizayni kuchli infografika ham ishtirokchilarni o‘ziga jalb qila olmaydi.

5. Muvofiqlik

Infografikaga mos uslub va ko‘rinish taqdim etish uchun muvofiqlik tamoyiliga e’tibor qaratish zarur. Agar jiddiy mavzuga ega infografika yaratilayotgan bo‘lsa, yorqin ranglardan foydalanish to‘g‘ri kelmaydi. Savollarni ma’noli aks ettiradigan mos dizaynni tanlash muvofiqlikni o‘rnatadi.

6. Oddiylik

Vizual elementlar va ma’lumotlar miqdorini oshirib yubormaslik kerak. Juda ko‘p tafsilotlar infografikani tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Aytaylik, yangiliklar sayti uchun infografika tuzish kerak bo‘lsa, ko‘plab grafik elementlardan foydalanish ishtirokchilarni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun taqdimotda oddiylik tamoyiliga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi[11].

Тадкикот методологияси

Infografikani yaratish texnologiyalari. Infografikani yaratishda quyidagi qadamlarni tavsiya etamiz:

Nafaqat tayyor infografikadan foydalanish, balki mustaqil yaratish ham foydalidir. Infografikani yaratish jarayonida mustaqil ravishda kerakli ma’lumotlarni olish va uni mustaqil ravishda qayta ishlash kerak. Faqat asoslarni tizimlashtiribgina qolmay, balki uning natijasini ham vizual tarzda ifodalash lozim.

Infografikaga murojaat qilganda maqsadni aniq qo‘yishimiz kerak. Shuni esda tutish kerakki, infografika materialning mazmuniga qat’iy muvofiq bo‘lishi lozim. Infografikadan foydalanganda turli xil ob’yekt va tasvirlardan foydalanish maqsadga muvofiq emas, sababi, bunday holat ishtirokchlarning e’tiborini chalg‘itadi va asosiy ma’lumotni tushunishiga imkon bermaydi.

Ishni boshlashdan oldin, yaratmoqchi bo‘lgan infografika elementlarini qo‘lda chizib olib, so‘ng dasturni tanlab olishga qaror qabul qilish kerak. Dasturni tanlashda N.V.Kubrak ilmiy maqolasida optimal mezonlarni ajratib ko‘rsatib beradi[12].

MUHOKAMA

Hozirgi vaqtda Power Point dasturi orqali SmartArt grafikasidan foydalangan holda

ma’lumotlarni mos infografikaga joylash mumkindir. Biroq, Easel.ly, Visme, Canva, Piktochart.com va Infogr.am maxsus dasturlardan foydalanib infografikani yaratish qulayroqdir. Quyida maxsus dasturlarni tahlil qilib ko‘ramiz.

Easel.ly dasturining **asosiy afzalliklari:**

- juda katta miqdordagi bepul dizayn shablonlarining mavjudligi (boshqa dasturlarga nisbatan);
- har qanday shablonni o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartirish mumkin: elementlarni olib tashlash yoki qo‘shish, ularning o‘lchamini, joylashuvini, rang sxemasini va hokazolarni o‘zgartirish;
- keng funksionallikka ega;
- yaratilgan infografikani *.jpeg yoki *.pdf formatida kompyuterga saqlash imkoniyati;
- ijtimoiy tarmoqlarda joylash imkoniyati;
- “Drag and drop” texnologiyasidan foydalanish imkoniyati;
- xizmatdan mutlaqo bepul foydalanish imkoniyati mavjudligi[13].

Dasturning kamchiligi:

- statistik ma’lumotlarga asoslangan grafik va diagrammalarni yaratish imkoniyatini yo‘qligidir.

Piktochart.com onlayn dasturi yuqori sifatli, shu jumladan shablonlarga asoslangan infografika yaratish imkonini beradi. Barcha shablonlarni tahrirlash imkoniyatiga ega.

Easel.ly bilan solishtirganda, kengroq funksionallikka ega. Biroq, ushbu dasturni o‘zlashtirish biroz vaqt talab etadi. Tayorlangan infografikani kompyuterga saqlash, veb-saytga joylashtirish yoki ijtimoiy tarmoqlarda baham ko‘rish mumkin.

Infogr.am onlayn dasturi interaktiv elementlarga ega infografika yaratish, bundan tashqari, matn, rasm, video kabi elementlarni qo‘shish imkonini beradi[14].

Ayni vaqtda Infogr.am o‘z funksionalligini faol ravishda rivojlantirmoqda, yaqin kelajakda videoinfografikani yaratish imkoniyati yaratiladi.

Online infografika yaratish **Visme**dan foydalanish ham nihoyatda interaktivlikni oshiradi. 2013 yilda Pojman Taftim va uning jamoasi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, taqdimot, animatsiya, banner, infografika, hisobot, shakl va boshqa vizual kontentlar yaratish uchun mo‘ljallangan platforma hisoblanadi.

Vismening asosiy xususiyatlari: shablon va loyihalarni yaratish, video va audiolarni qo‘llab quvvatlash, materiallarni HTML5 formatida yuklab olish, diagramma va infografik ob’ektlarni yaratish hisoblanadi[15].

Vismeda siz kataloglarni boshqarish, fayllarni yuklash (JPG, PDF, HTML) imkoniyatlariga ega bo‘lasiz.

Vismening o‘ziga xos xususiyatlaridan biri “harakatdagi infografika” bo‘lib, u foydalanuvchilarga animatsion infografika yaratish imkonini beradi.

Boshqa vizualizatsiya vositalaridan farqli o‘laroq, Visme foydalanuvchilarga maslahat, havola va videolar kabi interaktiv elementlarni yaratishga imkon beradi.

Foydalanuvchilar uchun turli manbalardan ma’lumotlarni, jumladan Google Sheets, Microsoft Excel va hatto API orqali jonli ma’lumotlarni import qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan yagona dastur hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda 2023 yil holatiga ko‘ra, Vismedan 120 mamlakatda 5 milliondan ortiq foydalanuvchi foydalanib kelmoqda[16].

Xulosa

Shunday qilib, infografika - bu imkon beradigan zamonaviy o‘qitish faolligini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan o‘quv ma’lumotlarni yaxshi o‘zlashtirish, qobiliyat va pozitsion fikrlashni shakllantirish uchun tasvir va diagramma to‘plamidir. Yuqoridagi tavsiya etilgan tamoyil, texnologiya va dasturlardan foydalanib, mutaxassisliklarga mos infografikalar yaratilsa, hamda

o‘quv jarayonida qo‘llansa bo‘lajak mutaxassis kadrlar tayyorlash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Фролова М. А. История возникновения и развития инфографики // Вестник ПГГПУ. Информационные компьютерные технологии в образовании. 2014. Вып. 10. С. 135–145.

2. Черняк Л. Инфографика: от истоков к современности // Открытые Системы. СУБД [Электронный ресурс]: журнал о проектировании, создании и эксплуатации информационных систем. 2013. № 5. Режим доступа: http://www.osp.ru/os/2013/05/13036001 (дата доступа: 24.09.2016).

3. Friendly M. A Brief History of Data Visualization // Psychology Department and Statistical Consulting Service York University. 2006. 43 p.

4. Newsom D., Haynes J. Public Relations Writing: Form & Style. Cengage Learning, 2010. 448 p.

5. Баранова Е. А. Все, что вы должны знать, если хотите развивать инфографику на газетном сайте // Электронный научный журнал МГУ им. М. В. Ломоносова «Медиаскоп» [Электронный ресурс]. 2013. № 4. Режим доступа: http://www.mediascope.ru/node/1435 (дата доступа: 25.09.2016).

6. Cairo A. The Functional Art: An introduction to information graphics and visualization. New Riders, 2012. 384 p.

7. Лаптев В. В. Изобразительная статистика. Введение в инфографику. СПб.: Эйдос, 2012. 180 с.

8. Ларот Т. Инфографика: вместо тысячи слов // Журналист [Электронный ресурс]: электронный журнал. 2013. № 5. Режим доступа: http://journalist-virt.ru/2010-03-02-21-17-40/80-anons/3859- zhurnalist-052013 (дата доступа: 24.09.2016).

9. Ермолаева Ж. Е., Герасимова И. Н., Лапухова О. В. Инфографика как способ визуализации учебной информации // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2014. – № 11 (ноябрь). – URL: http://e-koncept.ru/2014/14302.htm.

10. Бокарева Ю. С., Романовская В. Е. Инфографика как современное средство коммуникации // Вісник ХДАДМ. Теорія та історія дизайну. 2014. С. 13–16.

A.Toshxonov
p.f.b. PhD, dotsent v.b.
University of Business and Science

RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA KURSINI O‘QITISHNING ILMIY METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani o‘qitish muammolarini turli yo‘nalishlarda o‘rgangan olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf matematika kursini o‘qitishni modernizatsiya qilish bo‘yicha nazariy tadqiqotlar natijalari umumlashtirilgan va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv faoliyati sub’ektiga aylanishiga qaratilgan rivojlantiruvchi ta’lim asosida matematikaning boshlang‘ich kursini ishlab chiqish va nazariy jihatdan asoslash haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *rivojlantiruvchi ta’lim, fanlararo aloqa, gumanistik ta’lim, paradigma, kontseptual asoslar, matematika, geometrik tushunchalar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются научные работы ученых, изучавших*

проблемы преподавания математики младшим школьникам на разных направлениях. Обобщены результаты теоретических исследований по модернизации преподавания курса математики начальной школы и отмечено развитие курса начальной математики на основе развивающего обучения, направленного на учителей начальной школы как субъектов учебной деятельности и его теоретическое обоснование.

Ключевые слова: *развивающее обучение, междисциплинарная коммуникация, гуманистическое образование, парадигма, концептуальные основы, математика, геометрические понятия.*

Abstract. *This article analyzes the scientific works of scientists who have studied the problems of teaching mathematics to elementary school students in various perspectives. It summarizes the results of theoretical studies on the modernizing the teaching of the elementary school mathematics curriculum and discusses the development and theoretically justification of this curriculum based on developmental education, aimed at transforming them into subjects of educational activities of elementary school teachers.*

Key words: *developmental education, interdisciplinary communication, humanistic education, paradigm, conceptual foundations, mathematics, geometric concepts.*

Kirish. O‘qituvchilar, ota-onalar va umuman jamoatchilikning rivojlantiruvchi ta’lim g‘oyalariga bo‘lgan qiziqishi juda tushunarli va tabiiydir, chunki ta’lim, birinchi navbatda, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi jarayon, fuqarolarning ijtimoiy belgilangan maqsadlari va ta’lim ehtiyojlariga muvofiq shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida qaralayotgan bir vaqtda, zamonaviy boshlang‘ich maktab modernizatsiya va mazmun yangilanishining navbatdagi bosqichida turibdi. D.B.Elkonin, V.V.Davidov va ularning izdoshlari talqinida rivojlantiruvchi ta’lim tizimi rivojlanish haqidagi an’anaviy qarashlarni va uning ta’lim bilan aloqasini tubdan qayta ko‘rib chiqish, nafaqat o‘quvchining ma’lum bir bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar yig‘indisini o‘zlashtirishiga, balki uning faoliyatning har xil turlari va shakllarining sub’ekti bo‘lishiga qaratilgan mutlaqo yangi ta’lim tizimini qurish imkoniyatini asoslash bilan bog‘liq.

V.V.Davidov, A.K.Dusavitskiy, V.V.Repkin, D.B.Elkoninlarning nazariy va eksperimental tadqiqotlari ta’lim tizimining asosiy xususiyatlarini qayta ko‘rib chiqishga imkon berdi, bu yerda asosiy maqsad shaxsni tarbiyalashdir va “tarbiya namunalari tashqaridan o‘rnatilmaydi”, balki o‘quv fanlarini o‘zlashtirish jarayonida nafaqat ma’lum bir shaxsni, balki “bolaning hayot faoliyati tizimidagi asosiy ma’lumot guruhi sifatida” (A.K.Dusavitskiy) namoyon bo‘luvchi butun sinfni ham o‘z-o‘zini o‘zgartirishini ta’minlovchi hamkorlik shakllari orqali amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani o‘qitish muammolari turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan: matematik ta’limdagi islohotlar munosabati bilan arifmetikani o‘qitishning yangi usullarini izlash (Y.M.Kolyagin, L.M.Korotkova); boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani o‘qitishni baholash va samaradorlik mezonlari (O.L.Anufriyeva, T.P.Kucher, V.V.Siyakov); boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda turli usullardan foydalanish samaradorligi (tadqiqiy - T.N.Baybara, individual va jamoaviy shakllarning uyg‘unlashgani - V.A.Vixrush, guruhlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan shakllar - Y.S.Zadaya, Y.V.Kuzmina).

Quyidagi masalalarda tadqiqotning umumiy mazmuni ishlab chiqilgan:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini shakllantirish (F.G.Bodanskiy, F.V.Varegina, I.V.Gaydamakina, V.V.Davidov, A.K.Dusavitskiy, K.A.Zagorodnix, O.B.Yepisheva, J.O.Kanevskaya, A.A.Papishev, V.V.Repkin, V.V.Rubtsov, V.I.Slobodchikov, N.P.Faustova, S.E.Sareva, G.A.Sukerman, D.B.Elkonin, H.A.Yankovskaya)[2, 3, 4, 7];
- aqliy harakatlarni rivojlantirish (L.H.Butivshenko, V.V.Davidov, A.Z.Zak, A.B.Ilyasova, A.I.Martinova, V.V.Repkin, N.G.Salmina, N.F.Talizina, I.V.Titova, E.H.Shilova) [2, 3];
- darsni tashkil etishda yosh xususiyatlarini hisobga olish (N.I.Baglayeva, N.U.Bikbayeva,

L.G.Kolomiychenko, B.A.Saylibaev, N.Z.Chalabgiv);

- maktabgacha yoshdagi bolalar, boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan matematikaning ayrim masalalarini o‘rganishda uzluksizlik (G.V.Voiteleva, Y.A.Konobeyeva, T.K.Ospanov, L.G.Peterson);

- fanlararo aloqalardan foydalanish (C.B.Tadiyan, V.T.Plitteu, O.S.Snisarenko);

- o‘quv va kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish (R.B.Basangova, O.G.Bochkovskaya, B.K.Dabilova, Z.V.Druz, A.K.Dusavitskiy, G.I.Kobernik, A.K.Markova, A.F.Obuxova, A.Y.Savchenko, E.S.Silnova);

- ta’limiy va o‘yin faoliyatlarining o‘zaro bog‘liqliklari (J.V.Arutyunyan, V.A.Krutiy, M.I.Mikitinskaya, G.A.Sukerman, T.M.Chebotarevskaya, N.K.Shabalina, D.B.Elkonin).

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaga qo‘yilgan vazifalarni hal etish va farazni tekshirib ko‘rish uchun o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi quyidagi metodlar to‘plami ishlatilgan: tadqiq qilinayotgan muammo, o‘qitish metodlari sohasidagi yangi yo‘nalishlar, matematika boshlang‘ich kursining mazmunini loyihalash maqsadida nazariy masalalarni ko‘rib chiqish bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni qiyoslash va taqqoslash uchun tahlil usullari (qiyosiy, retrospektiv); empirik usullar: o‘quvchilarning matematik tayyorgarligi, ularning rivojlanishi, o‘quv faoliyatining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun prognostik (ekspert baholari, mustaqil xususiyatlarni umumlashtirish), diagnostik (anketa, so‘rovnoma, intervyu, test, suhbat, dialog, munozara), observativ (kuzatish, o‘z-o‘zini kuzatish, reyting usuli, o‘z-o‘zini baholash); ishlab chiqilgan dastur va darsliklar bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani o‘qitish samaradorligini aniqlash uchun pedagogik eksperiment; matematik statistika usullaridan foydalangan holda empirik ma’lumotlarni miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan.

Tahlillar va natijalar. Yangi ta’lim g‘oyalari zamonaviy uslubiy talablarga javob beradigan yangi darsliklarni yaratishni taqozo etdi. Darslik nazariyasi didaktikada ishlab chiqilgan bo‘lib, unda darslikka qo‘yiladigan asosiy, ya’ni psixologik, mantiqiy, lingvistik, uslubiy, didaktik, estetik, poligrafik, gigienik va iqtisodiy talablar belgilab qo‘yilgan. Boshlang‘ich sinflar uchun matematika darsliklarida o‘quv materiallarini tashkil etish masalalari L.Y.Chosik, M.Dukart va boshqalarning asarlarida ko‘rib chiqilgan.

Matematikani o‘qitishning ishlab chiqilgan tizimlarini tahlil qilish ulardagi asosiy yondashuvlarni aniqlashga imkon beradi: faoliyatga qaratilgan yondashuv (S.F.Gorobov, N.B.Istomina, A.A.Okunev), o‘quvchilar tomonidan harakatlarning indikativ asoslaridan foydalanish (M.B.Volovich), topshiriqli yondashuv (R.G.Xazankin) gumanitar yo‘naltirilganlik (G.V.Dorofeev, G.K.Muravin, L.G.Peterson, T.A.Ivanova va boshqalar), o‘quv materialining didaktik tuzilishini qayta tuzish (P.M.Erdniyev), mashg‘ulotlar tizimini tashkil etishning noan’anaviy shakllaridan foydalanish (R.G.Xazankin, A.A.Okunev), maqsadlar, mazmun va o‘qitish usullarini loyihalashga texnologik yondashuv (T.A.Ivanova). Ushbu yondashuvlar turli xil pedagogik tizimlarda, shu jumladan an’anaviy tizimlarda ham qo‘llaniladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich matematik ta’lim metodikasi sohasida amaliy va ilmiy-tadqiqot faoliyatining boy tajribasi mavjud, ammo u ajralmas uslubiy tizimni tashkil etmaydigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirish muammosining ayrim jihatlarini yoritadi. Bu, birinchidan, o‘quv materiali mazmuniga kiritilgan g‘oyalar o‘qitish metodikasiga proyeksiya qilinmasligiga, ikkinchidan, boshlang‘ich va yuqori sinflarda matematik tushunchalarni o‘rganish o‘rtasidagi tafovutning chuqurlashishiga olib keladi. Mavjud o‘qitish mazmuniga individual savollar kiritilgan yoki chiqarib tashlangan bo‘lsa (masalan, to‘plam nazariyasi, matematik mantiq, kombinatorika elementlari va boshqalar), matematikaning boshlang‘ich kursini modernizatsiya qilishni ekstensiv yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydi.

Maktab matematik ta’limini modernizatsiya qilish bo‘yicha nazariy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining amaliy tajribasi bir qator qarama-

qarshiliklarni aniqlash imkonini berdi, xususan, quyidagilar o‘rtasida:

- strategik planda gumanistik ta’lim paradigmasini amalga oshirishga yo‘naltirilgan maktab matematik ta’limini tashkil etishning yangi amaliyotini yaratishga jamiyatning talabi va boshlang‘ich matematik ta’lim mazmunining bilimga yo‘naltirilgan paradigmasiga an’anaviy bog‘langanlikni saqlanib qolishi;

- D.B.Elkonin, V.V.Davidovlar tomonidan rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasining mavjudligi va uni o‘quv fanini joriy etish orqali amalga oshirish uchun ajralmas ilmiy-uslubiy tizimning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

- o‘qituvchilarning rivojlantiruvchi ta’lim tizimiga muvofiq ishlashga bo‘lgan ehtiyojlari va istaklari hamda zarur o‘quv-uslubiy ta’minotning yetarli darajada emasligi;

- matematikani o‘rganishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshga doir qobiliyatlari va olingan bilimlardan real amaliyotda to‘liq foydalanmaslik;

- o‘quv faoliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan, zamonaviy rivojlantiruvchi maqsadlarga javob beradigan boshlang‘ich sinflar uchun matematika bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualarning mavjudligini hisobga olgan holda, rivojlantiruvchi ta’lim tizimini joriy etish zarurati va fan bo‘yicha an’anaviy bilim olish komponentiga ustuvor ahamiyat berilgan mavjud o‘quv-uslubiy majmualar.

Ushbu qarama-qarshiliklarni hal qilish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi, xususan:

- Boshlang‘ich sinflar uchun yangi matematika darsliklari qanday bo‘lishi kerak?

- Boshlang‘ich matematikaning yangi kursi mazmunining nazariy asosini qanday ilmiy yondashuvlar tashkil qilishi kerak?

- Qaysi uslublar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirishning metodik tizimini joriy etishni ta’minlaydi?

Shunday qilib, ilmiy va amaliy ehtiyojlar D.B.Elkonin - V.V.Davidovlarning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasining mavjudligi va uni aniq bir fan hamda unga kerakli o‘quv-metodik majmuani yaratishning umumiy ilmiy-metodik tizimining yo‘qligi o‘rtasidagi asosiy ziddiyatni hal qilishdan iborat bo‘lgan mazkur tadqiqot muammosini shakllantirishga imkon beradi.

Xulosa. Agar boshlang‘ich sinflar uchun matematika kursi mazmunini loyihalashda ta’lim standarti, matematik tushunchalarning tizimni shakllantiruvchi aloqalari, materialni o‘rganishdagi mantiq, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlari kabi shartlar hisobga olinsa; o‘qitish maqsadlarini rivojlantiruvchi ta’lim maqsadlari bilan o‘zaro bog‘lansa; matematikani o‘qitishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllarida o‘quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalash g‘oyasini yuqori darajada oshirish, matematik tushunchalarni shakllantirishning metodik tizimini loyihalashtirishni esa strategik o‘quv va o‘quv-amaliy vazifalar ketma-ketligi orqali amalga oshirilsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini shakllantirishni va sifat jihatidan yangi darajadagi matematik bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’minlay oladigan rivojlantiruvchi ta’lim tizimi bo‘yicha matematikani o‘qitish kursini yaratish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi, predmeti, muammosi va gipotezasi uchta eng asosiy vazifalar guruhini aniqlashga yordam berdi:

Vazifalarning birinchi guruhiga matematika boshlang‘ich kursini loyihalashning kontseptual asoslari va uni rivojlantiruvchi ta’lim tizimida amalga oshirish bilan bog‘liq vazifalar kiradi.

Ikkinchi guruh vazifalariga rivojlantiruvchi ta’lim tizimida matematika boshlang‘ich kursining mazmuniy qismini loyihalash va uni amalga oshirish bilan bog‘liq vazifalar kiradi.

Uchinchi guruhga protsessual komponentni loyihalash va uni amalga oshirish, shuningdek sinov-tajriba ishlariga kiritilgan o‘quv-uslubiy majmuaning natijalarini tahlil qilish bilan bog‘liq vazifalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergasheva M. “Bolajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni rivojlantiruvchi ta’limni amalga

oshirishga tayyorlash nazariy asoslari, rivojlantiruvchi ta’lim pedagogik-psixologik muammo sifatida” TDPU “Ilmiy axborotnomalari” 2022 yil.

2. Давыдов В.В. Психологическая теория учебной деятельности и методов начального обучения, основанных на содержательном обобщении. - Томск: «Пеленг», 1992. - 133 с.

3. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - М.: ИНТОР, 1996.-544 с.

4. Дусавицкий А.К. Развивающее обучение: теория и практика: Статьи. - Харьков, 2002. - 146 с.

5. Знаменская Е.В. Об изучении геометрического материала в I-VI классах // Начальная школа. - 2005. - № 5. - С. 75-79.

6. Хуторской В.А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2 0 0 3 . - № 2 . - С . 58-64.

7. Царева СЕ. Нестандартные виды работы с задачами на уроке как средство реализации современных педагогических концепций и технологий // Начальная школа. - 2004. - № 4. - С 49-56

N.Kambarov
Dotsent v.b, p.f.f.d (PhD).
University of Business and Science

BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘UVCHILARNI BORLIQNI VA SAN’ATNI IDROK ETISHGA O‘RGATISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida borliqni va san’atni idrok etishga o‘rgatib borish lozim. Unda musavvirlari asarlari bilan tanishish, taxlil qilish, ularni idrok qilish va estetik zavq olish orqali ma’naviy tarbiyalab boriladi. Shu bilan birga borliqni, tabiatni va hayvonot va nobodot olami bilan tanishtirish, ijtimoiy hayotni anglashga o‘rgatib boriladi. Tasviriy san’at asarlari va borliqni taxlil qilish va ta’lim-tarbiya jarayonlarida foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan. Bu orqali bolalarda tasviriy san’ati va atrofimizdagi olamga bo‘lgan qiziqish va muhabbatlarini uyg‘otish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi.*

Tayanch so‘zlar:. *tasviriy san’at, musavvir, borliq, ta’lim-tarbiya, milliy qadriyatlar, asarlarini taxlil qilish, jarayonlar, vazifalar, atrofimizdagi olam, san’atni idrok etish.*

Аннотация: *В данной статье необходимо обучать восприятию бытия и искусства на уроках технологии начального класса. Он обеспечивает духовное образование через знакомство с произведениями художников, анализ, восприятие и эстетическое удовольствие. В то же время их знакомят с существованием, природой, животным и нечеловеческим миром, а также учат понимать социальную жизнь. Показаны методы анализа и существования изобразительных произведений и их использования в образовательном процессе. Благодаря этому решаются такие важные задачи, как пробуждение у детей интереса и любви к изобразительному искусству и окружающему миру.*

Ключевые слова: *изоброзительное искусство, художник, существование, образование, национальные ценности, анализ произведений, процессы, задачи, восприятие окружающего мира, искусство.*

Annotation: *In this article, it is necessary to teach the perception of existence and art in the technology lessons of the primary class. It provides spiritual education through acquaintance with the works of artists, analysis, perception and aesthetic pleasure. At the same time, they are introduced to existence, nature and the animal and non-human world, and are taught to understand social life. The methods of analysis of visual works and existence and their use in educational*

processes are shown. Through this, important tasks such as awakening children's interest and love for fine art and the world around us are carried out.

Key words: visual art, artist, existence, education, national values, analysis of works, processes, tasks, perception of the world around us, art.

Kirish. Yurtimizda texnologiya ta’limi faniga va bolalar ijodkorligi, intelektual salohiyatlariga katta e’tibotr qaratilmoqda. O‘quvchi-yoshlarimizni har tomonlama bilimli, salohiyati, vatanparvar, ma’nan yetuk bo‘lib tarbiylanishlarida texnologiya ta’limining o‘rni beqiyosdir. O‘quvchi-yoshlar bunday mas’uliyatli vazifani bajarish uchun ularning erkin ijodiy faoliyatini yaratish, san’at va borliqni idrok etishga o‘rgatish, san’at asarlarini o‘rganish va taxlil qilish, shu bilan birga tabiatdan estetik zavq olish tabiiy ashyolaridan asarlar yaratish hamda uni asrab avaylash kabi muhim vazifalarni bajarish darkor. Xaqiqatan ham hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlarida san’at va borliqni idrok etishga o‘rgatishdek muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologıyası. Maqolada o‘quvchilarni san’ati turlari, janrlari hamda borliqdagi barcha narsalar bilan tanishtirish va uning go‘zalliklaridan baxramand bo‘lish, anglash, estetik zavq olish, har bir san’at asarini, borliqdagi jarayonlarni organib borish va taxlil qilaolishga qaratilgan vazifalar muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarni san’at asarlarini va borliqni o‘rganish, idrok qilish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida foydalanish, rasmlar orqali manzaralari, tarixiy voqealar (tarixiy janr), ijtimoiy hayothi o‘rganish va rivojlantirish mezonlari tahlili qilindi va mezonlar bilan solishtirildi.

Olingan natijalar, tahlillar va qarashlar. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya faniga tayyorlash dasturi o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, axloqiy va estetik kamol toptirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo lib, o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:

- bolalarni mehnat tajribasini, ularni kishilar ishlab chiqarish faoliyati to‘g‘risidagi bilimlarni kengaytirish, mehnatsevarlikka, mehnat va mehnat kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;
- mehnat malakasi, mehnat madaniyatini, o‘z ishi va o‘rtoqlarning ishini rivojlantirish va tashkil qilish malakalarni rivolantirish;
- o‘quvchilarni turli kasblarga yo‘llash va hunar egasi bo‘lishi;
- san’at va borliqni idrok etishga o‘rgatish;
- milliy qadriyatlarga asoslangan, ijodkor, zamonaviy yoshlarni tarbiyalash;
- o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish.

Borliqni idrok etishga qaratilgan vazifalarga bolalarning sinfdan tashqari ish turlariga yer uchastkasida, jumladan, ekinzorda, gulxonada, mevazorda ishlash, shuningdek, tabiat burchagida o‘simliklarni parvarish qilishlar kiradi. Bolalar shularga tegishli ish usullarini o‘rganadilar, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi haqida ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Tabiat qo‘ynidagi mehnat bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik,tabiatni sevish, Vatanimiz boyligini yaratish va uni ko‘paytirish, jonli narsalarga, mehnat natijalariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni o‘rgatish maqsadida amalga oshiriladi.

O‘simliklarni o‘stirish va jonivorlarni parvarish qilish bo‘yicha mehnat, ularni tabiat burchagida parvarish qilishni, ekinzor tashkil etish va sabzavotlarni o‘stirishni, gulxona tashkil etish va gullarnio‘stirish, o‘simlik va mevali daraxtlarni parvarish qilishni o‘z ichiga oladi.

Tabiat burchaklaridagi qushlar, akvariumdagi baliqlarni parvarish qiladilar va jonivorlar haqida ma`lumotlarga ega bo‘ladilar. Tabiat burchagidagi va uchastkadagi jonivorlar va o‘simliklarni parvarish qilish bo‘yicha eng muhimlari sifatida quyidagi mehnat jarayonlarini ajratib ko‘rsatish kerak. Bunday faoliyat orqali o‘quvchilarni borliqni idrok etishga qaratilgan vazifalar

amalga oshiriladi.

Ekskursiya - bilishga qiziqishni avj oldirishda, o‘quvchilarga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o‘rinni egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o‘tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, us yanada samaraliroq bo‘ladi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar tabiat olami va ishlab chiqarish o’bektlalari, san’at asarlari bilan yaqindan tanishadilar. Ular borliqdagi go‘zalliklar va sanat asarlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar hamda estetik zavq olib idrok etadilar. Ekskursiyadan so’ng savol-javob o‘tkazish lozim. Guruhlardan biri ekskursiyadan so‘ng albomni jihozlaydi, yigiruv tsexini eng yaxshi ishchilarini yozib chiqadi, rasmlar chizadi, ikkinchi guruh toqishning texnologik jarayonini yozadi, uchunchi guruh ishni bo’yash bo’limida olib boradi va hokazo.

Tabiat qo‘yniga sayohat jariyonida o‘quvchilar rangli toshlar, shoxlar, barglar, mevalar urug‘larini yig‘dilar va ulardan ijodiy ishlar tayyorlaydilar.

O‘quvchilar tabiatdagi ranglarni, daraxtlar, gullarnngi go‘zalliklari, fasllar almashunuvi va undagi ranglarning o‘zgarishi kuzatadilar va ulardan zavq oladilar.

Yaponiyada ota-onalar sakura daraxti gullaganda farzandlari bilan, o‘qituvchilar o‘quvchilari bilan tomosho qilgani va undan estetik zavq olgani boradilar. Binobarin yurtimizda ham chiroyli gullaydigan daraxtlar juda ham ko‘pki bizlar ham shunday estetik zavq olishimiz lozim.

Maktabda tasviriy san’at va texnologiya mashg‘uotlarining vazifalari haqida to‘xtalganda, ularni, shartli ravishda, ikki qismga bo‘lishimiz mumkin.

1. Tasviriy san’at va texnologiya darslarining o‘ziga xos, maxsus vazifalari:

a) borliqdagi va san’atdagi go’zalliklarni ko‘ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o‘rgatish;

b) estetik va badiiy didni o‘stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san’atning nazariy asoslari (yorug‘-soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish;

v) rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko‘rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish;

g) tasviriy, amaliy me’morchilik san’at asarlarini tushungan holda o‘qiy olishga o‘rgatish; san’atga nisbatan qiziqish uyg`otish, uni qadrlashga, sevishga o‘rgatish. 2.Tasviriy san’at darslarining qo‘shimcha vazifalari:

a) borliqni, hayotni bilishga ko‘maklashish; milliy g‘urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal);

b) mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish;

v) bolalarni turli kasb va hunarlarga yo‘llash.

Tasviriy san’at va texnologiya o‘quv fanining maqsadi va vazifalari haqida to‘xtalganda yana shuni qayd etish lozimki, u maktabda o‘qitiladigan deyarli barcha o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘lanadi va ular yuzasidan materiallarni o‘zlashtirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, u adabiyot, psixologiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, texnologiya darslarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Darslarda xalq amaliy san’ati bo‘lmish naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, zardo‘zlik, me’morlik, duradgorlik, zargarlik san’atlari bilan tanishtirish.

Tasviriy san’atning miniatyura, grafika, rangtasvir, qalam tasvir kabi turlari hamda portret, manzara, anomalistik, maishiy, tarixiy janrlari bilan tanishishlari kerak.

Har qanday o‘quv predmeti ta’lim mazmunida, albatta, o‘zbek xalqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma’naviy merosni o‘ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o‘zbek xalqining dunyoga mashhur bo‘lgan m’morchilik, amaliy va tasviriy san’at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o‘rgatilishi talab etadi. Shu bilan birga maktablarda

ta’lim mazmunining viloyat va shaharlar bo‘yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Chunki, O‘zbekistonning viloyat, shahar, hattoki, qishloqlarida amaliy san‘at va me’morchilikning rivojlanishida o‘ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Rishton, Shahrisabz, Nurota, Marg‘ilon, G‘ijduvon, Urgut, Xo‘jayli va boshqa shaharlarning san’atida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

O‘quvchilarga xalq amaliy san‘ati namunalari ko‘rsatiladi, ularning shakl va ranglarini tahlil qilib beriladi. O‘quvchilar o‘zbek va qardosh xalqlarning naqshlarini kuzatish va o‘rganish orqali ularning shakl va ranglaridagi go‘zalliklarni, shakl va rasm ranglarining garmonik birligini tushunadigan bo‘ladilar. Ming yillar mobaynida ustadan-ustaga, qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, har jihatdan takomillashib, go‘zallashib borgan xalq san’ati namunalari bolalarni xayratga soladi va ularda tajribali ustalar kabi ifodali amaliy san’at asarlari yaratish ishtiyoqi paydo bo’ladi. Gullar, hayvonlar va parandalarni natura sifatida kuzatish va tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi ularning tuzilishidagi shakl, rang, o‘lchovlari, harakatlaridagi nafosatni qayd qiladi. O‘quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo‘laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to‘lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo‘lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil parvozi, bahorgi va kuzgu manzaralarning chiroyi, manjuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarining kechki miltillab ko`rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday estetik his-tuyg`uning o‘sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolalarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya’ni “xushbichim”, “quvonchli”, “bayramdagidek” ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O‘qituvchi san’atshunoslik asoslari darslarida o‘lkamiz tabiati, halqimizning fidokorona mehnati, buyuk ajdodlarimizning mustaqillik uchun qahramonona kurashi kabi mavzularda yaratilgan ko‘plab asarlarni namoyish etish va tahlil qilish jarayonida ularga san’atni, borliqni va ijtimoiy hayotni idrok etishga o‘rgatadi. Bu borada rassomlardan O‘.Tansiqboev, N. Karaxan, A. Mo`minov, L. Salimjonova, I.Jabborov, Ch. Axmarovlarning yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o‘lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o‘rganadilar va ularni o‘z ishlarida tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo‘ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Borliqni idrok etish mashg’ulotlarida kompozitsiyaga oid tegishli muhim ob’ektlarni yaxshilab kuzatadilar. Borliqni to’laqonli idrok etish, tevarak-atrofni, hayotdagi voqea va hodisalarni bevosita kuzatish asosida olingan taassurotlar, tushunchalar hamda atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatda bo’lish bilan bog’liqdir.

Boshlang‘ich sinflarda o’quvchilar o‘simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko‘rinishlari, kayfiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladilar va ularni tasvirlaydilar. Mazkur bo‘limning maqsadi o‘quvchilar tomonidan san’at asarlarini ongli idrok etish va baholash, uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushunishga yordam berishdan iborat.

Badiiy obrazni idrok etish malakalarini rivojlantirish-san’at asarlarini o‘rganishning asosidir. O‘quvchilar asar haqida mulohaza yuritib, idrok etishni, uning mazmunini maxsus terminlarni qo‘llagan holda so‘zlab berishni bilishlari lozim.

San’atni idrok etishga 1-4 sinflarda maxsus soatlar ajratilmaydi. U turli materiallar bilan ishlash, rangtasvir kompozitsiyasi, naturaga qarab tasvirlash mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. 3-sinfdan boshlab esa san’atni idrok etish bo’yicha maxsus darslar tashkil etiladi.

Texnologiya va tasviriy san’at ijodiy ishlar jarayonida o‘z vazifalarini bajara natijasida

bolalarga quvonch va ko‘tarinkikayfiyat olib keladi, ularning badiiy ijodiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda texnologiya va tasviriy san’at ta’limi jarayonlarida rassomlari hayoti hamda ijodi bilan tanishtirish, yaratgan asarlari va ijod foyalitini keng o‘rganilishi muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Rassomlari o‘z atrofini o‘rab turgan ijtimoiy borliqdan olgan o‘ta boy va rang-barang ijod namunalarini qoldirdilar va qoldirmoqdalar. Texnologiya va tasviriy san’at darslarida borliqni ham idrik etish, tabiat go‘zalliklaridan bahramahd bo‘lish, rassomlar asarlarini o‘rganish, idrok qilish, davom ettirish yosh avlodnig burchi bo‘lishi lozim. Bu esa sanatlarga, qolaversa borlikdagi go‘zalliklarga bo‘lgan e’tibordir.

Boshlang‘ich sinf texnologiya va tasviriy san’at fani o‘qituvchisi oldiga musavvirlar hayoti va ijodi chuqur o‘rganish hamda tarbiya jarayonlarida foydalanish, idrok etishga o‘rgatish vazifasini qo‘yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Madraimova, N.Normatov. Sharq miniatyura maktablari (maqolalar to'plami)
2. Abdullaev N.U. “San’at tarixi” elektron o‘quv qo'llanma 2005.
3. Орифжаноф Н. “Ўзбекистон тасвирий санъати тарихига тазар”, Т., 1997.
4. A. Madvaliyevtahririostida. Toshkent. "O‘zbekistonmilliyensiklopediyasi" Davlat ilmiynashriyoti, 2006-2008.
5. https://www.uzbekscholar.com
6. https://www.Ru.m.wikipedya.org

N.Ismadiyorova
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi,
Andijon davlat pedagogika institut

Xalqaro tadqiqotlarda ko‘nikmalarning darajalari haqida

Annotatsiya. Ushbu maqdolada Xalqaro tadqiqotlarda ko‘nikmalarning darajalari haqida va ushbu daralarga muvofiq maktab o‘quvchilaridan talkab etiladigan ko‘nikmalar tasnifi berilgan. Shuningdek, maqolada ushbu darajalarni o‘zida aks ettirgan topshiriqlar, uni ishlash yo‘llari va javoblari taqdim etilgan.

Kalit so‘z. Anglash, talqin etish va ta’riflash, eydetik xotira, yaxlit matn va yaxlit bo‘lmagan matn.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida Milliy markaz tomonidan “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash” qo‘llanmasi ishlab chiqildi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tomonidan “Axborotnoma”ning turli sonlari nashr etildi. Sh. Abduraimovning “Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari” va K. Mavlonovaning “Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish metodikasi” nomli ilmiy ishlarida, K. Jalilovning “Baholash nazariyasi asoslari” nomli qo‘llanmasi,maqolamizning asl mohiyatini ochib berishga qaratilgan yo‘nalish o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot metologiyasi. Rossiyalik mutaxassis G.Kovaleva fikricha, tadqiqotlarda “yaxshi natijalar ko‘rsatish uchun 2 maqsadga ega bo‘lish kerak: birinchisi, o‘qituvchilar va ular ishlaydigan, foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir. Ikkinchisi, o‘qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta’lim jarayonida o‘qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o‘zgartirish zarur” [1]. Materiallar tayyorlash haqida gap borar ekan, PISA tadqiqoti haqida bilim va tushunchaga ega bo‘lish, uning baholash mezonlari, topshiriq turlari va namunalari bilan o‘qituvchilarni tanishtirish, shuningdek, ta’minlashni nazarda tutadi. Ikkinchi maqsad esa salmoqli bo‘lib, o‘quv dasturi va darsliklarni o‘zgartirishni ta’lim mazmunini jahon ta’lim standartlari asosida ishlab chiqishni va ta’limda yangi o‘qitish metodikasini taklif etishni nazarda tutgan. Xususan, ushbu jarayonlar to‘laqonli amalga oshirilsagina, tadqiqotlarda yaxshi natijalarga erishish mumkin. G.Kovaleva Rossiya ta’lim tizimida uzoq muddat ijodkorlik faoliyatini tashkil etishga e’tibor berilmaganini ta’kidlaydi. Masalaning yana bir tomoni shundaki, ushbu holat O‘zbekiston ta’lim tizimida ham mavjud. Bu til ta’limida grammatikaning ustunligi, ko‘nikmalarga asoslanmaganligi va yod olishga tayanilganligi, shuningdek, ijodkorlik, kreativlik, fikrlashning mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Tahlillar va natijalar

1-jadval

Tadqiqotda ilk marotaba ishtirok etgan mamlakatlar ko‘rsatkichi [2]

T/r	Ishtirokchi mamlakat nomi	O‘qish savodxonligi		Matematik savodxonligi		Tabiiy savodxonlik	
		O‘rni	Balli	O‘rni	Balli	O‘rni	Balli
1	O‘zbekiston	80	336	72	364	80	355
2	Kambodja	81	329	81	336	81	347
3	Mongoliya	65	378	47	425	53	412
4	Salvador	70	365	78	343	73	373
5	Yamayka	53	410	67	377	62	403

6	Falastin	75	349	70	366	74	369

Ayon bo‘lganidek, ilk bor ishtirok etgan mamlakatlar natijasi yuqori emas, ammo ularning natijasi mamlakatimiz natijasidan yaxshiroq, ya’ni o‘qish savodxonligi bo‘yicha Mongoliya 425 ballni, O‘zbekiston 364 ballni olgan.

Xalqaro tadqiqotlarga o‘quvchilarni tayyorlashda ularning eydetik xotirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Eydetik xotira – bu tashqi qo‘zg‘atuvchi bilan his-tuyg‘u a’zolarining qo‘zg‘atilishi natijasidir. Eydetik obraz va tasavvur orasidagi o‘xshashlik shuki, ular biron ta’sir o‘tkazadigan narsalar yo‘qligida ham hosil bo‘lib, oddiy tasavvurga mutlaqo sig‘maydigan darajada detallashtirilgan ko‘rgazmaliligi bilan ajralib turadi [3,328]. Turli topshiriqlar o‘quvchilarda aynan ushbu jarayonning tasavvurda paydo qilinishi orqali javob beriladigan topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Xotira deyilganda eslash va keyinchalik esga tushirish jarayonini anglatsa-da, eydetik xotira kelajakni bashorat qilish qobiliyatini ham namoyon etishi mumkin. Ushbu qobiliyati shakllantirilgan o‘quvchilar esa turli test topshiriqlarni bajara olish imkoniga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda tanish katta hayotiy ahamiyatg ega hisoblanadi. Agar insonlarda tanish mexanizmi ishlamas, har bir ma’lumotni yangi deb qabul qilgan bo‘lar edi. Ya’ni o‘quvchilarda topshiriqlarni amaliy topshiriqlar, darslikda mavjud mashqlar va turli ta’limiy texnologiyalar yordamida taniy olish darajasiga olib kelish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro tadqiqotlar o‘quvchilarni shaxs sifatida tarbiyalab, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishda asos bo‘luvchi ko‘nikmalarni shakllantirish va baholashni maqsad qilgan. Andreas Shlayerning fikricha, kambag‘allikni faqat ifatli ta’lim bartaraf eta oladi. Xususan, o‘quvchilar va mamlakatimizning rivojlanishi sifatli ta’lim berishga bog‘liq. Sanoat, ishlab chiqarish, qurilish, tibbiyot kabi sohalarning rivojlanishi ta’limga bog‘liq bo‘lib, ta’lim esa bevosita o‘quvchilarning amaliy saloxiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorlanish va unda ishtirok etish ana shunday jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko‘ra tadqiqot ko‘nikmalarining 6 darajasi bo‘lib, ushbu darajalar topshiriqqa beriladigan ballarga ham ta’sir qiladi. 1-daraja ikki toifaga: 1 a va 1 b toifaga ajratilgan, ya’ni bunda 1 a darajali topshiriqlar o‘quvchidan yaqqol ko‘rsatib berilgan alohida ma’lumotlarni topishi, muayyan mavzuga oid matnda keltirilgan muallif maqsadi, shuningdek, matnning g‘oyasini tushunishi yoki matndagi ma’lumot va hayotiy, umumiy bilimlarni bir-birga bog‘lashi talab etiladi. Xususan, matnda topshiriq uchun kerakli ma’lumot ajralib turadi va ba’zan bir-biriga zid ma’lumotlar keltiriladi. O‘quvchilar topshiriqdagi shar tva matndagi uning javobini osongina moslashtiradi. 1 b darajada esa o‘quvchilar hikoya yoki sodda bo‘lgan ma’lum matndagi sintaktik jihatdan oddiy va hajman qisqa tuzilgan matnda yaqqol ko‘rinib turgan alohida ma’lumotlarni topa oladi. Bu darajaga mansub matnlarda odatda o‘quvchilarga yordam beradigan ko‘rsatmalar beriladi. Bu yordamni ma’lumotni takror kelishidan, chizma va tasvirlardan bilib olish mumkin. Matnlarda munozarali ma’lumotlar kam uchraydi. 1b-darajaga mansub o‘quvchilar bir-biriga mazmunan yaqin ma’lumotlarni bir-biriga sodda tarzda bog‘lash orqali matnlarni talqin qila oladi. 2- darajaga kiruvchi o‘quvchilar bir qancha talablarga javob bera olishi mumkin. Matndan past ko‘rsatkichli xulosa chiqarsa-da, osonroq anglashiladigan ma’lumotlarni topadi. Ular orasidagi bog‘lanishni his qiladi. Topshiriqni chuqur bo‘lmasa ham qiyoslab, zidlay oladi, shuningdek, ular orasidagi bog‘lanishni tushunadi. Ushbu darajadagi topshiriqlar mulohaza yuritishga o‘quvchidan shaxsiy tajriba va munosanbatlariga tayanib, matnga oid yoki unga oid bo‘lmagan bilimlar orasidagi o‘xshashliklarni yoki tafovutlarni aniqlaydi. 3-daraja guruhiga mansub o‘quvchilar bir qator tamoyillarga asosan tuzilgan bir necha ma’lumotlar orasidagi bog‘lanishni topadi va ularning ma’nosiga tushunishga harakat qiladi. Shuningdek, ular matnning asosiy g‘oyasini aniqlash, so‘z yoki iboraning ma’nosini talqin qilish yoki bog‘lanishni tushunish uchun matnning ayrim qismlarini umumlashtiradi. O‘quvchilardan matndagi ma’lumotlarni qiyoslash, zidlash yoki tasniflashda qatnashadigan qator jihatlarga e’tibor qaratadi. Aksar hollarda talab etilgan ma’lumot ilg‘ab olish

oson emas, bundan tashqari matnda bir necha zid ma’noli ma’lumotlar mavjud bo‘ladi yoki mazmunga nisbatan noto‘g‘ri talqin etilgan yoki mavjud g‘oyalarga zid bo‘lgan g‘oyalar kabi boshqa qarama-qarshiliklar keltiriladi. 3-darajali o‘quvchilar yuqorida keltirilgan shartlarni aniqlay oladilar. 4-darajaga mansub o‘quvchilar berilgan ma’lumotni topib, tartibga soladi. Shuningdek, ular butun bir matn bilan ishlash orqali uning alohida qismining tilga oid nozik jihatlarini talqin qiladi. Boshqa ta’riflashga oid topshiriqlarda o‘quvchi noma’lum matnda berilgan kategoriyalarning tushunish va qo‘llash ko‘nikmasini namoyon qiladi. Bundan tashqari, bu darajadagi o‘quvchi matnni tanqidiy baholash yoki u haqida mulohaza yuritish uchun rasmiy va ba’zan umumiy bilimlaridan foydalanadi. O‘quvchi shakli yoki mazmuni noma’lum bo‘lgan murakkab yoki katta hajmdagi matnlarni to‘g‘ri tushunish ko‘nikmasini ko‘rsatishi lozim. 5-darajaga mansub o‘quvchi matndagi qaysi ma’lumot tegishli ekanini inobatga olib, murakkab tarzda berilgan ma’lumotni topib, tartibga sola oladi. Mazkur topshiriqlar o‘quvchidan muayyan bilim va tajribalarga tayanib, tanqidiy baholash yoki mulohaza yuritishni talab etadi. Talqin etish va ta’riflashga qaratilgan topshiriqlar shakli yoki mazmuni noma’lum bo‘lgan matnni to‘liq va batafsil tushunishni talab etadi. O‘qish savodxonligining barcha jihatlaridan kelib chiqib, ushbu darajada berilgan topshiriqlar odatda mavjud tushunchalarga qarama-qarshi bo‘lgan tushunchalar bilan ishlashni taqozo etadi. 6-darajaga mansub o‘quvchilar odatda batafsil va qisqacha xulosa chiqaradi, qiyoslay va zidlay oladi. Bunday o‘quvchilar bir yoki bir necha matnlarni to‘liq va batafsil tushunishini namoyish qiladi va matnlarda berilgan ma’lumotlarni umumlashtiradi. Topshiriqlarda o‘quvchidan mavhum tushunchalarni umumlashtirish va bir-birga zid ma’noli ma’lumotlardan iborat notanish g‘oyalar bilan ishlashni talab etadi. O‘quvchi turli mezonlar yoki dunyoqarashlarini hisobga olib, matn chegarasidan tashqarida murakkab tarzda idrok etish ko‘nikmasidan foydalanib, notanish mavzudagi murakkab matnni tanqidiy baholaydi. Mazkur darajada topshiriqlarni baholash va ajratib olish uchun kerakli shart matndan anglashilmagan ma’lumotlarga e’tibor qaratish va tahlil qilishdan iborat [4,63]. O‘quvchilarning ko‘nikmasidan kelib chiqib, aytish mumkinki, 5- va 6-darajadagi topshiriqlarni bajara olgan o‘quvchilar foizda nihoyatda kam va bu o‘quvchilar ta’lim sifati yuqori bo‘lgan mamlakatlarda tahsil oladilar.

O‘quvchilarning ko‘nikmasidan kelib chiqib, aytish mumkinki, 5- va 6-darajadagi topshiriqlarni bajara olgan o‘quvchilar foizda nihoyatda kam va bu o‘quvchilar ta’lim sifati yuqori bo‘lgan mamlakatlarda tahsil oladilar.

“XVI asrning 80-yillarida Buxoro hukmdori Abdullaxon II qurdirgan qadimiy suv ombori. Bu inshoot qoldiqlari Nurota tumani markazidan 65 km sharqda, Eski Oqchob qishlog‘i yaqinidagi Beklarsoy darasida hozirgacha saqlangan… Abdullaxon bandining to‘g‘oni slanes toshlaridan qurilib, tosh palaxsalari suvga chidamli maxsus ganch qorishmasi – qir bilan biriktirilgan. To‘g‘onning uzunligi asosida 73 m, yuqorisida 85 m, balandligi 14,5m. bunda suv bosimi hamda uning ag‘daruvchi kuchi hisobga olingan holda to‘g‘on asosining qalinligi 15,3 m, ustki qismi 4,5 m qilinib, zinapoya shaklida qurilgan. To‘g‘on oldida hosil bo‘lgan suv omborining uzunligi1,5 km, eni 75-125 m. Abdullaxon bandiga taxminan 1,2 mln. kubometr suv to‘plangan. Inshootdan quyida joylashgan Qamar, Oqchob, O‘rganjiy, Ravot, Jilontamgali va Soykechar qishloqlari atrofi sug‘orilib ozod etilgan. XVI asrda ana shu qishloqlar hududida taxminan 1,2 ming ga yer maydoni o‘zlashtirilgan”...[5,33]

Ushbu matn yaxlit matn sirasiga kiradi va bu matn bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlarning javobi 3-4-darajali bo‘lishi mumkin, ammo 5-6-darajali ballarni taqdim etolmaydi.



1-rasm. 2022-yil. Birlamchi daromadlar 70,2 % hisobida, transferlardan olingan daromadlar 29,8 % hisobida.



2-rasm. 2023-yil. Birlamchi daromadlar 73,3 % hisobida, transferlardan olingan daromadlar 26,7 % hisobida.

Savollar.

1. Yil davomida transferdan olingan daromadlar oshirildimi?

Javob: Yo‘q.

2. Birlamchi daromadlar orasida bir yil davomida eng ko‘p o‘sishni qayd etgan sohani yozing.

Javob: Yo‘llanma ishchilarning daromadlari.

3. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning bir yil davomida o‘sishini aniqlang.

Javob: 1.

Xulosa. Xalqaro tadqiqotlarda asosiy maqsad bilimni baholash emas, balki ko‘nikmalarni baholashdan iboratdir. Shunga ko‘ra, o‘quvchilar ko‘nikmalarini baholashning 6 darajasi ishlab chiqilgan. O‘quvchilar ushbu darajalarga muvofiq yuqori yoki quyi miqdorga ega bo‘lgan ball bilan baholanadi. Ushbu jarayonga tayyorlashda xalqaro tajribalar topshiriqlarni muntazam bajarish o‘quvchilarda fikrlash va anglashni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/14/education/ (murojaat sanasi 22.01.2021)
2. https://www.oecd.org/publication/pisa-2022-results/ (murojaat sanasi 12.01.2024)
3. Petroviskiy A.V. va boshqalar Umumiy psixologiya Toshkent O‘qituvchi 1992, 328-bet.
4. Tarjimon Tursunov E. PISA- 2018 O‘qish savodxonligi qamrov doirasi, “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”, T:.- 2021. 90 b, 63-bet
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, I tom. O‘ME davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 33-34-bet.
6. PISA- 2018 o‘qish savodxonligi qamrov doirasi. “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi” TOSHKENT — 2021.
7. Xalqaro tadqiqotlar (jurnal). https://uz.wikiaro.ru/wiki/International_Studies.
8. Yusupova Sh. Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. Ma’ruza matn.
9. “PISA” 2009//https://www.oecd.org/”PISA”products/46619755.pdf
10. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2020. - 252 b.

G.Nabijonova
Namangan muhandislik-qurilish instituti
“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi 1-kurs doktoranti

QURUVCHI-MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI XORIJIY TILLAR ASOSIDA MUTAXASSISLIK FANINI O‘QITISH METODIKASINING NAZARIY MASALALARI

Annotatsiya. *Quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetensiyasini xorijiy tillar asosida mutaxassislik fanini o‘qitish metodikasi, zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Ushbu metodika quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi: nazariy va amaliy masalalar. Quyidagi tadqiqotda nazariy va amaliy masalalar batafsil ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so’zlar: *lingvistik tahlil, didaktik tahlil, amaliy mashg’ulot, muloqot, o‘quv reja, dastur, baholash, terminalogiya.*

Аннотация. *Методика обучения профессиональной компетентности строителей-инженеров на основе иностранных языков является одним из важных аспектов современной системы образования. Данная методология включает в себя следующие основные аспекты: теоретические и практические вопросы. Теоретические и практические вопросы подробно рассмотрены в следующем исследовании.*

Ключевые слова: *лингвистический анализ, дидактический анализ, практическое занятие, общение, учебный план, программа, оценивание, терминология.*

Annotation. *The methodology of teaching professional competence of construction engineers based on foreign languages is one of the important aspects of the modern education system. This methodology includes the following main aspects: theoretical and practical issues. Theoretical and practical issues are considered in detail in the following study.*

Key words: *linguistic analysis, didactic analysis, practical training, communication, curriculum, program, assessment, terminology.*

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida qo’yigan mavzuga doir ilmiy ishlar o’rganildi va tahlil qilindi. Jumladan,muhandisning professional xorojiy tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlik tizimi, xususiyatlari va muammolarini V.A.Bodrov, E.A.Klimov,

V.V.Kraevskiy, Yu.P.Poloxov, S.D.Smirnov, V.D.Shadrikov va boshqalar, kasbiy chet tilini tayyorlash nazariyasini rivojlantirishga V.F. Aitov, O.A.Artemyeva, N.I. Gez, M.G.Evdokimova, O.Yu.Iskanderova, Z.I.Konnova, O.G.Oberemko, P.I.Obraztsov, I.I. Xaleeva hamda, o’zbek olimlarining ham ilmiy ishlari o’rganildi va ularning g‘oyalaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy masalalar: Xorijiy tillar o‘qitishida nazariy bilimlar, metodologik asoslar, o‘quv rejalari va dasturlari ishlab chiqilishi.

Amaliy masalalar: O‘quvchilarning xorijiy tillarda muloqot qila olishlari, mutaxassislik sohasidagi muammolarni hal qilish uchun zarur ko‘nikmalarni egallashlari.

Natijalar va baholash.Talabalar bilim va ko‘nikmalarini baholashda diversifikatsiyalashgan yondashuvni qo‘llash. O‘quv jarayonining samaradorligini o‘lchash va takomillashtirish. Ushbu metodika quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularni global mehnat bozorida raqobatbardosh qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Ta'lim jarayonida xorijiy tillarni samarali o‘qitish, muhandislik sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetensiyasini xorijiy tillar asosida o‘qitish jarayonida nazariy va amaliy masalalar muhim o‘rin tutadi. Keling, ularni batafsil ko‘rib chiqamiz. Nazariy masalalarga to’xtaladigon bo’lsak,

O‘quv dasturlari va rejalari: Xorijiy tillar va mutaxassislik fanlari uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqish. Ushbu dasturlar talabalar uchun til va texnik bilimlarni integratsiyalashgan holda taqdim etishi kerak.

Terminologiya: Qurilish va muhandislik sohasida ishlatiladigan terminlarni o‘rganish. Bu terminlarning tarjimasi va ulardan foydalanish qoidalarini tushuntirish. **Pedagogik metodlar**: Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha zamonaviy pedagogik metodlar (masalan, kommunikativ yondashuv, loyiha asosidagi ta'lim) va ularning qo‘llanilishi.

O‘qitish jarayonining nazorati: Talabalarning o‘zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish usullari, shu jumladan, testlar, imtihonlar va loyiha ishlari.

Lingvistik va didaktik tahlil: O‘qitilayotgan materialning lingvistik va didaktik jihatlarini tahlil qilish, uning samaradorligini baholash.

Muommoning amaliy masalalari esa, Praktik mashg‘ulotlar: Talabalarning amaliy ko‘nikmalarini oshirish uchun loyiha ishlari, simulyatsiyalar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish. Masalan, guruhlar bo‘lib muhandislik loyihalarini ishlab chiqish. Muloqot va tadbirlar**:** Talabalarni xorijiy tillarda muloqot qilishga rag‘batlantirish. Texnik seminarlar, konferentsiyalar yoki vebinarlarda qatnashish imkoniyatlarini yaratish**.** O‘quv resurslari**:** Zamonaviy onlayn resurslardan foydalanish, masalan, video darslar, veb-saytlar va mobil ilovalar orqali amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish. Xorijiy amaliyot**:** Talabalarni xorijiy mamlakatlarda amaliyot o‘tashga jo‘natish, bu orqali ularning professional ko‘nikmalarini rivojlantirish. Baholash va qayta aloqa**:** Talabalar tomonidan olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliy baholash. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida muntazam ravishda qayta aloqa o‘rnatish. Nazariy va amaliy masalalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli hal etilishi talabalarni xorijiy tillarda samarali o‘qitish va ularning kasbiy kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari bir vaqtning o‘zida rivojlanadi.

Tahlil va natijalar. Lingvistik va didaktik tahlil, xorijiy tillarni o‘qitish va mutaxassislik fanlarida qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu sohada bir qator olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlari va metodologiyalari bilan mashhur. Keling, ba'zi muhim olimlar va ularning ishlari haqida qisqacha ma'lumot beraylik. **Lev Vygotskyning asosiy g‘oyalari**: Vygotsky, o‘rganish jarayonida ijtimoiy muloqot va kontekstning ahamiyatini ta'kidladi. U "Yaqin rivojlanish zonasini" (ZPD) tushuntirib, talabalar o‘qituvchi yoki boshqalar yordamida o‘z qobiliyatlarini oshirishlari mumkinligini ko‘rsatdi. Bu g‘oyalar lingvistik va didaktik tahlil uchun asosiy yondashuvlarni taqdim etdi. **Noam Chomskyning asosiy g‘oyalari**: Chomsky, tilning tabiati va

inson miyasi o‘rtasidagi aloqani o‘rganish orqali til o‘rganish jarayonining nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Uning "universal grammar" (umumiy grammatik) konsepsiyasi xorijiy tillarni o‘qitishda tilning strukturasini tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv til o‘qitishda lingvistik tahlilning ahamiyatini oshirdi. **Richard Schmidtning asosiy g‘oyalari**: Schmidt "noticing hypothesis" (e'tibor berish gipotezasi) orqali talabalar o‘qish va yozish jarayonida tilni tushunishi uchun e'tibor berish zarurligini ta'kidladi. U e'tibor berish tilni o‘rganishdagi muhim omil ekanini ko‘rsatdi. Bu nazariya xorijiy tillarni o‘qitishda e'tiborni qanday oshirish va talabalar o‘rtasida til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. **David Nunning asosiy g‘oyalari**: Nunan, til o‘qitishda interaktiv va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. U talabalarning faol ishtiroki va o‘zaro aloqalarini rivojlantirish orqali o‘qitish jarayonini yaxshilashni maqsad qiladi. Nunan o‘z ishlarida didaktik tahlil va metodologiyalarni integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqadi. **H. Douglas Brownning asosiy g‘oyalari**: Brown, xorijiy tillarni o‘qitishda til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Uning ishlari didaktik tahlilni yanada kengaytiradi va talabalarning madaniy kontekstda tilni qanday o‘rganishini tushunishga yordam beradi. U o‘qitish jarayonida madaniy omillarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Lingvistik va didaktik tahlil sohasidagi olimlarning ishlari xorijiy tillarni o‘qitishda nazariy va amaliy yondashuvlarni taklif etadi. Ular o‘qitish jarayonida talabalar qobiliyatlarini rivojlantirish, tilni samarali o‘rganish va pedagogik metodlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu olimlarning g‘oyalari o‘qituvchilarga talabalarning ehtiyojlariga moslashish va o‘qitish jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.

David Nunan xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish bo‘yicha yetakchi olimlardan biri bo‘lib, uning ishlari ta'lim metodologiyalari va til o‘rganish jarayoniga yangi yondashuvlar kiritishga qaratilgan. Quyida uning ilmiy ishlari va g‘oyalari haqida qo‘shimcha ma'lumotlar keltiriladi. Nunan, til o‘qitishda interaktiv va faol o‘rganish yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydi. U o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari va hamkorlikda o‘rganishlari orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Nunan, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda talabalar ehtiyojlarini hisobga olishning ahamiyatini ta'kidlaydi. U, shuningdek, amaliy va kontekstual materiallarning qo‘llanilishi orqali o‘quv jarayonini yanada samarali qilishni maqsad qiladi.. Nunan, loyiha asosidagi o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali talabalarga muammolarni hal qilish va real hayotiy vaziyatlarda til ko‘nikmalarini qo‘llash imkoniyatlarini beradi. Bu yondashuv, talabalarga tilni o‘rganishda ko‘proq motivatsiya va ishtiyoq bag‘ishlaydi.. Nunaning eng mashhur asarlaridan biri "Language Teaching Methodology" bo‘lib, unda xorijiy til o‘qitish metodlarining nazariyasi va amaliyoti haqida batafsil ma'lumot beriladi. Bu asar, o‘qituvchilar va talabalar uchun qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.. Nunan, xalqaro ta'lim muammolariga ham e'tibor qaratadi. U global kontekstdagi til o‘rganish jarayonlarini o‘rganadi va turli madaniyatlar va tillar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tahlil qiladi. U o‘rganish nazariyalari, jumladan, konstruktivizm va sotsial-konstruktivizm tamoyillarini o‘qitish jarayoniga tatbiq etadi. Bu, talabalarning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda qurishlariga imkon beradi.

Nunan ko‘plab amaliy tadqiqotlar o‘tkazib, xorijiy tillarni o‘qitishdagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan yondashuvlarni sinovdan o‘tkazgan. David Nunaning ishlari xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga qaratilgan. Uning g‘oyalari o‘qituvchilarga talabalarning ehtiyojlariga mos keladigan va real hayotga yaqin vaziyatlarni o‘z ichiga olgan o‘qitish usullarini qo‘llashda yordam beradi. David Nunaning "Language Teaching Methodology" asari, tilni o‘qitish bo‘yicha metodologiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. Ushbu asar, mutaxassislar uchun muhim qo‘llanma hisoblanadi. Shuningdek, nomutaxassislar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Qurilish sanoati uchun mutaxassislar tayyorlash vazifasi nafaqat sohaning kadrlar siyosatida, balki O’zbekistonda ham ustuvor vazifalardan biridir. So'nggi o'n yil ichida qurilish institutlari kadrlar tayyorlash masalalarida ayniqsa faol bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, qurilish sanoati

uchun yangi turdagi mutaxassislarni tayyorlash jahon qurilish xizmatlari bozori rivojlanishining tez o'zgaruvchan sharoitlarida xalqaro faoliyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Yaqin kelajakda qurilish kompaniyalariga nafaqat kommunikativ kompetentsiyaga, balki chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyaga ega bo'lgan yosh istiqbolli mutaxassislar kerak bo'ladi. Bugungi kunda qurilish oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish uchun CEFRni shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'limning Davlat Ta'lim Standarti doirasida an'anaviy o'quv dasturlari bilan bir qatorda, qurilish universitetlari kompaniyalarning kompetentsiya modellarida mustahkamlangan talablar asosida qurilish va muhandislik ta'limi uchun qo'shimcha ta'lim dasturlarini ishlab chiqmoqdalar va amalga oshirmoqdalar .

O‘zbekistonning geografik xususiyatlari uning bunyodkorlik va shaharsozlik salohiyatini ro'yobga chiqarish nuqtai nazaridan mamlakatning raqobatbardosh ustunligini rivojlantirishda qurilishning ustuvor ro’lini belgilaydi. Qurilish sohasi O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarini ta’minlash va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta'minlash uchun moddiy asos bo'lib, mamlakatni jahon hamjamiyati bilan bog'laydi. Soha vakillariga xorijiy tillarni o’qitish sohaning rivojlanishiga va yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini yanada oshiradi va ko’prik vazifasni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ismoilov, R. (2019): "Muhandislik ta'limida ingliz tilining ahamiyati."
2. Xamdamova, S. (2022): "Qurilish sohasida til o'rganish jarayonlarini samarali tashkil etish."
3. Toshpulatov, A. (2023): "O'qitish metodlari orqali professional ko'nikmalarni rivojlantirish."
4. **Stepanova, T. (2021):** "Muhandislik sohasida professional tilni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Emelyanova. -T.A. Nolingvistik oliy o'quv yurtlari talabalariga kasbiy yo'naltirilgan chet tilini o'rgatishda interfaol kompetentsiyani shakllantirish: dissertatsiya referatÿ. dis. ...kand. ped. Fanlar.
6. https://wwww.dislib.net/.
7. https://diss.natlib.uz/.

D.Nuriddinova
o‘qituvchi
University of Bussines and Science

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: *Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, pedagogik jamoada muvaffaqiyatli kasbiy moslashuv sharti sifatida shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.*

Kalit so‘zlar: *Shaxslararo munosabat, an’ana, urf-odat, kompetensiya, kooperatsiya, jamiyat, axloq-odob, monolog, dialog, polilolog, muloqot.*

Аннотация: *Данная статья требует выяснения педагогических и психологических особенностей развития культуры межличностных отношений у будущих учителей, совершенствования технологии развития культуры межличностных отношений как условия*

успешной профессиональной адаптации в педагогическом коллективе.

Ключевые слова: *Межличностные отношения, традиция, традиция, компетентность, сотрудничество, общество, этика, монолог, диалог, полиология, общение.*

Abstract: *This article requires clarifying the pedagogical and psychological features of the development of the culture of interpersonal relations in future teachers, improving the technology of developing the culture of interpersonal relations as a condition for successful professional adaptation in the pedagogical team.*

Key words: *Interpersonal relationship, tradition, tradition, competence, cooperation, society, ethics, monologue, dialogue, polyology, communication.*

Jamiyat rivojining yangi bosqichida boshlang‘ich ta’lim oldida turgan muhim vazifa o‘qitish tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishdir. Bu vazifa esa, o‘z navbatida o‘qitishning an’anaviy tizimini modernizatsiyalash uchun o‘quvchilarda kooperatsiya (jamoada, komandada ishlash) kompetentsiyasi va shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi.

2023-yil avgust oyida zamon talabi asosida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyov tomonidan maktab ta’limi sifatini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” kompetentsiyasiga mos ravishda ishlab chiqildi. Ilk marotaba 1-sinf o‘quv rejasiga “Informatika va axborot texnologiyalari” fani kiritilib, bu yondashuv bolalarda texnologiyadan foydalangan holda mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va jadal rivojlanib borayotgan yoshlarni raqamli dunyoga tayyorlash va ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Chunki jamiyatni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati kommunikativ tabiatga ega bo‘lib, unda muloqot, o‘zaro bir-birini tushunish, hamkorlik, kommunikativ refleksiya, dialogik munosabat kabi muloqot madaniyatining tarkibiy asoslari o‘z aksini topadi.

Shaxslararo kommunikatsiya jarayonida muloqot me’yorlari va qoidalariga amal qilish talab etiladi. Biroq mazkur fenomenni o‘zgarmas, statik hodisa sifatida talqin qilmaslik lozim. Jamiyatning ijtimoiy-axloqiy taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklar, tabiiy munosabat, umuminsoniy qadriyatlarning determinallashuvi bilan bog‘liqlikda shaxslararo munosabatda ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Shaxsning atrofdagilar va moddiy borliq bilan o‘zaro munosabati unga nafaqat ichki quvvatlarni faollashtirish va safarbar qilish, balki undan tarkibi, mazmuniga hamda ahamiyatli fikriy nuqtai nazardan ham foydalanish imkonini beradi. Mazkur jarayonga kirishish shaxsning his-tuyg‘ulari, fikrlarini o‘zaro qiyoslashiga imkoniyat yaratadi. Bu esa uning o‘z-o‘zini anglashi, boshqarishi va namoyon qilishi uchun yetarlicha asosni vujudga keltiradi.

Tadqiqot obyekti nuqtai nazaridan “muloqot”, “munosabat”, “o‘zaro munosabat”, “shaxslararo munosabat” tushunchalar mazmunan bir biri bilan bog‘liq bo‘lib, shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Munosabat mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin: ma’lumotlarni yetkazish; sheriklarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi; sheriklarning o‘zaro aloqalari. Muloqot jarayon sifatida quyidagi o‘ziga xosliklarga ega: yaxlit, kooperativ faoliyat, informatsion aloqa, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish, o‘zaro munosabat, o‘zaro bir-birini tushunish. Muloqot jarayonida har bir inson doimiy ravishda ob’ekt va sub’ekt rolini bajaradi. Sub’ekt sifatida u muloqot jarayonida boshqa kishilar haqida ma’lumotga ega bo‘ladi, unga nisbatan ijobiy munosabat bildirishi yoki befarq bo‘lishi

mumkin. O‘z navbatida shaxs muloqot jarayonida bilish ob’ekti sifatida xizmat qiladi.

Muloqot o‘z mohiyatiga ko‘ra teng huquqli suhbatdoshlarning o‘zaro fikr almashinish jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayon mantiq qonuniyatlari asosida shakllanib boshqalar fikrini idrok etish ehtiyojiga zaruriyat qoldirmaydi. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o‘zlashtirish va o‘z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichki olamiga aylanadi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o‘zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi.

Muloqot – odamlar o‘rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Shaxs – ijtimoiy munosabat mahsuli deyilishining eng asosiy sababi – uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o‘zaro ta’sir doirasida bo‘lishini anglatib, bu shaxsning eng etakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Insoniy munosabatda dastlab odamlar o‘rtasida roy beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi.

Odamlar muloqotda bo‘lishgani, ular o‘rtasidagi munosabat tajribasi ortgan sari ular o‘rtasida umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi.

V.E.Kemerovning fikricha, o‘zaro munosabat – narsalarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatishini ifodalovchi hodisa bo‘lib, u turli ob’ektlar orasidagi farqlarni aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, inson hayoti va faoliyatiga bog‘liq hodisalar uning bilish jarayonlarini rivojlantirishga ham asos yaratadi[7].

Shaxslararo munosabat esa ijtimoiy jarayonlarda qisqa to‘qnashuvlar va uzilishlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘zaro munosabat dastlabki emas, balki muntazam takrorlanuvchi vaziyatlar bo‘lib, barqarorlikni ta’minlashning ijtimoiy shakli hisoblanadi. Xuddi mana shuni hisobga olgan holda o‘zaro munosabatni o‘rganishda alohida munosabat haqida emas, uning muayyan tizimlari, ketma-ketligi, aniq vaqt va zamonda jarayonlarning muntazamliligi va izchilligini ta’minlash xususiyatlari haqida yaxlit tarzda fikr yuritish talab etiladi.

Shu tariqa, shaxslararo munosabatda insoniy hodisalarning o‘ziga xos shakllari namoyon bo‘ladi. Ular sirasiga o‘zaro munosabatga kirishuvchi tomonlarning o‘zgarishi, ularning aloqadorligi, mustaqil rivojlanishning o‘zaro moslashishi kabilar kiradi.

D.Lyuis va I.Ya.Lernerlarning fikrlariga ko‘ra shaxslararo munosabat uchta asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, monologik –sub’ekt fikrining yakka tartibda bayon etishi. Bu o‘rinda sub’ekt fikri muloqotga kirishuvchining fikriga nisbatan ustunlik qiladi; dialogik muloqotda munosabatga kirishuvchi har ikkala shaxs teng aloqaga kirishadilar; polilogik, ko‘pyoqlama muloqot bir necha sub’ekt o‘rtasida bo‘ladigan jarayon hisoblanadi. Bunday muloqot jarayoni shaxslararo munosabatning ko‘pqirrali holati bo‘lib, bunda o‘zaro bir-birini anglash muloqot mavzusining dolzarbligi, sub’ektlarning dunyoqarashi, ijtimoiy holati, ma’naviy dunyosi, fikrlar yakdilligi, maqsadning xarakteri muhim rol o‘ynaydi[8].

Shaxslararo munosabat madaniyati o‘zida kommunikativ-integrativ, funksional-rolli va sub’ektiv-guruhiy komponentlarni aks ettiradi.

[7] Кемеров В. Е. Взаимодействие. // Современный философский словарь 2-е изд., испр. и доп. 1998. – С.135 - 136.
[8] Льюис Д., Лернер И.Я. Формирование и развитие профессионалов в условиях современного облазовательного пространства. – М.: Издательство университета Дружба народов, 2006. – 89 с.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muloqoti o‘zida ikkita qarama-qarshi tendensiyani aks ettiradi: bir tomondan hamkorlik, integratsiya, ikkinchi jihatdan raqobat, differensiatsiya. Muloqotning bunday turi ko‘pchilik kishilarni o‘zida birlashtiradi, biroq u o‘zining ichki va tashqi aloqalarida tezda uyg‘unlashuv kuzatiladi. Bir vazifani muvaffaqiyatli hal etib, o‘qituvchilar ikkinchi bir muammoni aniq ko‘rsatmasiz to‘liq bartaraf eta olishmaydi. Hamfikrlilik o‘zlikni saqlash va eski munosabatni qayta yo‘lga qo‘yish asosida ishga tushadi[9].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dialogik munosabatning yangi didaktik usullari va vositalari bilan tanishtirish jarayonida ularning muammo yechimlarini o‘zlari topishga intilishlari zarurligi tavsiya etiladi. Buning uchun o‘quv dasturlari va bilish jarayonlarini tashkil etish mexanizmlari shunday qurilishi kerakki, ular talabalarni topqirlik, izlanishlar doirasini kengaytirish, muhokamalar jarayonida yechimlarni mustaqil izlab topishga undashi lozim. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar bilan quyidagi ish shakllarini tashkil etish talab qilinadi. Ular: dialog, suhbat, munozara kabilar. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish jarayonlarini har bir obrazni idrok etish orqali ularning tasavvurini kengaytirishiga qaratgan holda tashkil etilishi lozim. Bunga muntazam takrorlanuvchi vaziyatlar misol bo‘la oladi. Buning uchun nafaqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining birgalikda ishlashlari, balki mashg‘ulotlarda o‘quv munozarasini vujudga keltiradigan vaziyatlarni ham tashkil etish talab etiladi.

Dialogga kirishuvchanlik I.Yu.Xoperskovaning ta’biricha, o‘quv-tarbiya jarayoni tavsifini ifodalab, o‘quvchilarni yangi ijtimoiy pedagogik vaziyatlarga olib kirish imkonini beradi[10]. Bunday vaziyatlar bir butun pedagogik jarayonga dialog ruhini bag‘ishlaydi. Dialog o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilgan hayotiy vaziyatlarning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llanilishi lozim. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar muntazam tarzda o‘qituvchining fikrlarini tinglashlari va anglashlari zarur. Ular o‘z atroflarida bo‘layotgan voqelik va moddiy olam bilan munosabatiga boshqalarning e’tiborini jalb qila olishlari kerak.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zaro munosabat doirasida suhbatdoshlar bir-birlarining ichki olamlariga singishlari natijasida ular orasida fikriy-qadriyatli munosabat vujudga keladi. Dialog orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonga xos ma’naviy yuksalish imkonini beradigan layoqatlarni egallashga intilish, o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarni dialogga o‘rgatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu tariqa, dialogga asoslangan munosabat haqida fikr yuritish o‘quv-tarbiya jarayonida samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki dialog talabalarga o‘zaro fikr almashinish, bir-birlarining his-tuyg‘ularini tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o’yin topshiriqlaridan foydalanish: Ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 1996.
2. X.Ibragimov, U.Yo’ldoshev, X.Bobomirzayev. Pedagogik psixologiya T2007.
3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» G’.G’. Oliy ta’lim (me’yoriy huquqiy va uslubiy xujjatlar to’plami). - Toshkent: 2004.
4. S. Matchonov va boshq. Boshlang’ich sinf o’qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. — T.: „Yangiyul poligraph service", 2008.

[9] Сластенин В. А. Социокультурные проблемы инновационной деятельности учителя. М.: Издательский Дом МАГИСТР-ПРЕСС, 2000. – 280 с.

[10]Хоперскова И.Ю. Научно-педагогические основы диалога в личностно ориентированном образовательном процессе: автореф. канд. пед. наук. – Ростов-н / Д., 2000. – 23 с.

5. M. Umarova, Sh. Hakimova. O’qish darslari (3-sinf o’qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: Cho’lpon, 2008.

G.Tileumuratova
Mustaqil tadqiqotchi
Qori Niyoziy nomidagi O`zbekiston pedagogika fanlari ilimiy-tadqikot instituti
Qoraqalpog‘iston filiali

QORAQALPOQ BOLALAR ADABIYOTINI O‘RGATISHDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TAFAKURIN RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK NAZARIY ASOSLARI

Rezyume: *Qoraqalpoq bolalar adabiyotining tadqiq qilinish muammosi hozirgi qoraqalpoq adabiyotshunoslik ilm-fanining eng dolzarb muammolarining biri hisoblanadi. Shu bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafukkirini rivojlantirshda, tafakkur tushinsaga to‘xtalib va olimlarimzning fikrlariga tahlil qildik.*

Tayinch so’zlar: *folklor, maktab, o’qituvchi, balalar, ádebiyat, badiiy-estetik, fikr, tafakkur.*

Резюме: *В статье проблема исследования каракалпакской детской литературы выражается как одна из наиболее актуальных проблем каракалпакского литературоведения. При этом мы остановились на понятии мышления и проанализировали мнения наших ученых по развитию мышления учащихся младших классов.*

Ключевые слова: *фольклор, школа, учитель, дети, литература, художественно-эстетическая, мысль, мышление.*

Summary: *The article deals with the problem of researching Karakalpak children's literature is one of the most urgent problems of Karakalpak literary studies. At the same time, we focused on the concept of thinking and analyzed the opinions of our scientists in developing the thinking of elementary school students.*

Key words: *folklore, school, teacher, children, literature, artistic-aesthetic, thought, thinking.*

Jahon adabiyotshunosligida bolalar adabiyotiga nazar tashlaganda milliy adabiyotlarning jamiyat oldidagi muqaddas burchi hisoblangan inson zotini ma’nan mukamallashtirish g‘oyalarini xususan, bolalar folklori va yozma adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning badiiy-estetik tamoyillariyu inson badiiy tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rnini o‘rganish hamda adabiyotning umuminsoniy va milliy qadriyatlarini aks ettirish darajasi va holatini baholash soha taraqqiyotini ta‘minlaydigan muhim omillardan biridir.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta‘limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratadi[4].

O‘zbekiston respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgach, jahon hamjamiyati orasida katta nufuzga ega bo‘ldi, beg‘araz demokratik huquqiy davlatga aylandi va iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy jihatlardan xalq turmushi butunlay o‘zgardi. Ammo xalq hayotining barcha jabhalaridagi taraqqiyot bir tekis, silliq tarzda amalga oshdi, deyish ancha mushkul. Ayniqsa, xalq ma’naviy yuksalishini ta’min etuvchi kitob o‘qishga bo‘lgan intilish va qiziqish bu davrda birmuncha susaydi.

Bu holat yoshlarimiz orasida, ayniqsa, kuchayib axborotni boshqa manbalardan olishga bo‘lgan intilish oddiy voqelikka aylandi. Shu sababli ham muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev: “Eng muhimi, farzandlarimizda yoshlik chog‘idan boshlab kitobga mehr quyish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri javob topish ko'nikmasini shakllantirishimiz, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor” [1], – deb takitdlagan edi. Zotan, kitob asrlar osha insoniyatni turli yot ta’sir va tajovuzlardan muhofaza qilib kelayotgan bebaho ma’naviy vositadir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlaboq, milliy mafkura xalq hayotini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiruvchi muhim tarbiyaviy kuch ekanligi e’tirof etilib, uni xalq ongini, e’tiqodini shakllantiruvchi hodisa deb qaraldi va bunga erishishda asosiy vosita badiiy adabiyot ekanligiga alohida urg‘u berildi. Darhaqiqat, jahonda inson qalbini egallashga bo‘lgan qizg‘in kurash ketayotgan hozirgi davrda bolalar adabiyotiga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Shu ma’noda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalaydigan, uni ma’nan yetuk, jamiyat va xalqqa nafi tegadigan, Vatanga fidokor, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq farzand qilib shakllantiradigan bolalar folklori va yozma adabiyotini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish adabiyotshunoslik fanida doim dolzarbligicha qolaveradi.

Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarida, ertaklarda, topishmoqlarda, tez aytishlarda va boshqa folklorlik janrlarda bolalar va o‘spirin yoshlarning etik va estetik tarbiyasiga, ularga ta’lim berishga yo‘naltirilgan g‘oyalar, badiiy to‘qimalar ko‘p. Ular bolalar adabiyotining vujudga kelishida birinchi bosqich vazifasini bajardi.

Umumiy bolalar adabiyoti degan tushuncha o‘zi nimani anglatadi? Dunyo bolalar adabiyoti qachon paydo bo‘lgan, bunda qaysi so‘z ustalarining asarlari tilga olingan? Shu savollarga javob berish orqali biz dissertatsiya ishimizning asosiy konseptsiyasini yaratamiz. Sababi, qoraqalpoq adabiyoti dunyo bolalar adabiyotining bir bo‘lagi. Shunday ekan, qoraqalpoq bolalar adabiyotida umumdunyo bolalar adabiyoti kontekstida fikr yuritgan to‘g‘ri bo‘ladi degan fikrdamiz.

Qoraqalpoq bolalar folklori juda boy, shuning uchun xam biz tadqiqot ishimizda bolalar o‘yini, uning bilan birga bajariladigan qo‘shiqlar, she’rlarning turlarini ko‘rib chiqib, misollar keltirishni, topishmoqlar, tez aytishlar bolalarning dunyoqarashini rivojlantirishga, ularni topqir, epchil bo‘lishga tarbiyalashini, shu bilan biga ertaklar o‘rtacha epic janr sifatida, fantastik, miflik obrazlar orqali bolalarning dunyoqarashini rivojlantirishini orttiradi.

Qoraqalpoq bolalar adabiyoti bugungi kunga qadar o‘z rijojining uzoq tarixiy bosqichlarini bosib o‘tdi va hozirgi bir tadqiqot obyekti sifatida olgan boshidagi qoraqalpoq bolalar adabiyoti deb ishonch bilan ayta oladigan yuqori badiiy-estetik darajaga yetdi. Atab aytsak, bu davrdagi qoraqalpoq bolalar adabiyotining rivojlanishida shu davrga qadar bolalarga oid badiiy meroslar milliy badiiy-estetik manba vazifasini bajaradi. Buning yaqqol misollari sifatida, erta zamondagi turkiy xalqlar adabiyoti bilan qoraqalpoq folkloridagi bolalar adabiyoti namunalarini, X-XVI asrlardagi qoraqalpoq folkloridagi bolalarga oid meroslarni, XVIII-XIX asrlardagi Jiyen jiraw, Kunxoja, Ajiniyazm Berdaq, Otesh va boshqa klassik adabiyot vakillarining bolalarga bag‘ishlangan asarlarini, shuningdek XX asrning 90-yillariga qadar qoraqalpoq bolalar adabiyotidagi S.Majitov, N.Dawqaraev, A.Shamuratov, M.Daribaev, S.Nurimbetov, J.Aymurzaev, I.Yusupov, T.Qayipbergenov, J.Dilmuratov, S.Abbazov, U.Xojanazarov, T.Matmuratov, S.Pirjanov, X.Saparov va boshqalarning bolalar hayotiga oid yozilgan ko‘p sonli qo‘shiq, hikoya povest, pyesalarini keltirishimiz mumkin.

XX asrning 20-30 yillariga kelib, eng dastlab bolalar poeziyasi o‘zining rivojlanish yo‘lini boshladi. Taniqli mutafakkir, yozuvchi Seyfulgabit Majitovning “Alifbo”, “Kattalar ta’limi”, “O’qish kitobi” darsliklarini tuzish bilan birga “O‘qishga kel”, “Akasidan ukasiga xat”, “O‘qish boshqa, o‘yin boshqa” va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan yana boshqa qo‘shiqlarida bolalarning psixologiyasiga mos o‘ylash, tafakkuri, ongi, darajasi maqsadga muvofiq

tasvirlanadi. Ularni yosh davrlarida o‘qib bilim olishga chaqiradi[3].

Qoraqalpoq bolalar adabiyotining tadqiq qilinish muammosi hozirgi qoraqalpoq adabiyotshunoslik ilm-fanining eng dolzarb muammolarining biri hisoblanadi. Rus, o‘zbek adabiyotshunoslik ilm-fanida bolalar adabiyoti juda keng tarzda tadqiq qilingan, ayrim bolalar yozuchi-shoirlarining ijodi ham o‘z oldiga monografik yo‘nalishda o‘rganilgan. Qoraqalpoq adabiyotshunoslik ilm-fanida esa bolalar folklori va yozma adabiyot masalalari boshqa xalqlarning adabiyotshunoslik ilmiga qiyoslaganda ochilmagan masala deb aytishga asos bo‘ladi. XX asrning 70-yillarida faqat I. Qurbanbaev, XXI asr boshlarida S. Qazaqbaevning ilmiy ishlarini ko‘rsatish mumkin. Biroq Qoraqalpoq bolalar adabiyotini boshlang‘ich sinflarda o‘qitish usullari obyekt sifatida o‘rganilmagan.

Shu bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafukkirini rivojlantirshda, tafakkur tushinsaga to‘xtalib va olimlarimzning fikrlariga tahlil qildik.

Rsixologlardan E. I. Boykon, M.V.Gamezo, A.V.Petrovskiy, M.G.Davletshin, E.Goziev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, E.Z.Usmonovalar tafakkur jarayoni bo‘yicha olib borayotgan izlanishlarida eng avvalo fikrlashning anglanganlik va ijtimoiylik tamoyiliga ko‘proq e’tiborini qaratib, mustaqil, erkin fikrlay olish qobiliyati ijtimoiy munosabatlarga bog‘liqligiga e’tibor berishgan.

Psixologiya fanida tafakkurga nisbatan berilgan qator tushunchalar mavjuddir. Jumladan, protsess, fikr yuritish faoliyati, prognoz qilish, anglashilgan bilimlar aql mezoni, faqimlilik va boshqalar, yuritilgan fikrlarga suyangan holda, tafakkurga qo‘yiladigan shartli voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik protsess, ijtimoiy sababiy boshlanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir. Tarifda tafakkurning eng muhim xususiyatlari va funksiyasi sanab o‘tilgan, ya’ni so‘z(fikr) bilan umumlashtirilib, bevosita, ijtimoiy sababiylik, yangilik ochish, prognoz qilish, protsess, faoliyat va boshqalar. Bizningcha, berilgan ta’rifdan kelib chiqqan holda tafakkur predmetini aniqlashga harakat qilinsa, maqsadga muvofiq ish qilingan bo‘lar edi. Tafakkur predmetini belgilash mashaqqatli uning murakkab bilish protsessi ekanligini yana bir karra tasdiqlab turibdi[2].

Adabyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 469.
2. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. Тошкент «Ўқитувчи» 1990. 177-б.
3. Қазахбаев С.С. XX аср охири – XXI аср бошларида қорақалпоқ болалар адабиёти эволюцияси, жанрлар таркиби ва поэтикаси. Дисс… доктора. филол. наук. –Нөкис: 2019. – 250 б.
4. https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida.

MAZMUNÍ

RUWXIYLIQ HÁM TÁRBİYA 4

R.Yernazarova, A.Alimbetova, L.Allambergenova. Yangi O‘zbekistonda professional ta’lim tizimidagi muammo va yechimlar……..4

B.Bekniyazov, J.Abdiev. Tarixiy-madaniy meroslarimizning ta’lim-tarbiyaviy va axloqiy manbalari……...9

R.Yernazarova, I.Utemuratov, K.Mambetkasimova, R.Atajanov. Hozirgi davrda yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi.....13

N.Suyarov. Etnomadaniy kompetentsiyaning konteksti va ahamiyati: etnomadaniy kompetentsiya ta’rifi……..17

ANÍQ HÁM TÁBIYIY PÁNLERDI OQÍTÍW.....22

A.Allambergenov. O‘qituvchilarni zamonaviy dasturlar asosida o‘qitish texnologiyasi……22

G.Genjemuratova. Oliy ta’lim muassasalarida organik kimyo fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasining nazariy asoslari……..29

PEDAGOGİKA HÁM PSIXOLOGIYA.....35

У.Калиллаева, Т.Кайпназаров. Научно-методические проблемы развития спортивной борьбы.....35

DENE TÁRBIYA HÁM SPORT.....42

K.Yarashov, V.Aripova. Nuqsoni bo‘lgan bolalarning adaptiv jismoniy tarbiyasiga ota-onalarni jalb qilish usullari.....42

K.Kaliev. Methodology for determining the training and competitive effectiveness of volleyball players……..47

U.Mulladjanov. Qisqa masofalarga yuguruvchilarni jismoniy rivojlanganligi, tayyorgarlik darajasi va texnik tayyorgarligini tuzilishi.....50

N.Urazbaev, J.Torebaeva. The effectiveness of competitions and training in handball……...54

Х.Матназаров. Спортчилар заҳирасини тайёрлашда чет эл тажрибасини таҳлил қилиш……57

T.Djumaniyazova, Sh. Yuldashova, L. Kongratbaeva. Gimnastika mashg‘ulotlarini tashkıl etishda pedagogik tayyorgarlikni takomilllashtirishning ijtimoiy pedagogik omillari.....62

J.Berdimuratova. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarining jismoniy tarbiya qadriyatlarini shakllantirish xususiyatlari.....68

K.Baylepesov. Jismoniy tarbiya darslarida harakatlarga o‘rgatish uslublari va tamoyillari……..73

B.Tabınbayev. Voleybolshılardıń texnika-taktikalıq háreketleri……..77

Q.Serimbetov. Sportda marketing xízmetin shólkemlestiriwdiń teoriyalıq hám metodikalıq tiykarları.....80

R.Kadirimbetov. Qılıshpazlıq sport túriniń tarixı hám rawajlanıwı.....85
A.Orınbaev. Eshkak eshuvchilarning tezkor kuch tayyorgarligini rivojlantirishda samarali usul va vositalardan foydalanish.....89
D.Nurishov. Jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....92
A.Alimbetova, M.Bekmuratov. Jismoniy tarbiya va ta’lim jarayoniga harakatli (milliy) o‘yin vositasining pedagogik ta’sir xususiyatlari.....98
A.Alimbetova. Erkin kurashchilarni texnik harakatlarga o‘rgatishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasi.....101
B.Batyrov, A.Primbetov, A.Jaleliev. Effective construction of an individual plan for a novice bodybuilder……105
G.Baltabaeva. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga basketbol texnikasiga o‘rgatishning ilmiy-uslubiy asoslari……..111
И.Исламов. Сузувчиларнинг старт техникасини таҳлил қилиш ва баҳолаш.....114
A.Shopulatov. Jismoniy tarbiya va sport sohasida axloq mezonlari hamda ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish muammolari.....117
А.Хасанов. Спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантириш йўллари.....122
Р.Бурнашев. Эволюция предпосылок к индивидуализации подготовки квалифицированных бегунов на 400м и 800м.....125
N.Paluaniyazova. Yosh basketbolchilarnı jismoniy tayyorlash va uning mohiyati.....137
J.Berdimuratova. Xotin-qizlarning milliy madaniyati va hozirgi davr.....140
I.Abdullaev. Mini-futbol boyinsha studentlerdiń arnawli kúsh tayarliǵi…….143
С.Аллаяров. Подготовка волейболистов для различных возрастных Групп.....146
A.Kuralbaev, A.Jumaliev. Voleybolshilardı fizikalıq hám texnikaliq tayarlaw usılları.....150
Дж.Султамуратов, С.Сапаргелдиева. Қытай спортшыларын 2008-жылы пекин (ҚХР) қаласында өткен ххıх жазғы олимпиада ойынларына таярлаў тәжирийбесинен.....154
Q.Serimbetov. Bolajaq dene mádeniyatı oqítíwshílarında kásiplik etikalıq pazıyletlerdi qáliplestiriwdiń innovaciyalıq texnologiyası.....157
R.Beknazarov. Badmintonnıń sport túri sipatında payda boliw tariyxı hám ózine tán qásiyetlerı.....162
З.Болтаев, В.Шанк. 15-16 ёшли волейболчиларда йиллик цикллари бўйлаб ўтказилган анъанавий машғулотлар давомида махсус иш қобилиятининг тезкорлик-куч компонентларини шаклланиш динамикаси.....166
З.Яхшибоев. Сакраб ижро этиладиган техник усулларни шакллантиришда жисмоний сифатларнинг ўрни.....171

Л.Азимов. Дзюдо мусобақаларида энг кўп қўлланиладиган усуллар ва уларнинг аҳамияти.....176
G‘.Ernazarov. O‘quvchi yoshlarda harakat faolligning muammolari…….179
D.Norkulov. “Yetti qadam” dasturi asosida trenerlik faoliyatida tizimli yondashuv……..183
Т.Пахратдинова. Есап-китапқа үйретиўши қарақалпақ халық ойынлары (шүллик ойыны)……...188
S.Kamchiyev. Bo‘lajak jismoniy madaniyat muaxassislarini gimnatsika mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning milliy va xorij tajriba tahlili…….191
M.Shukurov. Yakkakurashchilarni texnik usullariga o‘rgatishda klaster uslubidan foydalangan holda takomillashtirish…….198
Н.Бобомурадов. Малакали парадзюдочиларнинг комплекс тайёргарлигини такомиллаштиришда ўқув-машғулот жараёнини режалаштириш услубиёти……..202
D.Salayev. O‘quv-mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligi tuzilishi dinamikasi……...207
A.Xolmatov. Sport maktablarida bolalarni dzyudo mashqlari yordamida jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish……...210
M.Yo‘ldoshev. O‘quv-mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligi tuzilishi dinamikasi……...212
M. Muxammadov. Futbol sport turi bilan shug‘illanuvchi 16-17 yoshli qizlar jamoasi darvozabonlarining texnik-taktik harakatlarini aniqlash samaradorligi….217
A.Safarov Voleybol sport turi va uning ahamiyati……...221
B.Xudoyberdiyev Jismoniy madaniyat jarayonida sport tayyorgarligini amalga oshirishni o‘ziga xos xususiyatlari.....223
У.Мулладжанов Qisqa masofalarga yuguruvchilarni jismoniy rivojlanganligi, tayyorgarlik darajasi va texnik tayyorgarligini tuzilishi.....226
X.Shoimqulov. Shaping a healthy lifestyle through plot-based movement games in primary education……...231
BILIMLENDIRIW MENEJMENTÍ HÁM ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW.....239
A.Raxmonov. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini boshqarishni pedagogik modellashtirish.....239
A.Boltaboyev. Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta’lim samaradorligi.....246
J.Yuldashev. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozitsiyasini rivojlantirish metodikasi.....251
M.Xushnazarova. Ijtimoiy pedagogik amaliyotni kasbiy, ijtimoiy faoliyat doirasida amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari.....255
M.Eshnazarova. Infografikaning nazariy asoslari va tamoyillari……258

A.Toshxonov. Rivojlantiruvchi ta’lim asosida boshlang‘ich sinflarda matematika kursini o‘qitishning ilmiy metodologik asoslari……264
N.Kambarov. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida o‘quvchilarni borliqni va san’atni idrok etishga o‘rgatish……268
FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH……...272
N.Ismadiyorova. Xalqaro tadqiqotlarda ko‘nikmalarning darajalari haqida....272
G.Nabijonova. Quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetensiyasini xorijiy tillar asosida mutaxassislik fanini o‘qitish metodikasining nazariy masalalari…….277
D.Nuriddinova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida……...280
G.Tileumuratova. Qoraqalpoq bolalar adabiyotini o‘rgatishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakurin rivojlantirishning pedagogik nazariy asoslari…….284

O‘ZBEKSTAN MÁMLEKETLIK DENE TÁRBIYASI HÁM SPORT UNIVERSITETI NÓKIS FILIALI

“DENE TÁRBIYASI HÁM SPORT XABARSHISI”

№5

Nókis -2024

Basıp shıǵarıwǵa juwapker:
A.Mambetnazarov

Mánzil: Nókis qalası Qaraqalpaqstan kóshesi №24

Tel: +998(61) 224-20-54, +998(61) 224-2773

E-mail: Nashriyod@uzdjtsunf.uz

www.uzdjtsunf.uz
science.uzdjtsunf.uz

Jurnalǵa kelgen maqalalar qayatrılmaydı, Jurnalda járiyalanǵan maqalalardan alınǵan úzindiler “Dene tarbiyası hám sport xabarshısı” jurnalınan alındi dep kórsetiliwi shárt. Jurnalda baspadan shıqqan maqalalardıń mazmunı, olarda keltirilgen maǵlıwmatlardıń durıslıǵına, grammatikalıq durıs ekenligine avtorlar juwapker.